O’ZBEKISTON
KONSTITUTSIYASI

“Zaytun nashriyoti”

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَٰنِ الرَّحِيمِ

Zaytun nashriyoti
2025 (1447)-yil

KONSTITUTSIYA ISLOM KO'ZOYNAGIDA

Ushbu kitob O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining Islom qonunlari asosida talqini bo‘lib uning manbasi :

Qur'on, Sunnat, Xulafoyi roshidinlar siyrati, Sahobai kiromlar so'zlari, ulardan keyingi Islomiy xalifalar tajribalari, shariat maqsadlari va fiqhiy qoidalarga asoslangan.

***

Kitob	Konstitutsiya islom ko'zoynagida
Nashriyot	Zaytun nashriyoti
Sahifa soni	416 ta
Nashr	Birinchi
Vaqt	2025 (1447)-yil
Muallif	Abu Yahyo
Dizayner	Abu Yusuf
Muharrir	Abu Yahyo, Abdurahmon Kaatib

So‘z boshi

اعوذ بالله من الشيطان الرجيم

بسم الله الرحمن الرحيم

Alloh taologa hamdu sanolar, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga salavotu salomlar bo'lsin.

Alloh taolo aytadi:

أَلَا لَهُ الْخَلْقُ وَالْأَمْرُ

"Bilib qo'yinglarki, yaratish ham, buyruq (farmon) berish ham unikidir (Allohning haqqidir) (Al-A'rof.54.)

O'zbekchilikda barchamiz "Yaratgan Egam" deb gapirishimiz ham shu ma'nodan kelib chiqqan.

Allohni "Yaratgan Egamiz" ekanini tan olganimizdek, u bizni nimaga buyursa va nimadan qaytarsa, uni hayotimizda qonun deb bilishimiz va unga taslim bo’lishimiz ham kerak.

Allohning buyruq va qaytariqlarini esa, Qur'on va sunnatdan o'rganamiz.

Alloh taolo aytadi:

إِنَّا أَنزَلْنَا إِلَيْكَ الْكِتَابَ بِالْحَقِّ لِتَحْكُمَ بَيْنَ النَّاسِ بِمَا أَرَاكَ اللَّهُ ۚ وَلَا تَكُن لِّلْخَائِنِينَ خَصِيمًا

" Alloh sizga ko'rsatganidek, odamlar orasida hukm qilishingiz uchun, Biz sizga kitobni haq bilan nozil qildik. Va siz xoinlar tarafani oluvchi bo‘lmang" (An-nisa.105)

Quron, faqatgina to'y va ma'rakalarda o'qilishi uchun emas, balki u odamlar orasida qonun manbasi tarzida, uning qonunlari bilan hukm qilinishi uchun tushurilgan kitobdir.

Bu oyatdan ko'rinib turganidek, Allohning kitobi va Rasulining sunnati odamlar orasida hukm manbai bo'lishi kerak. Kimda-kim bunday hukm qilmasa, Alloh uni **xoin** deb nomladi.

Bugunimizda esa Allohni hukmi bilan hukm qilishga chaqirgan kishi vatan xoinilikda ayblanadi.

Aslida haqiqiy xoinlar Allohning hukmini istamagan kishilar ekan !

O'zini "musulmonman" deb, Allohning hukmini orqasiga uloqtirib yurganlar va Allohning hukmiga taslim bo'lgan mo'minlar farqi haqida Alloh aytadi:

وَيَقُولُونَ ءَامَنَّا بِٱللَّهِ وَبِٱلرَّسُولِ وَأَطَعْنَا ثُمَّ يَتَوَلَّىٰ فَرِيقٌ مِّنْهُم مِّنۢ بَعْدِ ذَٰلِكَ وَمَآ أُوْلَٰٓئِكَ بِٱلْمُؤْمِنِينَ

وَإِذَا دُعُوٓاْ إِلَى ٱللَّهِ وَرَسُولِهِۦ لِيَحْكُمَ بَيْنَهُمْ إِذَا فَرِيقٌ مِّنْهُم مُّعْرِضُونَ

وَإِن يَكُن لَّهُمُ ٱلْحَقُّ يَأْتُوٓاْ إِلَيْهِ مُذْعِنِينَ

أَفِى قُلُوبِهِم مَّرَضٌ أَمِ ٱرْتَابُوٓاْ أَمْ يَخَافُونَ أَن يَحِيفَ ٱللَّهُ عَلَيْهِمْ وَرَسُولُهُۥ بَلْ أُوْلَٰٓئِكَ هُمُ ٱلظَّٰلِمُونَ

“Ular: «Allohga va Payg'ambarga iymon keltirdik va itoat qildik», derlar. So'ngra ulardan bir guruhi yuz o'girib keturlar. Ana o'shalar mo'min emaslar.

Ularni qachonki, oralarida hukm chiqarish uchun Allohga va Uning Payg’ambariga chorlansa, banogoh ulardan bir guruhi yuz o'girguvchilardir.

Agar haq ular(tarafda) bo'lsa, u (Payg'ambar)ga bo'yin egib kelurlar.

Ularning qalblarida maraz bormi?! Yoki shubha qildilarmi?! Yoxud Alloh va Uning Payg'ambari ularga zulm qilishidan qo'rqadilarmi?! Yo'q! Ularning o'zlari zolimlardir.

Albatta, mo'minlarning Allohga va Uning Payg'ambariga oralarida hukm chiqarish uchun chorlanganlaridagi gaplari: «Eshitdik va itoat qildik», demoqlaridir. Ana o'shalarning o'zlarigina najot topguvchilardir” (Nur. 47-51)

Iymon keltirganlikni da'vo qilib, lekin Allohning hukmiga yurmagan odam bu oyatga ko'ra uch holatdan bittasiga tushadi:

1-Qalbida maraz (nifoq) bor.

2- Hali iymonga kirmagan, shak-shubhada.

3-Alloh va Rasulining adolatiga ishonmaydi.

Shuningdek, bu oyatdan ko'rinib turibdiki, kishi Qur'on va sunnatning o'ziga yoqqan qismiga bo’yinsunishi ham itoat qilish deyilmaydi. Masalan, dinga faqat odob-axloq , oila bobida va qo'ni-qo'shnichilik muomalalarida amal qilish bu mo'minlik deyilmaydi. Balki dinga to'liq taslim bo‘lish kerak. Haqiqiy mo'minlar qanday bo'lishi haqidagi Allohning so'zini yuqorida aytib o'tdik.

Shunga binoan, Alloh va Rasulining hukmiga chaqirgan oyat va hadislardan kelib chiqib, o'zbek xalqi ustidan qonun tarzda 1992 yil, 8-dekabr kuni qabul qilingan konstitutsiyasiga "Islom ko'zoynagida" nazar solib chiqamiz . In sha Alloh!

Konstitutsiyaning qaysi hukmi Allohning kitobiga va Rasulining sunnatiga muvofiq va qaysinisi muxolif, bularninf barchasini modda-modda ko'rib chiqamiz.

Bizning o'zbek xalqimiz 95% musulmonlardan iborat ekan, agar shunday deb e'tiborga olib, demokratiya qonunlariga (ko'pchilik fikriga) solib qaraganda ham , shar'iy mezon bilan olib qarasak ham, bu xalqning ustidan islomiy hukm joriy bo‘lishi kerak.

Endi ushbu mavzuga qaratiladigan ba'zi e’tirozlarga javob berib o‘taylik :

1. DINNI SIYOSATGA ARALASHTIRMA!

Ba'zi insonlar aytadi: "Dinni siyosatga aralashtirib nima kerak ?!"

Qani endi shu gapni aytuvchi kishilar siyosati bizning dinimizga aralashmaganda ! Ular bizning dinimiz siyosatiga aralashsinda, bizning dinimiz ularning siyosatiga aralashmasinmi?!

Ular bizni dinimizda hamma narsaga, hatto, ibodatlarimizga ham aralashadilar! Qizlar qachondan va qayerda ro’mol o'rashi, ramazon oyining kirish-chiqish kunlari, hayit bayramlarini qanday va qachon o'tkazish, bolalarning diniy ta'lim olishlari, masjidlarda qanday suhbat o'tkazish, qanday diniy materiallar tarqatish mumkin yoki mumkin emasligi va bundan boshqa din ahkomlarini ularning siyosati hal qiladi.

Bu qanday adolatsizlik!... Qadimgi mushriklar Allohga qizlarni, o’zlariga esa o'g’illarni nisbat berishar edi.

Ya’ni yoqtirgan narsalarini o'zlariga, yoqmaganini Allohga nisbat berishgan. Bu haqida Alloh taolo aytdi:

تِلْكَ إِذًا قِسْمَةٌ ضِيزَىٰٓ

Undoq bo'lsa, bu noto'g'ri (adolatsiz) taqsim-ku! (an-najm.22.)

Siyosat dinga aralashsa-da, din siyosatga aralashmasa, bu ham shunday noto’g‘ri taqsim!

Demak, islomni siyosatdan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun, odamlarning qonunlarining Qur'on va sunnatga to'g'ri kelgan joyini to'g'ri deb, muxolif joyining xato ekanini dalillar bilan bayon qilamiz. Zero, insoniyat topgan qanday yaxshilik bo'lsa, albatta, Alloh unga yo‘l ko‘rsatgan. Konstitutsiyaning Qur'onga to‘g'ri qismi deganda shuni nazarda tutamiz. Har qanday yaxshilikni bizga konstitutsiyadan avval Qur'on bayon qilib bergan. Alloh taolo aytadi :

وَلَا يَأْتُونَكَ بِمَثَلٍ إِلَّا جِئْنَٰكَ بِٱلْحَقِّ وَأَحْسَنَ تَفْسِيرًا

Ular senga biror masal keltirsalar, Biz, albatta, senga haqni va go'zal sharhini keltiramiz.

(AL-Furqon.33)

2. ALLOHNING KALOMINI KONSTITUTSIYAGA TAQQOSLASHGA KIM HUQUQ BERDI ?!

Ba'zi g‘uluv ahlidan shu kabi e'tirozlarni eshitishingiz mumkin.

Ularga javob : ALLOH HUQUQ BERDI !

Alloh taolo aytadi :

قُلِ ٱلْحَمْدُ لِلَّهِ وَسَلَٰمٌ عَلَىٰ عِبَادِهِ ٱلَّذِينَ ٱصْطَفَىٰٓ ءَآللَّهُ خَيْرٌ أَمَّا يُشْرِكُونَ

Sen: «Allohga hamd bo'lsin va u tanlab olgan bandalariga salom bo'lsin. Alloh yaxshimi yoki ular shirk keltirayotgan narsalarmi?» degin. (Naml :59)

Demak, insonlarga Allohning qonuni va odamzot to‘qigan qonunning farqi, afzalliklarini tushintirib berish bu Qur'on buyrug‘i. Xususan, ushbu "An-Naml" surasining 60, 61,62, 63, 64, 65 -oyatlarini tadabbur bilan o‘qigan kishiga bu mavzu

yaqqol ayon bo‘ladi. U oyatlarda yaratgan bilan yaratilgan barobar bo‘lmasligi haqida ko‘p misollar keltiradi. Shu kabi Yaratganning qonuni bilan yaralganning qonuni taqqoslab tushuntiriladi.

3. Bu ishlaringdan biror foyda yo‘q!

Ba'zi musulmonlar e’tiroz bildirib: "konstitutsiya yozuvchilarga bu gaplarning foydasi yo'q " deyishsa, ularga Allohning ushbu so'zini aytamiz :

وَإِذْ قَالَتْ أُمَّةٌ مِّنْهُمْ لِمَ تَعِظُونَ قَوْمًا ٱللَّهُ مُهْلِكُهُمْ أَوْ مُعَذِّبُهُمْ عَذَابًا شَدِيدًا قَالُواْ مَعْذِرَةً إِلَىٰ رَبِّكُمْ وَلَعَلَّهُمْ يَتَّقُونَ

Ulardan bir jamoat: «Alloh halok qiluvchi yoki shiddatli azob-la azoblovchi qavmga va'z qilib nima qilasiz?!» deganida, ular, Robbingizga uzr bo'lishi uchun va shoyadki taqvo qilsalar deb, dedilar. (Ya'ni, Alloh oldidagi burchimizni ado etdik. Oxirat kuni Alloh so'rab qolsa, uzr bo'lishi uchun ularga nasihat qildik va yana shoyadki nasihat ta'sir etib, taqvo qilib qolsalar, degan umidimiz bor edi, dedilar.)

(Al-a'rof.164.)

Biz bu kitobni (O'zbekiston konstitutsiyasini) sharhlar ekanmiz, qandaydir siyosiy partiya va jamoatlarga yoqish, ular oldida hurmat qozonishni, yoki dunyoni maqsad qilmadik. Konstitutsiyon tuzumni o'zgartirish katta javobgarlikka sabab ekanini, bu boshimizga imtohon kelitirishi ham mumkinligini yaxshi bilamiz. Maqsadimiz — faqat isloh va Alloh oldida uzrimiz bo'lishi.

4.Botilni o‘rganib nima kerak ?!

Ba'zi insonlar : "bu botil qonunlarni o'rganish nima keragi bor" desa ularga aytamiz:

Avvalo, bu – Qur’on uslubi ! Qur'onda Alloh kofirlarni "**ular aytdilar", "ular aytadilar"** deb ularning ko‘p so'zlarini keltiradi. So‘ng ularga raddiya beradi. Chunki inson yomonlikni bilmay turib, yaxshilik nimaligini tushunmaydi. Shuning uchun biz ham, ularning so'zlarini keltirib, Qur’on va hadisdan uning eng go‘zal ko‘rinishini va o'z o‘rnida raddiyasini keltiramiz.

Shunda shoyad, haqiqiy dastur (Konstitutsiya) Allohning kitobi va Rasulining sunnatidan kelib chiqishini odamlar bilsalar!

Ikkinchidan, " Yomonlikni o'rganamiz, uni qilmaslik uchun".

Abbosiylar davrida yashagan, shoir Abu Firos Hamadoniy aytadi : "Yomonlikni o'rgandim, yomonlik qilish uchun emas, undan saqlanish uchun, zero, kimiki yomonni yaxshidan ajratib ko'rmas ekan, albatta yomonlikka yo‘liqadi".

5. NEGA AYNAN O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI?!

Biz faqat O'zbekiston Konstitutsiyasi yomon, boshqa davlatlarniki yaxshi demoqchi emasmiz. Bugun butun dunyoda to‘liq Islom bilan boshqariladigan davlat yo'q !

Ammo biz o'zbekmiz ! Shu millat tilida gapiramiz ! Bizni arab, rus yoki ingliz millati emas, o'zbek millati tushunadi. Shuning uchun o'zbek xalqini ogohlantirishni istadik.

Chunki Alloh hatto payg‘ambar jo‘natsa , o'z qavmi tilida so‘zlovchi kishilarni jo’natar edi.

Alloh taolo aytadi :

وَمَآ أَرْسَلْنَا مِن رَّسُولٍ إِلَّا بِلِسَانِ قَوْمِهِۦ لِيُبَيِّنَ لَهُمْ فَيُضِلُّ ٱللَّهُ مَن يَشَآءُ وَيَهْدِى مَن يَشَآءُ وَهُوَ ٱلْعَزِيزُ ٱلْحَكِيم

Qaysiki Payg'ambarni yuborgan bo'lsak, bayon qilib berishi uchun o'z qavmi tili ila yuborganmiz..

(Ibrohim.4)

Ma'lumki ushbu konstitutsiya asosan fransuz va inglizlar qonunlaridan kelib chiqib yozilgan.

Konstitutsiya yozilganiga bor yo'g'i 29 yil bo'libdi. Shunda kishida savol tug‘iladi: " 29 yildan oldingi tariximiz qanday konstitutsiya bilan boshqarilgan edi?" Agar bu qonunlardan chiqish jinoyat bo'lsa, bizning ota-bobolarimiz jinoyatchimidi! Yoki 29 yildan oldin bizning davlatimiz yo'qmidi ?!

G'arbning demokratik asoslariga koʻra tuzilgan ushbu konstitutsiya bilan 29 yilda nimaga erishdigu, undan avval islom qonunlari asosida davlat boshqarilganda minglab yillar mobaynida tariximizda erishgan ham diniy ham dunyoviy yutuqlarimizga qaraylik !

Tariximizda qancha imperiyalar, xonliklar hech qanday gʻarb demokratiyasiga asoslanmagan holda, islomiy qonunlar bilan davlat boshqarib ikki dunyo azizligiga erishdilar.Nafaqat O'zbekiston, yoki o'zbeklarni, balki butun osiyo mintaqasini boshqardilar.

Oxiri bunga chiday olmagan dushmanlar, azizligimiz manbasi boʻlgan dinimizdan bizni uzoqlashtirish maqsadida islom qonunlari qolib, gʻarb demokratiyasini bizga taqdim qildilar.

Endi tarixdagi kabi oʻzimizni va olamni boshqarishni istasak, g'arb demokratik asoslariga emas, faqat va faqat islom qonunlariga qaytishimiz kerak. Chunki dushman hech qachon oʻzining raqibiga baxtu-saodatga eltuvchi yoʻlni taqdim qilmaydi !

Ma'lumki, har qanday buyumning ishlash tartibini uning yasovchisi yaxshi biladi. Shu kabi inson qanday yashashi kerakligini ham uni yaratgan Alloh belgilab qoʻygan. Ushbu qonunlar umumiy asoslar tarzida qiyomatga qadar insoniyat qonunlariga manba boʻlishi shartdir.

6. Konstitutsiya kofirlardan kelgan, Islom tarixida boʻlmagan ish. Shunga binoan konstitutsiya yozish islomiy qonunlarga muvofiq bo'lsa ham bid'at..!

Ba'zi gʻuluv ahlidan shunga oʻxshash gaplarni eshitish mumkin. Agar bu da'vo boʻyicha qarasak, Qur'on ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonida kitob shaklida bo'lmagan deb uni ham bid'atga chiqarishimiz kerakmi ?

Qur'on Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida kitob shaklida emasdi. Usmon raziyallohu anhu zamoniga kelib toʻliq kitob shakliga keltirildi.

Shuningdek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida hadis kitoblari ham yoʻq edi. Balki Qur'on va hadis bir- biriga qorishib ketmasligi uchun

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida hadislarni yozish qaytarilgan edi. Hadis kitoblar Umar ibn Abdulaziz rahimahulloh davriga kelib shakllandi. Endi bu ham bid'atmi?

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida mazhablar va ulardagi ijtihodlar, usulul-fiqh, qovaidul-fiqhiyya ilmlari ham kitob shaklida yoʻq edi. Bular barchasi Sahobalar asridan soʻng alohida ilm tarzida ajralib chiqdi.

Qozi Shurayhga ba'zilar aytgan ekan : "Sizlar qozilik sohasida nimalarni paydo qilib yuribsizlar ? "

Shunda u kishi javob bergan ekan:

"Odamlar yangi-yangi ishlar paydo qildilar, men ham ularga javob qilib yangi ishlar paydo qildim!"

Shunga oʻxshash, bugun odamlar davlat boshqaruvida qancha ishlar paydo qildilar. Ularga faqat Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonidagi siyosat uslubi bilan kifoyalanib boʻlmaydi. Albatta, boshqaruv nizomi zarur. Bunga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va xulafoyi roshidinlar siyratlaridan ham misollar koʻp.

Masalan:

1) Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Rumga maktub yuborishda sahobalar :

"Ya Rasulullоh, ular muhr qoʻyilmagan maktublarni qabul qilishmaydi ?" dedilar.

Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uzukdan muhr yasatdilar. (Buxoriy va Muslim rivoyati)

Bu ham asli kofirlardan olingan uslub. Ammo islomda bunga monelik yoʻqligi uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uni qabul qildilar.

2) Umar raziyallohu anhu qamoqxona va qozixona tashkil qilganlari.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va Abu Bakr raziyallohu anhu davrlarida qamoq uchun maxsus joy yoʻq edi. Birinchi qamoqxona Umar raziyallohu anhu

davrlarida tashkil qilindi. Shuningdek, qozixona va qozilik mansabi ham Umar raziyallohu anhu davrida alohida ajralib chiqdi.

3) Devon tashkil etish .

Devon asli forsliklardan olingan tizim. Uning ma'nosi haqida Imom Mavridiy rahimahulloh aytadilar :

"Devon bu : saltanat, moliya ishlari, armiya va boshqa ummollar (davlat organlari)ga taalluqli huquqlar majmuasi saqlanadigan o‘rindir"

Ya'ni, davlatning ma’lumotlar bazasi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam davrlarida bu ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo'lsa-da, alohida "Devon" deb nomlangan bo‘lim yo‘q edi. Birinchi bo'lib Umar raziyallohu anhu rasmiy tarzda unga asos soldilar. Jumladan : "Armiya devoni, davlat xazinasi devoni, nafaqa devoni" kabi bo‘limlar ishlab chiqildi. Xulosa qilib aytganda, devon hozirgi davlat muassasalari, idora bo‘linmalari desak ham bo‘ladi.

Agar davlat boshqaruvi faqat Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlaridagidan chiqmasligi kerak bo'lsa, nega bu nizomlar ishlab chiqildi ? Yana ularning nomidan ko‘rinib turganidek, fors boshqaruv tizimidan kirib kelgan istilohlar edi.

Shunga o'xshash, bugun ham islomga zid bo‘lmagan idoraviy boshqaruv tizimlarini yangi ko‘rinishlarini qabul qilishda monelik yo‘q. Bu ishlar Allohning diniga yangilik kiritish (bid'at) emas.

(Alloh yaxshiroq bilguvchi)

Endi Konstitutsiya muqaddimasiga qaraylik:

MUQADDIMA

O‘zbekiston xalqi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglagan holda, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida, o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

Sharh :

Ushbu muqaddimada asosan ikki nuqtaga tanbeh berib o‘tamiz:

1. "Demokratiya" va "suvereniteti" ma'nosi. Bu haqida 1-modda sharhida to'xtalamiz.
2. " Tarixiy tajribalarga suyanib"

Albatta har qanday konstitutsiya insoniyatning tarix mobaynidagi tajribalaridan kelib chiqib yoziladi. Ammo qaysi insoniyatning ? Biz musulmon o'laroq, avvalo musulmonlar tarixiga suyanib tajriba orttiramiz. Qolgan ummatlar tajribasidan Islomga zid kelmagan qismini o'rganamiz. Lekin ushbu konstitutsiyada bu ma'no nazarda tutilgan deb bo‘lmaydi. Balki unda ishlatilgan istilohlar, uslublardan ko‘rinib turganidek, g‘arb tarixidagi davlat boshqaruvi tajribalariga suyanilgan.

Agar ushbu konstitutsiya tarixiy tajribalarga suyanib yozilgan bo'lsa, O'rta Osiyo xalqiga islom kirib kelgandan boshlangan 1300 yillik tarixga asoslanishi kerak. Va 29 yoshli konstitutsiya esa unga qarshi bo‘lmasligi kerak. Shunda tarixiy tajribalarga asoslangan desak bo'ladi.

To'g‘ri, islomda kofirlar tajribalaridan foydalanish mutloq qaytarilgan emas. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam, sahobalar va ulardan keyingi islomiy saltanatlar kofir davlatlar, jumladan Rim va Fors imperiyasi tajribalaridan foydalandilar. Faqat, islom qonunlariga qarshi bo‘lmagan ko‘rinishdagi tajribalardangina foydalanildi. Ular asosan boshqaruv tizimiga oid tajribalar edi.

Masalan, hujjatlarni tasdiqlash uchun muhr bosish, dushmandan himoyalanish uchun shahar atrofiga o‘ra qazish kabi idoraviy ishlar edi. Qonunlar esa faqat Alloh nozil qilgan ahkomlar bilan belgilanar edi.

BIRINCHI BO‘LIM. ASOSIY PRINSIPLAR

I bob. Davlat suvereniteti

1-modda.

O‘zbekiston — suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi

Sharh:

"Suveren davlat" ma'nosi "davlat buyuk va hamma narsadan ustun" degan ma’nolarda ishlatiladi.

Bu so'z (suveren) nafaqat musulmonlarga balki o'zbeklarga ham yot so‘z bo'lib, 16-asrda fransiyalik siyosatchi tomonidan ishlatilgan istiloh.

Uning fikricha, davlat hamma narsadan ustun bo'lishi kerak. Uning qonunlariga din ham fuqorolar va boshliqlar ham bo'yinsunishi kerak.

Biz, musulmonlar, besh mahal azonlarda ALLOHU AKBAR der ekanmiz, Allohning qonunlarini ana shunday hammaga hokim, hammadan ustun degan ma'noni qasd qilamiz.

Ularning Suveren davlat tushunchasida esa DAVLAT AKBAR bo‘lishi kerak. Hatto din ham unga bo‘ysunishi lozim.

Ha to'g'ri, agar davlat Allohning kitobi bilan boshqariladigan davlat bo'lsa, u davlatning qonunlarini hurmat qilish Allohning kitobini hurmat qilish bo'ladi. Uning qonunlariga bo'ysunish, uni ustun bilish va unga amal qilish Allohni buyuklash bo'ladi. Ammo konstitutsiya modom islom qonunlariga asoslanmas ekan, unday davlat qonunlariga so‘zsiz itoat qilinadigan davlat bo‘lmaydi.

“Demokratiya”

Demokratik tizim "Teng huquqlilik" va "xalq hokimiyati" asoslariga quriladi.

Islomda hech qachon kofir va musulmon, fosiq va taqvodor, biladiganlar va bilmaydiganlar teng bo'lmaydi. Alloh bu ma'noga Qur'onning juda ko‘p o‘rinlarida urg‘u bergan.

Undan so‘ng, demokratiya qonunlariga ko‘ra hech kim birovning gunohi bilan ishi bo‘lmasligi kerak. Bu ahvolda biz o’zimizdan "**eng yaxshi ummat"** sifatini yo‘q qilgan bo‘lamiz. Chunki eng yaxshi ummat haqida Alloh taolo aytadi:

كُنتُمْ خَيْرَ أُمَّةٍ أُخْرِجَتْ لِلنَّاسِ تَأْمُرُونَ بِٱلْمَعْرُوفِ وَتَنْهَوْنَ عَنِ ٱلْمُنكَرِ وَتُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ

“Sizlar odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat bo'ldingiz. Amri ma'ruf qilasiz, nahyi munkar qilasiz va Allohga iymon keltirasiz.” (Oli-Imron .110)

Demokratik nizom bo‘yicha, biz insonlarga buyruq va qaytariq qilishimiz insonlarning erkini cheklash bo'lib bunga imkon berilmaydi.

Ularning qonunlarida nafaqat begonalarga, balki, kishi o‘zining ayoli, farzandlariga shar'iy buyruqlarni qil, qaytariqlardan tiyil deb qattiqqo’llik qilishi ham mumkin emas ! Islomda esa kishi qayerda bo'lsa ham, shar'iy yomonlikni ko‘rsa, uni o‘zgartirishga buyurilgan. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"Sizlardan kim biror yomonlikni ko‘rsa, uni qo'li bilan o'zgartirsin. Agar qodir bo‘lmasa, tili bilan. Agar unga ham qodir bo‘lmasa, qalbi bilan yomon ko‘rsin. Bu iymonning eng zaif ko‘rinishidir"

Demokratik davlatda kishi birovga na qo'li bilan na tili bilan e'tiroz bildirishi mumkin emas. Faqat yomon koʻrsa ham, qalbidagina yomon koʻrishi mumkin. Bu esa hadisga binoan iymonning eng zaif koʻrinishidir.

Ammo "Xalq hokimiyati" ma'nosiga qarasak, u ham islomga toʻg'ri kelmaydi. Islomda xalq emas, Haq (Alloh) hokimdir. Chunki u Xoliq (Yaratuvchi) bo'lib, maxluq (yaratilmishlar) uning qonuniga boʻysunishi kerak. Hech qachon maxluq Xoliq boʻlmaganidek, u oʻz -oʻziga mustaqil hokim ham bo'lmaydi .

" Davlatning «Oʻzbekiston Respublikasi» va «Oʻzbekiston» degan nomlari bir maʼnoni anglatadi ."

Bu ma'noda islomiy ta'qiq bilmaymiz. Davlatga qanday nom berish unda yashovchilar urf-odatiga havola qilinadi. Faqat bunday nomlar millatchilik va boʻlinishga sabab boʻlmasligi kerak. Shuningdek, “Respublika" soʻzi ham islomga to'g'ri kelmaydi. Chunki uning maʼnosi “umumxalq boshqaruvi" bo'lib bu Islomga zid tushuncha. Bu haqida moddalar asnosida alohida toʻxtalib oʻtamiz.

Xulosa :

1-Modda :

"Oʻzbekiston - shar'iy qonunlarga asoslangan islomiy davlat .

2-modda.

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida masʼuldirlar.

Sharh:

Bu moddada ham ikki mulohazali nuqta bor .

1- Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Islomda davlat va shaxslar irodasi ham shar'iy mezonlar bilan cheklanadi. Tasavvur qilaylik , xalq kofir bo‘lishni istadi, yoki yahudiylik diniga o‘tishni, yoki ayollar hijob yechishni, erkaklar bachavozlik va hokazo... shunda davlat xalqning bu irodasini ifoda etib unga xizmat qilishi kerakmi ? Yo‘q, albatta ! Shuning uchun islomda "Davlat Haq (ALLOH) irodasini , uning istagini ifoda etadi. Va xalq irodasi Allohning shar'iy qonunlariga teskari bo‘lmagan ko‘rinishdagina ularning maqsadlarini ifoda etadi.

Alloh taolo aytadi

ثُمَّ جَعَلْنَٰكَ عَلَىٰ شَرِيعَةٍ مِّنَ ٱلْأَمْرِ فَٱتَّبِعْهَا وَلَا تَتَّبِعْ أَهْوَآءَ ٱلَّذِينَ لَا يَعْلَمُونَ

So'ngra Biz seni ishdan bir shariatga yo'lladik. Bas, unga ergash, bilmaydiganlarning havoi nafslariga ergashma. .(Jasiya 18)

Allohning dinini bilmaydiganlarni havoi xohishlariga ergashishdan Alloh qaytardi. Davlat xalq irodasini ifoda etadi deb mutlaq aytish esa ayni bu qaytarilgan ishdir.

Yana aytadi :

وَإِن تُطِعْ أَكْثَرَ مَن فِى ٱلْأَرْضِ يُضِلُّوكَ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ إِن يَتَّبِعُونَ إِلَّا ٱلظَّنَّ وَإِنْ هُمْ إِلَّا يَخْرُصُون

Va agar yer yuzidagilarning ko'plariga itoat qilsang, seni Allohning yo'lidan adashtiradilar. Ular gumondan boshqaga ergashmaslar. Ular taxmin qilarlar, xolos. (An'om. 116)

Demak, insoniyat irodasiga ergashsak, ular Allohni yo‘lidan adashtirib qo‘yadi. Qur'onda bu ma'noni quvvatlaydigan ko‘p oyatlar bor.

Ustiga ustak, bu so‘zlar amalda yo‘q ham. Aytaylik, xalq davlat iste'fosini iroda qilsa, qaysi davlat "Xalq irodasi" deb tinchgina mansabdan ketadi ?Balki kuch bilan bo‘lsa-da, bunday "XALQ IRODASI" bosib tashlanadi! Bu so‘zlar faqat xalq ko‘nglini ovlash uchun, xalq nomidan mansabga o‘tirib oluvchilar foydasi uchun qog‘ozdagi bitiklar xolos.

2- Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

Bu ham ezilgan xalq quloqlariga yoqimli eshitilsa-da, amalda topilmaydigan holat. Chunki hech qachon quvvatli shaxs, zaif shaxs oldida o‘zini mas'ul sanamaydi. Shu jumladan davlat organlari, va mansabdorlar ham zaif xalq oldida o‘zini mas'ul emas, ulardan yuqori ko‘radi! Hayotga insof bilan qaragan har qanday kishi buni inkor qila olmaydi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar mas'uliyatini his qilishi uchun ular o‘zlaridan qudratli shaxs oldida mas’ul qilinishi va oxiri hammalari Alloh taolo oldida mas'ul ekaniga iymoni bo‘lishi kerak.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْهُمْ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلِهَا وَوَلَدِهِ، وَهِيَ مَسْـئُولَةٌ عَنْهُمْ، وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ، أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ (متفق عليه.

"Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostilarindagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga bosh va xalqidan mas'ul . Kishi o'z ahliga boshliq va ulardan mas'ul. Ayol erining uyi va farzandlariga bosh va ulardan mas'ul. Va qul ham xojasining moliga boshliq, undan mas'ul. Barchalaring boshliq va qo‘l ostidagilaridan mas'uldir" (Buxoriy-Muslim)

Islomda har qanday yuqori tabaqa quyi tabaqadan Alloh oldida mas'ul ekaniga iymon keltiradi. Shundagina davlat amaldorlari va xalq o‘rtasida muvozanat vujudga keladi.

Xulosa :

2-Modda

Davlat Haq (Alloh)irodasini xalqda ifoda etadi. Xalqning dunyo va oxiratdagi manfaatlariga xizmat qiladi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar haqida Alloh oldida mas'uldirlar.

3-modda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

Sharh:

Bu moddada ham uch mulohazali nuqta bor.

1-Milliy davlat haqida.

Islom dinida barcha musulmonlar bir millat vakili hisoblanadi. Alloh taolo aytadi:

مِّلَّةَ أَبِيكُمْ إِبْرَٰهِيمَ

Bu (din)otangiz Ibrohimning millati. (Haj:78)

To‘g'ri , insonlar xalq va qabilalarga bo‘linishi ham Allohning taqdiri. Alloh taolo aytadi :

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ إِنَّا خَلَقْنَٰكُم مِّن ذَكَرٍ وَأُنثَىٰ وَجَعَلْنَٰكُمْ شُعُوبًا وَقَبَآئِلَ لِتَعَارَفُوٓاْ إِنَّ أَكْرَمَكُمْ عِندَ ٱللَّهِ أَتْقَىٰكُمْ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٌ

Ey odamlar! Biz sizlarni bir erkak va ayoldan yaratdik va sizlarni o'zaro tanishishingiz uchun xalqlar va qabilalar qilib qo'ydik. Albatta, Allohning huzurida eng hurmatlingiz eng taqvodoringizdir. (Hujurot:13)

Ammo qabilachilik odamlar orasida chegaralar tortilib bir ummatni tarqoqligiga sabab bo'lish emas aksincha, bir-biri bilan tanishishga sabab bo‘lishi kerak.

Millatchilik ummatni parchalash uchun kofirlar tomonidan chiqarilgan tushuncha. Avvalo bir musulmon millatni "Arab-Ajam" deb, so‘ngra arablarni o‘zini ham saudiy, yamaniy, iroqiy deb, so‘ng turk xalqini ham uzbek, qirg‘iz kabi mayda - mayda toifalarga bo'lib tashladilar. So‘ng ularni bir-biri bilan qo‘rqitib urishtirdilar. Bunga yaqin tarixda misollar ko‘p.

Shuning uchun bu xalqlar barchasi bir musulmon millati hisoblanadi.

2-Ma'muriy davlat tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi.

Ma'muriy tuzilish viloyat tumanlarga bo‘linishi islomda "Masolihul-mursala" (ya'ni shariat odamlarga havola qilgan manfaatli ishlar) asosidan kelib chiqib amalga oshirilaveradi. Faqat bunday hududlarga bo‘linish bir musulmon millat chegaralarga bo‘linishiga sabab bo‘lmasligi va harakatlanishiga qiyinchilik tug'dirmasligi shart qilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimi esa, islomiy qonunlar asosida bo‘lishi shart.

Shuningdek, ichki va tashqi siyosat ham islom asoslaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Ammo davlat chegarasi esa, sulh vaqtidan tashqari holatlarda islom davlati kengaymas chegara bilan qaydlanmaydi. Chunki Alloh aytadi :

إِنَّ ٱلۡأَرۡضَ لِلَّهِ يُورِثُهَا مَن يَشَآءُ مِنۡ عِبَادِهِۦۖ وَٱلۡعَٰقِبَةُ لِلۡمُتَّقِينَ

Yer Allohniki, uni bandalaridan kimni xohlasa, o'shanga meros qilib beradi. Va oqibat taqvodorlarnikidir» (A'rof. 128)

Yana aytadi :

وَلَقَدۡ كَتَبۡنَا فِي ٱلزَّبُورِ مِنۢ بَعۡدِ ٱلذِّكۡرِ أَنَّ ٱلۡأَرۡضَ يَرِثُهَا عِبَادِيَ ٱلصَّٰلِحُونَ

Batahqiq, Biz zikrdan so'ng Zaburda ham: «Albatta, yerga solih bandalarim merosxo'r bo'lurlar», deb yozgan edik. (Anbiyo:105)

Yana aytadi:

هُوَ ٱلَّذِيٓ أَرۡسَلَ رَسُولَهُۥ بِٱلۡهُدَىٰ وَدِينِ ٱلۡحَقِّ لِيُظۡهِرَهُۥ عَلَى ٱلدِّينِ كُلِّهِۦۖ وَلَوۡ كَرِهَ ٱلۡمُشۡرِكُونَ

U zot, O'z Rasulini hidoyat va haq din bilan barcha dinlardan ustun qilish uchun yuborgan zotdir. Garchi mushriklar yoqtirmasalar ham. (Saf.9)

Va Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

ليبلغنَّ هذا الأمر ما بلغ الليل والنهار، ولا يترك اللهُ بيتَ مَدَرٍ ولا وَبَرٍ، إلا أدخَله الله هذا الدين

Albatta, bu ish (din) tun va kun yetgan barcha joyga yetib boradi. Alloh biror shahar yoki qishloq uyi qoldirmay barchaga u dinni kiritadi (Imom Ahmad rivoyati)

Demak, bizning dinimiz va uni himoya qiladigan davlat butun yer yuziga ustun bo‘lgunga qadar kengayib boraveradi. Oxiri Iso alayhissalam zamonlari kelganda bu to‘liq amalga oshib, butun yer yuzida bitta islomiy davlati bo'ladi. (Albatta bu ishlar ummatning qudratiga qarab amalga oshiriladi)

Xulosa

3-Modda

Davlat o‘zining boshqaruvi, ma'muriy tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini, ichki va tashqi siyosatini shariat ko‘rsatmalari bilan amalga oshiradi.

Davlat chegarasi daxlsiz, bo‘linmas va atrofdagi davlatlar bilan istisnoiy sulh holatlaridan boshqa o‘rinlarda hududiy cheklanmaydi.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Sharh:

1.Insoniyat tili xilma-xilligi Allohning taqdiri. Alloh taolo aytadi:

وَمِنْ ءَايَٰتِهِۦ خَلْقُ ٱلسَّمَٰوَٰتِ وَٱلْأَرْضِ وَٱخْتِلَٰفُ أَلْسِنَتِكُمْ وَأَلْوَٰنِكُمْ إِنَّ فِى ذَٰلِكَ لَءَايَٰتٍ لِّلْعَٰلِمِينَ

Va Uning oyat-belgilaridan osmonlaru yerning yaratilishi va tillaringiz va ranglaringizning turlicha bo'lishidir. Albatta, bunda olimlar uchun oyat-belgilar bordir. (Rum.22)

Alloh qanday payg'ambar yuborgan bo'lsa, qavmining tilida yuborar edi. Alloh taolo aytadi:

وَمَآ أَرْسَلْنَا مِن رَّسُولٍ إِلَّا بِلِسَانِ قَوْمِهِۦ لِيُبَيِّنَ لَهُمْ فَيُضِلُّ ٱللَّهُ مَن يَشَآءُ وَيَهْدِى مَن يَشَآءُ وَهُوَ ٱلْعَزِيزُ ٱلْحَكِيمُ

Qaysiki Payg'ambarni yuborgan bo'lsak, bayon qilib berishi uchun o'z qavmi tili ila yuborganmiz.

(Ibrohim:4)

Islom dini hech qachon odamlarning tili uchun gunohkor qilmaydi.

Lekin, barcha davlatlarda birinchi darajadagi davlat tili va ikkinchi darajali til bo'ladi. Bu "ikkinchi til" , ushbu davlatga nufuzi kuchli bo‘lgan boshqa bir davlatning tili bo'ladi. Bugun arab davlatlariga inglizlar nufuzi ustunligi sabab ularda ikkinchi til ingliz tili, Markaziy Osiyo davlatlarida esa ruslar nufuzi ustunligi sabab rus tili ikkinchi tilga aylanib qolgan. Balki ba'zi arab yoki ajam davlatlarda o‘zlarini tili qolib, nufuzli davlat tili birinchi darajali til bo‘lib qolgan.

Modomiki, hamma davlatda ikkinchi til bor ekan, islom davlatida ikkinchi til "Arab tili " bo'ladi. Va birinchi darajali davlat tiliga yaqinlashtiriladi. Chunki biz musulmonmiz , dinimiz shu arab tilida nozil bo‘lib, shu til bilan tarqaldi. Aqida va ahkomlarimizni shu tildagi Qur'on va hadislardan o‘rganamiz.

Bu holat tarixda sinovdan o‘tdi, hech qanday zarar ko‘rmadik. Balki ajdodlarimiz arab tilida ijod qilib yurtimizni va xalqni butun dunyoga shu tilda tanitdilar. Bunga tariximizda diniy va dunyoviy olimlardan yuzlab misol keltirish mumkin. Ular turkiy tilda yoki arab tilida ijod qilgan bo‘lsin, hammalari arab alifbosida asarlar yozdilar.

Endi rus tili ikkinchi tilga aylangandan so‘ng nimaga erishdik? U til orqali nimani dunyoga tanitdik?

Javob hammaga ma'lum..

2.O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Agar ushbu millat va elatlar musulmonlar bo'lsa, ularning tili, urf odati va an'analari musulmonchilikka zid bo‘lmagan hollarda hurmat qilinadi va himoya qilinadi.

Ammo ushbu millat va elatlar islom davlati hukmi ostida yashovchi kofirlar bo'lsa, ularning tillariga hech qanday cheklov yo‘q ,albatta. Lekin urf-odat va an'analarini o‘z ibodatxonalari va mintaqalarida amalga oshirishlari kerak.

Kofirlardan ahli kitob (yahudiy, nasroniy va majusiylar) va boshqa mushriklar islom davlatida yashash tartibi islom mazhablarida bayon qilingan fatvolarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Davlat boshlig‘i ushbu mazhablaridagi muayyan fatvoni amalda qo‘llashga, ahli kitoblardan boshqa mushriklarga davlatda yashashni taqiqlash yoki ularga himoya berishga haqli. Alloh taolo aytadi:

وَإِنْ أَحَدٌ مِّنَ ٱلْمُشْرِكِينَ ٱسْتَجَارَكَ فَأَجِرْهُ حَتَّىٰ يَسْمَعَ كَلَٰمَ ٱللَّهِ ثُمَّ أَبْلِغْهُ مَأْمَنَهُۥ ذَٰلِكَ بِأَنَّهُمْ قَوْمٌ لَّا يَعْلَمُونَ:

"Agar mushriklardan birontasi panoh so'rasa, unga panoh ber, toki u Allohning kalomini eshitsin. So'ngra uni omonlik joyiga yetkazib qo'y. Bu ularning bilmaydigan qavm bo'lganlari uchundir"

(Tavba 6)

3. Ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Ulardan maqsad musulmon millat elatlar bo‘lsa, albatta ,davlat musulmonlarni dunyoviy va diniy rivojlanishini ta'minlaydi.

Ammo ushbu millat va elatlar kofirlar bo'lsa, ularni ham dunyoviy hayotlarida rivojlanishlariga sharoit yaratiladi. Ammo dinlarini va islomga zid urf-odatlarini tarqatishlariga yo'l qo‘yilmaydi.

Ularning ibodatxonalarini ham islom davlati hukmiga o'tgunga qadar qurilganlaridan boshqa yangi barpo qilinishga ruxsat berilmaydi. (Ushbu ma'noni fiqh qoidasi quvvatlaydi : "Boshlanishiga ruxsat yo‘q ishlar , qolishiga ruxsat

beriladi") Ularning ibodatlari va erkinliklari ulardan olinadigan jizya muqobilida ta'minlanadi.

Xulosa:

4-modda.

O‘zbekiston davlatining birinchi darajali davlat tili o‘zbek tilidir. Ikkinchi darajali til arab tili bo‘lib, uni rivojlanishi uchun davlat sharoit yaratadi.

Davlat o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha musulmon millat (xalq) va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari islomga zid kelmagan hollarda hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Musulmon bo‘lmagan millatlar ham, jizya , sulh, omonlik asoslariga ko‘ra ularning tillari hamda o'z hududlarida urf-odat va an'analariga amal qilishlariga ruxsat beriladi. Ular o‘z dinlari va urf-odatlarini musulmonlar orasida rivojlantirishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Ular bilan muomala qilish qonunlari mazhablar fatvolaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega..

Sharh:

Albatta, har qanday davlatning ramzi, bayrog‘i, gerbi va madhiyasi bo‘lishi joiz. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning ham bayroqlari bor edi. Ba'zan qora, ba'zan oq rangda bo'lib, uni oliy himmat va g'alaba ramzi bo‘lgan "Burgut" deyilar edi.

Shuningdek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam muhrlari bo'lib, unda "Muhammad-Rasulullоh " yozuvi tushirilgan edi.

Davlatda bunday ramzlar bo‘lishiga islomda hech qanday qaytariq yo‘q. Ammo ushbu ramzlar va shiorlar botil aqida va kufr ramzlari bo‘lmasligi shart.

1.O'zbekiston bayroq ramzlarida shar'iy monelik bilmaymiz. Faqat ushbu bayroqlar bir butun musulmon ummatni bo‘linishiga sabab bo‘lmasligi kerak. Uni qoldirish yoki o‘zgartirish ulamolar ijtihodiga havola qilinadi. Zero, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida ham muhojirlarning o‘ziga xos, ansorlarning ham o‘ziga xos bayroqlari bor edi. Ammo bu bayroqlar chegara bilan o'lchanmas va ixtilof bo'linishlarga sabab bo‘lmas edi.

2. O'zbekiston gerbi.

Gerbdagi shakl va ramzlar asosan sovet tuzumidan nusxa ko‘chirilgan. Shuningdek, unda tasvirlangan afsonaviy humo yoki baxt qushi kabi ramzlar islomga ziddir.

(Gerb shakli va ramzlar ulamolar maslahati bilan ishlab chiqilishi lozim)

3. O'zbekiston madhiyasi.

Madhiya ham sovet ittifoqi zamonidagi ohang va uslubda. Undagi so‘zlar ham ko‘plari shirk va mubolag‘a.

Islomiy madhiya ohangi va so‘zlarida islomga zid ma'nolar bo‘lmasligi shart. Madhiya tuzish ulamolar ijtihodiga havola qilinadi.

(O‘zbekiston madhiyasidagi ba'zi so‘zlar Islomga zid ekani aqida darslarida bayon qilingan)

Xulosa :

5-Modda :

Davlat shar'iy qonunlar bilan tasdiqlanadigan o‘z ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

Sharh:

Poytaxt qaysi shahar bo'lishi islomda cheklanmaydi. Faqat islomiy davlat poytaxti muqaddas shaharlar (Makka, Madina) dan uzqoroq bo‘lishi afzal. Chunki dushman odatda poytaxtga hamla qiladi. Muqaddas shaharlar shunda zararlanib qolmaydi. Shuning uchun Ali roziyallohu anhu poytaxtni Ko'fa shahriga , so‘ng Umaviylar Damashq shahriga, so‘ngra Abbosiylar Bag‘dodga ko'chirdilar. Xalifalik Usmoniylarga ko‘chgach, Islambo'l shahri poytaxt bo‘ldi.

Shaharlarni obod qilish maqsadida poytaxtni o'zgartirib turish joiz.

Xulosa:

6-modda

O‘zbekiston davlati poytaxti — Toshkent shahri.

II bob. Xalq hokimiyatchiligi

Sharh:

Islomda davlat xalq emas, Haq subhanahu va taolo hokimiyatiga asoslanadi. Xalq hokim emas, mahkum (Allohning hukmi ostiga kiruvchi).

Aslida voqelikda ham hech qaysi davlatda xalq hokimiyati da'vosiga amal qilishmaydi. Bu gaplar xalqni hokim qilish uchun emas, balki ularning ustidan hokim bo'luvchilar manfaatlari uchun xizmat qilib kelyapti.

Keyin xalq hokim deganidan uning mahkum emasligi chiqadi. Ularning ustidan hukmronlik qilinmasligi kerak. Har qanday toifa o‘zini xalq deb odamlarga istagan hukmini chiqarishi joizligi kelib chiqadi. Bunga hech kim rozi bo‘lmaydi. Agar xalqning ko‘pchiligini maqsad qilamiz desak ham, boshqa muammolar kelib chiqadi. Aytaylik ko‘pchilik xalq islomdan yoki davlatdan norozi. Shunda "Xalq hokimiyati" deb islomni tark qilamizmi? Yoki davlatni isyonchilarga topshiramizmi? Ikkisi ham nojoiz.

Shuning uchun insoniyatga ustun zot Alloh tomonidan keladigan hokimiyat zarur. Alloh taolo aytadi:

مَا تَعْبُدُونَ مِن دُونِهِۦٓ إِلَّآ أَسْمَآءً سَمَّيْتُمُوهَآ أَنتُمْ وَءَابَآؤُكُم مَّآ أَنزَلَ ٱللَّهُ بِهَا مِن سُلْطَٰنٍ إِنِ ٱلْحُكْمُ إِلَّا لِلَّهِ أَمَرَ أَلَّا تَعْبُدُوٓا۟ إِلَّآ إِيَّاهُ ذَٰلِكَ ٱلدِّينُ ٱلْقَيِّمُ وَلَٰكِنَّ أَكْثَرَ ٱلنَّاسِ لَا يَعْلَمُونَ

Sizlar Undan o'zga, o'zingiz va ota-bobolaringiz nomlab olgan ismlarga, Alloh ularga biror hujjat nozil qilmagan narsalarga ibodat qilmoqdasizlar. Hukm qilish faqat Allohning O'ziga xosdir, U faqat O'zigagina ibodat qilishingizni amr etdi. Ana o'sha to'g'ri dindir. Lekin odamlarning ko'pi bilmaslar.

(Yusuf. 40)

Demak, ibodatni Allohgagina qilinganidek, hokimiyat ham faqat Allohdan kelgan dinga asoslanishi kerak, agarchi insonlar ko‘plari buni bilmasalar-da, bu to‘g'ri dindir. Quruq o'zimizcha nomlab olgan asossiz so’zlarni tark qilish kerak ekan.

Islomda hokimiyat manbasi:

1-Qur'on

2-Sunnat

3-Ijmo

4-Xulafoi roshidinlar amallari.

5-Ahli sunna mazhablari ijtihodlari.

Hokimiyat Allohniki deganda mana shu asoslarga ko‘ra qonunlar chiqarish nazarda tutiladi. Chunki Qur'ondan keyingi qolgan to‘rt qism hech qachon Qur'onga teskari kelmaydi. Balki Qur'onning sharhi hisoblanadi.

7-modda.

Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir.

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

Sharh:

1.Xalq davlat hokimiyatning birdan bir manbaidir.

Demak, bu moddaga ko‘ra, Haq taolo norozi bo‘lsa-da, xalqni rozi qilgan ishlar joiz bo‘lishi kerak. Alloh asrasin, xalq aksari g‘arb davlatlaridagi kabi buzuqlik yoki boshqa harom-harish ishlarni istasa, "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir" deb ularga bu ishlarini qonuniylashtirib berishimiz kerakmi ? Masalaning xatari shunda. Odamlarga qo‘yib bersa, ularning xohishlarining chek-chegarasi yo‘q. Alloh taolo aytadi:

وَأَنِ ٱحۡكُم بَيۡنَهُم بِمَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ وَلَا تَتَّبِعۡ أَهۡوَآءَهُمۡ وَٱحۡذَرۡهُمۡ أَن يَفۡتِنُوكَ عَنۢ بَعۡضِ مَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ إِلَيۡكَ

Ular orasida Alloh nozil etgan narsa ila hukm yurit. Ularning xohishlariga ergashma va ular seni Alloh senga nozil qilgan narsada fitnaga solishlaridan hazir bo'l. (Moida.49)

Demak, hatto payg'ambar zamonida odamlarga qo‘yib berilsa payg'ambarni fitnalab qo‘yar ekan. Bugungi zamonda insoniyatga qolsa, ular endi nimalarni istashmaydi, tasavvur qilavering.

2. Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlaydi.

Bu to'g'ri. Davlat xalq manfaatini ko‘zlab ish tutishi kerak. Faqat bu dunyodagi manfaatlarinigina emas, ikki dunyo manfaatini ko‘zlab ish tutishi kerak. Dunyo manfaati oxirat manfaatiga teskari bo‘lganda unga ijozat berilmaydi. Alloh taolo aytadi:

فَمِنَ ٱلنَّاسِ مَن يَقُولُ رَبَّنَآ ءَاتِنَا فِى ٱلدُّنۡيَا وَمَا لَهُۥ فِى ٱلۡأٓخِرَةِ مِنۡ خَلَٰقٍ

Odamlardan ba'zilari: «Robbimiz bizga bu dunyoda bergin», deydi va unga oxiratda nasiba yo'qdir.

وَمِنْهُم مَّن يَقُولُ رَبَّنَآ ءَاتِنَا فِى ٱلدُّنْيَا حَسَنَةً وَفِى ٱلْءَاخِرَةِ حَسَنَةً وَقِنَا عَذَابَ ٱلنَّارِ

Va ulardan ba'zilari: «Robbimiz, bizga bu dunyoda ham yaxshilikni, oxiratda ham yaxshilikni bergin va bizni do'zax olovi azobidan saqlagin», deydi." (Baqara.200-201)

Demak, musulmon kishi dunyoi oxirat manfaatini so‘raydi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Islomda qonunlarni tatbiq qilish davlat vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Fatava-al-hindiyya kitobida aytiladi :

"uning (islomiy jazolar qo‘llashning) sharti imom (davlat boshlig‘i) yoki uning noibi bo‘lishidir.."

Bunga quyidagi oyatda ham ishora bor. Alloh taolo aytadi :

وَقُل رَّبِّ أَدْخِلْنِى مُدْخَلَ صِدْقٍ وَأَخْرِجْنِى مُخْرَجَ صِدْقٍ وَٱجْعَل لِّى مِن لَّدُنكَ سُلْطَٰنًا نَّصِيرًا

«Ey Robbim, menga O'z huzuringdan yordam beruvchi sulton ato et», degin. (Isro:80)

Oyatning ma'nosida Ibn Kasir rahimahulloh aytadilar:

"Allohning qonunlarini tatbiq qilishga yordam beruvchi sulton bergin". Demak , hukmni sulton tatbiq qiladi.

Usmon roziyallohu anhu aytadilar:

"Alloh Qur'on bilan jilovlamaganni sulton bilan jilovlaydi"

Bunda ham Qur'on hukmi sulton orqali joriy qilinishiga ishora bor.

Faqat ushbu moddaga amal qilish uchun qonunlar islomiy bo‘lishi va ularni davlat nomidan ijro qiluvchi shaxslar musulmon mas'ullar bo‘lishi shart qilinadi.

4. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish, yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

Agar davlat islomiy qonunlarga asoslangan bo'lsa, unday davlat vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatish, yangi hokimiyat tuzish , albatta taqiqlanadi. Shar'iy istiloh bilan aytganda ularni "Bog'iylar" deb nomlanadi. Ularni yaxshilikcha bu yo‘ldan qaytariladi. Aks holda ularga urush qilinishi ham mumkin. (Hujurot surasi 9-oyatiga qarang)

Shuningdek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

مَن أتاكُمْ وأَمْرُكُمْ جَمِيعٌ علَى رَجُلٍ واحِدٍ، يُرِيدُ أنْ يَشُقَّ عَصاكُمْ، أوْ يُفَرِّقَ جَماعَتَكُمْ فاقْتُلُوهُ.

Sizlar ishinglar bir (boshliq)kishiga jamlanib turganda, birliginglarni sindirishni istagan yoki jamoatlaringga tafriqa solishni istagan kishini o'ldiringlar!" (Muslim rivoyati)

Ammo davlat konstitutsiyasi islomiy bo'lmasa va boshqaruvchilar namoz o‘qimasa, biz unday konstitutsiyaga itoat etmasligimiz va imkon boricha qarshi chiqishimizni islom buyuradi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam boshliqlarga itoat etish doirasini belgilab aytadilar:

لا طاعة في المعصية، إنما الطاعة في المعروف

"(Allohga) ma'siyat o‘rnida (hech kimga) itoat y'oq! Itoat faqat yaxshilikda" (Imom Buxoriy rivoyati)

Ular namoz o‘qisalargina itoat lozimligi haqida aytadilar :

إنَّه يُسْــتَعْمَلُ علَيْكُم أُمَراءُ، فَتَعْرِفُونَ وتُنْكِرُونَ، فمَن كَرِهَ فقَدْ بَرِئَ، ومَن أنْكَرَ فقَدْ سَــلِمَ، ولَكِنْ مَن رَضِيَ وتابَعَ، قالوا

يا رَسولَ اللهِ، ألا نُقاتِلُهُمْ؟ قالَ: لا ما صَلَّوْا

"Hali sizlar ustinglardan bir amirlar qo‘yiladi. Ba'zi ishlarini yaxshi, ba'zisini yomon ko‘rasizlar. Kim yomon ko‘rsa, qutulibdi. Kim inkor qilsa, salomat qolibdi. Lekin kimiki rozi bo‘lib ergashsa, (halok bo‘libdi).

Odamlar aytishdi : "Ularga urishmaylikmi?" Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"Yo‘q, modomiki, namoz o'qisalar (qarshi chiqmanglar)!"

(Imom Muslim rivoyati)

Hadisdan ko‘rinib turganidek, shariatga teskari o‘rinda boshliqqa itoat etilmaydi. Ammo ularga urush qilish joizligi esa ularni namoz o‘qish yoki o'qimasliklariga bog‘liq ekan.

Chunki, bir davlat o‘z fuqarolari unga qarshi qonun tuzishidan qaytarar ekan, Alloh o‘zining yerida yaratgan bandasini bundan qaytarishga batariqi a'lo haqli emasmi?!.

Inson tuzgan konstitutsiyaga qarshi chiqish jinoyat deyilsa, Alloh qonunlariga qarshi chiqish jinoyat emasmi?!

Shuning uchun unday kimsalarni Alloh Qur'onda 52 o'rinda "Jinoyatchilar" deb zikr qilgan.

Xulosa:

7-Modda

Islom shariati davlat hokimiyatining manbaidir.

Davlat xalqning dunyo va oxiratdagi manfaatlarini ko‘zlab faoliyat olib boradi.

Shariat qonunlari asosida qabul qilingan qonunlar vakolat berilgan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Shariat qonunlarida nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish islomga xilof hisoblanadi va islom qonuniga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

8-modda.

O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

Sharh:

Islomda fuqarolik va millat tushunchalari haqida yuqorida aytib o‘tdik. Shunga ko‘ra:

Xulosa:

8-Modda :

Islom davlati xalqini millati, dinidan qat'i nazar Islom davlati fuqarolari tashkil etadi.

Islom davlatida yashovchi ahli kitoblar ham davlat fuqarosi.

Shuningdek, yer yuzidagi har qanday musulmon millatdoshimiz bo‘lib, Islom davlatiga hijrat qilsa, Islom davlati fuqarosi bo‘lishi mumkin. Qo‘shni davlatlar bilan sulh holatlari bundan istisno qilinadi.

9-modda.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi. Referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, islomda davlat xalq hokimiyatiga emas, Haq (Alloh) hokimiyatiga asoslanadi. Shunga binoan, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga yoki umumiy ovoz (referendumga) emas, Allohning shariatiga havola qilinadi. Alloh taolo aytadi:

فَلَا وَرَبِّكَ لَا يُؤْمِنُونَ حَتَّىٰ يُحَكِّمُوكَ فِيمَا شَجَرَ بَيْنَهُمْ ثُمَّ لَا يَجِدُواْ فِيٓ أَنفُسِهِمْ حَرَجًا مِّمَّا قَضَيْتَ وَيُسَلِّمُواْ تَسْلِيمًا

Yo'q, Robbingga qasamki, seni o'z oralarida chiqqan kelishmovchiliklarga hakam qilmagunlaricha, keyin, chiqargan hukmingga dillarida tanglik topmasdan, butunlay taslim bo'lmagunlaricha, zinhor mo'min bo'la olmaslar! (Niso.65)

Qur'on va sunnatdan qanday hukm olishni esa ulamolarga havola qilinadi. Alloh taolo aytadi:

فَسْـَٔلُوٓاْ أَهْلَ ٱلذِّكْرِ إِن كُنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

Agar bilmasangiz, zikr ahllaridan so'rang. . (Anbiyo.7)

Demak, bilmaganlar bilganlardan so‘raydi. Ular esa ulamolardir. Ana shu to'g'ri yechim.

Chunki , xalq muammosi qanday qilib xalqqa taqdim etiladi ?! To'g‘ri so‘z : xalqning muammosi Haqqa taqdim qilinishidir.

Aks holda, har kim odamlarning hissiyotlari bilan o‘ynashib, ularga balandparvoz va'dalar berib, xohlaganidek ularni yetaklashi mumkin. Odamlarning aksari Qur'on guvohligi bilan botilga moyil bo‘lishadi. Alloh taolo aytadi:

وَقَلِيلٌ مِّنْ عِبَادِيَ ٱلشَّكُورُ

Bandalarimdan shukr qilguvchilari ozdir. (Saba. 13)

Shunga ko‘ra, agar biror masalani ovozga qo‘yilsa, tabiiyki NOSHUKRLAR aksariyat ovozni tashkil qiladi.

Shunda biz ularning fikri bilan hukm qilishimiz kerakmi? Allohning haqqini ado qilmagan bandasining haqqini qanday ado qilsin ? Shuning uchun islomda qonun chiqarish bunday refendumlar bilan hal qilinmaydi. Ovozga qo‘yish esa tor doirada, Allohning dinini to‘g'ri tushunib, amal qiladigan ulamolar orasida shar'iy dalillar dalolati aniq bo‘lmagan masalalardagina o‘tkaziladi. (Bu haqida saylov bo‘limida batafsil to‘xtalib o‘tamiz)

<u>Xulosa</u>

9-modda.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari shariat asosida qonun chiqaruvchi ulamolar hay'atiga havola qilinadi. Ularning qonun chiqarish shartlari va vakolatlari shar'iy qonunlar bilan belgilanadi. Shar'iy dalillar dalolati qat'iy va aniq bo‘lmagan ijtihodiy mas'alalarda ularning aksariyati fikriga amal qilinadi"

10-modda.

O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

Sharh:

Islomiy hukumatda ham xalq nomidan faqat davlat boshlig‘i va uning yordamchilari ish olib borishi mumkin. Butun boshli xalq nomidan yakka shaxs yoki jamoatlar ish olib bormaydi.

Alloh taolo aytadi:

وَإِذَا جَآءَهُمْ أَمْرٌ مِّنَ ٱلْأَمْنِ أَوِ ٱلْخَوْفِ أَذَاعُواْ بِهِۦ ۖ وَلَوْ رَدُّوهُ إِلَى ٱلرَّسُــولِ وَإِلَىٰٓ أُوْلِي ٱلْأَمْرِ مِنْهُمْ لَعَلِمَهُ ٱلَّذِينَ يَسْتَنۢبِطُونَهُۥ مِنْهُمْ

Qachonki ularga eminlik yoki xavf to'g'risida bir ish-xabar yetsa, uni taratadilar. Agar uni Payg'ambarga va o'zlaridan bo'lgan ishboshilarga havola qilganlarida edi, ulardan ish negizini biladiganlari uni anglab yetar edilar. (Niso.83)

Demak, har qanday holatda masalani ish egalariga havola qilish kerak. Boshboshdoqlik bilan jamoat nomidan ish olib borishga ruxsat berilmaydi.

Ammo bu modda to'g‘ri deb aytilishi uchun Oliy Majlis va davlat rahbari Allohning kitobi bilan bizni boshqaruvchi shaxslar bo‘lishi shart, albatta. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

إن أُمِّرَ عليْكم عبدٌ حبشيٌّ مجدَّعٌ فاسمعوا لَهُ وأطيعوا ما قادَكم بِكتابِ اللَّهِ

"Agar ustinglarda qo'l oyog‘i kesilgan qora qul boshliq qilingan bo'lsa ham, uning amrini eshitib unga itoat qilinglar. MODOMIKI SIZLARNI ALLOHNING KITOBI BILAN BOSHQARSA" (Ibn Moja rovoyati)

Istisno :

Islomda bu moddadan bir o‘rin istisno qilinadi. Unda har bir musulmon shaxs barcha musulmonlar nomidan ish qilgan hukmida bo‘ladi. U ham bo'lsa, bir musulmon biron bir kofirga omonlik va'da bersa, hamma musulmonlar unga omonlik bergan bo‘lib hech kim u kofirga zarar berishga haqli emas.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

ذمة المسلمين واحدة يسعى بها أدناهم

"Musulmonlar zimmasi (ahdi) bittadir. Ularning eng kichigi ham uni joriy qila oladi " (Imom Muslim rivoyati)

Bu qonun tarixda amaliy tasdig‘ini topdi.

Ibn Abu Shayba rivoyat qiladi : Umar raziyallohu anhu xalifalik davrida musulmonlar va kofirlar urishib turgan paytda, musulmonlardan bir qul kofirlarga omonlik berganini e'lon qiladi. Erta tongda ular qulning omonligini hujjat qilib, qurollarni tashlab keladilar. Musulmonlar " bu oddiy qul-ku axir" deb butun xalq nomidan uning omonligi inobatga olinmaydi deydilar. Ular bo'lsa "Biz qullaring va hurlaringni qayerdan bilaylik?" deb va'dada turishni talab qiladi. Shunda bu haqida Xalifa Umar roziyallohu anhuga maktub yozishganda, U kishi qulning omonligi o‘tadi deb hukm qilganlar.

<u>Xulosa :</u>

<u>10-Modda.</u>

<u>Xalq nomidan faqat ularning boshliqlari va ulamolar hay'ati ish olib borishi mumkin.</u>

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs, xalq nomidan ish olib borishga haqli emas.

Urush holatida dushmanga omonlik berish bundan mustasno.

11-modda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.

Sharh:

Islomda davlat hokimiyati tizimini tashkil qilish qanday bo‘linmalarga bo‘linishi cheklanmagan. Muhimi har qanday ishni o'z egasiga topshirilishi. Alloh taolo aytadi:

إِنَّ ٱللَّهَ يَأۡمُرُكُمۡ أَن تُؤَدُّواْ ٱلۡأَمَٰنَٰتِ إِلَىٰٓ أَهۡلِهَا وَإِذَا حَكَمۡتُم بَيۡنَ ٱلنَّاسِ أَن تَحۡكُمُواْ بِٱلۡعَدۡلِۚ إِنَّ ٱللَّهَ نِعِمَّا يَعِظُكُم بِهِۦٓۗ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ سَمِيعَۢا بَصِيرٗا

Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o'z ahliga erishtirishni va agar odamlar orasida hukm qilsangiz, adolat ila hukm qilishni amr qiladir. Alloh sizlarga qanday ham yaxshi va'z qilur! Albatta, Alloh eshituvchi va ko'ruvchi zotdir. (Niso.58)

Demak, muhimi mansabga o'z egasi qo‘yilishi va adolat bilan hukm qilishi lozim.

Islomiy davlat hokimiyatining tizimi ham, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati ko‘rinishida tuziladi.

1-Qonun chiqaruvchilar. Islomda bunday bo‘linma ulamolar kengashidan tashkil topadi va ular shariat ijozat bergan doirada qonun chiqaradilar. Ularni bugungi Oliy Majlisdan farqi shunda.

Ularni "Hay'atut-tashriy" (Qonun chiqaruvchi guruh) yoki “As'habush-sho’ro" (Mashvarat sohiblari) yoki boshqa nomlar bilan nomlanadi. (Niso surasi 58-oyatiga qarang)

2-Ijro etuvchi bo‘linma. Alloh taolo aytadi:

لَقَدْ أَرْسَلْنَا رُسُلَنَا بِالْبَيِّنَاتِ وَأَنزَلْنَا مَعَهُمُ الْكِتَابَ وَالْمِيزَانَ لِيَقُومَ النَّاسُ بِالْقِسْطِ وَأَنزَلْنَا الْحَدِيدَ فِيهِ بَأْسٌ شَدِيدٌ وَمَنَافِعُ لِلنَّاسِ وَلِيَعْلَمَ اللَّهُ مَن يَنصُرُهُ وَرُسُلَهُ بِالْغَيْبِ إِنَّ اللَّهَ قَوِيٌّ عَزِيزٌ

Darhaqiqat, Biz Payg'ambarlarimizni ravshan dalillar ila yubordik va ular ila kitob, hamda odamlar adolatda turishlari uchun mezon tushirdik. Va temirni tushirdik - unda katta kuch-quvvat va odamlar uchun manfaatlar bor. Alloh kim O'ziga va Payg'ambarlariga g'oyibona yordam berayotganini bilishi uchun. Albatta, Alloh kuchli va azizdir. (Hadid.25)

Demak, kitobdagi ahkomlar hayotga tatbiq bo‘lishi uchun uni dastaklaydigan temir zarur. Temirdan maqsad kuch va ijro.

Shuning uchun ulamolar aytadilar : "Kitob yo'l ko‘rsatadi, qilich esa uning qonunlari tatbiqiga yordam beradi " Bu ishlar hammasi "Ijro bo‘limi" vazifasiga kiradi.

Faqat ushbu bo‘linma a'zolari musulmon va faoliyati islomiy bo‘lishi shart qilinadi.

(Imom Muslim rivoyat qilgan hadisdagi shartlarga binoan: "**Modomiki namoz oqisalar, modomiki sizlarni Allohning kitobi ila boshqarsalar, itoat qilinglar**")

3. Sud bo‘limi.

Islomda uni "Qozilik" deb ataladi.

Ularda ham yuqoridagi (**Namoz va Allohning kitobi ila boshqarish**) topilishi shart qilinadi. Qozilik Allohning kitobi, Rasulining sunnati va ulamolar ittifoqi bilan sobit bo‘lgan bo‘linma.

(Bu haqida batafsil ma'lumot uchun sud hokimiyati bo‘limiga qarang)

Xulosa:

11-modda.

Davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning islomiy qonun chiqaruvchi, islom qonunlarini ijro etuvchi va islomiy sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.

12-modda.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas.

Sharh:

1.Fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanish.

Insoniyat mafkurasi va fikrlari xilma-xilligi Allohning taqdiri. Alloh taolo aytadi:

وَلَوْ شَآءَ رَبُّكَ لَجَعَلَ ٱلنَّاسَ أُمَّةً وَٰحِدَةً وَلَا يَزَالُونَ مُخْتَلِفِينَ

Agar Robbing xohlasa, odamlarni bir ummat qilardi. Ular ixtilof qilishda bardavom bo'lurlar.

إِلَّا مَن رَّحِمَ رَبُّكَ وَلِذَٰلِكَ خَلَقَهُمْ وَتَمَّتْ كَلِمَةُ رَبِّكَ لَأَمْلَأَنَّ جَهَنَّمَ مِنَ ٱلْجِنَّةِ وَٱلنَّاسِ أَجْمَعِينَ

Robbing rahm qilganlargina bundan mustasno. Ularni shuning uchun yaratgandir. Robbingning: «Jahannamni, albatta, jinlar va odamlar bilan tamomila to'ldirurman», degan so'zi batamom bo'ldi. (Hud.118-119)

Islomda fikr xilma-xilligi sabab fiqh ilmi rivojlandi. Shundan mazhablar shakllandi. Hatto davlat muayyan mazhabni qonunga kiritsa-da, boshqa mazhablarga taqiq qo‘yilmadi.

Abbosiylar asri avvalida Abu Hanifa rahimahulloh shogirdi Abu Yusuf bosh qozi edilar. Davlat Hanafiy mazhabi bo‘yicha boshqarildi. Ammo ayni shu asrlarda boshqa mazhablar ham shakllanib chiqdi. Abbosiy xalifalaridan Abu Ja'far al-Mansur Imom Molikdan u kishining kitoblarini davlat boshqarishda qonun qilib qo‘yishni taklif qilganda imom Molik buni rad qildilar. Chunki juz'iy ahkomlarda fikrlar xilma-xilligini qabul qilish shart.

Ammo bu xilma-xilliklar aqida va asoslarda emas, asosan fiqh va juz'iy ahkomlarda edi . Shuning uchun Islomiy davlatda fikrlar xilma-xilligi aqida va asoslarda mumkin emas. Chunki bunday xilma-xillik rivojlanishga emas, aksincha, tortishuv va urushlarga sabab bo‘ladi. Alloh taolo aytadi:

وَأَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ وَلَا تَنَٰزَعُواْ فَتَفۡشَلُواْ وَتَذۡهَبَ رِيحُكُمۡ

Allohga va Uning Rasuliga itoat qiling. O'zaro nizo qilmang, u holda tushkunlikka uchraysiz va kuch-quvvatingiz ketadi. (Anfol.46)

Bundan faqat Islom davlatida yashovchi ahli zimma holati istisno qilinadi. Ular garchi aqidada musulmonlardan ixtilofli bo‘lsa-da, ularga musulmonlar bilan yashash ijozat berilgan.

2.Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas.

Bu ham voqelikka zid gap. Chunki mafkurasi yo‘q inson ham, davlat ham yo‘q . Agar bir kishi "Men hech qanday mafkuraga ishonmayman" desa, uning shu gapi ham uning mafkurasi deyiladi. Yoki bir kishi "men hech qaysi dinga ishonmayman" desa, u dinga ishonmaslikni din yoki mafkura tutgan bo'ladi…

Islomda kishi haq mafkurani lozim tutmasa, o'z-o'zidan botil mafkurada hisoblanadi. Alloh taolo aytadi:

فَذَٰلِكُمُ ٱللَّهُ رَبُّكُمُ ٱلۡحَقُّۖ فَمَاذَا بَعۡدَ ٱلۡحَقِّ إِلَّا ٱلضَّلَٰلُۖ فَأَنَّىٰ تُصۡرَفُونَ

Bas, mana shu Alloh sizning haq Robbingizdir. Haqdan so'ng nima bo'ladir? Magar zalolat bo'ladir. Bas, qayoqqa burilib ketmoqdasiz? (Yunus.32)

Shuning uchun Islom davlatida islom mafkurasi davlat mafkurasi sifatida o‘rnatiladi . Shuningdek islomda siyosiy muxolifat bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki Allohning hukmi bilan boshqariladigan davlatga siyosiy muxolif bo‘lish Allohga muxolif bo‘lish hisoblanadi.

Agar siyosatga emas, shaxslarga muxoliflikni da'vo qilishsa, shaxslarda modomiki, namoz o‘qish va Allohning kitobi bilan insonlarni boshqarish shartlari topilar ekan, bunday shaxslar bizga yoqmasa-da, ularga muxolif bo'lib, ummatni firqaga solish mumkin emas!

(Dalillar uchun o‘tgan sahifalarga qarang)

Xulosa:

12-modda.

Davlatda ijtimoiy hayot mafkuralar va fikrlarning islomga zid bo‘lmagan ko‘rinishda xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Islom dini davlat dini sifatida o‘rnatiladi. Mazhablardagi ixtiloflar bag‘rikenglik ruhi bilan qabul qilinadi.

Davlat ahli sunna val-jamoadan muayyan mazhabni qabul qilishi va boshqa mahzablarni hurmat qilgan holda bir mazhabga ko‘ra qonunlar chiqarishga haqlidir.

Islom davlatida siyosiy muxolifat bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

13-modda.

O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Sharh:

Demokratiyada insoniyat uchun qanday manfaat bo'lsa, islomda azaldan bu hukmlar joriy qilingan.

Masalan, kishining hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati, mol-mulki daxlsizligi va boshqa huquqlari.

Demokratiyada so'z erkinligi da'vosi ko‘pchilikni o‘ziga tortadi. Islomda so‘z erkinligi shar'iy asosda qaydlansa-da, o'z navbatida shar'iy asosda ijozat beriladi.

Podshohga tik qarab haqiqatni aytish islomda eng oliy ibodat va unda qatl qilingan kishi eng afzal shahidlardan. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

سيد الشهداء حمزة بن عبد المطلب، ورجل قام إلى إمام جائر فأمره ونهاه، فقتله

"Shahidlarning eng sayyidi Hamza ibn Abdul-muttalib va zolim podshohga turib unga yaxshilikni buyurib yomonlikdan qaytarganda podshoh uni qatl qilgan kishidir" (Hokim rivoyati)

Shuningdek, islomda insonning hayoti himoya qilinadi :

Islom insonga o‘zini ham birovni ham nohaq o‘ldirishni harom qildi, kishi o‘zini o‘ldirishiga jahannam va'da qildi, birovni nohaq o‘ldirgan kishi butun insoniyatni o‘ldirgan hisoblanishini aytdi. (Moida.32 -oyatiga qarang)

Faqat uch o‘rinda uning qoni halol deyildi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

رَسُـولُ اللَّهِ ﷺ: لَا يَحِلُّ دَمُ امْرِئٍ مُسْـلِمٍ يَشْـهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ، وأَنِّي رَسُـولُ اللَّهِ، إِلَّا بِإِحْدَى ثَلَاثٍ: التَّيِّب الزَّانِي، والنَّفْس بِالنَّفْسِ، والتَّارِك لِدِينِهِ الْمُفَارِق لِلْجَمَاعَةِ .مُتَّفَقٌ عَلَيْهِ

"**Musulmon kishining qoni faqat uch ishning biri bilan halol bo'ladi.**

Nikohlanib zino qilsa, jonga jon qasos olinganda, dinini tark qilib musulmonlar jamoatiga firqa solganda" (Buxoriy-muslim)

Jon va mol erkinligi haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

أُمِرتُ أَنْ أُقاتِلَ النَّاسَ حتَّى يَقُولُوا لاَ إِلهَ إِلاَّ اللَّه فَمَنْ قَالهَا، فقَدْ عَصَمَ مِني مَالَهُ وَنَفْسَهُ إِلاَّ بِحَقِّه، وَحِسَابُهُ عَلَى اللَّه

"**Men insonlar “La ilaha illalloh” degunlariga qadar ularga urush qilishga buyurildim. Kim shuni aytsa, mendan moli va jonini asrabdi. Uning hisobi esa Allohga "** (Buxoriy-Muslim)

Ma'lumki, hech qaysi davlat va tizim insoniyatga mutlaq erkinlik bermaydi. Hech qaysi davlat fuqarosi erkinlikni da'vo qilib davlatni va davlat boshliqlarini haqorat qilishiga yo'l qo‘yishmaydi. Shu kabi islom davlati ham insonga mutlaqo emas, islom doirasida erkinlik beradi. Erkinlik da'vosi bilan dinga tajovuz qilish, boshqalarning erkinligiga daxl solishga yo'l qo‘yilmaydi.

Islom dini kishining sha'nini himoyasi uchun g‘iybat, tuxmatni, birovni masxara qilish kamsitishni harom qildi. Va ularga jazolar belgiladi. (Hujurot va Nur suralariga qarang)

Shuningdek, insonning qadr qimmatini himoya qilish haqida Alloh taolo aytadi:

وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِىٓ ءَادَمَ وَحَمَلْنَٰهُمْ فِى ٱلْبَرِّ وَٱلْبَحْرِ وَرَزَقْنَٰهُم مِّنَ ٱلطَّيِّبَٰتِ وَفَضَّلْنَٰهُمْ عَلَىٰ كَثِيرٍ مِّمَّنْ خَلَقْنَا تَفْضِيلًا

Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo'ydik va ularni quruqligu dengizda (ulov-la) ko'tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni O'zimiz yaratgan ko'p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo'ydik (Isro.70)

Ammo bugungi insoniyat tushunchasidagi fahshlar, bachabozlik , dinsizlik kabi manolardan iborat demokratiyaga islomda o‘rin yo‘q.

Chunki bunday erkinliklar avvalo o‘sha kishining o‘zini ikki dunyosiga so‘ngra boshqalarning ham dunyo va oxirat manfaatlariga zarar yetkazadi. Bu ma'nodagi demokratiya bizning urf-odatlarga ham to'g‘ri kelmaydi.

Modom shunday ekan, "demokratik prinsiplarga asoslanadi" deb buzuqlikni xalqqa kiritishdan nima naf bor ? Nega "Islomiy prinsiplarga asoslanadi" deb demokratiyadan istalgan barcha erkinliklarni islomdan olmaylik?

Demokratik asoslarni qabul qilish , boshqa davlatlar va demokratiyani da'vo qiluvchi buzuq tabaqa istaklarini dinga va urf-odatga teskari bo‘lishiga qaramay tan olishdir.

Shuningdek, moddadagi "Umuminsoniylik" degan qismga to‘xtalib o‘taylik.

Islomda inson yaratilganlik g'oyasi Allohga ibodat. Unga amal qilsa inson mukarram. Aks holda, u bir ziyon ko‘rgan maxluq. Alloh taolo aytadi:

إِنَّ ٱلْإِنسَٰنَ لَفِى خُسْرٍ

Albatta, inson xusrondadir. (Xusron-mag'lubiyat, yutqiziq va nuqson ma'nolarini anglatadi.)

إِلَّا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَعَمِلُواْ ٱلصَّٰلِحَٰتِ وَتَوَاصَوۡاْ بِٱلۡحَقِّ وَتَوَاصَوۡاْ بِٱلصَّبۡرِ

Magar iymon keltirganlar va solih amallar qilganlar, bir-birlarini haqga chaqirganlar va bir-birlarini sabrga chaqirganlar mustasnodir. (Asr surasi)

Agar inson mo'min bo‘lsa, farishtadan ustun. Shuning uchun jannatda farishtalar unga xizmat qiladi. Ammo agar kofir bo‘lsa, hayvon ham kirmaydigan do‘zaxga kiritiladi

Alloh uni Qur'onda hayvondek, balki undan ham battar deydi.

إِنۡ هُمۡ إِلَّا كَٱلۡأَنۡعَٰمِ بَلۡ هُمۡ أَضَلُّ سَبِيلًا

Aslida, ularning hayvonlardan farqi yo'q. Balki yana ham yo'ldan ozganroqdirlar. (Furqon.44)

Inson o‘zi ishlab chiqargan mahsuloti talabga javob bermasa, uni yo‘q qiladi. Alloh taolo ham yaratgan maxluqi talabiga javob bermasa, uni yo‘q qilishga buyuradi. Istisnoiy holatlardagina uning yashashlik haqqi bor, biroq uning hech qanday insoniylik hurmati qolmaydi.

Faqat qarindoshlar yoki Islom davlati hukmi ostida yashovchi kofirlarninggina qarindoshlik va qo'ni-qo‘shnichilik huquqlari hurmat qilinadi.

Qisqa qilib aytganda, islomda umuminsoniylik da'vosi ostida Allohning dushmanlariga qadr qimmat berish mumkin emas.

Xulosa:

13-modda.

Islom davlati islomiy qonunlarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa huquqlari oliy qadriyat hisoblanib, islom doirasida daxlsizdir.

Insonlar huquq va erkinliklari islom qonunlari asosida himoya qilinadi.

14-modda.

Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

1.Insoniyat farovonligini ko‘zlash.

Islom dini va undagi qonunlardan maqsad ham insoniyatning farovonligi va adolatni ro‘yobga chiqarish.

Alloh taolo aytadi:

لَقَدْ أَرْسَلْنَا رُسُلَنَا بِٱلْبَيِّنَٰتِ وَأَنزَلْنَا مَعَهُمُ ٱلْكِتَٰبَ وَٱلْمِيزَانَ لِيَقُومَ ٱلنَّاسُ بِٱلْقِسْطِ

Darhaqiqat, Biz Payg'ambarlarimizni ravshan(narsa)lar ila yubordik va ular ila kitob, hamda odamlar adolatda turishlari uchun mezon tushirdik. (Hadid.25)

Faqat demokratik davlatdan farqi insonning dunyosininggina emas, oxiratining ham farovonligini ko‘zlaydi.

Alloh taolo aytadi :

مَنْ عَمِلَ صَٰلِحًا مِّن ذَكَرٍ أَوْ أُنثَىٰ وَهُوَ مُؤْمِنٌ فَلَنُحْيِيَنَّهُۥ حَيَوٰةً طَيِّبَةً وَلَنَجْزِيَنَّهُمْ أَجْرَهُم بِأَحْسَنِ مَا كَانُوا۟ يَعْمَلُونَ

Erkagu ayol, kim mo'min holida yaxshi amal qilsa, Biz unga yaxshi hayot kechirtiramiz va, albatta, ularni qilib yurgan amallarining eng go'zaliga beriladigan ajr ila mukofotlarmiz. (An Nahl .97)

Ba'zan inson oxiratida abadiy farovon bo‘lishi uchun o‘tkinchi dunyosida farovonligini yo'qotishi ham mumkin. Alloh taolo aytadi:

كُتِبَ عَلَيْكُمُ ٱلْقِتَالُ وَهُوَ كُرْهٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تَكْرَهُوا۟ شَيْـًٔا وَهُوَ خَيْرٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تُحِبُّوا۟ شَيْـًٔا وَهُوَ شَرٌّ لَّكُمْ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

Sizga yoqmasa ham, jang qilishingiz farz qilindi. Shoyadki, yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa. Va shoyadki yoqtirgan narsangiz siz uchun yomon bo'lsa. Alloh biladi, siz bilmaysiz.. (Baqara.216)

Ertaning tinchligi uchun bugun ozroq qiynalish har qanday oqil kishining nazdida to‘g'ri hisoblanadi.

2.Qonuniylik prinsipi.

Bu ma'noga ham islom dinichalik amal qilgan tizim yo‘q . Bugun har qanday davlatda qonunlar qog‘ozlardagina hammaga barobar. Hayotda qarasak, qonunlar faqat bechoralarga qo‘llaniladi.

Ammo islomda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إنَّما أهْلَكَ الَّذِينَ قَبْلَكُمْ، أنَّهُمْ كَانُوا إذَا سَرَقَ فِيهِمُ الشَّرِيفُ تَرَكُوهُ، وإذَا سَرَقَ فِيهِمُ الضَّعِيفُ أقَامُوا عليه الحَدَّ، وايْمُ اللَّهِ لو أنَّ فَاطِمَةَ بِنْتَ مُحَمَّدٍ سَرَقَتْ لَقَطَعْتُ يَدَهَا.

Sizlardan avvalgilarni halok qilgan narsa ular ichida sharafli kishi o'g‘irlik qilsa, uni tark qilishar, zaif o‘g‘irlik qilsa, unga jazo qoim qilishar edi.Allohga qasamki agar Fotima bintu Muhammad o'g'irlik qilsa, men uning qo‘lini kesaman "(Imom Buxoriy rivoyati)

Xulosa:

14-modda.

Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyatning dunyo va oxiratdagi farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va islomiy qonuniylik asosida amalga oshiradi.

III bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi

Sharh:

Insonga uni yaratgan Robbisining qonunigina ustun bo'lishga haqli. Islomda **Allohu akbar** so‘zining ma'nosi ham shunga ishora qiladi. Shunga binoan, konstitutsiya islom qonunlariga binoan tuzilsagina, bunday konstitutsiya va qonunlarni ustun desak, to‘g'ri bo'ladi.

15-modda.

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Sharh:

1.Qonunga so‘zsiz itoat qilish.

Islomda hech qanday shaxsga so‘zsiz itoat etilmaydi. Har qanday shaxs so‘zi shariat qonunlariga solib ko‘riladi. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِى ٱلْأَمْرِ مِنكُمْ فَإِن تَنَٰزَعْتُمْ فِى شَىْءٍ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمْ تُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ ذَٰلِكَ خَيْرٌ وَأَحْسَنُ تَأْوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Oyatdan ko‘rinib turibdiki har qanday boshliqqa itoat etish Alloh va Rasuli itoatidan chiqmaslik sharti bilan qaydlanadi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

انما الطاعة فى المعروف

"Itoat faqat yaxshilikda bo'ladi " (Buxoriy rivoyati)

Yana boshliqlarga itoat etish doirasini belgilab aytadilar:

" ما قادوكم بكتاب الله"

"Ular modomiki sizlarni Allohning kitobi bilan boshqarsa (Itoat etinglar)" (Ibn Moja)

Imom Molik rahimahulloh aytadilar:

"Har qanday kishining so‘zi olinadi va tashlanadi. Magar mana bu qabr egasi bundan mustasno " deb Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam qabrlariga ishora qildilar.

Demak, agar konstitutsiya va qonunlar qachon islomiy bo‘lsagina, shunda biz unga so‘zsiz itoat etishimiz lozim bo'ladi. Bu haqida Alloh taolo aytadi:

فَلَا وَرَبِّكَ لَا يُؤْمِنُونَ حَتَّىٰ يُحَكِّمُوكَ فِيمَا شَجَرَ بَيْنَهُمْ ثُمَّ لَا يَجِدُواْ فِىٓ أَنفُسِهِمْ حَرَجًا مِّمَّا قَضَيْتَ وَيُسَلِّمُواْ تَسْلِيمًا

Yo'q, Robbingga qasamki, seni o'z oralarida chiqqan kelishmovchiliklarga hakam qilmagunlaricha, keyin, chiqargan hukmingga dillarida tanglik topmasdan, butunlay taslim bo'lmagunlaricha, zinhor mo'min bo'la olmaslar! (Niso.65)

Oyatdagi "**butunlay taslim bo‘lish"** ya'ni so‘zsiz taslim bo‘lish demakdir.

Inson bir davlatda yashar ekan, o‘sha davlatning qonuniga bo‘ysunishi kerak deyishadi . Unday bo'lsa, inson Allohning yerida yashab uning qonuniga bo‘ysunishi kerak bo‘lmaydimi?

Aks holda, hamma o‘zining konstitutsiyasini so‘zsiz tatbiq qilaman deydi va yer yuzida bo‘linish va urushlar kelib chiqadi.

2.Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

Islom qonunlari shohga ham, gadoga ham bir xil tatbiq qilinadi. Hamma Allohning hukmi oldida barobar. Bu ma'noni amaliy tasdig‘i ularoq har kuni besh mahal shoh ham, gado ham bir safda turib namoz o‘qiydi. Har yili Makkaga borib yalangoyoq, yalangbosh haj va umra qiladi.

Abu Bakr raziyallohu anhuga xalifalikka bay'at berilganda ummatga mana shu ma'noni ta'kidlab aytdilar :

"Men Allohga itoat etsamgina menga itoat etinglar. Agar men to‘g'ri yo‘ldan toyilsam, meni to'g'irlanglar"

Shunga binoan, davlat boshlig‘i ham, xalq ham Allohning qonunlariga muvofiq ish ko‘rishi kerak.

O‘zbekchilikda "Podshoh Allohning yerdagi soyasi" deyishadi. Asli bu so‘z Abbosiylar ba'zi xalifalari tomonidan aytilgan so‘z. Bu so‘zning bir ma'nosi "Podshoh yerda Allohni qonunlarini ijro qiluvchi " demakdir.

Amaldorlar qonundan tashqari ish ko‘rishlari nojoizligiga yana bir misolni Umar raziyallohu anhu siyratlaridan qaraylik.

U kishining xalifalik davrida Misrga Amr ibn Os raziyallohu anhuni hokim qildilar. Kunlardan bir kuni Hokim Amr ibn Osning yosh o'g'li misrliklardan biriga "Men muhtaram zotning o'g'liman" deb uni savalaydi. Misrlik mazlum xalifaga

uning ustidan shikoyat qilganda Xalifa Umar Amr ibn Os va o‘g‘lini chaqirib misrlikka qamchi tutkazadilar va "Muhtaramning bolasini ur" deydilar. Va Amr ibn Os va o‘g'liga qarab : Onalari hur holda tuqqan kishilarni qachon qul qilib ulgirdinglar?!" dedilar.

Islomdan boshqa qaysi tuzumda bunday adolat, qonun oldida barobarlikni ko‘rdik?!

أَفَحُكْمَ ٱلْجَٰهِلِيَّةِ يَبْغُونَ وَمَنْ أَحْسَنُ مِنَ ٱللَّهِ حُكْمًا لِّقَوْمٍ يُوقِنُونَ

Johiliyat hukmini istaydilarmi?! Ishonchi komil qavmlar uchun Allohdan hukmi yaxshiroq kim bor?! (Moida.50)

Xulosa :

15-modda.

Davlatda shariatga muvofiq chiqarilgan qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar islomiy qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

16-modda.

Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Sharh:

Konstitutsiya qoidalari boshqa huquq va manfaatlarga zid talqin qilinmasligi uchun Allohning kitobiga muvofiq qonunlardan iborat bo‘lishi kerak. Aks holda,

inson tuzgan qonunlarda albatta, qarama-qarshiliklar topiladi. Bu haqida Alloh taolo aytadi:

أَفَلَا يَتَدَبَّرُونَ ٱلْقُرْءَانَ وَلَوْ كَانَ مِنْ عِندِ غَيْرِ ٱللَّهِ لَوَجَدُوا۟ فِيهِ ٱخْتِلَٰفًا كَثِيرًا

Qur'onni tadabbur etib ko'rmaydilarmi?! Agar u Allohdan boshqaning huzuridan bo'lganda, undan ko'p ixtiloflar topar edilar. (Niso.82)

Allohning kitobidan boshqa har qanday kitobda ixtilof topilar ekan.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

وإن القرآن لم ينزل لتضربوا بعضه ببعض ، ولكن نزل القرآن يصدق بعضه بعضا

"Qur'on ba'zisini-ba'zisiga teskari qilishinglar uchun nozil bo‘lmadi. Lekin Qur'on ba'zisi ba'zisini tasdiqlab nozil bo‘ldi" (Musnadu Ahmad)

Modomiki, konstitutsiyani bir-biriga qarama qarshi qilish mumkin bo‘lmaganidek , Allohning kitobi va Rasulining sunnatini ham hech qachon bir qismini olib boshqa qismiga qarshi qo‘llash joiz bo‘lmaydi. Ularni hammasini jamlab xulosa qilib tushunish lozim.

Xulosa:

16-modda.

Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi davlatning boshqa huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat islom qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

IV bob. Tashqi siyosat

17-modda.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik

yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

Sharh:

1.Xalqaro munosabatlar.

Islomda davlatning tashqi siyosati, xalqaro munosabatlari ham islom qonunlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Qo‘shni davlatlar bilan qachon va qanday ko‘rinishda ittifoqlar tuzish yoki buzish islom ulamolari va boshliqlariga havola qilinadi.

Bu o‘rinda asosiy farqli nuqta "Davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.." degan qism.

Islomda ham indamaganga o'z-o‘zidan indalmaydi. Faqat biz ularni islomga da'vat qilishga buyurilganmiz. Agar tinchlik bilan dinni qabul qilishsa, yaxshi, yoki tinchlik bilan sulhga ko'nsa, sulh ham joiz. Alloh taolo aytadi:

وَإِن جَنَحُواْ لِلسَّلْمِ فَٱجْنَحْ لَهَا وَتَوَكَّلْ عَلَى ٱللَّهِ إِنَّهُۥ هُوَ ٱلسَّمِيعُ ٱلْعَلِيمُ

Agar ular tinchlikka moyil bo'lsalar, sen ham moyil bo'l. Va Allohga tavakkul qil. Albatta, U eshitguvchi va bilguvchi zotdir. (Anfol.61)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Madinaga kelganlarida yahudlar bilan sulh tuzdilar. Ular sulhni buzmaguncha va'dada turdilar. Shuningdek keyinchalik Makka ahli bilan ham sulh tuzdilar.

Ammo yer yuzida kofir bor ekan, hech qachon mo‘minni tinch qo‘ymaydi. Shuning uchun, islomni qabul qilmagan yoki sulhga ko‘nmagan davlatlar bilan Islom davlati urush qilishga buyurilgan.

Chunki biz ularga hujum qilmasak, albatta ular bizga hujum qiladi. Alloh taolo aytadi:

وَلَا يَزَالُونَ يُقَٰتِلُونَكُمْ حَتَّىٰ يَرُدُّوكُمْ عَن دِينِكُمْ إِنِ ٱسْتَطَٰعُواْ

Ular agar qodir bo'lsalar, sizlarni diningizdan qaytargunlaricha sizga qarshi urush qilaveradilar.

(Baqara.217)

Shuning uchun "Boshqa davlatlar sovereniteti" da'vosi garchi birovlarning haq-huquqlarini rioya qilishga o‘xshab ko‘rinsa-da, bu ma'no zaif davlatlar qudratli davlatlarning "mushugini pisht” demasligi uchun o‘ylab chiqilgan.

Chunki voqelikda qarasak, qudratli davlatlarning hech qaysi zaif davlatning suveren tengligini rioya qilmaydi. Balki bevosita yoki bilvosita ularga hukmini o‘tkazadi . Ularning ichki siyosatlariga aralashadi . Ba'zan yerlarini bosib ham oladi. Bunga nomma-nom misol keltirishga hojat yo‘q, hammaga ma'lum va mash'hur.

Islom dini musulmonlarning hech qanday davlatga qaram bo‘lishini istamaydi. Har qanday qudratli davlat qudratining asosi unga hujum qilinishidan oldin u hujum qilishida.

Ali raziyallohu anhu aytadilar :

"Qaysiki qavm o'z yurtida hujumga uchrar ekan, xor bo'ladi "

Ya'ni qudratli davlat dushman bosqinini kutib yurti vayron bo‘lgunicha qarab o‘tirmaydi. Balki avvaldan unga hujum qiladi.

Albatta, buning uchun davlatda qudrat bo‘lishi lozim. Ba'zan faqat mudofaaga cheklanish ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam siyratlarida bor. Ammo "kuch ishlatmaslik, kuch bilan tahdid qilmaslik " deb mutlaq qonun qo‘yish to‘g’ri emas.

Bu ma'nodagi gaplar davlat zaif vaqtida yozilishigina mumkin . Zero, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

الحرب خدعة

"Jang hiyladir" (Buxoriy rivoyati)

3.Chegaralarning daxlsizligi..

Bu ham Islom davlati zaif vaqtida mumkin bo‘ladi. Davlat qudratli vaqti esa atrofdagi davlatlar yo islomni qabul qilgunicha yoki sulh bilan islom hukmi ostiga kirgunicha, ularga urush qilishga buyurilganmiz. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ قَٰتِلُواْ ٱلَّذِينَ يَلُونَكُم مِّنَ ٱلۡكُفَّارِ وَلۡيَجِدُواْ فِيكُمۡ غِلۡظَةٗۚ وَٱعۡلَمُوٓاْ أَنَّ ٱللَّهَ مَعَ ٱلۡمُتَّقِينَ

Ey iymon keltirganlar, sizga yaqin bo'lgan kofirlarga qarshi jang qiling. Ular sizdagi shiddatni ko'rsinlar. Va bilingki, albatta, Alloh taqvodorlar bilan birgadir. (Tavba.123)

Agar sahoba va tobeinlar "Qo‘shni davlatlar chegarasi" deb qarab o‘tirganlarida bizning o‘lkalarga islom yetib bormagan bo‘lar edi.

Boshqa davlatlar suvereniteti yoki chegarasini e'tirof etmaslikdan maqsadimiz ularni talon-taroj qilish emas, balki ularni ikki dunyo saodatiga yetaklash. Asli chegaradan chiqqanlar ular bo'ladi. Chunki yer Allohniki, unda Allohning hukmiga yurmaganlar ana o‘shalar chegaradan chiqqanlar yoki Allohning qonuni ustunligini tan olmaganlardir.

3. Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish..

Agar hamma nizoni tinch yo‘l bilan hal qilish imkoni bo‘lganda, olamlarga rahmat bo'lib kelgan zot Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam hech kim bilan urishmagan bo'lar edilar.

Ibn Hajar rahimahulloh naql qilib aytishlaricha, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam o‘zlari ishtirok etgan va askar jo‘natib qilgan janglari soni 100 ga yaqin. Demak , qanchalik “tinchlikparvar" bo’lsak ham, baribir urushdan behojatlik yo‘q ekan. Shuning uchun bu gap asos qilib olinishi to‘g’ri emas.

4.Xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi..

Xalqaro huquqlar ham islomga zid kelmaydigan bo'lsa e'tirof etiladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Makkada zulmga qarshi ittifoq "Hilful-Fuzul" da ishtirok etganliklari bunga misol. Unda hech qanday islomga zid shartlar yo‘q edi.

5. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin..

Ushbu maqsadlarda tuziladigan ittifoqlarda ham Islomga zid talablar qo‘yilmasligi shart qilinadi, albatta.

Masalan qo‘shni davlatlar musulmon davlat bilan ittifoqlar tuzishda dinga cheklovlar qo‘yishni talab qilsa yoki shunga o‘xshash Islomga zid holatlarda ittifoqqa yo'l qo‘yilmaydi.

Xulosa :

17-modda.

Davlatning xalqaro munosabatlari va uning tashqi siyosati davlatlarni islomga chaqirish, o‘rnida ular bilan sulh tuzish, boshqa chora qolmaganda islomni yetkazish maqsadida qudratga qarab ularga urush qilish kabi islomiy siyosatlarga asoslanadi.

Davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida islomga zid bo‘lmagan ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

IKKINCHI BO‘LIM.

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

V bob. Umumiy qoidalar

18-modda.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’I nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Sharh:

1.Jinsidan qat'iy nazar tenglik..

Islomda ayol o‘ziga kerak bo‘lgan barcha huquqlarda erkak bilan teng.

Ammo ayolga xos bo'lmagan o‘rinlarda erkak bilan teng deyish to‘g'ri emas. Alloh taolo aytadi :

وَلَهُنَّ مِثْلُ ٱلَّذِى عَلَيْهِنَّ بِٱلْمَعْرُوفِ وَلِلرِّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ وَٱللَّهُ عَزِيزٌ حَكِيمٌ.

Va yaxshilik ila ularning burchlari muqobilida haqlari ham bordir. Va erkaklarga ulardan ustun daraja bordir. Alloh aziz va hakimdir. (Baqara.228)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

النساء شقائق الرجال

"Ayollar erkaklarning bir bo‘lagidir" (Abu Dovud)

Demak, erkak va ayollar qisman teng huquqli. Ammo mutlaqligicha teng emas. Va tenglik ularga loyiq ham emas. Chunki erkak o'z qudratiga yarasha huquq va burchlari , ayol ham o'z ayolligiga yarasha huquq va burchlari bor. Erkak bilan ayolni hamma huquqda teng qilish Alloh yaratgan tabiat nizomiga qarshi chiqishdir. Tabiatga qarasak, hamma jonivorlarning erkagining o‘z vazifasi bor, ayolininf o‘z vazifasi bor. Ularni bir xil deyish tabiiylikni izdan chiqaradi. Shu kabi insonning erkagiyu ayolining ham o'z vazifasi bor. (Bu mavzu haqida batafsil ma'lumot uchun 46-modda sharhiga qarang)

2.Insonni irqi, millati rang-ro‘yidan qat'iy nazar tengligi.

Insonni bu narsalar bilan kamsitish Islomda qaytarilgan. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ إِنَّا خَلَقۡنَٰكُم مِّن ذَكَرٖ وَأُنثَىٰ وَجَعَلۡنَٰكُمۡ شُعُوبٗا وَقَبَآئِلَ لِتَعَارَفُوٓاْۚ إِنَّ أَكۡرَمَكُمۡ عِندَ ٱللَّهِ أَتۡقَىٰكُمۡۚ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٞ

Ey odamlar! Biz sizlarni bir erkak va ayoldan yaratdik va sizlarni o'zaro tanishishingiz uchun xalqlar va qabilalar qilib qo'ydik. Albatta, Allohning huzurida eng hurmatlingiz eng taqvodoringizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir. (Hujurot.13)

Demak, Alloh huzurida inson qadri faqat taqvo bilan. Insoniyat bir-birini kamsitishi uchun emas, tanishsin uchun xilma-xil qabila va xalqlarga bo‘lib qo‘yilgan.

Yana aytadi:

وَمِنۡ ءَايَٰتِهِۦ خَلۡقُ ٱلسَّمَٰوَٰتِ وَٱلۡأَرۡضِ وَٱخۡتِلَٰفُ أَلۡسِنَتِكُمۡ وَأَلۡوَٰنِكُمۡۚ إِنَّ فِي ذَٰلِكَ لَأٓيَٰتٖ لِّلۡعَٰلِمِينَ

Va Uning oyat-belgilaridan osmonlaru yerning yaratilishi va tillaringiz va ranglaringizning turlicha bo'lishidir. (Rum.22)

Shunga binoan, insoniyat tili va rangidan qat'iy nazar barobor.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"كلكم من آدم وادم من تراب لا فضل لاعرابى على اعجمى ولا لاسود على الابيض الا بالتقوى"

"Barchanglar odamdan odam esa tuproqdandir. Arabning ajamdan, qoraning oqdan va oqning qoradan taqvodan bo'lak afzalligi yo‘q. (Imom Ahmad rivoyati)

Abu Zar roziyallohu anhu bir qullarini "qoraning bolasi " deb haqoratlab qo'yganlarida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam:

"**Ey Abu Zar ! Sen uni onasi bilan haqorat qildingmi ?! Sen johiliyati bor kishi ekansan-ku ",** degan edilar**.**

(Muslim rivoyati)

Insonni rang-ro‘yi sabab ajratish johiliyat deb nomlanar ekan.

Bunga yana bir misol, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ba'zi ayollari Sofiya onamiz yahudiylikdan kelib chiqqanliklari sabab u kishini "Yahudiyni qizi" deyishar edi. Sofiya onamiz bundan hafa bo'lib Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga shikoyat qilganlarida aytdilar :

"**Sen ularga : Horun otam, Muso esa amakim demadingmi "** (Termiziy rivoyati)

Demak, insonni o‘tmishi bilan kamsitish ham mumkin emas.

Johiliyatdan qolgan bu sarqitni yo’qotish uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Makka fathidan so‘ng qora qullikdan chiqqan Bilol roziyallohu anhuni Ka’batullоh ustiga chiqarib azon ayttirdilar, toki odamlar islom qora qulni qanday aziz qilganini ko‘rsinlar!

2.Tilidan qat'iy nazar..

Yuqorida aytib o‘tilganidek, insonlar tillari xilma-xilligi Allohning ilohiy irodasi.

(4-modda sharhiga qarang)

4. Dinidan qat'iy nazar.

Islom davlatida yashovchilar musulmon bo‘lsin, kofir bo‘lsin, insoniy ehtiyojlarida teng bo'ladi.

Ammo e'tiqodda ba'zi istisnolar bor.

(1) E'tiqod jihatidan musulmon bilan kofir teng emas. Alloh taolo aytadi :

لَا يَسْتَوِىٓ أَصْحَٰبُ ٱلنَّارِ وَأَصْحَٰبُ ٱلْجَنَّةِ أَصْحَٰبُ ٱلْجَنَّةِ هُمُ ٱلْفَآئِزُونَ

Do'zax egalari va jannat egalari teng bo'lmaslar. Jannat egalari, o'shalar yutuqqa erishuvchilardir

(Hashr.20)

Yana aytadi:

أَمْ نَجْعَلُ ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَعَمِلُواْ ٱلصَّٰلِحَٰتِ كَٱلْمُفْسِدِينَ فِى ٱلْأَرْضِ أَمْ نَجْعَلُ ٱلْمُتَّقِينَ كَٱلْفُجَّارِ

Yoki Biz iymon keltirib, solih amallar qilganlarni yer yuzida buzg'unchilik qiluvchilar kabi qilarmidik?! Yoki Biz taqvodorlarni fojirlar kabi qilarmidik?! (Sod.28)

Bu kabi ko‘plab oyatlarda Alloh mo‘min bilan kofirni teng emasligini ta'kidlagan.

(2) Musulmonlarga boshliqlik kabi siyosiy mansablarda ular musulmonlar kabi huquqli emas. (Xalifa, viloyat hokimi, qozilik va hokazo...) Alloh taolo aytadi:

وَلَن يَجْعَلَ ٱللَّهُ لِلْكَٰفِرِينَ عَلَى ٱلْمُؤْمِنِينَ سَبِيلًا .

Alloh hargiz kofirlarga mo'minlar ustidan yo'l bermas. (Niso.141)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

(الاسلام يعلوا ولا يعلى عليه)

"Islom ustun bo'ladi, unga ustun bo‘linmaydi" (Bayhaqiy)

Ular faqat o'z dinlariga oid shaxslar ustidan boshqaruv mansabga haqli bo‘ladilar.

(O'z shaharlariga musulmonlarga tobe ko‘rinishda boshliqlik qilishlari , o'z dindoshlariga qozilik qilishlari va hokazo..)

(3) Ular musulmonlar ayollariga uylanishlari mumkin emas. Alloh taolo aytadi :

لَا هُنَّ حِلٌّ لَّهُمْ وَلَا هُمْ يَحِلُّونَ لَهُنَّ

Bu (ayol)lar u(kofir)larga halol emas va ular ham bu(mo‘mina)larga halol bo'lmaslar. (Mumtahana.10)

(4) Musulmonlarga qarshi guvohliklari qabul qilinmaydi.

Chunki guvohlikda adolat va islom shart qilinadi. Alloh taolo aytadi:

وَأَشْهِدُواْ ذَوَىْ عَدْلٍ مِّنكُمْ

va siz o'zingizdan ikki adolatli kishini guvoh qilinglar. (Taloq.2)

Oyatdagi "**o'zingizdan**" so‘zi ya'ni "musulmonlardan" demakdir.

(5) Kofir sabab musulmondan qasos olinmaydi.

Ya'ni biror musulmon kofirni o'ldirib qo‘ysa, o'lgan kofirni deb musulmonni o'ldirilmaydi. Chunki agar u kofir musulmon davlatga urush qilgan davlat fuqarosi bo'lsa, uning qoni shundoq ham halol. Agar biz bilan ular o‘rtasida ahd bor kofirlardan bo'lsa, yoki ahli zimmalardan bo'lsa, u holda ularga o'lgan kishi uchun diya (tovon puli) to'laymiz. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

لا يقتل مسلم بكافر

“Musulmon kishini kofir sabab o'ldirilmaydi” (Buxoriy rivoyati)

(Diya ahkomlari tafsiloti uchun fiqh ilmiga murojaat qilinadi)

Mana shu kabi ba'zi istisnolardan boshqa maishiy huquqlarda kofirlar va musulmonlar teng huquqli hisoblanadilar. Va islom davlati ularni himoya qiladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من قتل معاهدا لم يرح رائحة الجنة ولو كان المقتول كافرا

"Kimda-kim ahd berilgan kishini o‘ldirsa, jannatning hidini ham hidlamaydi. Agarchi o'ldirilgan kishi kofir bo‘lsa ham" (Buxoriy rivoyati)

Ulamolarda fiqhi qoida tarzida aytiladi :

"Bizning zimmamizda qanday huquq va burchlar bo‘lsa, ularning zimmasida ham shunday huquq va burchlar bor. Bu qoida Ali roziyallohu anhuning ahli kitoblar haqida hukmlaridan olingan.

5.Itimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar..

Islom nazdida inson amal qilsa, uning kimdan kelib chiqqani, qanday oiladan ekani unga zarar qilmaydi.

Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ إِنَّا خَلَقۡنَٰكُم مِّن ذَكَرٖ وَأُنثَىٰ وَجَعَلۡنَٰكُمۡ شُعُوبٗا وَقَبَآئِلَ لِتَعَارَفُوٓاْۚ إِنَّ أَكۡرَمَكُمۡ عِندَ ٱللَّهِ أَتۡقَىٰكُمۡۚ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٞ

Albatta, Allohning huzurida eng hurmatlingiz eng taqvodoringizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir. (Hujurot. 13)

Ikrima roziyallohu anhuning otasi ummatning fir'avni Abu Jahl edi. Ammo Ikrima bu bilan aybdor qilinmadi. Balki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uning oldida otasini yomonlashdan qaytardilar.

6.shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi.

Islomda ham kishi amal qilmasa, u qanday shaxs ekani, ijtimoiy mavqei foyda bermaydi.

Alloh ta'olo tahrim surasining 10 -oyatida Nuh va Lut alayhissalomlar xotinlari do‘zaxiy ekanini xabar qildi. Ular amal qilmagach, payg'ambar ayoli ekanliklari foyda bermadi.

Va Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam qizlariga aytdilar :

"يا فاطمةُ بنتَ مُحَمَّدٍ لا أُغْنِي عنكِ من اللهِ شيئًا"

“Ey Fotima bintu Muhammad, men sen uchun Alloh oldida hech narsaga molik emasman”

(Buxoriy rivoyati)

Islom dinidan boshqa har qanday tuzumda bu so‘zlar qog‘ozdan nariga o‘tmaydi. Demokratiyani da'vo qilgan davlatlarda ham insonlar rangi, millati, shahar yoki qishloqdan ekani bilan ajratiladi.

Dinidan qat'iy nazar tenglik da'vosi ham faqat qog‘ozlarda. Diniy tenglik faqat kofirlar manfaatlari uchun chiqarilgan da'volar. Musulmonlarga kelganda ularning huquqlarini hech kim himoya qilmaydi.

Shuningdek, siyosiy mansablarda ham islomga yaqinroq kishilarni yaqinlashtirmaydilar.

Hatto ta'lim tizimida ham bunday ajratishni ko‘rishingiz mumkin. Istagan tilingizni o'rganing, o‘rgating, hech kim sizga qarshilik qilmaydi. Ammo arab tilini o‘rganib, o‘rgatish sabab har xil bahonalar bilan kishi jinoyatchiga aylantiriladi..

7.Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Demak, istisno tariqasida imtiyoz yoki ajratish har qanday davlatda bor. Shunga binoan islomda musulmon kofirdan ba'zi imtiyozlari adolat bilan joriy qilinganini ham qabul qilish kerak.

Shunindek, biz "Ijtimoiy adolat" emas "Islomiy adolat" ga mos bo‘lishini shart deymiz.

Xulosa :

18-modda

Davlatdagi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Erkak ayoldan ba'zi o‘rinlarda imtiyozli huquqlari bor.

Shuningdek, musulmonlar ham kofirlardan ba'zi imtiyozlarda farqli bo‘ladilar.

Imtiyozlar faqat Islom qonuni bilan belgilanib qo‘yiladi hamda Islomiy adolatiga mos bo‘lishi shart.

19-modda.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Sharh:

1.Davlat va fuqarolar o‘rtasidagi huquq va burchlar.

Islomda ham fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan huquq va burchlarini ado qilishlari shart.

Hatto ommaning manfaati uchun ba'zan shaxslar o'z huquqlaridan davlatga kechib yuborishlariga chaqirilgan.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam o'zlaridan so‘ng zolim boshliqlar bo‘lishi haqida xabar qilganlarida sahobalar “shunday zamon kelsa, nima qilaylik” deb so‘radilar. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

"تؤدون الذي عليكم وتسألون الله الذي لكم”

Unday boshliqlarga zimmanglardagi burchlaringni ado qilasizlar. O'z huquqlaringni esa Allohdan so'raysizlar" (Buxoriy rivoyati)

Faqat buning sharti, davlat Allohning kitobi asosida boshqarilishi va boshliqlar namoz o‘qishi kerak.

(Muslim rivoyat qilgan hadisga binoan)

2."sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas"

Islomda ham shunday. Qozi oldida hujjat qoim qilinmasdan hech kimni jazolanmaydi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam siyratlaridan bunga bir misol, Bahz ibn Hakim otalaridan rivoyat qiladi. U kishining qo‘shnilari tutqunlikda ushlab turilganda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga aytdim: "Nima asos bilan ular

tutqunlikda?" Shunda gumonga asos yo‘qligi sabab Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: **"Qo‘shnisini qo‘yib yuboringlar"**, dedilar.

(Abu Dovud rivoyati)

Bunga yana bir misol, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida qancha munofiqlar yashar edi. Ammo ularga isbot bilan hukm qo‘yilmagani sabab hech kim ularni jazolashiga ruxsat berilmas edi.

Demak, sud qarori bilan isbotlanmasdan jinoiy javobgarlikka tortmaslikka mana shu qissa bir dalil bo‘ladi.

Hanafiy mazhabi olimi Abu Yusuf rahimahulloh aytadilar:

"Bir kishining isbotlanmagan ayblovini deb boshqa bir kishini tutqunlikda ushlanmaydi"

Ammo bugungi demokratik yoki diktator davlatlardagi hayotga qarasak, buning aksini ko‘ramiz. Sud qarori hamma ishlar hal bo‘lgach nomiga chiqariladi. Hech qanday asossiz quruq shubhalar ostida kishilar azoblanadi va tutqunlikda majburlar jinoyatga iqror qildiriladi.

Bu qonunlar haqqoniy bo‘lishi uchun qozi yoki sudyalar to‘liq vakolatli bo'lishi kerak. Islomda qozilikka Allohdan boshqadan qo‘rqmaydigan shaxs tanlanadi. Shunda u qozi hokimga ham, xalqqa ham adolat bilan hukm qila oladi. Islom tarixida qozi Shurayh xalifa Ali raziyallohu anhuga qarshi bir yahudiyni foydasiga hukm chiqarganlari bunga bir misol bo'ladi.

Xulosa:

19-modda

Fuqarolar va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar. Fuqarolarning islomiy qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan islomiy sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

20-modda.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Sharh:

Islomda ham kishining erkinligi birovga zarari tegmagan holda bo‘lishi kerak. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zararkunandalikdan qaytarib aytadilar:

لا ضرر ولا ضرار

"**Zarar yetkizish va zarar berish yo‘q "** (Ibn Moja)

Hadisning bir ma'nosida ulamolar aytadilar: "Birovga beixtiyor yoki qasd bilan zarar berish mumkin emas" islomda insonning ba'zi erklarini cheklashdan maqsad ham shu bo'ladi. Ammo nafsi havosini qondirishga demokratiyadan boshpana topganlar buni inson erkini cheklash deb o‘ylaydilar.

Tasavvur qiling bir kishi yo‘lning o‘rtasida cho‘zilib yotib "mening erkinligim" desa, unga sukut qilshimiz kerakmi ?! Yo’q, albatta! Chunki bu boshqalarning huquqiga tajovuz. Islomdagi ta'qiq va buyruqlar ham shu kabi. Masalan, ayol kishiga hijob buyrug‘i, erkaklarga ayolga qarashdan qaytariqlar hammasi shu ma'no uchun. Chunki hijobsiz ayol ko‘chada hamma erkakning shahvoniy hislarini uyg‘otadi. Uni qondirishga imkoni yo‘qlar bundan ozorlanadi. Erkak kishi ko'chadagi ayollarga qarab o'z ayolidan ko‘ngli to'lmasligi holatlari kelib chiqib, buning zararidan oilalar buzilishi ham mumkin. Erkak kishi ayollarga qarashi qaytarilganida ham shunday ma'no bor.. Chunki bu ayollarni ham fitnalashga sabab bo‘ladi.

Erkaklarga "ko‘zini tiysin" deyishdan oldin ayollarni ham ko‘cha-kuyda "Avratini yopsin" deyiladi. Bir ayolning "Shaxsiy erkinligi"ni cheklash ko‘chadagi minglagan erkaklarning ko‘zini cheklashdan osonroq !

Tanbeh!

Birovning haq-huquqiga zarar bermaslik ma'nosini shar'iy me'yorlar bilan qaydlash lozim. Hech kim "menga zarar beryapti" da'vosi bilan islom buyurgan ishlarga qarshilik qilishi mumkin emas.

Misol qilib aytsak, "uyqumni buzdi " da'vosi bilan azonni baland aytishdan shikoyat qilishi mumkin emas. Chunki azon Alloh va Rasulining buyrug‘i. Undan maqsad, odamlarni uyg‘otish va namozga chaqirish.

Shuningdek "shaxsiy fikr" da'vosi bilan Allohni, payg'ambarni, dinni va boshqa muqaddas e'tiqodlarni masxaralash mumkin emas. Chunki bu erkinlik Allohni , Rasulini va ularga iymon keltirgan musulmonlarning haqqiga tajovuz. Bunda ularning konstitutsiyaviy qonuniga ko‘ra qarasak ham, birovning haqqiga tajovuz bo‘lgan erkinlikka ruxsat berilmasligi kerak.

Xulosa:

20-modda

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning shariat doirasidagi manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

VI bob. Fuqarolik

21-modda.

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1. Yagona fuqarolik.

Birlik islomda asosiy maqsadlardan. Nafaqat o'zbek nomi ostida, balki butun yer yuzidagi musulmonlar bir millat va davlat fuqarosi bo‘lishiga targ‘ib qiladi. Alloh taolo aytadi:

إِنَّ هَٰذِهِۦٓ أُمَّتُكُمْ أُمَّةً وَٰحِدَةً وَأَنَا۠ رَبُّكُمْ فَٱعْبُدُونِ

Albatta, sizning ushbu ummatingiz bir ummatdir va Men sizning Robbingizman. Bas, Mengagina ibodat qiling.

وَتَقَطَّعُوٓا۟ أَمْرَهُم بَيْنَهُمْ ۖ كُلٌّ إِلَيْنَا رَٰجِعُونَ

Ular esa ishlarini parchaladilar. Barchalari Bizga qaytuvchidirlar. (Anbiyo. 92-93)

2.O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’I nazar, hamma uchun tengdir.

Islomda ham dinga kirgan har qanday shaxs boshqa fuqarolar bilan teng huquqli bo'ladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam yangi islomga kiruvchilar bilan qadimdan musulmon bo‘lganlar haqida aytadilar :

"لهم ما لنا وعليهم ما علينا"

"Bizning qanday huquqlarimiz bo'lsa, ularning ham shunday huquqlari bor. Bizning qanday majburiyatimiz bo'lsa, ularning ham shunday majburiyatlari bor" (Muslim rivoyati)

Ammo islomga kirmagan fuqarolar ba'zi istisnolardan tashqari ular ham aksar huquqlarda musulmonlar bilan teng. (Batafsil ma'lumot uchun 18-modda sharhiga qarang)

3.Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Islomda qonunlar har qanday davlatda bir xil. Shuning uchun Qoraqalpog‘iston haqida alohida to‘xtalib o‘tirishga hojat yo‘q.

4.Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi

Kimga fuqarolik berish yoki bekor qilish islom olimlari ijtihodiga havola qilingan.

Alloh taolo aytadi :

وَإِنْ أَحَدٌ مِّنَ ٱلْمُشْرِكِينَ ٱسْتَجَارَكَ فَأَجِرْهُ حَتَّىٰ يَسْمَعَ كَلَٰمَ ٱللَّهِ ثُمَّ أَبْلِغْهُ مَأْمَنَهُۥ ذَٰلِكَ بِأَنَّهُمْ قَوْمٌ لَّا يَعْلَمُونَ

Agar mushriklardan birontasi panoh so'rasa, unga panoh ber, toki u Allohning kalomini eshitsin. So'ngra uni omonlik joyiga etkazib qo'y. Bu ularning bilmaydigan qavm bo'lganlari uchundir.(Tavba.6)

Fuqarolik berish omonlik berish ma'nosi ostiga kiradi. Oyatdan ko‘rinib turganidek, bu ish musulmon boshqaruvchilar vakolatiga topshirilgan.

Ba'zan islom davlatidagi kofirlarning fuqaroligini bekor qilmaslik ham afzal. Chunki bu bilan ularni mustaqil davlat va o‘zlariga xos fuqarolik talab qilishlariga asos yaratib berilgan bo‘lib qoladi. Keyinchalik Islom davlati va musulmonlarga xatar olib kelishi mumkin. Buning misollarini yaqin tarixda yahudiylarda ko‘rildi. Ular avval Usmoniy davlatdan ajralishni talab qilib, oxiri Isroil davlatini tashkil qildilar..

Xulosa :

21-modda

Davlatning butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.

Fuqarolik unga qanday asoslarda ega bo‘lganidan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.

Musulmon davlatda yashovchi ahli zimma ham ushbu davlat fuqarosi sanaladi. Ularning huquqlarida ba'zi istisnolar islom qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi islom qonunlari bilan belgilanadi.

22-modda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Sharh:

Islomda davlat yer yuzidagi barcha musulmonlar uchun himoya qalqoni hisoblanadi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

وإنَّما الإمَامُ جُنَّةٌ يُقَاتَلُ مِن ورَائِهِ ويُتَّقَى به

"Boshliq qalqondir. Uning ortida urush qilinadi va u bilan himoyalaniladi" (Buxoriy rivoyati)

Ammo musulmonlar Islom davlati ularni himoya qilishi uchun avvalo unga hijrat qilishlari kerak.

Hijratga qodir bo'lmagan holatlarida Islom davlati va musulmonlardan ularni himoya qiladi. Bundan faqat qo‘shni davlatlar bilan sulh holatlari mustasno. Bu ma'nolar haqida Alloh taolo aytadi:

إِنَّ ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَهَاجَرُواْ وَجَٰهَدُواْ بِأَمۡوَٰلِهِمۡ وَأَنفُسِهِمۡ فِي سَبِيلِ ٱللَّهِ وَٱلَّذِينَ ءَاوَواْ وَّنَصَرُوٓاْ أُوْلَٰٓئِكَ بَعۡضُهُمۡ أَوۡلِيَآءُ بَعۡضٖۚ وَٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَلَمۡ يُهَاجِرُواْ مَا لَكُم مِّن وَلَٰيَتِهِم مِّن شَيۡءٍ حَتَّىٰ يُهَاجِرُواْۚ وَإِنِ ٱسۡتَنصَرُوكُمۡ فِي ٱلدِّينِ فَعَلَيۡكُمُ ٱلنَّصۡرُ إِلَّا عَلَىٰ قَوۡمِۭ بَيۡنَكُمۡ وَبَيۡنَهُم مِّيثَٰقٞۗ وَٱللَّهُ بِمَا تَعۡمَلُونَ بَصِيرٞ

Albatta, iymon keltirgan, hijrat qilgan, Allohning yo'lida molu jonlari bilan jihod qilganlar va joy berib, yordam ko'rsatganlar, ana o'shalar bir-birlariga

valiy(yordamchi)dirlar. Iymon keltirgan, ammo hijrat qilmaganlarga esa, to hijrat qilmagunlaricha, siz hech valiy bo'la olmassiz. Agar ular sizdan dinda yordam so'rasalar, yordam bermog'ingiz vojib. Faqat siz bilan o'rtalarida ahdnoma bor qavm ziddiga emas. Alloh nima qilayotganingizni ko'rguvchi zotdir. (Anfol.72)

Bunday musulmonlar garchi siyosiy ma'noda Islom davlatiga tobe bo‘lmasalar ham, aqida ma'nosida unga tobelar. Shuning uchun kofirlar bilan sulh bo'lmagan holatlarda ularning qo‘lidagi chorasiz musulmonlarga yordam berish lozim. Bu haqida Alloh taolo aytadi:

وَمَا لَكُمْ لَا تُقَٰتِلُونَ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ وَٱلْمُسْتَضْعَفِينَ مِنَ ٱلرِّجَالِ وَٱلنِّسَآءِ وَٱلْوِلْدَٰنِ ٱلَّذِينَ يَقُولُونَ رَبَّنَآ أَخْرِجْنَا مِنْ هَٰذِهِ ٱلْقَرْيَةِ ٱلظَّالِمِ أَهْلُهَا وَٱجْعَل لَّنَا مِن لَّدُنكَ وَلِيًّا وَٱجْعَل لَّنَا مِن لَّدُنكَ نَصِيرًا

Nima uchun Allohning yo'lida va: «Ey Robbimiz, bizni ahli zolim shahardan chiqargin, bizga O'z tomoningdan do'st ato qilgin va O'z tomoningdan nusratchi ato qilgin», deyotgan zaifhol erkagu ayol va bolalar yo'lida jang qilmaysizlar?! (Niso.75)

Xulosa:

22-modda

Davlat o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini va barcha musulmonlarni huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Qo‘shni davlatlar bilan sulh holatlari bundan mustasno.

23-modda.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi.

Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

Sharh:

1. Chet davlat fuqarolari huquqlari.

Islom davlatida chet davlatlar fuqarosi huquq va va erkinliklari Islom qonunlariga muvofiq o‘zaro kelishuvlar asosida ta'minlanadi. Bu ma'noga ushbu oyatda ishora bor:

وَإِنْ أَحَدٌ مِّنَ ٱلْمُشْرِكِينَ ٱسْتَجَارَكَ فَأَجِرْهُ حَتَّىٰ يَسْمَعَ كَلَٰمَ ٱللَّهِ ثُمَّ أَبْلِغْهُ مَأْمَنَهُۥ ذَٰلِكَ بِأَنَّهُمْ قَوْمٌ لَّا يَعْلَمُونَ

Agar mushriklardan birontasi panoh so'rasa, unga panoh ber, toki u Allohning kalomini eshitsin. So'ngra uni omonlik joyiga etkazib qo'y. Bu ularning bilmaydigan qavm bo'lganlari uchundir.(Tavba.6)

Unga zarar yetkazish qat'iyan man etiladi. Bu haqida Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam aytdilar :

من قتل معاهدا لم يرح رائحة الجنة ولو كان المقتول كافرا

"Kimda kim ahd berilgan kishini o‘ldirsa jannatning hidini ham hidlamaydi. Agarchi o'ldirilgan kishi kofir bo‘lsa ham" (Buxoriy rivoyati)

2. Xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi.

Xalqaro huquq normalari har doim ham islom qonunlariga muvofiq bo‘lavermaydi. Shuning uchun bu o‘rinda "islom qonunlariga zid bo‘lmagan holatlarda " qaydini qo‘shish lozim bo'ladi.

3.Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

Davlat islom qonunlariga muvofiq boshqarilib aksari musulmonlardan iborat ekan, chet davlatlardan kelganlar Islom qonunlariga bo‘ysunishi va musulmonlar urf-odatlarini hurmat qilishlari, ularning g'ashiga tegadigan hatti-harakatlar qilmasliklari ulardan talab qilinadi.

Xulosa :

23-modda

Davlat hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari Islom qonunlariga zid bo'lmagan xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi.

Ular Islom davlati konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

Chet davlat fuqarolari musulmonlar urf-odatlarini hurmat qilishlari, ularning g'ashiga tegadigan hatti-harakatlar qilmasliklari ulardan talab qilinadi.

VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar

Sharh:

Hech qaysi davlatda insonga mutlaqligicha shaxsiy erkinlik va huquq berilmaydi. Huquq va erkinliklar, albatta, qonunlar bilan cheklanadi.

Islomda ham Allohning qonunlari bilan cheklangan miqdorda insonga shaxsiy huquqlari beriladi.

Nafaqat hur inson, balki qul insonning ham huquqlari ta'minlanadi. Buni quyida ba'zi misollari bilan guvohi bo‘lamiz.

24-modda.

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

Sharh:

Nohaq odam o'ldirishga eng qattiq kurashgan nizom islom dinidir .

Islomda, dinni muhofaza qilishdan keyingi vojibotlardan biri inson jonini nohaq o'ldirilishdan himoya qilish. Bir jonni nohaq o‘ldirish butun insoniyatni nohaq o‘ldirishga teng. Alloh taolo aytadi:

أَنَّهُۥ مَن قَتَلَ نَفْسًۢا بِغَيْرِ نَفْسٍ أَوْ فَسَادٍ فِى ٱلْأَرْضِ فَكَأَنَّمَا قَتَلَ ٱلنَّاسَ جَمِيعًا وَمَنْ أَحْيَاهَا فَكَأَنَّمَآ أَحْيَا ٱلنَّاسَ جَمِيعًا

«Kim bir jonni nohaqdan yoki yer yuzida fasod qilmasa, ham o'ldirsa, xuddi hamma odamlarni o'ldirgan bo'ladi. Kim uni tiriltirsa, xuddi hamma odamlarni tiriltirgandek bo'ladi»(Moida.32)

Islomda qasos ya'ni o'lim hukmi ham boshqa yaxshi jonlarning hayotini saqlab qolish uchun joriy qilingan. . Alloh taolo aytadi:

وَلَكُمْ فِى ٱلْقِصَاصِ حَيَوٰةٌ يَٰٓأُو۟لِى ٱلْأَلْبَٰبِ لَعَلَّكُمْ تَتَّقُونَ

Sizlarga qasos olishda hayot bor. Ey aql egalari! Shoyadki taqvodor bo'lsangiz. (Baqara:179)

Qasos qalbdagi nafratni qondirish emas, balki oliy maqsad – hayot uchun ekan. Qasos olish yo'lga qo'yilsa, inson hayotini saqlab qolishda katta ish qilingan bo'ladi. Chunki har bir odam boshqa birovni o'ldirsa, qasosiga o'zining ham o'ldirilishini biladi va hech qachon odam o'ldirishga qo'l urmaydi.

Agar nohaq o'ldirilgan kishi mo‘min bo‘lsa, jazo undanda og‘irroq. Alloh taolo aytadi:

وَمَن يَقْتُلْ مُؤْمِنًا مُّتَعَمِّدًا فَجَزَآؤُهُۥ جَهَنَّمُ خَٰلِدًا فِيهَا وَغَضِبَ ٱللَّهُ عَلَيْهِ وَلَعَنَهُۥ وَأَعَدَّ لَهُۥ عَذَابًا عَظِيمًا

Kim bir mo'minni qasddan o'ldirsa, uning jazosi jahannamdir. Unda abadiy qolur. Unga Allohning g'azabi va la'nati yog'ilur. Va Alloh unga ulkan azobni tayyorlagandir. (Niso:93)

Nafaqat birovni, balki inson o‘zini o'ldirishi ham og‘ir jinoyat deyildi. Alloh taolo aytadi:

وَلَا تَقْتُلُوٓا۟ أَنفُسَكُمْ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ بِكُمْ رَحِيمًا

O'zingizni o'zingiz o'ldirmang. Albatta, Alloh sizlarga rahmlidir. (Niso:29)

Bu ma'noda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"ومن قتل نفسه بشيء عذب به في نار جهنم"

"Kim o‘zini nima bilan o'ldirsa, o‘sha bilan jahannam olovida azoblanadi" (Buxoriy rivoyati)

Chunki jon insonga omonat qilib berilgan Allohning mulkidir.

Ammo ba'zan inson yashashi boshqalarga zararli bo'lib, uning hayotidan ma'no qolmaydi. Shunda uning joni hurmati ham qolmaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

رَسُــولُ اللَّهِ ﷺ: لَا يَحِلُّ دَمُ امْرِئٍ مُسْــلِمٍ يَشْــهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ، وأَنِّي رَسُــولُ اللَّهِ، إِلَّا بِإِحْدَى ثَلَاثٍ: الثَّيِّب الزَّانِي، والنَّفْس بِالنَّفْسِ، والتَّارِك لِدِينِهِ الْمُفَارِق لِلْجَمَاعَةِ

"Allohni yolgi'z iloh , Muhammad (alayhissalam)ni payg‘ambar deb guvohlik bergan musulmon kishining qoni uch narsaning biridan boshqa holatda halol bo‘lmaydi.

1-Uylanib zino qilganda,

2-Jonga jon qasos olinganda,

3-Dinini tark qilib jamoatdan ajralganda" (Buxoriy va muslim)

Zararkunandalarni yo’qotish tabiatdagi Allohning qonunlaridan. Agar yerdan o‘sgan har qanday o‘simlikni qo‘yib bersak, foydali o‘simliklarga kun qolmaydi. Yoki daraxt to‘g'ri o'sishligi uchun uning yon-atrofini butalab turish zarur. Shu kabi insonni ham zararkunandasi yo’qotilishga mahkum.

Xulosa:

24-modda

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson o‘zining yoki boshqaning hayotiga nohaq suiqasd qilishi eng og‘ir jinoyatlardan.

Islomda insonning qoni halol qilingan o‘rinlar bundan mustasno.

25-modda.

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Sharh:

Islomda hozirgi tuzumlar kabi insonni hayvon kabi yillar mobaynida tutqunlikda ushlab turish yo‘q.

Shuning uchun na Qur'onda, na hadislarda qamoq jazosiga ochiq buyruq kelmagan. Bu islomning bugungi tuzumlardan farqlaridan.

Bugungi tuzumlarda aksar jinoyat jazosi ozodlikdan mahrum qilish. Bu ko‘pincha jinoyatchiga zulm. Islomda insonga jinoyatidan oshiqcha jazo berilishi mumkin emas. Shuning uchun jinoyatlarga mos jazolar belgilangan. Masalan, o'g'rining qo‘lini kesish, zinokorni darralash, qotilni o'ldirish va hokazo.. Ammo boshqa tuzumlarga qarasak bu jinoyatlarga faqat qamoq jazosi belgilangan.

Keyin islomda jazo jinoyatchidan boshqaga o‘tmaydi. Masalan, qo'li kesilgan yoki darralangan inson faqat o‘zi jazosini oladi. Qamoq jazosida esa unga qo‘shib yillar mobaynida qarovchisiz qolgan uning oilasi, farzandlari tinchligi buziladi. Va qamoqdagi jinoyatchi ularga yillar mobaynida yuk bo'ladi.

islomdagi qamoq jazosi jinoyatchilarni tergov qilish va tarbiyalash maqsadida ba'zi o‘rinlarda ruxsat beriladi. Shu asosda islomda birinchi qamoqxona Umar raziyallohu anhu xalifalik davrlarida tashkil qilingan. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam davrlarida esa alohida qamoqxona yo‘q edi. Asirlar yoki boshqa jinoyatchilar vaqtincha masjidda ushlab turilar edi.

“Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas”

Islomda qozi oldida hujjat qoim qilinmasdan hech kimni jazolanmaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam siyratlaridan bunga bir misol:

Bahz ibn Hakim otalaridan rivoyat qiladi. U kishining qo‘shnilari tutqunlikda ushlab turilganda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga aytdim: "Nima asos bilan ular tutqunlikda?" Shunda gumonga asos yo‘qligi sabab Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: **"Qo‘shnisini qo‘yib yuboringlar"** (Abu dovud rivoyati)

Umar raziyallohu anhu aytadilar :

"Islomda kishini adolatsiz tutqunlikda ushlanmaydi"

(Batafsil ma'lumot uchun 19-modda sharhiga qarang)

Xulosa:

25-modda

Har kim Islom doirasida erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim islom qonunlariga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

26-modda.

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

Sharh:

1."Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi.”

Insonlarni beayb jazoga tortilmasligi islom maqsadlaridan. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

لو يعطى الناس بدعواهم، لادعى رجالٌ أموال قومٍ ودماءهم، لكن البينة على المدَّعِي، واليمين على من أنكر)

Agar odamlarga da'volari bilan talablari berilaversa, bir odamlar boshqa qavmlarning mollari va qonlarini da'vo qilar edilar ! Lekin da'vo qiluvchi dalil keltirishi lozim, inkor qiluvchi esa qasam ichishi kerak " (Bayhaqiy rivoyati)

Demak, kim nimani da'vo qilsa, qozi oldida dalil keltirishi kerak ekan. Aks holda, xohlagan odam birovning molini, jonini halollab ketaveradi. Islom bunday adolatsizlikni oqlamaydi.

2. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi.

Islomda hatto kofirlar o‘zini himoya qilishiga, dalili bo‘lsa, keltirishga buyuriladi. Alloh taolo aytadi:

قُلْ هَاتُواْ بُرْهَٰنَكُمْ إِن كُنتُمْ صَٰدِقِينَ

«Agar rostgo'y bo'lsangiz, hujjatingizni keltiring», deb ayt. (Baqara .111)

Yana aytadi :

وَلَمَنِ ٱنتَصَرَ بَعْدَ ظُلْمِهِۦ فَأُوْلَٰٓئِكَ مَا عَلَيْهِم مِّن سَبِيلٍ

Albatta, kim o'ziga bo'lgan zulmdan keyin nusrat qozonsa, (o'zini himoya qilsa), bas, undaylarni (ayblashga) hech yo'l yo'q. (Sho'ro.41)

Islomda ayblanuvchi hatto qush bo'lsa ham, uning dardi tinglandi va o‘zini himoya qilish huquqi berildi.

Sulaymon alayhissalam Hudhud qushiga aytdilar :

قَالَ سَنَنظُرُ أَصَدَقْتَ أَمْ كُنتَ مِنَ ٱلْكَٰذِبِينَ

«Ko'ramiz, rost so'zladingmi yoki yolg'onchilardan bo'ldingmi? (Naml.27)

Hatto qushga o‘zini himoya qilishga imkoniyat berdilar. (Naml surasiga qarang)

Insonparvarlikni da'vo qiluvchi bugungi kufr tizimlarida islomda parrandaga berilgan qadri-qimmatni insonga berishmaydi.

Inson qozi oldida imkon qadar o'zini haqqini talab qilishi, birovning haqqidan qo‘rqishi haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

إِنَّمَا أَنَا بشَــرٌ، وَإِنَّكُمْ تَخْتَصِــمُونَ إِلَيَّ، وَلَعَلَّ بَعْضَــكُمْ أَنْ يَكُونَ أَلْحَنَ بِحُجَّتِهِ مِنْ بَعْضٍ؛ فأَقْضِــي لَهُ بِنحْوِ مَا أَسْمَعُ، فَمَنْ قَضَيْتُ لَهُ بحَقِّ أَخِيهِ فَإِنَّمَا أَقْطَعُ لَهُ قِطْعَةً مِنَ النَّارِ

"Men ham bir odamman. Sizlar menga talashib kelasizlar. Ehtimol ba'zinglar hujjatda ba'zinglardan tili burro bo'lar. Men eshitganimga ko‘ra uning foydasiga hukm qilib beraman. Kimgaki birodarining haqqini hukm qilib bergan bo‘lsam, unga do‘zaxdan bir bo‘lak bergan bo'laman ! (Buxoriy, Muslim)

Demak, kishi o‘zining hujjatiga usta bo‘lishi va o‘z navbatida birovning haqqidan qo‘rqishi ham kerak ekan.

3. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Insonni qiynab hech qachon undan to‘g'ri ma'lumot olib bo‘lmaydi. Inson qiynoqdan qutulish uchun hamma narsaga tayyor bo'lib qoladi. Shuning uchun islomda qiynab ma'lumot olinmaydi. Bunga misol tarzda Badr jangidan avvalgi hodisani keltirish mumkin.

Sahobalar quroyshlik ikki cho‘pon yigitni ushlab kelib tergov qilib Abu Sufyon boshchilik karvon haqida so‘raydilar. Ular na karvonning, na Abu Sufyonning xabarini bilishmasligini aytishadi.

Shunda sahobalar bunga ishonmay ularni ura boshlaydilar. Qachonki og'riq jonlaridan o‘tgach, yolg'ondan o‘zlarini Abu Sufyonning xizmatkori ekanini e'tirof etishadi. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam sahobalarga aytadilar :

إذا صدقا ضربتموهما، وإذا كذبا تركتموهما

"Ular rostini aytganda urdinglar! Qachon yolg‘on gapirsa, tinch qo'ydinglar " (Siyar kitobi)

Demak, kishini zo‘rlab undan to'g'ri ma'lumot olib bo'lmaydi. Aksincha unga yaxshi muomala qilib, hiyla uslubida undan ma'lumot olinishi kerak.

Islomda hatto kofir asirlarga yaxshi muomala qilish , ularni yedirib-ichirish taqvodor bandalar sifati deyilgan. Ularni yedirib ichirish yetim-yesirlarni yedirishga tenglashtirilgan. Alloh taolo aytadi :

وَيُطْعِمُونَ ٱلطَّعَامَ عَلَىٰ حُبِّهِۦ مِسْكِينًا وَيَتِيمًا وَأَسِيرًا

O'zlari taomni yaxshi ko'rib tursalar ham, uni miskin, yetim va asirga berarlar. (Inson.8)

Zo‘ravon tuzumlarda esa tergovchilar ayblanuvchiga qanchalik zulm qilsa, uni qiynab ma'lumot olsa, shuncha mansabi ko‘tariladi..! Islomda esa aksincha ekan. Ularga qancha yaxshilik qilsak, shuncha taqvodorlikdan alomat bo‘lar ekan.

Shuningdek inson qadr -qimmatini kamsituvchi tazyiqlar mumkin emas.

Zolim tuzumlardagi kabi insonni tahqirlab so‘kish, yalang‘och qilib nafsoniyatiga tegish, uning yaqinlari bilan tahdid qilish musulmon tergovchilarga nojoiz ishlar.

Xolid ibn Valid roziyallohu anhu bir zinokor ayolni toshbo‘ron qila turib uni haqoratlab yuborganlarida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam u kishini qaytarib dedilar:

لقد تابت توبةً لو قُسِّمَتْ بين سبعين من أهلِ المدينةِ لوسعَتْهم

"U shunday tavba qildiki, agar uning tavbasi Madina ahlidan yetmish kishiga taqsimlansa, hammalarini qamrab olar edi" (Muslim)

Shuningdek, aroq ichganligi sabab darralangan kishini haqoratlashganda aytdilar :

لا تَلْعَنُوه، فوالله ما عَلِمْتُ إلَّا أنه يُحِبُّ اللهَ ورسولَه

"Uni la’natlamanglar ! Chunki u Alloh va Rasulini yaxshi ko‘radi " (Buxoriy)

4.Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

Islomda inson jasadi uning mulki emas, Allohdan unga omonat. Shuning uchun uning roziligi bilan ham, roziligisiz ham sog'-salomat insonda ilmiy tajribalar o‘tkazilmaydi. Alloh taolo aytadi:

وَلَا تُلْقُوا۟ بِأَيْدِيكُمْ إِلَى ٱلتَّهْلُكَةِ

O'zingizni halokatga duchor qilmang. (Baqara: 195)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

" عن عمره فيما افناه"

"Kishi umrini nimada sarflagani haqida so‘raladi " (Termiziy rivoyati)

Ammo bemorni davolash maqsadida unda sinab ko‘riladigan zarurat holatlari bundan mustasno.

Xulosa:

26-modda

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi islomiy sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilib jonini xatarga qo‘yilishi mumkin emas.

Bemor davolanishi uchun uning roziligi bilan unda tajriba o‘tkazish bundan mustasno.

27-modda.

Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

Sharh:

1.Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan himoyalanish huquqiga ega.

Islomda musulmonning sha'ni va obrusi uning qoni va molidek hurmatli.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

بِحسْبِ امْرِئٍ من الشَّرِّ أنْ يَحقِرَ أخاهُ المسلِمَ ، كلُّ المسلِمِ على المسلِمِ حرامٌ ، دمُهُ ، ومالُهُ ، وعِرضُهُ

"Kishi musulmon birodarini haqoratlashi uning yomonligiga kifoyadir. Musulmonning musulmonga hamma narsasi haromdir. Qoni, moli va obrusi " (Buxoriy va muslim)

Shuning uchun islom g‘iybat, chaqimchilik, tuhmat kabi kishining sha'niga tajovuzlarni harom qildi. Va imkon qadar mo'minlar bir-birovlariga yaxshi gumon qilishariga buyurdi. Alloh taolo aytadi:

لَّوْلَآ إِذْ سَمِعْتُمُوهُ ظَنَّ ٱلْمُؤْمِنُونَ وَٱلْمُؤْمِنَٰتُ بِأَنفُسِهِمْ خَيْرًا وَقَالُوا۟ هَٰذَآ إِفْكٌ مُّبِينٌ

U(tuhmat)ni eshitgan vaqtingizda mo'minlar va mo'minalar bir-birlari haqida yaxshi gumonga borib: «Bu ochiq-oydin tuhmat-ku!» desalar bo'lmasmidi?! (Nur.12)

Agar dalil-isbotsiz birovning sha'niga tuhmat qilsa, bundaylarni 80 darra urishga buyurdi. (Nur .4-oyatiga qarang)

Bular hammasi islomda kishining sha'ni qay darajada himoya qilinganiga dalildir.

2. shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish haqqi.

Islomda kishining shaxsiy hayoti Alloh va Rasulining chegarasidan chiqmasligi shart. Alloh ta'olo aytadi:

وَمَا كَانَ لِمُؤْمِنٍ وَلَا مُؤْمِنَةٍ إِذَا قَضَى ٱللَّهُ وَرَسُولُهُۥٓ أَمْرًا أَن يَكُونَ لَهُمُ ٱلْخِيَرَةُ مِنْ أَمْرِهِمْ وَمَن يَعْصِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ فَقَدْ ضَلَّ ضَلَٰلًا مُّبِينًا

Hech bir mo'min erkak va hech bir mo'mina ayol uchun Alloh va Uning Rasuli bir ishga hukm qilganida, o'z ishlarini o'zlaricha ixtiyor qilmoq yo'q. Kim Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'lsa, bas, batahqiq, ochiq adashish-la adashibdi. (Ahzob.36)

Ammo Alloh va Rasulining buyrug‘i bilan qaydlanmagan ishlarda, albatta, uning shaxsiy hayotiga hech kim aralashmaydi.

Bunga bir misol Aisha onamiz Barira ismli bir cho'rini ozod qildilar. Shariatda cho‘ri ozod bo‘lgach uni eri bo‘lsa,unga eri bilan yashash yoki arjalish haqqi beriladi. Barira eridan ajralishni tanladi. Shunda uning eri Mug'is Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamni o‘rtaga qo‘yib, Barirani yaxshi ko‘rishini va unga qaytishini iltimos qildi. Barira aytdi :

"Ya Rasulullоh! Bu menga shar'iy buyruqmi yoki sizning maslahatingizmi?"

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"Men shunchaki ering nomidan o'rtakashman"

Barira aytdi:

"Mening unga hech qanday hojatim yo‘q " (Buxoriy rivoyati)

Shundan ma'lumki, shar'iy cheklovlar yo‘q o‘rinlarda kishi kim bilan turmush qilishi yoki ajralishi bu uning shaxsiy hayoti bo‘lib, hatto Payg'ambar alayhissalam takliflarini qabul qilmasa ham gunohkor bo'lmagan.

Yana bir misol :

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga bir qiz shikoyat qilib:

"Ya Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam! Otam o‘zining obrusi uchun meni roziligimsiz o'z jiyaniga nikohlab qo‘ydi " deydi.

Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam unga : **"Ixtiyoring o‘zingda"** dedilar.

Shunda qiz : "otamning qaroriga roziman ! Ammo ayollarni majburlashga otalar haqli emasligini ko‘rsatib qo‘yishni istadim" dedi (Nasoiy rivoyati)

Bu ham shar'iy qonunlarga teskari ish qilmagan kishining shaxsiy hayotiga hatto ota-onasi ham aralashishga haqqi yo‘qligiga bir misol.

3. Turar joyi daxlsizligi huquqi.

Inson diniga amal qilib yashay olsa, istagan yerida yashashligi uning haqqi. Alloh ta'olo aytadi :

إِنَّ ٱلَّذِينَ تَوَفَّىٰهُمُ ٱلْمَلَٰٓئِكَةُ ظَالِمِىٓ أَنفُسِهِمْ قَالُوا۟ فِيمَ كُنتُمْ قَالُوا۟ كُنَّا مُسْتَضْعَفِينَ فِى ٱلْأَرْضِ قَالُوٓا۟ أَلَمْ تَكُنْ أَرْضُ ٱللَّهِ وَٰسِعَةً فَتُهَاجِرُوا۟ فِيهَا فَأُو۟لَٰٓئِكَ مَأْوَىٰهُمْ جَهَنَّمُ وَسَآءَتْ مَصِيرًا

O'ziga zulm qiluvchi holida joni olinayotganlarga farishtalar: «Nima qilayotgan edinglar?» derlar. Ular: «Yer yuzida bechora edik», derlar. Alar: «Allohning yeri keng edi-ku, hijrat qilsangiz bo'lmasmidi?!» derlar. Ana o'shalarning joyi jahannamdir. U qanday ham yomon joy! (Niso.97)

Yana aytadi:

يَٰعِبَادِىَ ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓا۟ إِنَّ أَرْضِى وَٰسِعَةٌ فَإِيَّٰىَ فَٱعْبُدُونِ

Ey iymon keltirgan bandalarim, albatta, Mening yerim kengdir. Bas, Mengagina ibodat qilinglar. (Ankabut.56)

Inson qayerda yashashi emas qanday yashashi muhim.

Salmon Raziyallohu anhu aytadilar:

"Yer insonni muqaddas qilmaydi. Insonni amali muqaddas qiladi"

Ammo musulmon kishi kofirlar yurtida diniga amal qila olmasa, yoki fitnalansa, shunda boshqa yurtga hijrat qilishi lozim bo'ladi.

4.Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

Islomda bugungi tuzumlar kabi birovning uyiga yarim tunda bezorilar kabi bosib kirish yo‘q.

Alloh taolo birovning uyiga kirish odobini Qur'onda bayon qilib aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا تَدۡخُلُواْ بُيُوتًا غَيۡرَ بُيُوتِكُمۡ حَتَّىٰ تَسۡتَأۡنِسُواْ وَتُسَلِّمُواْ عَلَىٰٓ أَهۡلِهَا ذَٰلِكُمۡ خَيۡرٌ لَّكُمۡ لَعَلَّكُمۡ تَذَكَّرُونَ

Ey iymon keltirganlar! O'z uylaringizdan boshqa uylarga to izn so'ramaguningizcha va ularning ahliga salom bermaguningizcha, kirmang. Ana shunday qilmog'ingiz siz uchun yaxshidir, shoyadki eslasangiz.

(Nur.27)

Demak, salom berib izn olmaguncha birovning uyiga kirilmaydi. Bir jinoyatchini deb uning ahli oilasi, bola-chaqasini qo‘rqitilmaydi.

Shuningdek, birovdan dalilsiz shubhalanib tintuv o‘tkazishdan ham qaytaradi. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ ٱجۡتَنِبُواْ كَثِيرًا مِّنَ ٱلظَّنِّ إِنَّ بَعۡضَ ٱلظَّنِّ إِثۡمٞ وَلَا تَجَسَّسُواْ

Ey iymon keltirganlar! Ko'p gumonlardan chetda bo'linglar, chunki ba'zi gumonlar gunohdir. Josuslik qilmanglar. (Hujurot.12)

Va birovning uyini iznisiz ko‘zdan kechirishdan qaytarib Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

لَوْ أنَّ رَجُلًا اطَّلَعَ عَلَيْكَ بغيرِ إذْنٍ، فَحَذَفْتَهُ بحَصاةٍ، فَفَقَأْتَ عَيْنَهُ ما كانَ عَلَيْكَ مِن جُناحٍ.

"Agar biror kishi sening uyingga iznsiz nazar solsa, sen unga tosh otib ko'zini chiqarsang ham, senga biror gunoh yo‘qdir "(Muslim)

Musulmonning siri, aybini oshkor qilishdan ogohlantirib aytadilar :

يا معشــرَ مَنْ آمَنَ بلســانه، ولم يدخُل الإيمانُ قلبَه، لا تغتابوا المســلمين، ولا تتَّبِعوا عوراتِهم؛ فإنَّه من تتبَّع عورة أخيه المسلم تتبَّع الله عورتَه، ومَنْ تتبَّع اللهُ عورتَه يفضحه ولو في جوف بيته

"Ey tilida iymon keltirib qalbiga iymon kirmaganlar! Musulmonlarni g‘iybat qilmanglar! Ularning ayblarini izlamanglar. Kim musulmon birodarining aybini ochishni istasa, Alloh uning o‘zining aybini ochishni istaydi. Alloh kimniki aybini ochishni istasa, uni garchi uyining ichida bo‘lsa-da, sharmanda qiladi" (Abu dovud rivoyati)

Agar kishining jinoyati o‘ziga tegishli, birovga o'timsiz gunohlardan iborat bo‘lsa, uni berkitishga buyurdilar:

ومن ستر مسلماً، ستره الله يوم القيامة

"Kim bir musulmonni satr qilsa (aybini yopsa), Alloh uni qiyomat kunida satr qiladi " (Buxoriy va muslim)

Birovning gunohini odamlar ichida tarqatib yuruvchilarga alamli azob va'da qilindi. Alloh taolo aytadi :

إِنَّ ٱلَّذِينَ يُحِبُّونَ أَن تَشِيعَ ٱلْفَٰحِشَةُ فِى ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَهُمْ عَذَابٌ أَلِيمٌ فِى ٱلدُّنْيَا وَٱلْءَاخِرَةِ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

Albatta, iymon keltirganlar ichida fahsh tarqalishini yaxshi ko'radiganlarga bu dunyoyu oxiratda alamli azob bordir. Alloh biladir, sizlar bilmassizlar. (Nur.19)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam oldilariga zino qilganini o‘zi e'tirof etib kelganlarni ham iloji boricha qaytarishga harakat qilar edilar. Er ayolini zino bilan ayblanganda, farzand ko‘rsa va erkakning dalil isboti yo‘q bo'lsa, hatto bola begonaga o'xshab tug‘ilganda ham ayolni siquvga olib zinoni bo‘yniga qo‘ymadilar. Balki bolani otasiga nisbat berdilar. Bularning barchasi shariat qay darajada odamlarning ayblarini yopishga haris ekaniga dalil bo'ladi.

Ammo bugungi tizimlarda bu qonunlarga amal qilinmaydi. Odamlarni roziligisiz uylariga kirib ularning hurmatini poymol qilib tintuv o‘tkazish, telefonlarini iznsiz eshitish, yozishmalarini iznsiz o‘qish va ommaga tarqatib ularni sharmanda qilish holatlari hammaga ma'lum.

Ba'zan qasddan odam yollab ularni gunoh ustida ushlashni tashkil qilish, so‘ngra ularni tasvirga olib tarqatish bilan tahdid qilish ham uchrab turadi.

Islomda hech qachon birovning gunohiga imkoniyat yaratib berib, so‘ng uni sharmanda qilish bilan tahdid qilinmaydi. Shundan bilamizki, bunday ishlarni qiluvchilar na shariatga, na o‘zlarining konstitutsiya qonunlariga rioya qilmaydigan g'arazgo‘ylardir.

Xulosa :

27-modda

Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan islomiy qonunlarga zid kelmagan holda himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim islomiy qonunlarda nazarda tutilgan hollardan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

28-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega.

Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

Sharh:

Islom davlati fuqarolari ham davlatning istagan yerida yashashga haqli. Sahobalar aksari Makkayu Madinada tug‘ilib o‘sgan bo‘lsalar-da, ko‘plari uzoq o‘lkalarda vafot etdilar. Ba'zilari Movarounnahr o‘lkalarida bo‘lsalar, ba'zilari Shom o'lkalariga dafn qilindilar. Hech kim ularni muayyan joyda yashashga majbur qilmadi.

Balki Alloh taolo ibrat olish maqsadida yerni kezishga ko‘p oyatlarda buyurdi.

Ammo qonunda belgilangan cheklashlarni mustasno qilish ham islomda bor. Masalan, Alloh taolo aytadi:

وَٱلَّٰتِى يَأْتِينَ ٱلْفَٰحِشَةَ مِن نِّسَآئِكُمْ فَٱسْتَشْهِدُواْ عَلَيْهِنَّ أَرْبَعَةً مِّنكُمْ فَإِن شَهِدُواْ فَأَمْسِكُوهُنَّ فِى ٱلْبُيُوتِ حَتَّىٰ يَتَوَفَّىٰهُنَّ ٱلْمَوْتُ أَوْ يَجْعَلَ ٱللَّهُ لَهُنَّ سَبِيلًا

"Ayollaringizdan fahsh qilganlariga o'zlaringizdan to'rtta guvoh keltiring. Agar guvohlik bersalar, ularni to o'lim yetguncha yoki Alloh bir yo'l ko'rsatguncha uylarda tutib turing" (Niso.15)

Ba'zi tafsirlarda bu oyatdagi fahshdan maqsad ayollar ayollar bilan jinsiy aloqa qilishi deyilgan. O‘shanda ularni ayirib alohida uyga qamaladi.

Demak, islomda ham fuqarolarni safar qilishlariga ba'zi holatlarda cheklov qo‘yiladi.

Xulosa:

28-modda

Islom davlati fuqarosi davlat hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, Islom davlatiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega.

Islom qonunlariga muvofiq belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

29-modda

Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Sharh:

1. Fikrlash va so'z erkinligi.

Islomda Allohning buyrug‘i va qaytariqlariga teskari bo‘lmagan holatda fikrlash va so‘z erkinligi beriladi.

Alloh taolo Qur'onda ko‘plab o‘rinlarda **"fikr qilmaydilarmi"** deb tafakkurga chaqiradi.

Insoniyatga bu ma'noni o‘rgatish uchun Alloh taolo insonni yaratishidan oldin farishtalarga so‘z erkinligini berdi. Aslida Alloh qilgan ishidan so‘ralmaydi va birovdan maslahat ham olmaydi. Ammo insonni yaratishda unga ibrat bo‘lsin uchun maloikalarga qarata :

إِنِّى جَاعِلٌ فِى ٱلْأَرْضِ خَلِيفَةً قَالُوٓاْ أَتَجْعَلُ فِيهَا مَن يُفْسِدُ فِيهَا وَيَسْفِكُ ٱلدِّمَآءَ وَنَحْنُ نُسَبِّحُ بِحَمْدِكَ وَنُقَدِّسُ لَكَ قَالَ إِنِّىٓ أَعْلَمُ مَا لَا تَعْلَمُونَ

"Men yerda xalifa qilmoqchiman", dedi. Ular: "Unda fasod qiladigan, qon to'kadigan kimsani qilmoqchimisan? Va holbuki, biz Senga tasbih, hamd aytib va

Seni ulug'lab turibmiz", dedilar. U: "Men siz bilmaganni bilaman", dedi. (Baqara.30)

Albatta, Allohni bandaga qiyoslanmaydi. Maqsad hokim va mahkumlar o‘rtasida fikr almashish, so‘zlash haqqiga qissada ishora borligi.

Ammo muayyan ishda Alloh va Rasulining buyrug‘i yoki qaytarig'i bo'lsa unda, hech qanday fikr yoki so‘z erkinligi yo‘q. Alloh taolo aytadi:

وَمَا كَانَ لِمُؤْمِنٍ وَلَا مُؤْمِنَةٍ إِذَا قَضَى ٱللَّهُ وَرَسُولُهُۥٓ أَمْرًا أَن يَكُونَ لَهُمُ ٱلْخِيَرَةُ مِنْ أَمْرِهِمْ وَمَن يَعْصِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ فَقَدْ ضَلَّ ضَلَٰلًا مُّبِينًا

Hech bir mo'min erkak va hech bir mo'mina ayol uchun Alloh va Uning Rasuli bir ishga hukm qilganida, o'z ishlarini o'zlaricha ixtiyor qilmoq yo'q. Kim Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'lsa, bas, batahqiq, ochiq adashish-la adashibdi. (Ahzob.36)

Fikr va so‘z erkinligida ba'zi istisnolar qilish har qanday tuzumda bor. 29-moddani qarasak, "amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir" deydi. Shu kabi islomda ham fikr, so‘z, axborot erkinligi islomga zid bo‘lmaslik sharti bilan qaydlanadi.

Shuningdek, Alloh haqida so‘z erkinligi hech kimga ruxsat berilmaydi. Chunki hech kim U Zotni ko‘rmagan. U haqida faqat O‘zining va Rasulining xabarlariga iymon keltiramiz. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

تَفَكَّرُوا فِي الْمَخْلُوقِ، وَلَا تَفَكَّرُوا فِي الْخَالِقِ

"Maxluqotlar haqida tafakkur qilinglar. Xoliq haqida tafakkur qilmanglar" (Al-azomat kitobidan)

Shuningdek, na dinga, naki dunyoga foydasi yo‘q ishlarni fikr qilish, so'zlashdan ham qaytarilganmiz.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

وَمَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الآخِرِ فَلْيَقُلْ خَيْرًا أَوْ لِيَصْمُتْ

"Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, gapirsa yaxshi gap gapirsin yoki sukut qilsin"

(Buxoriy va Muslim)

2. E’tiqod erkinligi.

E'tiqod qalb amalidir. Hech kimga uni majburlab qilidirish imkoni yo‘q. Shuning uchun Alloh taolo aytadi:

لَآ إِكۡرَاهَ فِى ٱلدِّينِ قَد تَّبَيَّنَ ٱلرُّشۡدُ مِنَ ٱلۡغَىِّۚ فَمَن يَكۡفُرۡ بِٱلطَّٰغُوتِ وَيُؤۡمِنۢ بِٱللَّهِ فَقَدِ ٱسۡتَمۡسَكَ بِٱلۡعُرۡوَةِ ٱلۡوُثۡقَىٰ لَا ٱنفِصَامَ لَهَا وَٱللَّهُ سَمِيعٌ عَلِيمٌ

Dinga majbur qilish yo'q. Batahqiq, haq botildan ajradi. Kim tog'utga kufr keltirib, Allohga iymon keltirsa, batahqiq, uzilmaydigan mustahkam tutqichni ushlagan bo'lur. Va Alloh eshituvchi, biluvchi zotdir. (Baqara.256)

Yana aytadi:

وَلَوۡ شَآءَ رَبُّكَ لَـَٔامَنَ مَن فِى ٱلۡأَرۡضِ كُلُّهُمۡ جَمِيعًا أَفَأَنتَ تُكۡرِهُ ٱلنَّاسَ حَتَّىٰ يَكُونُواْ مُؤۡمِنِينَ

Agar Robbing xohlasa, yer yuzidagi kishilarning hammasi iymonga kelar edilar. Yoki sen odamlarni mo'min bo'lishga majburlaysanmi? (Yunus .99)

Tarix mobaynida Islom davlatida yashovchi yahudiy va nasroniylar yoki majusiylarni islomni qabul qilishga majburlanmagan. Musulmonlar faqat ularni da'vat qilishga va ular bilan chiroyli bahs-munozara qilishga buyurilganlar. Alloh taolo aytadi:

ٱدۡعُ إِلَىٰ سَبِيلِ رَبِّكَ بِٱلۡحِكۡمَةِ وَٱلۡمَوۡعِظَةِ ٱلۡحَسَنَةِۖ وَجَٰدِلۡهُم بِٱلَّتِى هِىَ أَحۡسَنُۚ إِنَّ رَبَّكَ هُوَ أَعۡلَمُ بِمَن ضَلَّ عَن سَبِيلِهِۦ وَهُوَ أَعۡلَمُ بِٱلۡمُهۡتَدِينَ

Robbingning yo'liga hikmat va yaxshi mav'iza ila da'vat qil. Va ular ila go'zal uslubda munozara qil. Albatta, Robbing O'z yo'lidan adashganlarni o'ta bilguvchi va hidoyat topguvchilarni ham o'ta bilguvchidir. (Nahl.125)

Yana aytadi:

وَلَا تُجَٰدِلُوٓاْ أَهۡلَ ٱلۡكِتَٰبِ إِلَّا بِٱلَّتِى هِىَ أَحۡسَنُ إِلَّا ٱلَّذِينَ ظَلَمُواْ مِنۡهُمۡ وَقُولُوٓاْ ءَامَنَّا بِٱلَّذِىٓ أُنزِلَ إِلَيۡنَا وَأُنزِلَ إِلَيۡكُمۡ وَإِلَٰهُنَا وَإِلَٰهُكُمۡ وَٰحِدٌ وَنَحۡنُ لَهُۥ مُسۡلِمُونَ

Sizlar ahli kitoblarning zulm qilganlaridan boshqalari bilan faqat yaxshi uslubda mujodala etinglar va ularga: «Biz o'zimizga nozil qilingan va sizga nozil

qilingan narsaga iymon keltirdik, bizning ilohimiz va sizning ilohingiz birdir va biz unga bo'ysunguvchimiz», denglar. (Ankabut.46)

Ammo Islomga kirgan kishi undan qaytib chiqishi, boshqa dinga o‘tishiga ruxsat berilmaydi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من بدل دينه فاقتلوه

"**Kim dinini o‘zgartirsa, uni o'ldiringlar"** (Buxoriy rivoyati)

Albatta, bu buyruq davlat organlariga tegishli bo'lib, har kim o‘zi istagan kishisini murtad deb o‘ldirishga haqqi yo‘q.

***Tanbeh**

Islom diyorlari orasidan arab yarim orolida musulmonlardan boshqa din vakillari yashashligi ruxsat berilmaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

لأخرجنَّ اليهود والنصارى من جزيرة العرب حتى لا أدع إلا مسلماً

"Arab yarim orolidan yahudiy va nasroniylarni, albatta chiqaraman. Hatto musulmondan boshqasini qoldirmayman " (Muslim rivoyati)

3. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

Har qanday davlatda axborot tizimi amaldagi hukumatga bo‘ysunishini hech inkor etolmaydi. Modom axborotni ba'zi qaydlar bilan cheklash bor ekan, islomda ham axborot tarqatishning shartlari bor.

1-dan : Odamlarning dunyosi yoki oxiratiga foydasi bor axborot tarqatilishi. Befoyda ma'lumot bilan odamlar vaqtini olinmaydi.

Bunga bir misol, Alloh taolo g'or sohiblari qissasida keraksiz ma'lumotlarga qiziquvchilarga tanbeh berib aytadi :

سَيَقُولُونَ ثَلَٰثَةٌ رَّابِعُهُمْ كَلْبُهُمْ وَيَقُولُونَ خَمْسَةٌ سَادِسُهُمْ كَلْبُهُمْ رَجْمًۢا بِٱلْغَيْبِ وَيَقُولُونَ سَبْعَةٌ وَثَامِنُهُمْ كَلْبُهُمْ قُل رَّبِّىٓ أَعْلَمُ بِعِدَّتِهِم مَّا يَعْلَمُهُمْ إِلَّا قَلِيلٌ فَلَا تُمَارِ فِيهِمْ إِلَّا مِرَآءً ظَٰهِرًا وَلَا تَسْتَفْتِ فِيهِم مِّنْهُمْ أَحَدًا

Hali ular: «Uchtadirlar, itlari to'rtinchilaridir», derlar. Va: «Beshtadirlar, itlari oltinchilaridir», deb g'aybga tosh otarlar. Va: «yettitadirlar, itlari sakkizinchilaridir ham», derlar. Sen: «Robbim ularning sanog'ini yaxshi bilguvchidir. Ularni juda oz kishi bilur», degin. Bas, ular haqida tortishib yurma. Tortishsang ham, ochiq tortish. Ular haqida hech kimdan fatvo ham so'rama. (Kahf. 22)

Chunki ularning soni yoki itlarini bilishdan biror foyda yo‘q.

2-dan. To'g'ri axborot tarqatish.

Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ إِن جَآءَكُمْ فَاسِقٌۢ بِنَبَإٖ فَتَبَيَّنُوٓاْ أَن تُصِيبُواْ قَوْمَۢا بِجَهَٰلَةٖ فَتُصْبِحُواْ عَلَىٰ مَا فَعَلْتُمْ نَٰدِمِينَ

Ey iymon keltirganlar! Agar fosiq xabar keltirsa, aniqlab ko'ringlar, bir qavmga bilmasdan musibat etkazib qo'yib, qilganingizga nadomat chekuvchi bo'lmanglar. (Hujurot.6)

3-dan. Axborot to'g'ri bo‘lsa ham, hammasi tarqatilavermasligi.

Alloh taolo aytadi:

وَإِذَا جَآءَهُمْ أَمْرٞ مِّنَ ٱلْأَمْنِ أَوِ ٱلْخَوْفِ أَذَاعُواْ بِهِۦۖ وَلَوْ رَدُّوهُ إِلَى ٱلرَّسُولِ وَإِلَىٰٓ أُوْلِي ٱلْأَمْرِ مِنْهُمْ لَعَلِمَهُ ٱلَّذِينَ يَسْتَنۢبِطُونَهُۥ مِنْهُمْ وَلَوْلَا فَضْلُ ٱللَّهِ عَلَيْكُمْ وَرَحْمَتُهُۥ لَٱتَّبَعْتُمُ ٱلشَّيْطَٰنَ إِلَّا قَلِيلٗا

Qachonki ularga eminlik yoki xavf to'g'risida bir ish-xabar yetsa, uni taratadilar. Agar uni Payg'ambarga va o'zlaridan bo'lgan ishboshilarga havola qilganlarida edi, ulardan ish negizini biladiganlari uni anglab yetar edilar. Allohning fazli va marhamati bo'lmaganda, ozginangizdan boshqangiz shaytonga ergashib ketar edingiz. (Niso.83)

Demak har qanday axborot mas'ul ulamolar iznidan o‘tishi kerak. Odamlarni sarosimaga soladigan, ularning bilishlari foydasidan ziyoni ko‘p bo‘lgan xabarlar tarqatilmaydi.

Mana shu kabi ba'zi shartlar qo‘yiladi. Endi 29-modda sharhiga qaytaylik:

4. "Amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir"

Konstitutsiyada qisman axborotga cheklov bo'lganidek, islomda ham shar'iy qonunlar bilan axborot qisman cheklanadi. Buni yuqorida sharhladik.

5. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

Inson tuzgan davlat sirlarida fikr yuritish taqiqlanar ekan, Allohning sirlarida, uning zoti , taqdir masalalari , shariatdagi hikmati bayon qilinmagan ba'zi buyruq-qaytariqlarda va mutashobih masalalarda fikr yuritish ham batariqi a'lo taqiqlangan. Shuning uchun islomda fikr va so‘z erkinligini ba'zi istisno o‘rinlari borligini yuqorida aytib o‘tdik. (29-modda, 1-bandi sharhiga qarang)

Xulosa:

29-modda

Har kim fikrlash va so‘z erkinligi huquqiga ega.

So‘z va fikrlash erkinligi islom qonunlariga zid bo‘lmasligi shart.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi Islom qonunlari bilangina cheklanadi.

Har kim o‘z diniga e'tiqod qilish erkinligi kafolatlanadi. Musulmonlar o'z dinidan boshqa dinga o‘tishi bundan mustasnodir. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

Axborot tarqatishda uning to'g'riligi, odamlarga manfaatli ekani, ular orasida sarosima keltirib chiqaradigan bo'lmasligi va boshqa shar'iy me'yorlarga amal qilinishi shart.

Islomiy hukumat va musulmon boshliqlar modomiki, Allohning kitobiga muvofiq faoliyat olib borar ekan, ularga qarshi qaratilgan axborotlar tarqatish ham taqiqlanadi.

30-modda.

O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

Sharh:

Islomda ham har bir shaxs o‘ziga qo'yilgan nohaq ayblovlarlardan himoyalanish huquqiga ega. Davlat amaldorlari ularga dalil-isbotlar taqdim qilishga majbur. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

البينة على المدعي، واليمين على من أنكر

"Da'vo qiluvchi hujjat isbot keltiradi, inkor qiluvchi esa qasam ichadi"

Alloh taolo aytadi :

وَمَا كُنَّا مُعَذِّبِينَ حَتَّىٰ نَبْعَثَ رَسُولًا

Hech bir jon o'zganing og'irligini ko'taruvchi bo'lmas. Toki Payg'ambar yubormagunimizcha, azoblovchi bo'lgan emasmiz. (Isro.15)

Yana aytadi:

رُّسُلًا مُّبَشِّرِينَ وَمُنذِرِينَ لِئَلَّا يَكُونَ لِلنَّاسِ عَلَى ٱللَّهِ حُجَّةٌۢ بَعْدَ ٱلرُّسُلِ وَكَانَ ٱللَّهُ عَزِيزًا حَكِيمًا

Bashorat beruvchi va ogohlantiruvchi Payg'ambarlarni Alloh huzurida odamlarga Payg'ambarlardan so'ng hujjat bo'lmasligi uchun yubordik. Va Alloh aziz va hakim bo'lgan zotdir. (Niso.165)

Yana aytadi :

لِّيَهْلِكَ مَنْ هَلَكَ عَنۢ بَيِّنَةٍ وَيَحْيَىٰ مَنْ حَيَّ عَنۢ بَيِّنَةٍ وَإِنَّ ٱللَّهَ لَسَمِيعٌ عَلِيمٌ

Halok bo'ladigan odam ochiq-oydin hujjat bilan halok bo'lishi uchun, yashashi kerak bo'lgan odam ochiq-oydin hujjat bilan yashashi uchun. (Anfol.42)

Bu oyatlardan maqsad, yaratgan Alloh bandalariga hujjat jo'natmay ularni jazoga tortmasligi. Shunga binoan yerdagi amaldorlar ham bandalarga hujjat taqdim qilishlari shart.

Xulosa:

30-modda

Davlatning barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

31-modda.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sharh:

1. Vijdon erkinligi va xohlagan dinga e’tiqod qilish.

Islomda musulmonlar bilan yashovchi kofirlar o‘zlarining e'tiqodiga erkin amal qilishlari , ammo musulmon kishi islom dinidan qaytishi mumkin emasligi haqida 29-modda sharhida aytib o‘tdik.

Bu o‘rinda yana bir qo‘shimcha qilish lozim. Islomda kofirlarni majburlash yo‘q degani, ularnimg ham dini to'g'ri degan ma'noda emas. Ular bizning nazdimizda kofir va o‘z dinlarida botil e’tiqoddalar deb bilamiz.

Alloh taolo aytadi

وَمَن يَبْتَغِ غَيْرَ ٱلْإِسْلَٰمِ دِينًا فَلَن يُقْبَلَ مِنْهُ وَهُوَ فِى ٱلْءَاخِرَةِ مِنَ ٱلْخَٰسِرِينَ

Kim islomdan boshqa dinni xohlasa, bas, undan bu hargiz, qabul qilinmas va u oxiratda ziyon ko'rguvchilardan bo'ladir. (Oli -imron.85)

Faqat siyosiy ma'noda ularni islomga majbur qilmaymiz. Oxiratda esa agar tavba qilmay o'lsalar, ularni do‘zaxiy deb e'tiqod qilamiz. Va kofir bo‘lib

o'lmasliklariga qo‘limizdan kelgancha harakat qilib ularni da'vat qilamiz. Toki qiyomatda ular bizning yoqamizdan olmasinlar.

“Vijdon erkinligi” bilan “dinga majburlash yo‘q” ma'nosi o'rtasidagi farqi mana shu ma'nolar bilan ajratiladi.

Ular aytgan vijdon erkinligi bo‘yicha hech qaysi kofirga, hatto kishi o‘zining ayoli, farzandlariga ham qattiqqo‘llik qilishi mumkin emas. Bu esa islomda kishi o‘zining ahli oilasi dinidan mas'ullik ma'nosiga ochiqdan ochiq teskaridir. Islomda erkak kishi ayolini , farzandini dinida tarbiyalash uchun hatto, urishiga ijozat berildi. Alloh taolo aytadi:

ٱلرِّجَالُ قَوَّٰمُونَ عَلَى ٱلنِّسَآءِ بِمَا فَضَّلَ ٱللَّهُ بَعۡضَهُمۡ عَلَىٰ بَعۡضٖ وَبِمَآ أَنفَقُواْ مِنۡ أَمۡوَٰلِهِمۡ فَٱلصَّٰلِحَٰتُ قَٰنِتَٰتٌ حَٰفِظَٰتٞ لِّلۡغَيۡبِ بِمَا حَفِظَ ٱللَّهُ وَٱلَّٰتِي تَخَافُونَ نُشُوزَهُنَّ فَعِظُوهُنَّ وَٱهۡجُرُوهُنَّ فِي ٱلۡمَضَاجِعِ وَٱضۡرِبُوهُنَّ فَإِنۡ أَطَعۡنَكُمۡ فَلَا تَبۡغُواْ عَلَيۡهِنَّ سَبِيلًا إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلِيّٗا كَبِيرٗا

Alloh ba'zilarini ba'zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganlari uchun erkaklar ayollarga rahbardirlar. Soliha ayollar – itoatkor va Allohning hifzi-himoyasi bo'yicha g'oyib(er)larining muhofazasini qiluvchilardir. Bosh ko'tarishlaridan xavf qilingan ayollarga va'z-nasihat qiling, yotoqlarida hijron qiling va uring. Agar itoat qilsalar, ularga qarshi boshqa yo'l axtarmang. Albatta, Alloh yuksak maqomli buyuk zotdir. (Niso:34)

Va Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مُرُوا أولادَكم بالصلاةِ و هم أبناءُ سبعِ سِنِينَ ، واضرِبوهم عليها وهم أبناءُ عشرِ سِنِينَ

"Farzandlaringni yetti yoshdan namozga buyuringlar. Agar o'n yoshga yetsa, namoz uchun ularni uringlar" (Abu dovud rivoyati)

Shunga binoan erkak kishi uyida “vijdon erkinligi” da'vosi bilan ahlini tashlab qo‘yishiga ruxsat berilmaydi.

2. Hech qaysi dinga e’tiqod qilmasligi mumkin.

Inson hech qanday dinga e’tiqod qilmasligi voqelikka zid gap. Yoki din haqida tushuncha noto'g'riligidan kelib chiqqan fikr. Chunki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaydigan kishi dunyoda yo‘q. Agar inson haq dinga e’tiqod qilmasa, o'z-o'zidan botil dinga e’tiqod qilgan hisoblanadi. Alloh taolo aytadi:

إِنَّا خَلَقْنَا ٱلْإِنسَٰنَ مِن نُّطْفَةٍ أَمْشَاجٍ نَّبْتَلِيهِ فَجَعَلْنَٰهُ سَمِيعًۢا بَصِيرًا

Albatta, Biz insonni sinash uchun aralash nutfadan yaratib, uni eshitadigan, ko'radigan qildik.

إِنَّا هَدَيْنَٰهُ ٱلسَّبِيلَ إِمَّا شَاكِرًا وَإِمَّا كَفُورًا

Albatta, Biz unga yo'l ko'rsatdik. (U esa) yoki shukr qiluvchi, yoki kufr qiluvchi bo'ldi. (Inson.2-3)

Demak, inson zoti borki, yo shukr qiluvchi (mo‘min) yoki kufr keltiruvchi kofirdir. Hech qaysi dinga e’tiqod qilmaydigan uchinchi tur yo‘q.

Yana aytadi:

فَذَٰلِكُمُ ٱللَّهُ رَبُّكُمُ ٱلْحَقُّ فَمَاذَا بَعْدَ ٱلْحَقِّ إِلَّا ٱلضَّلَٰلُ فَأَنَّىٰ تُصْرَفُونَ

Bas, mana shu Alloh sizning haq Robbingizdir. Haqdan so'ng nima bo'ladir? Magar zalolat bo'ladir. Bas, qayoqqa burilib ketmoqdasiz? (Yunus.32)

Haqdan keyin hammasi zalolat bo‘lib, unga hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik deyilmaydi.

Yana aytadi:

وَمَن يَبْتَغِ غَيْرَ ٱلْإِسْلَٰمِ دِينًا فَلَن يُقْبَلَ مِنْهُ وَهُوَ فِى ٱلْءَاخِرَةِ مِنَ ٱلْخَٰسِرِينَ

Kim islomdan boshqa dinni xohlasa, bas, undan bu hargiz, qabul qilinmas va u oxiratda ziyon ko'rguvchilardan bo'ladir. (Oli imron .85)

Islomni istamagan kishi o'z-o'zidan boshqa dinni istagan bo‘lib , undan hargiz bu dini qabul qilinmas ekan. Shunga binoan bunday kishilarga "Hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik" erkinligi berilmaydi. Unday kishilar kufr dinida bo‘ladi.

3. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Avvalo majburan singdirishdan maqsad nimaligini aniqlab olishimiz kerak.

Agar odamlarni urish, kaltaklash nazarda tutilgan bo'lsa, islomga kirmagan kishini hech qachon urib dinga kirgizilmaydi. Buning dalillarini zikr qildik. Ammo islomga kirgan kishi unga islom ahkomlarini majburlab bo‘lsa-da, qildiriladi. Namoz o‘qimasa, darralanadi. Zakot bermasa majbur qilib olinadi va hokazo..

Shuningdek, islomga kirmaganlarni ham, da'vat qilish ularni majburlashga kirmaydi. Ular istamasa-da doim ularni da'vat qilinadi. Majburan singdirish deb tashlab qo‘yilmaydi.

Shuning uchun Nuh alayhissalam 950 yil o'z qavmlarini da'vat qildilar. Hatto, odamlar u kishini eshitgisi kelmay kiyimlariga o‘ranib olsalar ham, u kishi da'vatdan to‘xtamas edilar. (Nuh surasiga qarang)

Alloh taolo aytadi:

أَفَنَضْرِبُ عَنكُمُ ٱلذِّكْرَ صَفْحًا أَن كُنتُمْ قَوْمًا مُّسْرِفِينَ

Nahotki siz isrofchi qavm bo'lganingiz uchun sizdan yuz o'girib, zikr-eslatmani burib yuborsak?! (Zuxruf.5)

Insoniyat istasa-istamasa, Alloh ularga eslatmalar jo'nataveradi. Chunki bu ularning oxiratlari uchun zarur. Buning misolini tasavvur qilaylik. Biror kishining uyiga o't ketsa, o‘zining ishi deb indamay qarab turamizmi? Yo‘q ! Agarchi undan so‘roqsiz bo‘lsa-da, uyiga kirib o'tni o'chiramiz. Buning foydasi bizga emas, avvalo o‘sha insonga. Endi bu ish uning dunyosi uchun joiz bo'lsa, abadiy oxirati uchun shunday qilish joiz bo‘lmaydimi?

Ustiga-ustak hayotga qarasak, bu modda faqat musulmonlardan boshqa din vakillarining erkinligi uchun xizmat qiladi xolos. Qachon musulmon kishi diniy huquqlaridan foydalansa, uni "aqidaparastlik" da ayblanadi ! Modom vijdon erkinligi kafolatlangan ekan, nega islomni aqida tutgan kishini bunday nomlanadi ?! Biror nasroniy yoki yahudiyni aqidaparast deb nomlanganini eshitmaysiz. Ammo musulmon diniga amal qilganda bunday tamg'a bilan jazoga tortiladi.

Ular da'vo qilgan diniy erkinlik ularning tuzumidan ko‘ra, islomda to‘liq amaliy ko‘rinishda adolat bilan tatbiq qilinadi. Allohning qonunlari tatbiq qilingan Islom davlatida kofirlar bugungi islom o‘lkalaridagi musulmonlardan ko‘ra, o'z dinlariga emin-erkin amal qilib yashay olganlar va oladilar !

Chunki hech qachon tarix mobaynida bir nasroniy soqol qo‘ygani sabab, yoki bir nasroniy ayol kiyimi sabab, yoki bo‘ynidagi xochi sabab tergov qilinganini ko‘rmadik. Ammo bugun musulmonlar o'z yurtlarida o'z dinlariga amal qilgani, erkak soqoli, ayol hijobi sababidan tazyiqqa olinishini hammamiz ko‘rib bilib yashayapmiz. Alloh taolo aytadi:

أَفَحُكْمَ ٱلْجَٰهِلِيَّةِ يَبْغُونَ وَمَنْ أَحْسَنُ مِنَ ٱللَّهِ حُكْمًا لِّقَوْمٍ يُوقِنُونَ

Johiliyat hukmini istaydilarmi?! Ishonchi komil qavmlar uchun Allohdan hukmi yaxshiroq kim bor?! (Moida.50)

Xulosa :

31-modda.

Hamma uchun o‘zi e'tiqod qilgan diniga amal qilishi kafolatlanadi.

Islomga kirgan kishi islom ahkomlariga amal qilishi shart, undan qaytib chiqishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Islomga kirib undan qaytish jazosi o‘limdir. Inson hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi mumkin emas, haq dinni qabul qilmagan barcha inson dini va e'tiqodidan qat'iy nazar botil dindadir.

Musulmonlar bilan sulh qilib yashovchi boshqa din vakillari qoni, moli , obro’si himoya qilinadi.

Islomga kirmagan kishilarga diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularni hikmat, chiroyli mav'iza va go‘zal bahslar bilan Islomga chaqiriladi. Musulmonlar o‘zlari va qo'l ostidagi kishilari islomga amal qilishidan mas'uldirlar.

VIII bob. Siyosiy huquqlar

32-modda

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Islom qonunlari bo‘yicha, har qanday shaxs jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi uchun unda quyidagi shartlar topilishi lozim:

1-Musulmon bo‘lishi. Alloh taolo aytadi:

وَلَن يَجْعَلَ ٱللَّهُ لِلْكَٰفِرِينَ عَلَى ٱلْمُؤْمِنِينَ سَبِيلًا

Alloh hargiz kofirlarga mo'minlar ustidan yo'l bermas. (Niso.141)

2- "Har qanday shaxs" emas, boshqaruvga layoqatli ish egasi bo‘lishi kerak.

Alloh taolo aytadi :

إِنَّ ٱللَّهَ يَأْمُرُكُمْ أَن تُؤَدُّوا۟ ٱلْأَمَٰنَٰتِ إِلَىٰٓ أَهْلِهَا وَإِذَا حَكَمْتُم بَيْنَ ٱلنَّاسِ أَن تَحْكُمُوا۟ بِٱلْعَدْلِ إِنَّ ٱللَّهَ نِعِمَّا يَعِظُكُم بِهِۦٓ ۗ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ سَمِيعًۢا بَصِيرًا

Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o'z ahliga erishtirishni va agar odamlar orasida hukm qilsangiz, adolat ila hukm qilishni amr qiladir. Alloh sizlarga qanday ham yaxshi va'z qilur! Albatta, Alloh eshituvchi va ko'ruvchi zotdir. (Niso.58)

Oyatdagi "**omonatni o'z ahliga topshirish**" ning bir ma'nosi, har qanday mansabni o'z egasiga topshirishga buyruqdir.

Bu ma'noda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

إذا ضيعت الأمانة فانتظر الساعة .قال :كيف إضاعتها يا رسول الله؟ قال :إذا أسند الأمر إلى غير أهله فانتظر الساعة

"Agar omonat zoye qilinsa, qiyomat soatini kutaver!

Rasulullоh sallolohu alayhi va sallamga aytildi: Omonat zoye bo‘lishi qanday bo'ladi?

Shunda aytdilar : "Agar ish o'z egasidan boshqasiga topshirilsa, qiyomatni kutaver " (Buxoriy rivoyati)

Shuning uchun sahobiy Abu Zar roziallohu anhu Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan amirlik so‘ragan payti Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam u kishiga aytdilar:

"Sen zaifsan" (Muslim rivoyati)

Ya'ni, iymon tomonidan baquvvat bo'lsalar-da, siyosiy boshqaruvga zaifliklari sabab boshliqlik bermadilar.

3- Mansabga intilgan kishiga mansab berilmaydi. Chunki mansabga intilish kishida dunyoga muhabbat borligidan dalil. Aks holda, oxiratda faqat mas'uliyat bo‘lgan mansabning kishiga nima keragi bor ?

Shuning uchun kishi odatiy hollarda (zaruratsiz) boshqaruvga nomzodini qo‘yishi, o'ziga ovoz yig‘ish uchun targ‘ibot olib borish islomda joiz emas. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

انا والله لا نولى هذا الأمر أحدا سأله او حرص عليه.

"**Allohga qasam, biz bu ishlarni so‘ragan yoki haris bo‘lgan kishilarga topshirmaymiz "**

(Buxoriy va muslim)

Ammo zarurat holatlari haqida saylov bo‘limida to‘xtalib o‘tamiz.

Endi moddaga qaytaylik:

2. "O‘zini o‘zi boshqarish "

Islomda din chegarasidan chiqmagan holda “o‘zini o‘zi boshqarish” ma'nosi bor. Alloh taolo mo'minlar sifatlari haqida aytadi:

وَأَمْرُهُمْ شُورَىٰ بَيْنَهُمْ

"Ular ishlari o'zaro sho’ro (maslahat) ila bo'lganlardir" (Sho’ro.38)

Shuningdek, siyratga qarasak, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam sahobalarga vazifa bersalar , uni qanday tarzda bajarishni ko‘pincha sahobalar o‘zlari oralarida maslahat bilan bajarar edilar. Bunga Mu'ta g'azotida Xolid ibn Valid Raziyallohu anhuning bajargan ishlarini misol qilish mumkin. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam tayinlagan qo‘mondonlar qatl bo‘lgach, u kishi vaziyatni o‘zlari qo'lga oldilar va musulmonlar armiyasini dushman changalidan qutqarib olib keldilar.

3. Referendumlar o‘tkazish .

Islomda shunchaki ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilish yoki hukumat tashkil qilish yo‘q. Chunki Alloh taolo aytadi:

وَإِن تُطِعْ أَكْثَرَ مَن فِى ٱلْأَرْضِ يُضِلُّوكَ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ إِن يَتَّبِعُونَ إِلَّا ٱلظَّنَّ وَإِنْ هُمْ إِلَّا يَخْرُصُون

Va agar yer yuzidagilarning ko'plariga itoat qilsang, seni Allohning yo'lidan adashtiradilar. Ular gumondan boshqaga ergashmaslar. Ular taxmin qilarlar, xolos. (An'om. 116)

Referendumning yomonliklaridan yana biri, axborot va iqtisodi kuchlilar ushbu ikki vosita orqali o‘zlariga ko‘proq ovoz to‘playdilar. Qo‘lida axborot va iqtisodi yo‘qlar esa, garchi mansabga haqli bo‘lsalar-da, odatda ularning nomi tarqalmaydi. Bunga qo‘shimcha saylovlardagi g'irromliklar ham hech kimga sir emas.

4. davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish,

Islomda demakratiya tushunchasi haqida avvalgi moddalarda to‘xtalib o‘tdik. Bu modda bo‘yicha qarasak, davlat organlaridagi kishilarni dini , e'tiqodidan qat'iy nazar tenglik asosida tashkil qilinishi kerak ekan. Bu esa islomga ochiq zid ish. Chunki islomda musulmonlarga oid mansablar musulmon bo‘lmagan kishilardan tashkil topmaydi. Faqat siyosiy boshqaruvga daxli y'oq bo'lgan ishlab chiqarish kabi sohalardagina ular ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, islom davlatida yashovchi ahli kitoblar o'z ishlariga o‘zlaridan boshliq tayinlashlariga haqli bo‘ladilar. Ammo umumiy qilib "demokratik tarzda tashkil etish" deyish to‘g'ri emas.

5. Shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Islomda davlat organlarini avvalo ulamolar, so‘ngra xalq tomonidan nazorat qilinadi.

Alloh taolo aytadi :

كُنتُمْ خَيْرَ أُمَّةٍ أُخْرِجَتْ لِلنَّاسِ تَأْمُرُونَ بِٱلْمَعْرُوفِ وَتَنْهَوْنَ عَنِ ٱلْمُنكَرِ وَتُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ

Siz odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat bo'ldingiz. Amri ma'ruf qilasiz, nahyi munkar qilasiz va Allohga iymon keltirasiz. (Oli-Imron.110)

Agar kishi Davlatdagi nohaqliklarni inkor qilib shuning ortidan qatl qilinsa, eng afzal shahidlardan hsioblanadi. Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

سيد الشهداء حمزة بن عبد المطلب، ورجل قام إلى إمام جائر فأمره ونهاه، فقتله .رواه الحاكم

"Shahidlarning eng sayyidi Hamza ibn Abdul-muttalib va zolim podshohga turib unga yaxshilikni buyurib, yomonlikdan qaytarganda podshoh uni qatl qilgan kishidir" (Hokim rivoyati)

Sahobalar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga :

"**Haq qaysi tarafda bo'lsa, o‘sha tarafda bo‘lish, malomatchining malomatidan qo'rqmaslikka** bay'at berar edilar”. (Buxoriy va muslim)

Yana Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من رأى منكم منكرا فليغيره بيده، فإن لم يستطع فبلسانه، فإن لم يستطع فبقلبه، وذلك أضعف الإيمان.

"Sizlardan kim biror yomonlikni ko‘rsa, uni qo'li bilan o'zgartirsin. Agar qodir bo‘lmasa, tili bilan. Agar unga ham qodir bo‘lmasa, qalbi bilan yomon ko‘rsin. Bu iymonning eng zaif ko‘rinishidir"

(Muslim rivoyati)

Mana shu tarzda ulamolar va xalq davlat organlari faoliyatini islomga muvofiqligini nazorat qiladi. Ularni yaxshilikka buyuradi va yomonlikdan qaytaradi.

6. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Moddaning ushbu qismi yuqorida davlat organlari ustidan jamoatchilikka nazorat berilganligi vakolatini qaydlab qo‘yish maqsadida chiqarilgan.

Modom davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati qandaydir qonunlar bilan cheklanishi kerak ekan, o‘sha qonunlar hammamizning ustimizdan hukmron Allohning qonunlari bo‘lishi kerak.

Qanday o‘rinda davlatga itoat etish, qanday o‘rinda davlatga nasihat qilib itoat etmaslikni , haqni aytishni shariat to‘liq bayon qilib berdi.

عن عبادة بن الصامت -رضي الله عنه- قال: بايعنا رسول الله صلى الله عليه وسلم على السمع والطاعة في العسر واليسر والمنشط والمكره، وعلى أثرة علينا، وعلى ألا ننازع الأمر أهله، وعلى أن نقول الحق أينما كنا ولا نخاف في الله لومة لائم.

"Uboda ibn Sobit Roziyallohu anhu aytadilar**:**

"Biz qiyinchiligu yengillikda, rozi va norozi holatimizda , bizning haqlarimiz o‘zlashtirib olinsa ham, boshliqning so‘zini eshitib, unga itoat etishga, ishni (davlatni) egalariga talashmaslikka, va o‘z navbatida qayerda bo‘lsak ham, haqni aytishga, malomatchining malomatidan qo'rqmaslikka bay'at berdik"

(Buxoriy va muslim)

Shunga ko‘ra davlat organlari islomiy qonunlarga muvofiq faoliyat olib borishini jamoatchilik nazorat qiladi.

Xulosa:

32-modda.

Musulmon fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Musulmonlar bilan yashovchi boshqa din vakillari ommaviy siyosiyatga daxli y'oq o‘rinlarda va o‘z boshqaruvlariga xos siyosiy o‘rinlarda ishtirok etishlari mumkin.

Davlat ishlarini boshqaruvchi kishilarda o’z ishiga layoqatlilik shart qilinadi. Shuningdek, ularda mansabga intilish va harislik bo‘lmasligi kerak.

Ularning ishtirok etishi o'zini-o‘zi boshqarish organlari va davlat masu'llari tomonidan tayinlash orqali tashlik qilinadi.

Davlat organlarining faoliyati islomiyligi ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi islom qonunlari bilan belgilanadi.

33-modda.

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Sharh:

Bu modda ham amal qilinmaydigan quruq qog'ozdagi gaplardan. Chunki voqelikda davlat hech qachon fuqarolar to‘planib miting o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaydi. Alloh taolo aytadi:

لِمَ تَقُولُونَ مَا لَا تَفْعَلُونَ

Nima uchun qilmaydigan narsangizni gapirasiz. (Saf.2)

Mayli, ular o‘z qonunlariga amal qilmasinlar. Umuman olganda islomda miting yoki namoyishlar hukmi nima ?

Buning uchun avvalo namoyish kayfiyati va qanday hukumatga qilinayotganini aniqlab olishimiz kerak.

1-Islom bilan boshqariladigan davlat yoki boshliqqa qarshi qurolli namoyishlar.

Bu ish islomda "Bo'g'iylik" deb ataladi va harom hisoblanadi.

Ularni yaxshikcha bu yo‘ldan qaytariladi . Agar yaxshilikcha itoatga qaytmasalar, ularga urush qilinadi.

Alloh taolo aytadi:

وَإِن طَآئِفَتَانِ مِنَ ٱلْمُؤْمِنِينَ ٱقْتَتَلُواْ فَأَصْلِحُواْ بَيْنَهُمَا فَإِنْ بَغَتْ إِحْدَىٰهُمَا عَلَى ٱلْأُخْرَىٰ فَقَٰتِلُواْ ٱلَّتِى تَبْغِى حَتَّىٰ تَفِىٓءَ إِلَىٰٓ أَمْرِ ٱللَّهِ فَإِن فَآءَتْ فَأَصْلِحُواْ بَيْنَهُمَا بِٱلْعَدْلِ وَأَقْسِطُوٓاْ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُقْسِطِينَ

Agar mo'minlardan ikki toifa urishib ketsalar, bas, o'rtalarini isloh qiling. Agar ulardan biri ikkinchisiga tajovuz qilsa, siz tajovuz qilganiga qarshi, to u Allohning amriga qaytgunicha urishing, agar qaytsa, bas, o'rtalarini adolat bilan isloh qiling. Odil bo'ling, albatta, Alloh adolat qilguvchilarni suyadir. (Hujurot. 9)

Shuningdek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

مَن أتاكُمْ وأَمْرُكُمْ جَمِيعٌ علَى رَجُلٍ واحِدٍ، يُرِيدُ أنْ يَشُقَّ عَصاكُمْ، أوْ يُفَرِّقَ جَماعَتَكُمْ، فاقْتُلُوهُ.

"Sizlar ishinglar bir (boshliq) kishiga jamlanib turganda, birliginglarni sindirishni istagan yoki jamoatinglarga tafriqa solishni istagan kishini o'ldiringlar!" (Muslim rivoyati)

2- Islom bilan boshqariladigan davlat yoki boshliqqa tinch uslubda namoyish qilish.

Norozilik ohangidagi bunday namoyishlar ham bugungi fitna zamonida yaxshilikka olib kelmaydi.

Chunki ko'pincha olomon xalqdan foydalanib, ularning namoyishlarini o'z manfaatlariga yo'naltiruvchilar chiqadi. Yoki tartibsizlik sabab davlat va xalq mulkini talon-taroj qiluvchilar bu fursatdan foydalanib qoladi. Ko'pincha tartibsizlikni bosish maqsadida chet davlatlar aralashuviga ham sabab bo‘ladi.

Islom tarixiga qarasak, garchi zolim bo‘lsa-da, islom davlatiga qilingan xurujlar, namoyish va qo'zg'ilon orqali hech qachon yaxshilik kelmagan. Balki hammasi dushman foydasiga xizmat qilgan.

Usmon riziyallohu anhu qatli ham tinchlik namoyishlaridan boshlandi.

Usmoniylar davlati qulashi, mustamlakachilar islom olamiga kirib kelishi hammasi namoyishlar ortidan.

Abul-Asvad rahimahulloh aytadilar:

"Bebosh tartibsizlik hech qachon odamlar hayotini isloh qilmaydi"

Odamzotga bir vodiy tilla bo'lsa, ikkinchisini istaydi. Uning qornini faqat tuproq to'ydiradi. Agar odamlarga namoyish qilishga qo‘yib berilsa, ularning talablari tugamaydi. Bora-bora arzimas ishlarni da'vo qilib, qo'zg'alonlar chiqib notinchlikka olib keladi.

3-Kufr davlat yoki kofir podshohga qarshi qurolli namoyish qilish.

Ularga qarshi namoyish qurol bilan bo'lsa, buning uchun tayyorgarlik va qudrat shart qilinadi. Ungacha Makka davrida sahobalar iymonlarini yashirib yurganlaridek maxfiy yuriladi yoki qodir bo'lganlar hijrat qiladi.

4-Kufr davlat yoki kofir podshohga tinchlik bilan namoyish qilish.

Tinch uslubda namoyish qilish esa, islom bunga buyurmadi. Chunki musulmonlar tinchlik bilan haqqini talab qilsa, kofirlar unga tinchlik bilan haqqini beravermaydi. Iymon va kufr qadimdan bir-biri bilan urishadi. Biz urishmasak, ham ular baribir bizga urishaveradi. Alloh taolo aytadi:

وَلَا يَزَالُونَ يُقَٰتِلُونَكُمْ حَتَّىٰ يَرُدُّوكُمْ عَن دِينِكُمْ إِنِ ٱسْتَطَٰعُواْ

Ular agar qodir bo'lsalar, sizlarni diningizdan qaytargunlaricha sizga qarshi urush qilaveradilar. (Baqara.217)

Shu o‘rinda bir shubhaga javob berib o‘tishimiz lozim.

Hamza va Umar raziyallohu anhumlar islomga kirganlarida, sahobalarni ikki saf qilib birida Hamza va ikkinchisida Umar raziyallohu anhumlar Makka ko‘chalarida islomni e'lon qilib yurish qildilar. Mana bu namoish emasmi?

Bunga uch uslubda javob beramiz.

Birinchidan, bu rivoyat zaif.

Ikkinchidan, aytaylik sahih desak ham, Makka davri kabi sodda hayotdagi namoyish bugungi chigal hayotdagi namoyishlarga taqqoslanmaydi.

Bugungi namoyishlar ortidan kelib chiqadigan yuqorida ishora qilingan zararlar, namoyishlar kimlarningdir g'arazlariga xizmat qilib qo‘yishi u paytda yo‘q edi.

Uchinchidan ushbu namoyish maqsadi, yo‘nalishi aniq, boshlig‘i aniq (Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam) edilar. Bugungi namoyishlarda esa, odatda, bular birortasi aniq bo‘lmaydi.

Endi " islomda namoyishlar taqiqlansa, odamlar davlatga arzini qanday yetkazadi? Va davlatning tanobi qanday tortib qo‘yiladi?" degan savolga javob beraylik:

Odamlar buning uchun xalq oldida obro’li Allohdan boshqadan qo'rqmaydigan ulamolarni ishga soladilar. Va ularning ko‘rsatmalariga binoan tartib bilan muayyan maqsadda, o‘z haqlarini talab qiladilar. Yoki davlatga amru ma'ruf va nahiy munkar qiladilar. Bu betartib namoyishlardan bizni behojat qiladi. ZeZerosahobalar bay'atlari ham shunday edi.

Uboda ibn Sobit Roziyallohu anhu aytadilar:

"**Biz qiyinchiligu-yengillikda, rozi va norozi holatimizda , bizning haqlarimiz o‘zlashtirib olinsa ham boshliqni so‘zini eshitib, unga itoat etishga, ishni (davlatni) egalariga talashmaslikka, magar ularda ochiq kufrni ko‘rsak mustasno va o‘z navbatida qayerda bo‘lsak, ham haqni aytishga, malomatchining malomatidan qo'rqmaslikka bay'at berdik"** (Buxoriy va muslim)

Rivoyatda "**Magar ularda ochiq kufrni ko‘rsak**" deganlaridan ko‘rinib turibdiki, bizning podshohlarga qarshiligimiz e'tiqod uchun bo'ladi. Qimmatchilik yoki qorin dardida emas. Bunday talablar ommaviy to'polon bilan emas , podshohlarga xos nasihat bilan amalga oshiriladi. Qachonki, buning imkoni yo‘q bo‘lsa, bunga vosita tarzida ovozni yetkazish uchun to'planishlar tor doirada joiz bo‘ladi.

Endi 33- moddaning oxirgi qismiga qaraylik :

"Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega"

Bu istisno bilan yuqoridagi ijozatlar hammasi qaytib olingandek go’yo! Chunki har qachon namoyish uyishtirilsa, ushbu vaj bilan ularni tarqatiladi !

Bizning islomda odamlarni aldab, amal qilinmaydigan qonun chiqarish yo‘q. Namoyishlar aksar holatda zararli bo‘lgani sabab unga taqiq qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytganda, asli namoyishlar mumkin emasligi, joizligi esa istisnoiy holatlarda bo'lib hokimlarga xalq ovozini yetkazish uchun bir vasila tarzida shar'iy qonunlar asosida ulamolar tomonidan ruxsat berilishi mumkin.

Xulosa:

33-modda

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini Islom qonunlariga muvofiq yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Islom qonunlari bilan boshqariladigan davlat va musulmon boshliqlarga qarshi qurolli yoki tinchlik uslubida namoyish va mitinglar qilishga ruxsat berilmaydi.

Fuqarolar o'z arzlarini haqiqatparvar ulamolar orqali davlatga yetkazadilar. Hokimiyat organlari ularning so‘zlariga quloq tutishi shart. Ularga bosim o‘tkazish taqiqlanadi.

Davlat organlarida ulamolar nasihatiga parvo qilmaslik , o‘zboshimchalik kuzatilgan holatlarda ulamolar boshchiligida namoyishlar tashkil qilinadi.

34-modda.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Sharh:

1. Kasaba uyushmalarida ishtirok etish.

Islomda zulmdan xalos bo‘lish va adolatni ro‘yobga chiqarish uchun tuzilgan birlashmalar joiz.

Bunga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Makkada kofirlar bilan zulm va adolatsizlikka qarshi ittifoqda ishtirok etganlari (Hilful-Fuzul qissasi) dalil bo‘ladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar "Agar bu ittifoqqa islomda chaqirilsam ham, javob qilar edim" (Bazzor rivoyati)

Faqat ushbu birlashmalar haromni halol, yoki halolni harom qiluvchi shartlardan xoli bo‘lishi shart.

Bu mavzuga 56-modda sharhida yana to‘xtalib o‘tamiz.

2. Bu moddada aytilgan "siyosiy partiyalarga uyushish" ham yuqoridagi kabi voqelikda yo‘q moddalardan.

Alloh taolo aytadi: لِمَ تَقُولُونَ مَا لَا تَفْعَلُونَ. **Nima uchun qilmaydigan narsangizni gapirasiz**. (Saf.2)

Hozir davlatda hech qanday haqqoniy siyosiy partiyalar yo‘q. Bu qonunlar o'z yo‘liga. Islomda siyosiy partiyalar bo‘lishi hukmi nima?

Islomda hokimlar Allohning hukmi bilan davlatni boshqarar ekan, ularga muxolif siyosiy partiyalar bo‘lishi umuman mumkin emas. Chunki bu Allohning hukmiga muxolif bo‘lishdir.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مَن أتاكُمْ وأَمْرُكُمْ جَمِيعٌ علَى رَجُلٍ واحِدٍ، يُرِيدُ أنْ يَشُقَّ عَصاكُمْ، أوْ يُفَرِّقَ جَماعَتَكُمْ، فاقْتُلُوهُ.

"Sizlar ishinglar bir (boshliq) kishiga jamlanib turganda, birliklaringni sindirishni istagan yoki jamoatinglarga tafriqa solishni istab kelgan kishini o'ldiringlar!" (Muslim rivoyati)

Biz bu hadislar orqali , har qanday davlatda muxoliflarni o'ldirishni halollab bermoqchi emasmiz (Alloh asrasin). Maqsadimiz islom bilan boshqariladigan davlat va musulmon boshliqlarga qarshi muxolifat va partiyalar. Chunki ular ummat ichiga firqa soladilar. Alloh esa birlikka buyurdi. Alloh taolo aytadi:

وَٱعْتَصِمُواْ بِحَبْلِ ٱللَّهِ جَمِيعًا وَلَا تَفَرَّقُواْ

Barchangiz Allohning arqonini mahkam tuting va bo'linib ketmang. (Oli-Imron. 103)

Islom davlatida birdan-bir partiya (jamoat) Allohning jamoatidir. Alloh taolo aytadi:

وَمَن يَتَوَلَّ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ وَٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ فَإِنَّ حِزْبَ ٱللَّهِ هُمُ ٱلْغَٰلِبُونَ

Kim Allohni, Uning Payg'ambarini va iymon keltirganlarni valiy (do'st) qilib olsa, bas, albatta, Allohning hizbi (jamoasi) – ana o'shalar g'oliblardir. (Moida.56)

Allohning jamoasiga qarshi chiqqan kishi , agar davlatdagi shaxslarga qarshi bo'lsa, uni bog'iy , agar islomiy boshqaruvga qarshi bo'lsa, bir yo‘la kofir bo'ladi.

Ammo, siyosiy partiyalar yo‘qligi sabab yakkahokimlik yoki monarxiyaga olib kelish xataridan qutulish uchun ulamolarga o'z vakolatlarini to‘liq berilishi va boshliqlar atrofidan laganbardorlar yo’qotilishi kerak. Tarixda Abu Bakr, Umar , Usmon, Ali roziyallohu anhumlar yoki ulardan so‘ng Umaviylar orasidan Umar ibn Abdulaziz rahimahulloh zamonlarida hech qanday siyosiy partiyalar yo‘q edi. Shunga qaramay partiyalardan tashkil topgan bugungi davlatlardan ko‘ra adolatli va baxtli zamon edi.

Chunki boshliqlar taqvodor bo'lar ekan, taqvosi ularni mustabidlikdan to‘sadi. Bunga misol tarzida Abu Bakr roziyallohu anhuni birinchi xutbalaridagi so‘zlarini aytdik :

"Men sizlarga bosh qilindim. Ammo sizlarning yaxshilaring emasman! Agar yaxshilik qilsam, yordamchi bo‘ling, agar yomonlik qilsam meni to'g'irlanglar"

Yoki Umar raziyallohu anhu qanchalik qattiqqo'l bo‘lsalar ham, hech qachon birovga zulm qilganlari , yoki taxtni farzandlariga qoldirib ketganlari ko'rilmadi.

Yana bir savolga javob berishimiz qoldi.

Kufr davlat yoki tuzumlarda, islomni tarqatish maqsadida siyosiy partiyalarda ishtirok etish hukmi nima ?

Bunga Yusuf surasida zikr qilingan Yusuf alayhissalam qissalari javob bo'ladi. Chunki u kishi o‘sha vaqtdagi Misrning kufr tuzumida davlat vaziri mansabida ishladilar. Misr podshohi keyinchalik u kishining diniga kirdi.

Aytaylik, kimdir shunday katta vakolatga ega bo'lsa va kufr shartlariga rozi bo‘lmay islomga xizmat qila olsa, bunday siyosiy mansablarda ishlashi joiz bo'ladi. Ammo bu hozirgi zamonda deyarli amri mahol ish. Bunda holatga qarab hukm qilinishi kerak.

3.Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Muxolifatchi shaxslar yoki partiyalar islomda mumkin emasligi haqida aytib o‘tdik. Ammo umuman olganda, islom zaif va ozchilikning huquqlarini himoya qiladi va ularni kamsitishdan qaytaradi.

Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا يَسۡخَرۡ قَوۡمٞ مِّن قَوۡمٍ عَسَىٰٓ أَن يَكُونُواْ خَيۡرٗا مِّنۡهُمۡ وَلَا نِسَآءٞ مِّن نِّسَآءٍ عَسَىٰٓ أَن يَكُنَّ خَيۡرٗا مِّنۡهُنَّ وَلَا تَلۡمِزُوٓاْ أَنفُسَكُمۡ وَلَا تَنَابَزُواْ بِٱلۡأَلۡقَٰبِۖ بِئۡسَ ٱلِٱسۡمُ ٱلۡفُسُوقُ بَعۡدَ ٱلۡإِيمَٰنِۚ وَمَن لَّمۡ يَتُبۡ فَأُوْلَٰٓئِكَ هُمُ ٱلظَّٰلِمُونَ

Ey iymon keltirganlar! Bir qavm boshqasini masxara qilmasin, ehtimol ular bulardan yaxshiroqdir. Va ayollar ham boshqa ayollarni (masxara qilmasin), ehtimol ular bulardan yaxshiroqdir. Va o'zingizni o'zingiz mazax qilmang, bir-

biringizga laqab qo'ymang. Iymondan keyin fosiqlik ismi naqadar yomon! Va kim tavba qilmasa, bas, ana o'shalar o'zlari zolimlardir. (Hujurot.11)

Hatto Allohdan boshqaga ibodat qiluvchilarni va ularning olihalarini so'kishdan qaytaradi.

Alloh taolo aytadi :

وَلَا تَسُبُّواْ ٱلَّذِينَ يَدۡعُونَ مِن دُونِ ٱللَّهِ فَيَسُبُّواْ ٱللَّهَ عَدۡوَۢا بِغَيۡرِ عِلۡمٖۗ كَذَٰلِكَ زَيَّنَّا لِكُلِّ أُمَّةٍ عَمَلَهُمۡ ثُمَّ إِلَىٰ رَبِّهِم مَّرۡجِعُهُمۡ فَيُنَبِّئُهُم بِمَا كَانُواْ يَعۡمَلُونَ

Ularning Allohdan o'zga ibodat qiladiganlarini so'kmangiz. Bas, bilmasdan, zulm ila Allohni so'kib yurmasinlar. Shunday qilib, har bir ummatga amalini ziynatlab qo'ydik. So'ngra esa, qaytib boradigan joylari Robbilarigadir. Bas, u qilib yurgan ishlarining xabarini berur. (An'om. 108)

Xulosa:

34-modda.

Fuqarolar yaxshilikka yordamlashish va nohaqlikning oldini olish uchun, shariatga xilof kelmaydigan ko'rinishda kasaba uyushmalariga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Musulmonlar bilan yashovchi boshqa din vakillarini, ozchilikni tashkil etuvchi shaxslar huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

35-modda.

Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart.

Sharh:

Bu modda ham qog‘ozda qolib ketadigan so‘z bo‘lsa-da, tatbiq qilinishi lozim . Islomda ham har bir shaxs davlat organlari nohaqliklari ustidan shikoyat qilishi, ularga takliflar bildirishi haqqi bor. Davlat amaldorlari odamlardan qochib yurishga, ular qarshisida eshigini qulflab olishga haqqi yo‘q.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من وَلِيَ من أمرِ المسلمين شيئًا ، فاحتجَب عن أُولي الضَّعفِ والحاجةِ ؛ احتجب اللهُ عنه يومَ القيامةِ

"Kim musulmonlar ishlaridan bir ishga bosh bo'lib, zaif va hojati borlardan berkinib olsa, Alloh qiyomat kunida undan berkinadi" (Abu dovud rivoyati)

Boshqa bir hadisda davlat amaldorlariga odamlarning arzini yetkazishga targ‘ib qilib aytadilar :

"من بلغ ذا سلطان حاجة من لا يستطيع إبلاغها، ثبت الله تعالى قدميه على الصراط يوم القيامة

"Kim sultonga yeta olmayotgan kishining hojatini unga yetkazib bersa, Alloh qiyomat kunida sirotda uning qadamini sobit qiladi" (Bazzor rivoyati)

Demak mas'ullarga yaqin kishilar odamlarning arzini ularga yetkazishlari kerak. Sahobalar hatto Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga takliflar berar edilar. Va Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam qo‘ygan boshliqlar ustidan ba'zan shikoyat qilganlar. Ularning shikoyatlari ko'rib chiqilib o'rinli bo'lsa, qabul qilinar edi.

Ba'zan ularning arizalari sabab oyatlar nozil bo‘lar edi. Bunga bir misol, Xovla bintu Sa'laba roziyallohu anho eridan shikoyat qilganda, "Mujodala" surasi nozil bo‘ldi.

(Qissa haqida batafsil ma'lumot uchun Mujodala surasi tafsiriga qarang)

Umar roziyallohu anhu odamlar shikoyatlari sabab, Kufa hokimi sahobiy Sa'd ibn abu Vaqqos raziyallohu anhuni ishdan bo'shatdilar.

Va xalq hokimlarga bog‘lanishi oson bo'lsin uchun ularni qo'riqchilar bilan yurishdan qaytarar edilar. O‘zlari ham hech qanday qo'riqchisiz yurar edilar.

Usmon roziyallohu anhu xilofot vaqtlarida ham kim hokimlardan shikoyat qilsa, ularni almashtirar edilar. Hatto bu talablar shu darajada qondirilganidan, to'qlikka sho'xlik qilib, adolatning qadrini bilmay, ba'zi g'arazgo'ylar u kishining o‘zidan ham shikoyat qilishga o'tdilar.

Ali roziyallohu anhu xaliflaklarida esa, hatto u kishini kofir degan xavorijlardan arizalari eshitilib, ularning savollariga javob qaytarildi. Ibn Abbos roziyallohu anhu ular bilan muzokaralar olib bordi.

Garchi hadislarda ularni o'ldirib yuborishga buyruq bo‘lsa-da, ularning shikoyatlarini eshitmay turib ularga jazo bermadilar.

Va bundan boshqa ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Xulosa:

35-modda.

Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar Islom qonunlariga muvofiq tarzda, belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi shart.

IX bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

36-modda.

Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.

Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Sharh:

1. Mulkdor bo‘lish haqqi.

Islom dinida iqtisod sotsializmga asoslanmaydi. Balki har kim o‘zining shaxsiy mulkiga ega bo'ladi.

Qur'onga nazar solsak, 28 o'rinda "Amvalahum" (ularning mol-mulklari), yana 14 o'rinda "Amvalakum" “Mol-mulklaring" deb, mol insonning shaxsiy mulki ekaniga ishora qiladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

ان دمائكم و أموالكم واعراضكم عليكم حرام

"Albatta qonlaring, mollaring, obrularing bir-biringizga haromdir" (Buxoriy va muslim)

Bu hadisda ham "Mollaring " deb kishining shaxsiy mulki bo‘lishiga, unga nojaq tajovuz qilish haromligiga ishora qildilar.

Sahobalar hayotiga nazar solsak, ulardan ham badavlatlari ko‘p edi. Masalan, Usmon roziyallohu anhu bir o‘zlari islom armiyasiga 900 tuya sadaqa qilib yuborganlar. Buncha mablag‘ saqlab yurganlariga hech kim u kishini malomat qilmagan.

Zubayr ibn Avvom roziyallohu anhu vafot etganlarida Madinada 11 hovlisi, undan boshqa Misr, Basra, Ko’fa yerlarida uylari va boshqa ko‘chmas mulklari bor edi.

Faqat Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytganlar "الا بحق الاسلام" **"Islom haqqi mustasno"** (Buxoriy rivoyati) Ya'ni islom kishining molidan zakot haqqini talab qiladi. U shariatda belgilangan miqdor va shartlar bilan uning molidan olinadi.

Shuningdek, kishining mol-mulki shariat ijozat bergan suratda topilgan bo‘lishi shart. Masalan, hech kim "mulkdorlik haqqim" deb mast qiluvchi ichimliklar ishlab chiqarishi, unda tijorat qilishi yoki to'ng'iz boqib sotish kabi harom ishlariga ruxsat berilmaydi.

O'z navbatida bu islomda to'liq kapitalizmga amal qilinadi, degani ham emas. Islomning o'z iqtisod nizomi bor. Unga ko‘ra mol-mulk faqat badavlatlar orasida aylanib, jamiyat tabaqaga bo‘linib qolmasligi kerak.

Alloh taolo bu haqida aytadi:

مَّآ أَفَآءَ ٱللَّهُ عَلَىٰ رَسُولِهِۦ مِنْ أَهْلِ ٱلْقُرَىٰ فَلِلَّهِ وَلِلرَّسُولِ وَلِذِى ٱلْقُرْبَىٰ وَٱلْيَتَٰمَىٰ وَٱلْمَسَٰكِينِ وَٱبْنِ ٱلسَّبِيلِ كَىْ لَا يَكُونَ دُولَةًۢ بَيْنَ ٱلْأَغْنِيَآءِ مِنكُمْ

Alloh O'z Rasuliga shahar ahlidan qaytarib bergan narsalar. Allohga va Uning Rasuliga va yaqin qarindoshlariga, yetimlarga va miskinlarga va ko'cha o'g'illarigadir. Toki (mol-mulk) sizlardan boylaringiz orasida aylanadigan narsa bo'lib qolmasligi uchun. (Hashr.7)

(Batafsil ma'lumot uchun Hashr surasi tafsiriga qarang)

Insoniyat sotsializmda yoki kapitalizmda nima yaxshilik topgan bo‘lsa, islom iqtisod nizomiga qarasak, uni avvaldan aytib qo‘yganini topamiz.

2.Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi.

Kishining mol-mulki sir tutilishi hech qanday yomonligi yo‘q. Faqat banklar ribo (foiz)ga asoslanmasligi shart qilinadi. Buning uchun banklar tizimi islomiy iqtisodga asoslangan bo‘lishi kerak. Shunda bu bandga amal qilish mumkin bo'ladi.

3. Meros huquqi.

O‘zbekiston konstitutsiyasida va fuqarolik kodekslarida meros taqsimi islom shariatiga asoslanmagan.

Qur'onda namoz, zakot va boshqa ko‘plab ibodatlar kayfiyati batafsil aytilmagan bo‘lsa-da, merosning ahamiyati uchun Allohning O‘zi uni taqsimlab bergan. Niso surasining 11-oyatida buning sababini aytadi:

ءَابَآؤُكُمْ وَأَبْنَآؤُكُمْ لَا تَدْرُونَ أَيُّهُمْ أَقْرَبُ لَكُمْ نَفْعًا فَرِيضَةً مِّنَ ٱللَّهِ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلِيمًا حَكِيمًا

otalaringiz va bolalaringizdan qaysi birlari sizga manfaatliroq ekanini bilmassizlar. Bu Alloh joriy qilgan farzdir. Albatta, Alloh biluvchi va hikmatli zotdir (Niso.11)

Demak vafot etgan kishiga kim manfaatliroq ekaniga qarab, Alloh uni taqsimlab berdi.

Shuningdek, meros "Allohning chegarasi" deyildi. Hech kim undan oshib o‘tib o‘zicha taqsim qilishi joiz emas. Niso surasida me'ros taqsimi haqida oyatlardan so‘ng Alloh taolo aytadi:

تِلْكَ حُدُودُ ٱللَّهِ وَمَن يُطِعِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ يُدْخِلْهُ جَنَّٰتٍ تَجْرِى مِن تَحْتِهَا ٱلْأَنْهَٰرُ خَٰلِدِينَ فِيهَا وَذَٰلِكَ ٱلْفَوْزُ ٱلْعَظِيمُ

Ana o'shalar, Allohning chegaralaridir. Kim Allohga va Uning Rasuliga itoat etsa, uni ostidan anhorlar oqib turgan jannatga abadiy qolish uchun kiritadir. Bu esa, ulkan yutuqdir.

وَمَن يَعْصِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ وَيَتَعَدَّ حُدُودَهُۥ يُدْخِلْهُ نَارًا خَٰلِدًا فِيهَا وَلَهُۥ عَذَابٌ مُّهِينٌ

Kim Allohga va Uning Rasuliga isyon qilsa va Uning chegarasidan tajovuz qilsa, uni abadiy qolish uchun do'zaxga kiritadir. Va unga xorlovchi azob bordir. (Niso.13-14)

(Meros taqsimi tafsiloti "Faroiz" fanida bayon qilinadi)

Xulosa:

36-modda.

Har bir shaxs halol yo'l bilan mulkdor bo‘lishga haqli. Uning mulkdorligidan faqat Islom haqqigina mustasno.

Islomiy banklarga qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi shariat qonunlari bilan kafolatlanadi.

37-modda.

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Sharh:

1.Mehnat qilish va kasb tanlash erkinligi.

Islomda mehnat va kasb erkinligi halollik sharti bilan qaydlanadi.

Zamonamizda "Mehnat va kasb" deb nomlangan ko‘p ishlarga qarasak islomda harom ekanini topamiz.

Masalan, qo‘shiqchilik, rassomlik (jonli mavjudotlar chizish), haykaltaroshlik, aktyorlik kabi ishlarga islomda kasb deyilmaydi.

Ammo islomga zid bo‘lmagan ishlarda har kim istagan kasb-hunarini qilishga haqqi bor.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

ما أكلَ أحدٌ طعامًا قطُّ ، خيرًا من أنْ يأكلَ من عمَلِ يدِهِ وإنَّ نبيَّ اللهِ داودَ كان يأكلُ من عمَلِ يدِهِ

"Kishiga o'z qo'li mehnatidan yeganidan ko‘ra yaxshi taom yo‘q. Allohning payg‘ambari Dovud o'z qo'li mehnatidan (temirchilikdan) yerdilar. (Buxoriy rivoyati)

Nuh alayhissalam duradgor edilar. Muso alayhissalam esa 10 yil qo‘y boqdilar...

2.Adolatli mehnat sharoitlarida ishlash haqqi.

Islom kishini qo'l ostidagi mehnat qiluvchilariga adolatli bo‘lishga buyuradi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

هُم إخوانُكم خَوَلُكم، جَعَلَهم اللهُ تحت أيْديكم، فمَن كان أخُوه تحت يَدِه فلْيُطعِمْه ممَّا يَأكُلُ، ويُلبِسْــه ممَّا يَلبَسُ، ولا تُكلِّفوهم ما يَغلِبُهم، فإنْ كَلَّفتُموهم فأعينُوهم، ومَن لم يُلائِمْكم منهم فبِيعوهم، ولا تُعذِّبوا خَلْقَ اللهِ.

"Ular sizning birodaringiz, xizmatkorlaringizdir. Alloh ularni sizning qo'l ostingizda qilib qo‘ydi. Kimning qo'l ostida bir birodari bo'lsa, unga o‘zi yeganidan yedirib, o‘zi kiyganidan kiydirsin. Ularga kuchlari yetmagan narsani buyurmasin. Agar buyursa, o‘zi ularga yordam bersin. Qullaringdan kim sizlarga muvofiq

kelmasa, uni sotib yuborsin. Allohning xalqini azoblamanglar" (Buxoriy va muslim)

Kishi quliga shunday muomalaga buyurilar ekan, hur xizmatkorga bundan-da yaxshi muomalada bo‘lishi kerak.

2.Qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Islomda ham davlat fuqarolarni ish o‘rinlari bilan ta'minlab berishi kerak.

Bir kishi Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga yordam so‘rab keldi. Shunda unga aytdilar : "**Uyingda hech vaqo yo‘qmi?**" U aytadi : "Bir suv idish va bir yopinchiq bor" Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam o‘sha narsalarni olib kelishga buyurdilar va ularni kim oshdi savdosiga qo‘ydilar. Ularni ikki dirhamga sotib , egasiga berdilar va unga aytdilar : "**Bir dirhamga ahlingga taom sotib ol, ikkinchisiga esa bir bolta olib kel** dedilar. Keyin boltaga sop qilib berib, unga tutqizdilar va **"Bor, bu bilan o‘tin terib sot, 15 kun seni ko‘rmay”** dedilar, oradan o’n besh kun o‘tgach, o'n dirham bilan qaytib keldi. Shunda Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam aytdilar:

"Birlarining tilamchilik qilib qiyomatda yuzi dog‘ bo‘lib kelishidan shu ish yaxshi emasmi” (Termiziy rivoyati)

Qissadan ko‘rinib turganidek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam musulmonlarni ish bilan ta'minlashga harakat qilganlar.

Shuningdek, ba'zi o‘rinlarda jamiyatdan yordam so‘rashi ham mumkin. Bu ishsizlikdan himoyalanishga o‘xshash holat. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

،إنَّ المَسألةَ لا تَحِلُّ إلَّا لأحَدِ ثلاثةٍ :رجُلٍ تَحَمَّلَ حَمَالةً فحَلَّتْ له المَسألةُ، فسألَ حتى يُصيبَها، أو يُمسِكَ ورجُلٍ أصابَتْه جائحةٌ فاجتاحَتْ مالَه، فحَلَّتْ له المَسألةُ، فسألَ حتى يُصيبَ قِوامًا مِن عَيشٍ، أو قال :سِدادًا مِن عَيشٍ، ورجُلٍ أصابَتْه فاقةٌ حتى يقولَ ثلاثةٌ مِن ذَوي الحِجا مِن قَومِه :لقد أصابَتْ فُلانًا الفاقةُ، فقد حَلَّتْ له المَسألةُ، فسألَ حتى يُصيبَ قِوامًا أو سِدادًا مِن عَيشٍ، ثمَّ يُمسِكَ،

"Odamlardan yordam so‘rash uch holatdan birida joiz:

1- Bir kishi boshqaning yukini (qarzini) zimmasiga olgan, uni to‘laguncha yordam oladi va to'xtaydi.

2-Mol-mulkiga ofat yetgan kishi ham hayotini to'g'irlab oladigan miqdorda so‘rashi halol,

3-Kambag'allik yetgan, so‘ng uning yo'qchiligiga qavmidan uch oqil kishi guvohlik bergan kishiga ham hayotini to'g'irlaydigan miqdorga yordam so‘rashi halol. So‘ngra to'xtaydi” (Muslim rivoyati)

3.Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Islomda kishini muayyan mehnatga majburlash yo‘q. Lekin bekorchi bo'lib yurishga ham yo'l qo‘yilmaydi. O‘zimizda "Bekorchidan Xudo bezor" degandek, bekorchilikdan kishi dunyo va oxiratiga ko‘p zararlar kelib chiqadi.

Ammo jazoni o‘tash tartibida majburiy mehnat esa, islomda jazo hukmi tayin bo'lmagan jinoyatlardagina jinoyatchini majburiy mehnat qildirib jazolashi mumkin.

Jazo hukmi tayin bo‘lgan jinoyatga misol, o'g'irlik, zino, qotillik kabilar. Bu jionayatlarda jazoni Alloh o‘zi belgilab bergan. O'g'rini qo‘lini kesish, zinokorni darralash, yoki turmush qurgan bo'lsa, toshbo‘ron qilish, qotildan qasos yoki tovon puli olish.. Ularga bundan ortiq jazo berilmaydi.

Shariat hukmi tayin qilinmagan o‘rinlarda esa jinoyatchilarga majburiy mehnat tartibi joriy qilinishi mumkin. Uning kayfiyati islomiy sudga havola qilinadi.

Masalan, Sulaymon alayhissalam jinoyatchi jinlarga majburiy mehnat qildirar edilar. Alloh taolo aytadi:

يَعْمَلُونَ لَهُۥ مَا يَشَآءُ مِن مَّحَٰرِيبَ وَتَمَٰثِيلَ وَجِفَانٍ كَٱلْجَوَابِ وَقُدُورٍ رَّاسِيَٰتٍ

U(jin)lar unga(Sulaymonga) mehroblar, haykallar, hovuzlar kabi laganlar va sobit qozonlardan xohlaganini qilib berishar edi. (Saba.13)

Oyat jinlarni mehnat qildirilgani haqida bo‘lsa-da, umuman olganda jinoyatchilik e'tiboridan insonlarga ham shu hukmni qo‘llash joizligiga ishora bo'ladi.

Shuningdek, ba'zan qarzini to‘lay olmayotgan kishilar qarzini to‘lashi uchun yoki qisman ozod bo‘lgan qullarni to‘liq ozod bo‘lishi uchun ularni majburan mehnat qildirish ham shar'iy qonunlarda bor.

(Bular haqida batafsil ma'lumot fiqh fanida "Muflislar va Qullar" bo‘limida zikr qilinadi)

Xulosa:

37-modda.

Har bir shaxs halol mehnat qilish, halol kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va shariat qonunlarida ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir. Davlat o'z fuqarolarini ishsiz qolishiga yo'l qo‘ymaydi.

Islomiy sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki shariat qonunlarida ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

38-modda.

Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1.Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar.

Bu ma'noga 37-modda sharhida o‘tgan hadisda ishora bor :

"Ularga kuchlari yetmagan narsani buyurmasin. Agar buyursa, o‘zi ularga yordam bersin" (Buxoriy va Muslim)

Hatto qulni kuchi yetmagan ishga buyurishdan, uni azoblashdan qaytarilgani, unga dam olish haqqini isbotlaydi. Yoki hayvonni dam oldirib ishlatishga buyurilgani ham bunga misol bo‘ladi.

Bir kuni Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ansorlardan birining bog‘iga kirsalar, bir tuya u kishining oldilariga xirillab kelib ko‘zidan yosh oqa boshladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uning o'rkachi va qulog'idan silab yupatgach, u tinchidi. Shunda "**Bu tuyaning egasi kim?**" dedilar. Ansorlardan bir yigit "Men, Ya Rasulullоh " dedi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam unga aytdilar:

«أفلا تتقي الله في هذه البهيمة التي مَلَّكَك الله إياها؟ فإنه يَشْكُو إلي أنك تُجِيعه وتُدْئِبه».

"**Alloh senga bergan bu jonivor haqida Allohdan qo‘rqmaysanmi? Sen uni och qo‘yganing va charchatganingdan menga shikoyat qilyapti"** (Muslim rivoyati)

Hadisdan ko‘rinib turganidek hatto hayvonni dam oldirmay ishlatish qaytarilgan.

Hatto Allohga ibodat qilsak ham, nafl ibodatlarda nafsimizni dam oldirib ibodat qilishga buyurildik.

Sahobalardan Abu Dardo roziyallohu anhu tinimsiz ibodat qilar edilar. Shunda Salmon roziyallohu anhu u kishiga aytdilar :

إنَّ لِرَبِّكَ عَلَيْكَ حَقًّا، ولِنَفْسِكَ عَلَيْكَ حَقًّا، ولأَهْلِكَ عَلَيْكَ حَقًّا، فَأَعْطِ كُلَّ ذِي حَقٍّ حَقَّه

Albatta, Robbingning sening ustingda haqqi bor, nafsingning ham senda haqqi bor, ahlingning ham senda haqqi bor. Barcha haq egasiga haqqini ber"

Salmonning bu so'zlari Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga yetganda **" Salmon to'g'ri aytibdi"** dedilar. (Buxoriy rivoyati)

2.Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston qonunlarida dam olish vaqtlari kofirlar bayramlari, ularning dam olish (shanba -yakshanba) kunlariga belgilangan.

Rasullulloh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

هذا اليَوْمُ الذي كَتَبَهُ اللَّهُ عَلَيْنا، هَدانا اللَّهُ له، فالنَّاسُ لنا فيه تَبَعٌ، اليَهُودُ غَدًا، والنَّصارَى بَعْدَ غَدٍ.

" Alloh bizga bitgan bu kun (juma) kuniga , Alloh bizni hidoyat qildi. Odamlar unda bizga tobedirlar. Chunki yahudlar kuni erta (shanba), Nasroniylar kuni esa ertadan keyin (yakshanba)" (Muslim rivoyati)

Musulmon ularoq, bizning dam olish kunimiz juma kuni bo‘lishi kerak.

To'g'ri, mehnat kodeksida ikki hayit kuni ham dam olish kuni tarzida qabul qilingan. Ammo bunga qo‘shimcha, musulmonlarni haftalik dam olish kuni juma kuni bo'lishi kerak.

Shuningdek, ish vaqti kunlik besh namoz vaqtlaridan tashqarida bo‘lishi kerak. Shunda ta'lim yoki ish tizimida namoz o‘quvchilarga qiyinchilik bo‘lmaydi.

Fiqh kitoblarida ulamolar aytadiki: "Agar bir kishi “bir hafta ishlayman” desa, juma kuni va namoz vaqtlari unga kirmaydi"

Xulosa:

38-modda.

Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati shariat qonunlari bilan belgilanadi.

Juma vaqti va kunlik namoz vaqtlari ish yoki ta'lim vaqti bo‘lishi mumkin emas"

39-modda.

Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas.

Sharh:

1. "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega"

Islomda ham ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Muhtojlarni jamiyat va davlatdagi huquqlari haqida Alloh taolo aytadi:

وَٱلَّذِينَ فِيٓ أَمۡوَٰلِهِمۡ حَقّٞ مَّعۡلُومٞ

Ularning molu mulklarida ma'lum haq bordir.

لِّلسَّآئِلِ وَٱلۡمَحۡرُومِ

So'rovchi va bechoralar uchundir. (Maorij.24-25)

Bu tizim Umar roziyallohu anhu xilofot zamonlarida rasmiy devon ko'rinishida yo‘lga qo‘yildi. Devonda kishilarning martabasi , islomda ko‘rsatgan xizmatiga qarab tartiblanib ularga maosh berilar edi.

Umar raziyallohu anhu hayotlarining oxirida aytdilar : "Agar Alloh meni salomat qilsa, Iroq ahlining bevalarini o'zimdan keyin birovga muhtoj bo‘lmaydigan qilaman"

Ya'ni maosh puli orqali davlatning eng chekka hududi Iroq bevalarini ham ta'minlab birovga qaram bo‘lishdan behojat qilishni istagan edilar.

Islomda zakotlar, fay (jangsiz dushman tashlab ketgan o'ljalar) qarovchisiz kishilarga taqsimlanadi.

Hatto musulmon bo‘lmagan davlat fuqarolari ham bundan nasibador.

Umar riziyallohu anhu ko‘zi ojiz bir kishi tilamchilik qilib yurganini ko‘rib qolib "Sen qaysi ahli kitoblardansan?" dedilar. U "Men yahudiyman" dedi. Umar "Seni tilamchilikka nima majbur qildi?" dedilar. U aytdi : "Davlatga jizya (soliq) to‘lash va o'zimning ehtiyojim" shunda Umar uning kamchiligini to‘ldirib yordamchilariga aytadilar :

"Sen bu va bunga o‘xshaganlarga e'tibor qil! Biz ularga insof qilmabmiz! Ularni yoshligini yeb, qariganlarida ularni yordamsiz qo‘yibmiz " deb ulardan soliqni olib tashlab yordam puli chiqarib berganlar.

2. "Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas"

Islomda nafaqa va yordam miqdori zamon va makonga qarab urf odat, ehtiyojdan kelib chiqib, kishining darajasiga qarab belgilanadi. Alloh taolo aytadi:

وَأْتَمِرُواْ بَيْنَكُم بِمَعْرُوفٍ

O'zaro yaxshilik bilan maslahat qilinglar. (Taloq.6)

Yordam pullari eng kam ish haqqi miqdoridan kam bo‘lmasligi ham shu ma'noda ostiga kiradi.

Xulosa :

39-modda.

Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va shar'iy qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas.

40-modda.

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Sharh:

Islom dini davolanishga buyuradi. Alloh taolo asal haqida aytadi :

يَخْرُجُ مِنْ بُطُونِهَا شَرَابٌ مُّخْتَلِفٌ أَلْوَٰنُهُۥ فِيهِ شِفَآءٌ لِّلنَّاسِ إِنَّ فِى ذَٰلِكَ لَءَايَةً لِّقَوْمٍ يَتَفَكَّرُونَ

Ular (asalari)ning qorinlaridan turli rangdagi sharob (asal) chiqar. Unda odamlar uchun shifo bordir. Albatta, bunda tafakkur qiluvchilar uchun oyat-belgi bordir. (Nahl.69)

Shuningdek kasallik paytida ibodatlarga yengillik berdi. Suv ishlatish o‘rniga tayammum qilish, ro‘zani sog'aygunga qadar kechiktirishga ijozat berdi. Umumiy tarzda davolanishga buyruq qilindi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

تداووا فإنَّ الله لم يضَعْ داءً إلا وضَعَ له دواءً

"**Ey Allohning bandalari davolaninglar! Alloh qanday dard tushirgan bo'lsa, albatta, davosini ham tushirgan"** (Ibn moja)

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Islomda davolanish shunchaki kishining haqqimi yoki kishi davolanishga majburmi?

Kasallik turiga qarab ikkisi ham bor. Yuqoridagi hadisga qarasak, davolanishga buyruq qilindi. Yana bir rivoyatda, ko‘zi ko‘r kishi duo so‘rab kelganda **"istasang sabr qil, o'zingga yaxshi"** dedilar (Ahmad rivoyati)

Shuningdek, jannatga hisobsiz kiruvchi kishilar sifatlaridan biri "**Ular o‘zlarini kuydirib davolamaydilar**" (Buxoriy rivoyati) deyilgan.

Demak, rivoyatlarni jamlab qaraganda, davolanish yoki uni tark qilish kishining va kasalligining turiga qarab. Agar kishi kasallikka sabri yetmasa, yoki kasalligi yuqumli bo‘lsa, davolanishi majburiy bo'ladi. Ammo sabr qila olgan kishi yana kasali birovga yuqmaydigan o‘ziga cheklangan kasallik bo‘lsa, bunday kishi davolanishi yoki davolanmasligi o‘zining ixtiyori.

Islomda davolanish borasida yana bir shart bor, dori-darmon va davolanish halol narsalardan bo‘lishi kerak.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إن الله لم يَجعَل شفاء أمتي فيما حَرَّم عليها

"Alloh ummatimning shifosini ularga harom narsalarda qilgan emas" (Buxoriy rivoyati)

Davlat va sog'liqni saqlash vazirliklari dori darmon sohasini ushbu jihatdan nazorat qilishga masu'ldir.

Yana davolanishda islomiy qaydlardan biri, zarurat bo'lmagan holatlarda erkaklar ayollarni davolashi, doyalik qilishi , yoki ayollar erkaklarga xos kasalliklarda ularni davolashi taqiqlanadi.

Bundan faqat zarurat holatlari mustasno.

Xulosa:

40-modda

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Davolanish shariat qonunlariga muvofiq bo‘lishi, haromdan davolanmaslik shart. Davolanishda imkon qadar erkak -ayollar ajratilishi va bunga sharoit yaratib berilishi lozim.

41-modda.

Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Sharh:

1. Har kim bilim olish huquqiga ega.

Islomda bilim olish nafaqat har kimning huquqi balki uning zimmasidagi burch va majburiyatdir.

Qur'onda eng birinchi nozil bo‘lgan oyatda Alloh taolo o‘qishga buyuradi:

ٱقْرَأْ بِٱسْمِ رَبِّكَ ٱلَّذِى خَلَقَ

Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi. (Alaq.1)

2. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Islomda insoniyat muallimlari bo'lgan payg'ambarlar odamlardan haq so‘ramay ularga ta'lim berganlar.

Qur'onda o‘nlab o‘rinda Alloh taolo aytadi:

قُل لَّآ أَسْـَٔلُكُمْ عَلَيْهِ أَجْرًا إِنْ هُوَ إِلَّا ذِكْرَىٰ لِلْعَٰلَمِينَ

«Ayting : Men sizlardan buning uchun haq so'ramayman. U olamlar uchun eslatmadan iborat, xolos» (An'om.90)

Ulardan so‘ng sahobalar , ulardan so‘ng tobeinlar ham insoniyatga ta'lim berish uchun haq so‘ramadi. Balki ularga ta'lim berish yo‘lida umrini, jonini va molini fido qildilar.

Xususan, ta'lim dini bo'lsa, Alloh taolo uning oyatlarini pulga almashishdan qaytardi:

وَلَا تَشْتَرُوا۟ بِـَٔايَٰتِى ثَمَنًا قَلِيلًا وَإِيَّٰىَ فَٱتَّقُونِ

Mening oyatlarimni oz bahoga sotmang va Mengagina taqvo qiling. (Baqara.41)

Islom tarixida madrasalar vaqf va xayriya fondlariga asoslangan edi. Ko‘pchilik ota-onalar farzandlari yaxshi yashasin deb madrasaga tashlab kelar edilar. Mashhur olim Imom G‘azzoliy rahimahulloh ilm yo‘llari ham shu tarzda boshlangan edi. Otalaridan yetim qolgach, ular madrasadan boshpana topdilar. Ammo keyinchalik ilmga qiziqib olim bo'lib yetishadilar. O‘zlarining yoshliklari haqida aytadilar :

"Ilmni Allohdan boshqa uchun istagan edik (ya'ni, madrasaga kunlari o‘tish uchun borganlari), ilm esa faqat Alloh uchun bo‘lishni istadi"

Islom tarixida bepul ta'lim mana shunday ulamolarni yetishib chiqishiga sabab bo‘lgan edi.

3. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Har qanday davlatda ta'lim tizimi uning nazoratida bo‘lishi tabiiy holat. Islomda ham ta'lim tizimi to‘liq davlat nazoratida bo'ladi. Shunga binoan, hamma

fanlar (diniy yoki dunyoviy) islomga yo‘naltiriladi. Islom bilan bog‘lab o‘rgatiladi. Qur'onga qarasak, ayni shu ma'no tasdig‘ini topamiz. Har qanday ilmiy oyatlar aqida bilan bog‘lab zikr qilingan.

Shuningdek, ta'limgohlarda islomga zid tushunchalar, “Darvin nazariyasi” yoki zardushtiylik kabi fikrlar singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xulosa :

41-modda

Bilim olish hammaga majburiydir.

Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Maktab va boshqa o‘quv yurtlarida har qanday fanlar islomga yo‘naltirilishi va islom ta'limotlariga zid bo‘lmasligi shart

42-modda.

Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi.

Sharh:

1. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Har qanday davlatda ilmiy va texnikaviy erkinlik, rivojlanish bo‘lishi uchun avvalo u davlat tashqi bosimlarga qarshi tura oladigan qudratli davlat bo‘lishi kerak. Aks holda tashqi kuchlar kichik davlatlarni rivojlanishiga hech qachon yo'l bermaydi.

Islom tarixiga qarasak, davlat qudratli bo'lgan vaqtlarda Ilmiy va texnikaviy ijodlar gullab yashnadi.

Al-Xorazmiyning Aljabr risolasi Algebra faniga asos bo‘ldi. Ibn Sino tibbiyot otasi deb nomlandi. Islom ilmlaridan Imom al-Buxoriy va boshqa ko‘plab olim-ulamolar yetishib chiqdilar. Ammo qachonki davlat siyosati islomdan uzoqlashgach, dushmanlar bevosita yoki bilvosita musulmonlar yerlarini egallab olgach, hamma sohada ummat ortga ketdi. Shuning uchun ilmiy va taxnikaviy ijodni istasak, avvalgilar yurgan yo‘ldan (islom yo'lidan) borishimiz kerak bo‘ladi.

2.Madaniyat huquqlaridan foydalanish kafolatlanadi va madaniy rivojlanishga davlat g‘amxo‘rlik qiladi"

Madaniyat so‘zi ham asli arab lug‘atidan kirib kelgan so‘z bo'lib "shaharlahish" ma'nosida ishlatiladi.

Islomda shaharlahishga, badaviy sahroyi bo‘lishdan uzoqlashishga targ‘ib qilingan.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مَن سكَنَ البادية جفا

"Kim badaviy (sahroda) yashasa qo'pollashib ketadi" (Abu dovud rivoyati)

Madaniyat rivojlanish, axloq-odob, tarbiya ko‘rinishida bo‘lsa, bunday ma'noda madaniyat huquqi va rivojlanishi islomda himoya qilinadi.

Ammo madaniyat so‘zidan zamonaviy istilohlar maqsad qilinsa, jumladan qo‘shiqchilik, kino-seriallar, teatr kabi ishlar, islom bunday ishlarni madaniyatsizlik, jaholat deb nomlaydi. Bunday ishlar islomda taqiqlanadi. Va davlat bu ishlarni rivojlanishiga g'amxo'rlik qilmaydi. Aksincha, ularga taqiq qo‘yadi.

Alloh taolo aytadi :

وَتَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡبِرِّ وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ

Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli zotdir. (Moida.2)

(Bunday ishlar taqiqlanganligi dalillari uchun hadis to‘plamlariga qarang)

Xulosa :

42-modda

Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, islomiy madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga islomga muvofiq tarzda g‘amxo‘rlik qiladi.

X bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

43-modda.

Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.

Sharh:

Islom nizomida ham qonunlarni hayotga tatbiq qilishni davlat ta'minlaydi. Alloh taolo aytadi:

لَقَدْ أَرْسَلْنَا رُسُلَنَا بِٱلْبَيِّنَٰتِ وَأَنزَلْنَا مَعَهُمُ ٱلْكِتَٰبَ وَٱلْمِيزَانَ لِيَقُومَ ٱلنَّاسُ بِٱلْقِسْطِ وَأَنزَلْنَا ٱلْحَدِيدَ فِيهِ بَأْسٌ شَدِيدٌ وَمَنَٰفِعُ لِلنَّاسِ

Darhaqiqat, Biz Payg'ambarlarimizni ravshan (dalil) lar ila yubordik va ular ila kitob, hamda odamlar adolatda turishlari uchun mezon tushirdik. Va temirni tushirdik - unda katta kuch-quvvat va odamlar uchun manfaatlar bor. (Hadid.25)

Kitob yonida temir tushganligi zikr qilinishidan maqsad, kitobni tatbiq qiluvchi temir ya'ni davlat lozim ekan.

Ibn Taymiyya rahimahulloh aytadilar:

"Kitob hidoyat yo'liga boshlaydi, qilich (uning tatbiqiga) yordamchi bo'ladi"

Usmon roziyallohu anhu aytadilar:

"Alloh Qur'on bilan jilovlamaganni sulton bilan jilovlaydi"

Faqat muammo konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklar islom mezoni bilan o'lchanmasligida. Agar islom qonunlarida belgilangan huquq va erkinliklar desak, shunda bu modda to'g'ri bo'ladi.

Xulosa:

43-modda

Davlat fuqarolarning islom qonunlarida mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.

44-modda.

Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Sharh:

1.Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi.

Bu moddaga amal qilish uchun avvalo har bir kishining huquq va erkinliklar shariatga zid bo'lmasligi, undan so'ng sud islomiy bo‘lishi lozim. Agar islomiy sud yo‘q bo'lsa, kishi o'zining shar'iy haqqini har qanday sud orqali undirib olishi mumkin.

Alloh taolo taqvodor bandalari sifatida ular o‘zini himoya qiluvchi bo‘lishini aytadi:

وَٱلَّذِينَ إِذَآ أَصَابَهُمُ ٱلْبَغْىُ هُمْ يَنتَصِرُونَ

O'zlariga tajovuzkorlik etganda nusrat qozonadiganlar (haqqini oladiganlar)dir. (Sho'ro.39)

Alloy taolo hatto yahudiylarga o‘zlarining dalillari bo‘lsa, keltirishni buyuradi:

قُلْ فَأْتُواْ بِٱلتَّوْرَىٰةِ فَٱتْلُوهَآ إِن كُنتُمْ صَٰدِقِينَ

«Agar rostgo'ylardan bo'lsangiz, Tavrotni keltirib o'qinglar», deb ayt! (Oli imron. 93)

(Kishi o'zini himoya qilishi va davlat amaldorlari ustidan arz qilishi haqida 26-27-moddalar sharhida aytib o'tdik…)

2.Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Islomda davlat amaldorlari Allohning qonunlarini tatbiq qilish uchun mansabga o‘tiradilar. Qachonki ularda ushbu mansabni suiste'mol qilish kuzatilsa, ustilaridan shikoyat qilish kerak. Alloh taolo aytadi:

مَا كَانَ لِبَشَرٍ أَن يُؤْتِيَهُ ٱللَّهُ ٱلْكِتَٰبَ وَٱلْحُكْمَ وَٱلنُّبُوَّةَ ثُمَّ يَقُولَ لِلنَّاسِ كُونُواْ عِبَادًا لِّى مِن دُونِ ٱللَّهِ

Bir kishiga Alloh kitobni, hukmni va Payg'ambarlikni berganidan so'ng, u odamlarga: «Allohni qo'yib menga banda bo'linglar», deyishi aslo mumkin emas. (Oli imron.79)

Demak, hatto paygambar ham yoki podshoh ham o'zini ilohiylashtirib, amri so‘zsiz vojib darajaga ko‘tarib, odamlarni o'ziga qul qilishi mumkin emas. Boshqa amaldorlar batariqi a'lo qonunga bo‘ysunishlari kerak.

Yana Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

لا طاعة في المعصية، إنما الطاعة في المعروف

"(Allohga) ma'siyat o‘rnida itoat yo’q! Itoat faqat yaxshilikda" (Imom Buxoriy rivoyati)

Shunga binoan amaldorlarning g‘ayriqonuniy harakatlarida ularga itoat etilmaydi.

Umar roziyallohu anhu xalifalik davrlarida misrlik kofir kishi, Misr hokimining o'g'lini noqonuniy xatti-harakati ustidan shikoyat qilgani, Umar roziyallohu anhu undan o'ch olib Misr hokimning o'g'lini savalatganlari ham bunga bir misol bo'ladi. (15-modda sharhiga qarang)

Bu qonunlar tatbiq qilinib, oddiy fuqarolar sudga murojaat qila olishi va sud ularga huquqlarini himoya qilishi uchun sudyalar to‘liq mustaqil bo‘lishi kerak. Islomda shunday edi. Shurayh alqozi rahimahullohga bir yahudiy kishi xalifa Ali roziyallohu anhu ustidan shikoyat qilib kelganda, dalil yahudiy tomonida bo‘lgani uchun uning foydasiga, xalifaning ziyoniga hukm chiqarib berdilar. Islomda davlatning eng katta organi Xalifani davlatning eng kichik fuqarosi ham dalil isbot bilan sudga berishi mumkin.

Xulosa:

44-modda

Har bir shaxsga islom qonunlari doirasida o‘z huquq va erkinliklarini islomiy sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayri islomiy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

45-modda.

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

Sharh:

Islomda zaiflar himoyasiga davlat mas'uldir. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

فالسُّلطانُ وَليُّ مَن لا وليَّ له

"Valiy (himoyachi) si yo‘qning himoyachisi sulton (davlat)dir. (Termiziy rivoyati)

Yana aytadilar:

فأيُّما مُؤمِنٍ مَاتَ وَتَرَكَ مَالًا، فَلْيَرِثْهُ عَصَبَتُهُ مَن كَانُوا، وَمَن تَرَكَ دَيْنًا أَوْ ضَيَاعًا، فَلْيَأْتِنِي؛ فأنَا مَوْلَاهُ.

"**Qaysiki mo‘min vafot etib, ortidan mol-mulki qolsa, qarindoshlari kim bo'lsa, o‘shalar undan meros olsin. Kimniki ortidan qarzi yoki qarovchisiz zurriyoti qolsa, menga kelsin, men ularning himoyachisiman"** (Buxoriy rivoyati)

Abu Bakr roziyallohu anhu xalifalikning ilk kunida xutbada aytdilar :

والضعيف فيكم قوي عندي حتى أريح عليه حقه إن شاء الله،

"Sizlarning zaiflaring mening huzurimda quvvatlidir. Unga haqqini olib beraman in sha Alloh "

Bu rivoyatlardan ko‘rinib turganidek davlat zaiflarni o'z qaramog‘iga oladi.

Tanbeh !

1.Islomda voyaga yetish 18 yosh bilan qaydlanmaydi. Insonning Robbisi oldida mas'uliyati balog'atga yetish bilan o‘lchanadi. Ammo insonlar bilan muomalada esa ularda "rushd" es-hushi kirishiga qarab moliyaviy tasarruflari ijro qilinadi. Alloh taolo aytadi:

وَٱبۡتَلُواْ ٱلۡيَتَٰمَىٰ حَتَّىٰٓ إِذَا بَلَغُواْ ٱلنِّكَاحَ فَإِنۡ ءَانَسۡتُم مِّنۡهُمۡ رُشۡدٗا فَٱدۡفَعُوٓاْ إِلَيۡهِمۡ أَمۡوَٰلَهُمۡ

Yetimlarni to nikoh (yoshiga) yetgunlaricha sinab turinglar. Agar ularning esi-hushi joyida ekanini bilsangiz, ularga o'z mollarini topshiring. (Niso.6)

Bu har bir kishining holatiga qarab belgilanadi, muayyan yosh bilan qaydlanmaydi.

"Voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsizlar huquqlari "

Ularning huquqlari islom ta'limotlariga teskari bo‘lmasligi sharti bilan himoya qilinadi.

Masalan, ota-ona farzandini tarbiyalash maqsadida unga qattiqqo‘llik qilsa, namozga buyursa, yomon yo‘llardan qaytarsa, davlat "voyaga yetmaganlar huquqlarining himoyasi" deb farzand va ota-ona o'rtasiga tushishga haqqi yo‘q. Magar zulm darajasida majburlasa, bundan mustasno. Chunki agar davlat farzandni ota-onadan himoya qilaversa, farzandlar tarbiyasi buziladi. Islomda farzandni balog'atga yetmay turib, uni islom shiorlariga o‘rgatish buyurilgan.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"مُرُوا أولادَكم بالصلاةِ و هم أبناءُ سبعِ سِنِينَ ، واضربوهم عليها وهم أبناءُ عشرِ سِنِينَ

"Farzandlaring yetti yoshga yetsa, ularni namozga buyuringlar. O'n yoshda esa ularni namozga o‘rgatib uringlar " (Abu dovud rivoyati)

Xulosa:

45-modda

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning Islom doirasidagi huquqlari davlat himoyasidadir.

46-modda.

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Sharh:

Risolat zamonidan oldin johiliyat qonunlarida ayol kishi mol-mulkdan farqi yo‘q edi. Birov vafot etsa, uning moli meros olingandek xotini ham meros olinar edi. Ayollarga vafot etgan yaqinlaridan meros berilmas edi. Odamlar qiz farzanddan or qilib uni tiriklay ko'mardilar.

Islom kelib, ayollarni bu va bundan boshqa ko‘plab zulmlardan ozod etdi. Qiz farzandni yomon ko‘rish, uni o'ldirishdan qaytardi. Ular mol-mulk kabi meros

olinishidan qaytarib, ularning o‘zlariga meros huquqini isbot qildi. Va ularni umuman olganda erkaklar kabi huquqlari va burchlarini teng qildi.

Shuning uchun Alloh taolo Qur'onda odatda ayollarga alohida oyat tushirmagan. Balki erkaklarga qaratilgan hukmlar ayollarga ham tegishli bo‘lgan. Ahzob surasining 35-oyatida erkak va ayollarning o'nta xislati gapirilib, ularning tengligi zikr qilingan. (Ahzob surasiga qarang)

Erkak va ayol asli huquq va burchlari tengligi haqida aytadi:

وَلَهُنَّ مِثْلُ ٱلَّذِى عَلَيْهِنَّ بِٱلْمَعْرُوفِ وَلِلرِّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ وَٱللَّهُ عَزِيزٌ حَكِيمٌ

Va u(ayol)larning burchlari muqobilida teng haqlari ham yaxshilik ila bordir. Va erkaklarga ulardan ustun daraja bordir. Alloh aziz va hakimdir. (Baqara.228)

Erkak oila boshqaruvchi e'tiboridan ayoldan bir daraja ustunligi bor ekan. Qolgan huquqlarda esa ayollar zimmasida qanday burch bo‘lsa, uning muqobilida shunday huquqlari ham bor.

Yana aytadi:

وَلَا تَتَمَنَّوْا۟ مَا فَضَّلَ ٱللَّهُ بِهِۦ بَعْضَكُمْ عَلَىٰ بَعْضٍ لِّلرِّجَالِ نَصِيبٌ مِّمَّا ٱكْتَسَبُوا۟ وَلِلنِّسَآءِ نَصِيبٌ مِّمَّا ٱكْتَسَبْنَ وَسْـَٔلُوا۟ ٱللَّهَ مِن فَضْلِهِۦٓ ۚ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ بِكُلِّ شَىْءٍ عَلِيمًا

Alloh ba'zingizni ba'zingizdan afzal etgan narsalarni (hasad ila) orzu etmang. Erkaklarga o'z kasbidan nasiba bor. Ayollarga o'z kasbidan nasiba bor. Allohdan fazlini so'rang. Albatta, Alloh har bir narsani biluvchi zotdir. (Niso.32)

Ya'ni erkak kabi ayolni o’z kasbiga yarasha nasibasi bor ekan.

Yana islom ayollarga mol-mulkka egalik huquqini berdi. Uning molini roziligisiz o‘zlashtirib olishga hatto erining haqqi yo‘q. Alloh taolo aytadi:

وَءَاتُوا۟ ٱلنِّسَآءَ صَدُقَٰتِهِنَّ نِحْلَةً فَإِن طِبْنَ لَكُمْ عَن شَىْءٍ مِّنْهُ نَفْسًا فَكُلُوهُ هَنِيٓـًٔا مَّرِيٓـًٔا

Ayollarga mahrlarini ko'ngildan chiqarib bering. Agar ular undan biror narsani chin ko'ngildan tutsalar, bas, uni yenglar. Osh bo'lsin, ofiyat bo'lsin. (Niso.4)

Shuningdek er-xotinlik uyini ayolga nisbat berdi. Hatto taloqdan keyin idda tugamaguncha ularni haydab chiqarishdan qaytardi. Alloh taolo aytadi:

وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَ رَبَّكُمْ لَا تُخْرِجُوهُنَّ مِنۢ بُيُوتِهِنَّ وَلَا يَخْرُجْنَ إِلَّآ أَن يَأْتِينَ بِفَٰحِشَـــةٍ مُّبَيِّنَةٍ وَتِلْكَ حُدُودُ ٱللَّهِ وَمَن يَتَعَدَّ حُدُودَ ٱللَّهِ فَقَدْ ظَلَمَ نَفْسَهُۥ

va Alohga taqvo qiling. Ularni uylaridan chiqarmanglar va o'zlari ham chiqmasinlar, illo, ochiq-oydin fohisha ish qilgan bo'lsalar (chiqarilurlar). Va ana shu narsalar Allohning chegaralaridir. Kim Allohning chegarasidan chiqsa, haqiqatda o'zi o'ziga zulm qilibdi. (Taloq.1)

Ayollarga yaxshi muomala qilishga buyurdi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا يَحِلُّ لَكُمْ أَن تَرِثُواْ ٱلنِّسَآءَ كَرْهًا وَلَا تَعْضُلُوهُنَّ لِتَذْهَبُواْ بِبَعْضِ مَآ ءَاتَيْتُمُوهُنَّ إِلَّآ أَن يَأْتِينَ بِفَٰحِشَةٍ مُّبَيِّنَةٍ وَعَاشِرُوهُنَّ بِٱلْمَعْرُوفِ فَإِن كَرِهْتُمُوهُنَّ فَعَسَىٰٓ أَن تَكْرَهُواْ شَيْـًٔا وَيَجْعَلَ ٱللَّهُ فِيهِ خَيْرًا كَثِيرًا

Ey iymon keltirganlar! Sizlarga ayollarni zulm-la merosga olish halol emas. Ochiq fohisha ish qilmasalar, bergan narsalarningizning ba'zisini olish uchun ularni zo'rlik-la ushlab turmang va ular ila yaxshilikda yashang. Agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki, Alloh siz yoqtirmagan narsada ko'pgina yaxshiliklarni qilsa. (Niso.19)

Hadislarga qarasak, juda ko‘p o‘rinlarda ayollar haqlariga rioya qilish erkaklarga buyurildi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إِنَّمَا النِّسَاءُ شَقَائِقُ الرِّجَالِ

"Ayollar erkaklarning bo‘lagidir" (Abu dovud rivoyati)

Erkak kishining yaxshiligi alomati ahli oilasiga yaxshiligi bilan o'lchandi:

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

خَيرُكم خَيرُكم لأهلِه، وأنا خَيرُكم لأهلي

"Sizlarning yaxshilaringiz ahliga yaxshi bo‘lganingizdir. Men ahliga eng yaxshingizdirman"

(Termiziy rivoyati)

Ayollarga ta'lim berish erkak zimmasiga yuklandi. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ قُوٓاْ أَنفُسَكُمۡ وَأَهۡلِيكُمۡ نَارٗا وَقُودُهَا ٱلنَّاسُ وَٱلۡحِجَارَةُ عَلَيۡهَا مَلَٰٓئِكَةٌ غِلَاظٞ شِدَادٞ لَّا يَعۡصُونَ ٱللَّهَ مَآ أَمَرَهُمۡ وَيَفۡعَلُونَ مَا يُؤۡمَرُونَ

Ey iymon keltirganlar! O'zingizni va ahli ayolingizni yoqilg'isi odamlaru toshdan bo'lgan o'tdan saqlang. Uning tepasida qo'pol, darg'azab farishtalar bo'lib, ular Allohning amriga isyon qilmaslar va nimaga buyurilsalar, shuni qilurlar.(Tahrim.6)

Oyatning tafsirida Ali raziyallohu anhu aytadilar: "Ya'ni ahli oilangizga ta'lim va odob beringlar"

Ammo ayollar erkaklardan farqli o'rinlariga qarasak, ular sanoqli masalalar:

1. Islom ayol kishini umumiy siyosiy mansablarga bosh bo‘lishidan qaytardi. Chunki bu uning vazifasi emas. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga forsliklar kisroning qizini o‘zlariga bosh qilganliklari xabari yetganda, aytdilar :

لَنْ يُفْلِحَ قَوْمٌ وَلَّوْا أَمْرَهُمْ امْرَأَةً

"Ishlariga ayolni bosh qilgan qavm hech qachon baraka topmaydi" (Buxoriy rivoyati)

Shunga binoan islomda ayol kishi davlat boshlig‘i, qozi, hokim kabi umumiy boshliqliklarda ishtirok etmaydi. Boshqaruv erkaklar vazifasi . Alloh taolo aytadi :

ٱلرِّجَالُ قَوَّٰمُونَ عَلَى ٱلنِّسَآءِ بِمَا فَضَّلَ ٱللَّهُ بَعۡضَهُمۡ عَلَىٰ بَعۡضٖ وَبِمَآ أَنفَقُواْ مِنۡ أَمۡوَٰلِهِمۡ

Alloh ba'zilarini ba'zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganlari uchun erkaklar ayollarga rahbardirlar. (Niso.34)

2. Merosda ayolga erkakning yarim ulushi berilishi. Alloh taolo aytadi:

يُوصِيكُمُ ٱللَّهُ فِيٓ أَوۡلَٰدِكُمۡ لِلذَّكَرِ مِثۡلُ حَظِّ ٱلۡأُنثَيَيۡنِ

Alloh sizga farzandlaringiz haqida vasiyat etib, bir o'g'ilga ikki qiz nasibasicha berishni amr etadi. (Niso.11)

Bunda ko‘rinishidan ayolga merosi ozroq bo'lsa-da, aslini olganda o'sha yarim meros ayolning to‘liq o‘zining ixtiyoriy mulkidir. Erkakka ikki hissa ko‘p berilsa-da, uning zimmasida ayoli, opa-singillari, qizlari haqqi bor. Shu e'tibordan qaraganda merosda ayol nasibasi ba'zan erni xos o‘ziga qoladigan ulushidan ko‘payib ham ketadi. Chunki ayol erkaklarni ta'minlashga buyurilmagan, aksincha, erkaklar ayollarni ta'minlashga buyurilgan.

Erkakka ikki hissa berilishi hikmati, uning zimmasida ayollarni ta'minlash haqqi borligidan ekan! Endi bu taqsimni qanday qilib merosda adolatsizlik deb aytish mumkin ?

3. Guvohlik o‘rnida ikki ayol guvohligi bir erkakka tengligi.

Buning sababi ayol kishi unutuvchanligi. Bu hech kim inkor qila olmaydigan uning tug‘ma xislatidir. Alloh taolo aytadi :

وَٱسْتَشْهِدُواْ شَهِيدَيْنِ مِن رِّجَالِكُمْ فَإِن لَّمْ يَكُونَا رَجُلَيْنِ فَرَجُلٌ وَٱمْرَأَتَانِ مِمَّن تَرْضَوْنَ مِنَ ٱلشُّهَدَآءِ أَن تَضِلَّ إِحْدَىٰهُمَا فَتُذَكِّرَ إِحْدَىٰهُمَا ٱلْأُخْرَىٰ

Erkaklaringizdan ikki kishini guvoh qiling. Agar ikki er kishi bo'lmasa, o'zingiz rozi bo'ladigan guvohlardan bir er kishi va ikki ayol kishi bo'lsin. Ikkovi(ayol)dan birortalari adashsa, birlari boshqasining esiga soladi. (Baqara.282)

Bulardan boshqa deyarli barcha sohada ayol va erkaklar huquq-majburiyatda tengdirlar.

Faqat urf-odatga ko‘ra ba'zi holatlar ham bunga qo‘shilishi mumkin. Masalan, o‘zbekchilikda ayol eerinng va uning ota-onasining xizmatini qiladi. Ammo erkak ayolining ota-onasining xizmatini qilishi joriy bo‘lmagan. Demak, xotin-qizlar va erkaklar hamma sohada teng huquqli bo‘lishiga urf odat ham yo'l qo‘ymaydi. Qonunlar urf-odatga ko‘ra qaydlanar ekan, shariatga ko‘ra qaydlanishiga ta'na qilish o‘rinsiz.

Xulosa :

46-modda

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Erkak va ayollarning islomda farqlangan o‘rinlari bundan mustasno.

XI bob. Fuqarolarning burchlari

47-modda.

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.

Sharh:

Fuqarolar konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarishlari shart deb aytishimiz uchun bu burchlar Alloh va Rasulining buyruqlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Chunki boshliqqa itoat etish Alloh va Rasuliga itoat etishga bog‘liq. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِى ٱلۡأَمۡرِ مِنكُمۡ فَإِن تَنَٰزَعۡتُمۡ فِى شَىۡءٖ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمۡ تُؤۡمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلۡيَوۡمِ ٱلۡأٓخِرِ ذَٰلِكَ خَيۡرٞ وَأَحۡسَنُ تَأۡوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Ammo qonunlar islom asosida bo'lmas ekan, unga bo‘ysunishga majbur emasmiz.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

السمعُ والطاعةُ حقٌّ على المرْءِ فيما أحَبَّ أوْ كرِهَ ما لمْ يُؤْمَرْ بِمعصيةٍ ، فإذا أُمِرَ بمعصيةٍ فلا سمْعَ عليه ولا طاعةَ

"Kishi yaxshi ko‘rgan yoki yomon ko‘rgan narsasida ham boshliqning amrini eshitib, unga itoat qiladi. Basharti ma'siyatga buyurilmasa. Agar ma'siyatga buyurilsa, eshitish ham, itoat ham yo'q" (Buxoriy va Muslim)

(Batafsil ma'lumot uchun 15-modda sharhiga qarang)

Xulosa :

47-modda

Barcha fuqarolar Islomiy konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.

48-modda.

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

Sharh:

1. "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga majburdirlar"

Bu haqida yuqorida gapirib o‘tdik. Har qanday qonun majburiy bo‘lishi uchun Islomga asoslangan bo‘lishi shart.

2. "boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar."

Boshqa kishilardan maqsad musulmonlar yoki kofirlar bo'ladi.

Agar ular musulmonlar bo'lsa, albatta musulmonnga musulmonning barcha narsasi hurmatli.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

كلُّ المسلِمِ على المسلِمِ حرامٌ ، دمُهُ ، ومالُهُ ، وعِرضُهُ

Musulmonning musulmonga hamma narsani harom(hurmatli)dir. Qoni , moli va obrusi" (Buxoriy va Muslim)

Agar boshqalar deganda biz bilan o‘rtalarida ahdlashuvi bor kofirlar maqsad qilinsa, ularning huquqlari ham albatta, himoya qilinadi. Alloh taolo aytadi:

فَمَا ٱسْتَقَٰمُواْ لَكُمْ فَٱسْتَقِيمُواْ لَهُمْ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُتَّقِينَ

" ..Sizga nisbatan mudom mustaqim tursalar, siz ham mustaqim turing. Albatta, Alloh taqvodorlarni sevadir. " (Tavba.7)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

من قتل معاهدا لم يرح رائحة الجنة ولو كان المقتول كافرا

"Kimda-kim ahd berilgan kishini o‘ldirsa, jannatning hidini ham hidlamaydi, agarchi o'ldirilgan kishi kofir bo‘lsa ham" (Buxoriy rivoyati)

Ali roziyallohu anhu aytadilar:

"Bizning zimmamizda qanday huquq va burchlar bo‘lsa ularning zimmasida ham shunday huquq va burchlar bor"

Hatto kofirlar bilan bizning o‘rtamizda ahd-paymon bo‘lmasa ham, bizga zarari tegmagan, bizga qarshi dushmanga yordam bermagan kofirlarga yaxshilik qilishdan Alloh bizni qaytarmagan.

Alloh taolo aytadi:

لَّا يَنْهَىٰكُمُ ٱللَّهُ عَنِ ٱلَّذِينَ لَمْ يُقَٰتِلُوكُمْ فِى ٱلدِّينِ وَلَمْ يُخْرِجُوكُم مِّن دِيَٰرِكُمْ أَن تَبَرُّوهُمْ وَتُقْسِطُوٓاْ إِلَيْهِمْ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُقْسِطِينَ

Alloh sizlarni diniy urush qilmagan va diyorlaringizdan chiqarmaganlarga yaxshilik va adolatli muomala qilishdan sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko'radir.

إِنَّمَا يَنْهَىٰكُمُ ٱللَّهُ عَنِ ٱلَّذِينَ قَٰتَلُوكُمْ فِى ٱلدِّينِ وَأَخْرَجُوكُم مِّن دِيَٰرِكُمْ وَظَٰهَرُواْ عَلَىٰٓ إِخْرَاجِكُمْ أَن تَوَلَّوْهُمْ وَمَن يَتَوَلَّهُمْ فَأُوْلَٰٓئِكَ هُمُ ٱلظَّٰلِمُونَ

Albatta, Alloh sizlarni diniy urush qilganlar, diyoringizdan chiqarganlar va chiqarilishingizga yordam berganlarga do'stlik qilishdan qaytarur. Ularni do'st tutganlar, ana o'shalar, zolimlardir. (Mumtaha.8-9)

Demak, bizni haq-huquqlarimizni rioya qilmagan "boshqalar" ning haq-huquqlarini biz ham rioya qilmaymiz.

Endi ajablanarlisi, bugun "boshqalar" davlatning 1 % ni tashkil qilsa ham, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga chaqiriladi-da, 95 % ni tashkil qilgan musulmonlar huquqlarini hech kim rioya qilmaydi !

Agar biror nasroniy yoki yahudiyni ozgina haq-huquqi toptalsa, butun dunyo oyoqqa turadi. Millionlagan musulmonni dini, qoni, moli, obro'si toptalganda esa hech kikimng ishi yo‘q. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا تَتَّخِذُواْ بِطَانَةً مِّن دُونِكُمْ لَا يَأْلُونَكُمْ خَبَالًا وَدُّواْ مَا عَنِتُّمْ قَدْ بَدَتِ ٱلْبَغْضَآءُ مِنْ أَفْوَٰهِهِمْ وَمَا تُخْفِى صُدُورُهُمْ أَكْبَرُ قَدْ بَيَّنَّا لَكُمُ ٱلْءَايَٰتِ إِن كُنتُمْ تَعْقِلُونَ

Ey iymon keltirganlar, o'zingizdan boshqadan sirdosh tutmang. Ular sizga yomonlik qilishini qo'ymaslar. Mashaqqatda qolishingizni xohlarlar. Dushmanliklari og'izlaridagi (so'zlari)dan bilinib turibdi. Dillarida maxfiy turgani yana ham kattaroq. Agar aql yuritadigan bo'lsangiz, biz sizlarga oyat-belgilarni bayon qilib bo‘ldik . (Oli Imron.118)

Shuningdek, "boshqalarning huquq erkinligi, sha'ni .." hurmat qilinishi lozimligiga binoan, islomdagi turli ahli sunna mazhablaridagi musulmonlarning sha'ni ham hurmat qilinishi kerak. Biror kimsaga o'zining mazhabiga mutaasiblik qilib, ularni zalolatda ayblashiga, boshqalarga har xil laqablar qo‘yishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Alloh taolo Qur’onda hatto musulmon bo‘lmaganlarning dinlarini so‘kishdan qaytarib aytadi:

وَلَا تَسُبُّواْ ٱلَّذِينَ يَدْعُونَ مِن دُونِ ٱللَّهِ فَيَسُبُّواْ ٱللَّهَ عَدْوًۢا بِغَيْرِ عِلْمٍ كَذَٰلِكَ زَيَّنَّا لِكُلِّ أُمَّةٍ عَمَلَهُمْ ثُمَّ إِلَىٰ رَبِّهِم مَّرْجِعُهُمْ فَيُنَبِّئُهُم بِمَا كَانُواْ يَعْمَلُونَ

Ularning Allohdan o'zga ibodat qiladiganlarini so'kmangiz. Bas, bilmasdan, zulm ila Allohni so'kib yurmasinlar. Shunday qilib, har bir ummatga amalini ziynatlab qo'ydik. So'ngra esa, qaytib boradigan joylari Robbilarigadir. Bas, u qilib yurgan ishlarining xabarini berur. (An'om-108)

Demak, boshqani so‘kish qaytib kelib o‘zining dini so‘kilishiga sabab bo‘ladi.

Musulmon bo‘lmaganlar e’tiqodini so'kishdan qaytarilar ekan, islom ichidagi mazhablar vakillari bir-birini so'kishlari batariqu a'lo yomonroq.

Xulosa:

48-modda

Fuqarolar islom qonunlariga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini islom ko'rsatmalaridan kelib chiqqan holda hurmat qilishga majburdirlar.

49-modda.

Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

Sharh:

Islom dini insoniyatga manfaati bor tarixni, ma'naviy va madaniy merosni yo‘qotib yuborishga buyurmaydi.

Balki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam kelajak avlodga din va ma'rifatni yetkazishga buyurar ekanlar , shu asnosida o'tgan ummatlardan qolgan merosni ham yetkazishga buyurdilar:

بَلِّغُوا عَنِّي ولو آيَةً، وَحَدِّثُوا عن بَنِي إِسْرَائِيلَ وَلَا حَرَجَ

"**Mendan bir oyat bo‘lsa-da yetkazinglar. Va banu Isroil (Yahudiy va Nasroniylar)dan ham rivoyat aytaveringlar, hechqisi yo‘q"** (Buxoriy rivoyati)

Faqat ushbu rivoyatlar islom ta'limotlariga zid bo‘lmasligi shart qilindi.

Tarixda musulmonlar qaysi shaharni fath qilgan bo‘lsalar, u shaharning ma'naviy yoki madaniy merosini yo‘qotib yubormadilar. Xususan, ular ahli kitoblar bo‘lishsa, ularning ibodatxonalari, kitoblari saqlab qolindi. Hech qachon Tavrot yoki Injillarni yo‘qotish , kanisalarni buzishga buyurishmadi.

Musulmonlar va rimliklar o‘rtasidagi "Yarmuk " jangidan so‘ng sahobalardan Abdulloh ibn Amr raziyallohu anhu, rimlik ahli kitoblardan ikki tuya kitob olib, u kitoblardan ummatga ko‘p rivoyatlar qildilar. Mug'ullar singari fath qilgan yerlarini vayron qilib, kitoblarni daryoga oqizmadilar.

Musulmonlar Baytul-maqdisni fath qilishlaridan oldin ushbu muqaddas yer ikki toifa yahud va nasroniylar qo‘lida xo‘rlangan edi. Chunki yahudiylar hukmronlik davrida u yerdagi nasroniylar muqaddas kanisasini axlatxonaga aylantirib yuborishgan bo'lsa, hukm nasroniylarga o‘tgach, ular yahudlar muqaddas hisoblagan "soxra" (Tosh)ni axlatxonaga aylantirib, ulardan o'ch olishgan edi. Ammo musulmonlar Umar roziyallohu anhu davrida u yerlarni fath qilgach, Umar roziyallohu anhu o‘zlari bosh-qoshligida bu joylar axlatlardan tozalanib qayta obod qilindi.

Ammo asli yo‘q bo‘lgan uydirma asosidagi dinlar, ularning budxonalari, shirkxona maqbaralari asrab avaylanmaydi. Islomda aksincha ularni buzishga buyruq qilindi.

Ali raziyallohu anhu o‘zlarining yordamchilariga aytdilar :

"Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam meni jo‘natgan vazifaga seni jo‘nataymi? Biror qabrni qo‘ymay tekislaysan, biror timsol (haykal)ni qoldirmay yiqitasan " (Ahmad rivoyati)

Chunki ular afsona va uydirma e'tiqodlar bo'lib, insoniyatning dunyo va oxiratiga zarardir.

Shuning uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Makka fathida barcha but-sanamlarni sindirdilar. Ular necha yuz yillik tarixiy obida yoki hozirgi tilda aytganda "madaniy meros"larni asrab avaylashimiz kerak demadilar. Chunki ular asli yo‘q botil narsalar edi. Botil hech qachon uzoq vaqt turishi bilan qadriyatli narsaga aylanib qolmaydi ! Botil qancha uzoq tursa ham, uning umri haq kelgunicha .

Alloh taolo aytadi:

وَقُلْ جَآءَ ٱلْحَقُّ وَزَهَقَ ٱلْبَٰطِلُ إِنَّ ٱلْبَٰطِلَ كَانَ زَهُوقًا

Va: «Haq keldi, botil yo'q bo'ldi. Zotan, botil doimo yo'q bo'lguvchidir», degin. (Isro:81)

Shuningdek, odamlarning shirk va kufr e'tiqodiga sabab bo‘ladigan narsalar ham yo'qotiladi..

Umar roziyallohu anhu Qur'onda zikr qilingan, sahobalar uning ostida bay'at bergan daraxtni kesib tashlaganlar. Chunki zamon o‘tib, odamlar uni muqaddaslab shirk e’tiqodlar sodir bo‘lishining oldini oldilar.

Shunga binoan tarixdagi botil e'tiqodlar ham shunchaki tariximiz ekani bilan muqaddas bo'lib qolavermaydi. Ularni islom asoslariga solib qabul qilishimiz kerak bo‘ladi. Agar islomga zid kelmasa mayli, aks holda yo‘q qilinadi. Chunki har qanday ummat o’z payg‘ambarlariga o‘zining botil tarixini ro'kach qilib, qarshi chiqar edi. Alloh taolo aytadi:

وَكَذَٰلِكَ مَآ أَرْسَلْنَا مِن قَبْلِكَ فِى قَرْيَةٍ مِّن نَّذِيرٍ إِلَّا قَالَ مُتْرَفُوهَآ إِنَّا وَجَدْنَآ ءَابَآءَنَا عَلَىٰٓ أُمَّةٍ وَإِنَّا عَلَىٰٓ ءَاثَٰرِهِم مُّقْتَدُونَ

Xuddi shuningdek, Biz sendan ilgari ham qaysi bir qishloq-shaharga ogohlantirguvchi yuborsak, albatta, uning zodagonlari: «Ta'kidki, biz ota-bobolarimizni bir dinda topdik va, albatta, biz ularning izlaridan ergashguvchilardirmiz», dedilar. (Zuxruf.23)

Demak haqmi, botilmi o‘ylab ko‘rmay ota-bobolar merosiga , tarixga ergashish insonni haq diyonatdan mahrum qilar ekan. Shuning uchun ushbu e'tiqodlarni islom tarozisi bilan o'lchab qabul qilish kerak.

Xulosa :

49-modda

Fuqarolar xalqning islomga zid bo'lmagan tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Davlat islom qonunlaridan chiqmagan holda madaniyat yodgorliklarini muhofaza qiladi.

50-modda.

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar

Sharh:

Islom dini ham tabiatni muhofaza qilishga buyuradi. Yerda buzg‘unchilik qilishdan qaytaradi. Qur'onda bung'unchilar va Allohdan yuz o'g'iruvchilar yonma-yon zikr qilinadi. Bu ularning jinoyati qay darajada og‘ir ekaniga ishora. Alloh taolo aytadi:

وَإِذَا تَوَلَّىٰ سَعَىٰ فِى ٱلْأَرْضِ لِيُفْسِدَ فِيهَا وَيُهْلِكَ ٱلْحَرْثَ وَٱلنَّسْلَ وَٱللَّهُ لَا يُحِبُّ ٱلْفَسَادَ

Va (Allohdan)burilib ketganda, yer yuzida fasod uchun hamda ekin va nasilni halok qilish uchun harakat etadi. Va holbuki, Alloh fasodni xush ko'rmas. (Baqara.205)

Chunki yaratgan egasidan yuz o'girgan inson har qanday yovuzlikni qilaveradi. Ulardagi juz'iy suratda ba'zan sodir bo‘ladigan mehribonlikka aldanmaslik kerak.

Yana Alloh taolo aytadi:

يَٰبَنِىٓ ءَادَمَ خُذُوا۟ زِينَتَكُمْ عِندَ كُلِّ مَسْجِدٍ وَكُلُوا۟ وَٱشْرَبُوا۟ وَلَا تُسْرِفُوٓا۟ إِنَّهُۥ لَا يُحِبُّ ٱلْمُسْرِفِينَ

Ey Odam bolalari, har bir ibodat chog'ida o'z ziynatingizni oling. Yeb-iching va isrof qilmang. Chunki U zot isrof qiluvchilarni sevmas. (A'rof. 31)

Islomda tabiatni muhofaza qilish uchun hatto ibodat o‘rinlarida ham isrofdan qaytarildi.

أَنَّ النَّبِيَّ صَـلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَـلَّمَ مَرَّ بِسَـعْدٍ وَهُوَ يَتَوَضَّـأُ فَقَالَ : مَا هَذَا السَّـرَفُ يَا سَـعْدُ ؟ قَالَ : أَفِي الْوُضُوءِ سَرَفٌ ؟ قَالَ : نَعَمْ ، وَإِنْ كُنْتَ عَلَى نَهْرٍ جَارٍ.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Sa'd raziyallohu anhu tahorat qilayotganlarga oldidan o‘tdilar va "Bu nima isrof, ey Sa'd?" dedilar. Sa'd aytdi: Ya Rasulullоh, tahoratda ham isrof bo‘ladimi? Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Ha ! Agarchi oqar daryoda bo'lsang ham !" (Ahmad rivoyati)

Shuningdek, odamlar o‘tib qaytadigan joylarga hojat qilishdan qaytardilar.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

(اتَّقوا اللَّعَّانَينِ، قالوا: وما اللَّعَّانانِ يا رسولَ الله؟ قال: الذي يَتخلَّى في طريقِ النَّاسِ أو في ظلِّهم)

"La'natga sabab bo‘luvchi ikki ishdan ehtiyot bo‘linglar!"

Odamlar aytishdi : Ular nima, Ya Rasulullоh?!

"Odamlar yo‘lida yoki soyalanadigan joyida hojat qiladigan kishilar" dedilar. (Muslim rivoyati)

Shuningdek, oqmaydigan suvga hojat qilishdan qaytardilar.

(لا يَبولَنَّ أحدُكم في الماءِ الدائِمِ ثم يغتَسِل منه)

Birortalaring oqmaydigan suvga bavl qilmasin. So‘ngra unda g‘usl qiladi !" (Buxoriy rivoyati)

Yo‘ldagi ozorni olib tashlash iymondan deyildi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

«وَتُمِيطُ الأَذَى عَنِ الطَّرِيقِ صَدَقَةٌ

"Yo‘ldagi ozorni ketkazishing sadaqadir" (Buxoriy rivoyati)

Hayvonlarni behudaga ov qilishdan qaytarildi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

(مَنْ قَتَلَ عُصْفُورًا بِغَيْرِ حَقِّهِ ، سَأَلَهُ اللَّهُ عَنْهُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ) .

قِيلَ : وَمَا حَقُّهُ ؟.

(قَالَ : (أَنْ تَذْبَحَهَا فَتَأْكُلَهَا ، وَلَا تَقْطَعْ رَأْسَهَا فَيُرْمَى بِهَا)

"Kim bir chumchuqni nohaq o‘ldirsa, Alloh qiyomat kuni undan buning hisobini so‘raydi!"

Odamlar aytishdi: Ya Rasulullоh haq bilan o'ldirish nima ?

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"Uni so'yib yeysan. (Behudaga) Boshini uzib otib yubormasliging!" (Nasoiy rivoyati)

Islomda tabiatni muhofaza qilish shu darajada e'tiborli ekanidan katta bir hudud Makka shahrida "Haram hududi" ya'ni islomiy qo‘riqxona qilindi. Unda hayvonlarni o'ldirish, daraxtlar, o't-o'lanlarni kesish taqiqlandi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إِنَّ هذا البَلَدَ حَرَّمَهُ اللَّهُ يَومَ خَلَقَ السَّـــمَوَاتِ وَالأَرْضَ، فَهو حَرَامٌ بِحُرْمَةِ اللهِ إِلى يَومِ القِيَامَةِ، وإِنَّه لَمْ يَحِلَّ القِتَالُ فيه لأَحَدٍ قَبْلِي، وَلَمْ يَحِلَّ لي إِلَّا سَـاعَةً مِن نَهَارٍ، فَهو حَرَامٌ بِحُرْمَةِ اللهِ إِلى يَومِ القِيَامَةِ، لا يُعْضَـدُ شَوْكُهُ، وَلَا يُنَفَّرُ صَيْدُهُ،

"Albatta bu shaharni Alloh taolo osmonlaru yerni yaratgan kunda harom (hurmatli) qildi. U qiyomat kunigacha haromdir. Unda urush qilish mendan avval hech kimga halol qilinmagan. Menga ham kunduzning bir soatida halol qilindi xolos. U Alloh harom qilgani sabab qiyomatgacha haromdir. Uning hatto tikonlari yulinmaydi. Ovi hurkitilmaydi.... (Buxoriy rivoyati)

Shuningdek, kishi haj va umraga ehrom o'ragach ov qilishi taqiqlandi. Ehromda ov qilgan kishiga jazo tayin qilindi. Bu ham tabiatni muhofaza qilishning bir ko‘rinishlaridan. Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَيَبْلُوَنَّكُمُ ٱللَّهُ بِشَـــىْءٍ مِّنَ ٱلصَّـــيْدِ تَنَالُهُۥٓ أَيْدِيكُمْ وَرِمَاحُكُمْ لِيَعْلَمَ ٱللَّهُ مَن يَخَافُهُۥ بِٱلْغَيْبِ فَمَنِ ٱعْتَدَىٰ بَعْدَ ذَٰلِكَ فَلَهُۥ عَذَابٌ أَلِيمٌ

Ey iymon keltirganlar! Alloh undan kim g'oyibona qo'rqishini bilish uchun sizlarning qo'llaringiz va nayzalaringiz yetadigan ovlarda bir oz sinab ko'radi. Bundan keyin kim tajovuz qilsa, unga alamli azob bor. (Moida.94)

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا تَقْتُلُواْ ٱلصَّيْدَ وَأَنتُمْ حُرُمٌ وَمَن قَتَلَهُۥ مِنكُم مُّتَعَمِّدًا فَجَزَآءٌ مِّثْلُ مَا قَتَلَ مِنَ ٱلنَّعَمِ

Ey iymon keltirganlar! Ehromdalik holingizda ovni o'ldirmang. Sizlardan kim uni qasddan o'ldirsa, o'ldirgan hayvonning mislicha chorva hayvonlaridan jazo beradi " (Moida.95)

Bundan boshqa yana ko‘plab dalillar keltirish mumkin. Umuman olganda kishida iymon bo'lsa, hech qachon behudaga birovga zarar bermaydi.

Xulosa:

50-modda

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.

51-modda.

Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar.

Sharh:

Islomda soliq tizimi hozirgi tizimlardan farq qiladi. Islomda davlat kirimi zakot, xaroj, jizya, fay va g'animatlar kabi yig'imlarga asoslanadi. Bu masalalar tafsiloti fiqh ilmida bayon qilingan.

Ammo chegaralar qo‘yib, hech qanday xizmatsiz o‘tgan-qaytganlardan ma'lum foiz olish esa eng katta zulm hisoblanadi. Buni islomda "muks" ya'ni yo'lto'sarlik deyiladi.

Alloh taolo Shuayb alayhissalam qavmini halok qilishi sabablaridan biri ana shu edi. Ular odamlarga hech qanday xizmat taqdim qilmay yo'lto’sarlik qilib ularga soliq solar edilar. Alloh taolo aytadi:

وَلَا تَقْعُدُواْ بِكُلِّ صِرَٰطٍ تُوعِدُونَ وَتَصُدُّونَ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ مَنْ ءَامَنَ بِهِۦ وَتَبْغُونَهَا عِوَجًا وَٱذْكُرُوٓاْ إِذْ كُنتُمْ قَلِيلًا فَكَثَّرَكُمْ وَٱنظُرُواْ كَيْفَ كَانَ عَٰقِبَةُ ٱلْمُفْسِدِينَ

Har ko'chada o'tirib olib (odamlarni) qo'rqitmang. Allohning yo'lidan Unga iymon keltirganlarni to'smang va u(yo'l)ni egri bo'lishini istamang. Oz bo'lgan chog'ingizda sizni ko'paytirib qo'yganini eslang. Buzg'unchilarning oqibati qanday bo'lganiga nazar soling. (A'rof:86)

Yana Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

(لا يدخل الجنة صاحب مكس)

"Yo'lto'sar soliqchi jannatga kirmaydi" (Ahmad rivoyati)

Bu ish islomda zinodan og‘ir. Buning dalili, zinokor ayolni toshbo‘ron qila turib, ba'zi sahobalar uni haqoratlab yuboradi. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uni la'natlashdan qaytarib aytadilar :

(لقد تابت توبة لو تابها صاحب مكس لغفر له)

"U ayol shunday tavba qildiki, agar uning tavbasini soliq egasi qilganda uni mag‘firat qilinar edi" (Muslim rivoyati)

Demak zinokorning gunohi, nohaq soliq yig'uvchining gunohi oldida yengil bo‘lib qolar ekan. Chunki bir musulmon yurt va bir ummatni bo‘laklarga bo‘lish, chegara tortib, o‘tgan-qaytgandan soliq olish odamlar molini nohaq yeyishdir. Va bu soliqlar narx-navo qimmatlashiga sabab bo‘ladigan ishlardan.

Islomda kishining molini islom ijozat bergan ko‘rinishdan boshqacha uslubda olinishi mumkin emas. Islom birovning molidan zakot olishga ruxsat berdi. Unga qo‘shimcha soliq solish mumkin emas.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

أُمِرْتُ أنْ أُقاتِلَ النَّاسَ حتَّى يَشْـهَدُوا أنْ لا إلَهَ إلَّا اللَّهُ وأنَّ مُحَمَّدًا رَسـولُ اللهِ، ويُقِيمُوا الصَّـلاةَ، ويُؤْتُوا الزَّكاةَ، فإذا فَعَلُوا، عَصَمُوا مِنِّي دِماءَهُم وأَمْوالَهُمْ إلَّا بحَقِّها، وحِسابُهُمْ علَى الله

"Odamlar la ilaha illalloh va Muhammad Rasulullоh degunlari, namozni qoim qilib zakotini ado qilgunlariga qadar ularga urush qilishga buyurildim. Agar shunday qilsalar, mendan qonlari va mollarini asrabdilar. Faqat islom haqqi bundan mustasno. Ularning hisobi esa Allohga. (Buxoriy rivoyati)

Hadisdan koʻrinib turganidek, zakot bergan kishining moli himoyalangan. Undan boshqa uslubda majburiy soliq olinmaydi.

Ammo odamlarga qandaydir xizmat taqdim qilib, oʻsha xizmatdan foydalanuvchilardan ma'lum haq talab qilish boshqa narsa. Bu ish , taqdim qilingan xizmat evaziga ixtiyoriy foydalanuvchilardan olinadigan soliq bo'lib, yuqoridagi majburiy soliq hukmiga kirmaydi. Chunki bunday holatda kishi foyda koʻrganligi evaziga soliq toʻlaydi.

Masalan koʻpriklar, kanallar, yoʻllar qurib, undan foydalanganlarga soliq solish shu jumladan. Shuningdek, manfaat koʻrish evaziga yig'iladigan kommunal toʻlovlar (elektr energiyasi, gaz va boshqalar)ham shunga kiradi.

(Ushbu mavzuda batafsil ma'lumot “Islomiy iqtisod” boʻlimida bayon qilinadi)

Xulosa:

51-modda.

Fuqarolar islom qonunlari bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yigʻimlarni toʻlashga majburdirlar.

52-modda.

Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilish — Oʻzbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni oʻtashga majburdirlar.

Sharh:

Agar davlat islom qonunlariga binoan boshqarilsa, bunday vatanni qoʻriqlash islomdagi eng oliy ibodat "jihod" deyiladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

ذروةُ سنامُ الإسلامِ الجهادُ في سبيلِ اللهِ لا ينالُه إلا أفضلُهم

"Islomning eng yuqori cho‘qqisi Alloh yo‘lida jihod qilishdir. Unga odamlarning eng afzaligina erishadi" (Tabaroniy rivoyati)

Jihod har bir musulmon zimmasidagi burch ekani haqida Alloh taolo aytadi:

كُتِبَ عَلَيْكُمُ ٱلْقِتَالُ وَهُوَ كُرْهٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تَكْرَهُواْ شَيْـًٔا وَهُوَ خَيْرٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تُحِبُّواْ شَيْـًٔا وَهُوَ شَرٌّ لَّكُمْ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

Sizga yoqmasa ham, jang qilishingiz farz qilindi. Shoyadki, yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa. Va shoyadki, yoqtirgan narsangiz siz uchun yomon bo'lsa. Alloh biladi, siz bilmaysiz. (Baqara.216)

Oyatdagi "farz qilindi" so‘zi har bir qodir kishining zimmasidagi burch ma'nosida.

Yana Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مَن ماتَ ولَمْ يَغْزُ، ولَمْ يُحَدِّثْ به نَفْسَهُ، ماتَ علَى شُعْبَةٍ مِن نِفاقٍ.

"Kim g‘azot qilmay, nafsida g‘azot niyati ham yo‘q bo'lib o'lsa, qisman nifoq sifati ustida o'libdi"

(Muslim rivoyati)

Shuning uchun jangdan qochish Qur'onda doim munofiqlar sifatlarida zikr qilinadi.

Ammo vatan o‘zi nima ? Va uni kimdan qo‘riqlashimiz kerak? Vatan shunchaki kindik qonimiz to‘kilgan joy ekani sabab muqaddas bo'lib qolavermaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ana shunday "kindik qonlari to'kilgan" yurtlari, eng muqaddas shahar "Makka" shahriga hujum qilib fath qildilar. Sababi Makka shahri Allohning hukmi bilan boshqarilmasligi edi.

Demak, biz vatanda Allohning hukmi ijro bo‘lishi uchun uni qo‘riqlaymiz, millatchilik asosida emas. Yoki Allohning dini tatbiq bo'lishini istagan musulmonlardan uni qo'riqlamaymiz.

Ana shu oyat va hadislarda kelgan "Allohning kalimasi oliy bo‘lishi uchun" urishishdir. Bundan boshqa urushlar botil yo‘lidagi urushlar . Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘rashdi:

Bir kishi millatchilik uchun urishadi, yana biri shijoatidan urishadi, yana biri o‘zini ko‘rsatib riyokorlik uchun urishadi. Bularning qaysi Alloh yo‘lida (jihod)?

Shunda aytdilar :

(مَن قاتَل لتكونَ كلمةُ اللهِ هي العليا فهو في سبيلِ اللهِ)

"Kimiki Allohning kalimasi oliy bo‘lsin uchun urishsa, ana shu Alloh yo‘lidagi urushdir "

(Buxoriy va muslim)

Hadisdagi **" Allohning kalimasi oliy bo‘lishi "** dan maqsad, Allohning dini hayotga tatbiq bo‘lishidir.

Hozirga kelib vatanni himoya qilish deganda asosan ana shu g‘oya egalaridan (dindorlardan) himoya qilishni nazarda tutishadi. Va musulmonlarni millatlarga bo'lib, ularni bir -biridan qo‘riqlashadi. Bu hech qanday jihod yoki Alloh yo‘lidagi urush emas.

Bizning e’tiqodimizda dushman Alloh aytganidek : عَدُوِّي وَعَدُوَّكُمْ**Mening va o'zingizning dushmaningiz"** (Mumtahana.1)

Ya'ni Allohning diniga dushmanlik qilgan kishilar bizning dushmanimiz. Agarchi ular bizning vatandoshimiz, qarindoshimiz bo'lsa ham. Ana shu Alloh yo‘lida yaxshi ko‘rish va Alloh yo‘lida yomon ko‘rish aqidasidir. Bu aqida haqida Alloh taolo aytadi :

لَّا تَجِدُ قَوْمًا يُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ يُوَآدُّونَ مَنْ حَآدَّ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ وَلَوْ كَانُوٓاْ ءَابَآءَهُمْ أَوْ أَبْنَآءَهُمْ أَوْ إِخْوَٰنَهُمْ أَوْ عَشِيرَتَهُمْ أُوْلَٰٓئِكَ كَتَبَ فِى قُلُوبِهِمُ ٱلْإِيمَٰنَ وَأَيَّدَهُم بِرُوحٍ مِّنْهُ وَيُدْخِلُهُمْ جَنَّٰتٍ تَجْرِى مِن تَحْتِهَا ٱلْأَنْهَٰرُ خَٰلِدِينَ فِيهَا رَضِىَ ٱللَّهُ عَنْهُمْ وَرَضُواْ عَنْهُ أُوْلَٰٓئِكَ حِزْبُ ٱللَّهِ أَلَآ إِنَّ حِزْبَ ٱللَّهِ هُمُ ٱلْمُفْلِحُونَ

Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan qavmning Allohga va Uning Rasuliga dushmanlik qiluvchilarga do'stlik qilganlarini topmaysan. Hatto u(dushman)lar o'z otalari, bolalari, aka-ukalari yoki qarindoshlari bo'lsa ham. Alloh undoq kishilarning qalblarida iymonni sobit qilgan, ularni O'z huzuridan bir ruh bilan qo'llagandir. Va ularni ostidan suvlar oqib turgan jannatlarga kiritadir.

Unda abadiy qolurlar. Alloh ulardan rozi bo'ladir. Ular Allohdan rozi bo'ladir. Ana o'shalar, Allohning firqasidirlar. Ayo, ogoh bo'linglar, albatta, Allohning firqasi, ha, o'shalar yutuvchilardir. (Mujadala, 22)

Allohning dinidagi kishi qaysi millatdan bo‘lishidan qat'iy nazar, o‘zimizga do‘st deb bilamiz.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam forslik sahobiy Salmon raziyallohu anhu haqida : **"Salmon bizning ahli baytdan" (**Tabaroniy rivoyati) deganlari ham shu ma'noni tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshqa hech bir tuzum islom dinichalik islom vatanini qo‘riqlashga targ‘ib qilish, ushbu yo‘lda o'lsa, shahidlik darajasini berishni e'tiqod darajasiga ko‘tarmagan.

Shuning uchun hayotida islomning hech qaysi qonuniga amal qilmaydiganlar ham vatanni himoya qilishga targ‘ibot va tashviqot qilishga kelganda islomdagi oyat va hadislardan foydalanib, askarlarini shijoatlantirmoqchi bo‘ladilar. Ammo islom uning hamma ahkomini qabul qilmagan kishiga ba'zi mevasini ham bermaydi, ular buni unutmasligi kerak ..!

Buning tasdig‘ini hayotda ko‘rsak ham bo'ladi. Davlatlar armiyaga yoshlarni majburlab yig‘ib yurgan bir paytda, Islom davlati himoyasi uchun armiya tashkil qilsang, yer yuzidan chegaralar oshib musulmonlar oqib keladilar! Ular hech qanday qiyinchiliklardan qo‘rqmay, yoshu qarisi, erkagu ayoli labbay deydi !

Chunki dinsizlarning armiyasida aqida yo‘q, bizning armiyada esa aqida bor !

Endi muqobil xizmat masalasiga to‘xtalsak.

Aslida har bir musulmon jangga tayyor bo‘lishi shart. Alloh taolo aytadi:

وَلَوْ أَرَادُواْ ٱلْخُرُوجَ لَأَعَدُّواْ لَهُۥ عُدَّةً وَلَٰكِن كَرِهَ ٱللَّهُ ٱنۢبِعَاثَهُمْ فَثَبَّطَهُمْ وَقِيلَ ٱقْعُدُواْ مَعَ ٱلْقَٰعِدِينَ

Agar chiqishni xohlaganlarida, unga tayyorgarlik ko'rar edilar. Lekin Alloh ularning harakatlanishlarini yoqtirmay tutib qoldi. Ularga, o'tiruvchilar bilan o'tiringlar, dedi. (Tavba.46)

Yana aytadi:

وَأَعِدُّواْ لَهُم مَّا ٱسْتَطَعْتُم مِّن قُوَّةٍ وَمِن رِّبَاطِ ٱلْخَيْلِ تُرْهِبُونَ بِهِۦ عَدُوَّ ٱللَّهِ وَعَدُوَّكُمْ وَءَاخَرِينَ مِن دُونِهِمْ لَا تَعْلَمُونَهُمُ ٱللَّهُ يَعْلَمُهُمْ وَمَا تُنفِقُواْ مِن شَىْءٍ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ يُوَفَّ إِلَيْكُمْ وَأَنتُمْ لَا تُظْلَمُونَ

"Ular uchun qo'lingizdan kelganicha kuch-quvvat va egarlangan otlarni tayyorlab qo'yingiz, bu bilan Allohning dushmanini, o'z dushmaningizni va ulardan boshqa o'zingiz bilmaydiganlarni (munofiqlarni)qo'rqitasiz. Ularni Alloh biladir. Alloh yo'lida nimani sarf qilsangiz, sizga to'liq qaytarilur. Sizga zulm qilinmas" (Anfol.60)

Ushbu oyat musulmon jamiyatining qurolli kuchlari doimo shay turishi lozimligiga dalildir. Har bir musulmon jamiyat qo'lidan kelganicha harbiy tayyorgarlikni ko'rib qo'yish bilan Allohning amrini bajargan bo'ladi.

Tayyorgarlikdan so‘ng har bir kishi shaxsan o‘zi ishtirok etishi esa dushman xatariga qarab ba'zan farzi ayn, ba'zan farzi kifoya bo'ladi.

Agar jang farzi kifoya bo'lsa, o‘shanda muqobil xizmat joiz bo'ladi. Har kim qo‘lidan kelganicha hissa qo‘shishi lozim. Zaiflar, kasalligi bor uzrli kishilar ham shu jumladan. Alloh taolo aytadi:

لَّيْسَ عَلَى ٱلضُّعَفَآءِ وَلَا عَلَى ٱلْمَرْضَىٰ وَلَا عَلَى ٱلَّذِينَ لَا يَجِدُونَ مَا يُنفِقُونَ حَرَجٌ إِذَا نَصَحُواْ لِلَّهِ وَرَسُولِهِۦ مَا عَلَى ٱلْمُحْسِنِينَ مِن سَبِيلٍ وَٱللَّهُ غَفُورٌ رَّحِيمٌ

Zaifhollarga, bemorlarga va sarf-xarajat qiladigan narsa topa olmayotganlarga, Allohga va Rasuliga ixlosli bo'lsalar, gunoh yo'q. Chiroyli amal qiluvchilarni ayblashga yo'l yo'q. Alloh mag'firatli va rahmli zotdir. (Tavba.91)

Shuningdek, jang o'rniga muqobil xizmat ahli kitoblardan ham olinadi. Ulardan jangga chiqish talab qilinmaydi. Ular jizya berishlari muqobilida musulmonlar ularni himoya qiladi.

Shu o‘rinda bir nuqtaga tanbeh berib o‘tishimiz lozim. Musulmon kishi zulmga qarshi o'zini himoya qilishi u islom davlatida bo'lmasa ham, Alloh yo‘lidagi urushga kiradi. Alloh taolo aytadi:

أُذِنَ لِلَّذِينَ يُقَٰتَلُونَ بِأَنَّهُمْ ظُلِمُواْ وَإِنَّ ٱللَّهَ عَلَىٰ نَصْرِهِمْ لَقَدِيرٌ

O'zlariga qarshi urush ochilganlarga ularga zulm qilingani uchun (urushga) izn berildi. Albatta, Alloh ularga nusrat berishga qodirdir.

ٱلَّذِينَ أُخْرِجُوا۟ مِن دِيَٰرِهِم بِغَيْرِ حَقٍّ إِلَّآ أَن يَقُولُوا۟ رَبُّنَا ٱللَّهُ وَلَوْلَا دَفْعُ ٱللَّهِ ٱلنَّاسَ بَعْضَهُم بِبَعْضٍ لَّهُدِّمَتْ صَوَٰمِعُ وَبِيَعٌ وَصَلَوَٰتٌ وَمَسَٰجِدُ يُذْكَرُ فِيهَا ٱسْمُ ٱللَّهِ كَثِيرًا ۗ وَلَيَنصُرَنَّ ٱللَّهُ مَن يَنصُرُهُۥٓ ۗ إِنَّ ٱللَّهَ لَقَوِىٌّ عَزِيزٌ

Ular nohaqdan, faqatgina «Robbimiz Alloh» deganlari uchun o'z diyorlaridan chiqarilgandirlar. Agar Alloh odamlarning ba'zilarini ba'zilari bilan daf qilib turmasa, uzlatgohlar, kanisalar, havralar va Allohning nomi ko'plab zikr qilinadigan masjidlar vayron qilingan bo'lur edi. Albatta, Alloh O'ziga yordam berganlarga yordam berur. Albatta, Alloh kuchli va g'olibdir" (Haj.39-40)

Demak, yurtidan chiqarilgani uchun urush qilgan kishi dunyo uchun urishgan deyilmas ekan. Bu urush o'zini himoya qilish bobidan bo'lib, islomda unga ijozat berilgan. Bunga quyidagi hadisda ishora bor:

جاءَ رَجُلٌ إلى رَسـولِ اللهِ صَـلَّى اللَّهُ عليه وسـلَّمَ، فقالَ: يا رَسـولَ اللهِ، أرَأَيْتَ إنْ جاءَ رَجُلٌ يُرِيدُ أخْذَ مالِي؟ قالَ: فلا تُعْطِهِ مالَكَ قالَ: أرَأَيْتَ إنْ قاتَلَنِي؟ قالَ: قاتِلْهُ قالَ: أرَأَيْتَ إنْ قَتَلَنِي؟ قالَ: فأنْتَ شَـــهِيدٌ، قالَ: أرَأَيْتَ إنْ قَتَلْتُهُ؟ قالَ: هو في النَّارِ.

“Bir kishi Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga dedi:

Aytingchi , birov mening molimni tortib olmoqchi bo‘lsa, nima qilay ?

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Unga molingni berma!”

U aytdi: Agar men bilan urishsachi?

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Sen ham urish!”

U aytdi “Agar meni o'ldirib qo'ysachi?”

“Sen shahidsan” dedilar. Agar men uni o'ldirib qo'ysamchi ? deganda “U do'zaxda" dedilar. (Muslim rivoyati)

Xulosa :

52-modda

Islom qonunlari bilan boshqariladigan davlatni himoya qilish — har bir musulmonning burchidir. Urushga yaroqli bo‘lgan barcha fuqarolar belgilangan tartibda harbiy xizmatni o‘tashga majburdirlar.

Islomda uzrli sanalganlar va qonunda belgilangan tarzda muqobil xizmat joiz bo'lgan o‘rinlar bundan mustasno.

UCHINCHI BO‘LIM. JAMIYAT VA SHAXS

XII bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari

53-modda.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Sharh

1.Bozor munosabatlarini rivojlantirish...

Islomda bozorni halol uslubda rivojlantirish Allohning ne'mati tarzida zikr qilingan.

Quraysh qabilasi, qishda Yamanga, yozda Shomga tijorat qilishni odat qilgan edilar. Ularga shu ne'matni eslatib, Alloh taolo aytadi:

لِإِيلَافِ قُرَيْشٍ

إِيلَافِهِمْ رِحْلَةَ الشِّتَاءِ وَالصَّيْفِ

فَلْيَعْبُدُوا رَبَّ هَذَا الْبَيْتِ

الَّذِي أَطْعَمَهُم مِّن جُوعٍ وَآمَنَهُم مِّنْ خَوْفٍ

1. Quraysh (aholisi)ga qulay qilib qo'ygani uchun,

2. ya'ni ularga qishda (Yamanga) va yozda (Shomga) safar qilishni qulay qilib qo'ygani uchun

3. mana shu Uy(Ka'ba)ning Parvardigoriga ibodat qilsinlar!

4. Zero, (U) ularni ochlikdan (qutqarib) taomlantirdi va xavf (va xatar)dan xotirjam qildi.

(Quraysh surasi)

Alloh yerni yaratganda Insoniyat ichida tijorat rivojlanishi , ularni bir-birlari orqali rizqlanishlari uchun undagi ne'matlarni yerning hamma qismiga taqsimlab qo‘ydi. Bir mintaqada mo'l-ko'l ne'mat boshqa mintaqada noyob. Bir davlat tilla - kumushga boy, ammo ekin-tekin o‘sishi qiyin, boshqa davlat esa qimmatbaho metallarga boy bo‘lmasa-da, ekinlar o‘sishi qulay qilib qo‘ydi. Shu orqali oldi berdi, tijoratni rivojlantirdi. Agar hammaga bir xil ne'mat bersa, odamlarda oldi-berdi rivojlanmas edi.

Demak, Allohning shariyati va taqdir qonunlari insonlar tijoratini rivonlantirishiga targ‘ib qilgan.

Islomda eng avval tushgan suralardan biri Muzzammil surasida tijorat va jihod yonma-yon zikr qilindi. Tojirlar va mujohidlarni deb tungi namoz farzligi soqit qilindi. Alloh taolo aytadi:

عَلِمَ أَن سَيَكُونُ مِنكُم مَّرْضَىٰ وَءَاخَرُونَ يَضْرِبُونَ فِى ٱلْأَرْضِ يَبْتَغُونَ مِن فَضْلِ ٱللَّهِ وَءَاخَرُونَ يُقَٰتِلُونَ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ فَٱقْرَءُوا۟ مَا تَيَسَّرَ مِنْهُ

"Sizlardan kelajakda kasallar bo'lishini ham bildi. Boshqalar yer yuzida yurib, Allohning fazlini (tijoratni) axtarishini, yana boshqalar esa, Allohning yo'lida jihod qilishlarini (ham bildi). Bas, undan muyassar bo'lganicha (namoz o'qib) qiroat qilinglar" (Muzzammil.20)

Shuningdek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ham halol tijoratchini shahidlar darajasida zikr qildilar:

"التاجر الصدوق الأمين مع النبيين والصديقين والشهداء".

"Rostgo‘y ishonchli tojir, payg'ambarlar, siddiqlar va shahidlar bilan birgadir" (Termiziy rivoyati)

Hatto Haj safarida tijorat qilishga ijozat berildi . Alloh taolo aytadi:

لَيْسَ عَلَيْكُمْ جُنَاحٌ أَن تَبْتَغُواْ فَضْلًا مِّن رَّبِّكُمْ

Sizga Robbingizdan (Haj safarida) fazl (rizq) istashingizda gunoh yo'qdir. (Baqara.198)

Oyatda zikr qilingan «fazl» so'zi rizq, kasb ma'nosini anglatadi.

Imom Buroxiy rivoyat qilgan asarda ushbu oyat haqida Ibn Abbos roziyallohu anhumo aytadilar: "Ya’ni hajda tijorat qilishinglarga gunoh yo‘qdir "

Odamlar o'rtasida hajga borgan kishi tijorat yoki boshqa biror kasb bilan shug'ullansa, bo'lmaydi, degan tushuncha bor edi. Imom Nasafiy rivoyat qilishlaricha, bir qavm: «Hammollik va tojirlik qilgan odamning haji haj bo'lmaydi», degan gapni tarqatganida, shu oyat nozil bo'lgan ekan. Shunga o'xshash ma'nolar boshqa rivoyatlarda ham kelgan. Imom Ahmad qilgan rivoyatda, Abu Umoma aytadilarki: «Abdulloh ibn Umardan, biz kiraga ishlaymiz, haj qilsak bo'ladimi?» deb so'rasam, «Baytullohni tavof qilib, Arofatda vuquf qilib, tosh otib, sochingizni oldirasizmi?» dedi. «Albatta» dedim. U kishi: «Bir odam Rasulullohning huzurlariga kelib, sen hozir mendan so'ragan narsani so'ragan edi, javob bermay turdilar. So'ng Jibroil «Sizga o'z Robbingizdan fazl istashingizda gunoh yo'qdir», degan oyatni olib tushdi, dedilar.

Shuningdek, juma namozi haqidagi oyatda Alloh taolo aytadi:

فَإِذَا قُضِيَتِ ٱلصَّلَوٰةُ فَٱنتَشِرُواْ فِى ٱلْأَرْضِ وَٱبْتَغُواْ مِن فَضْلِ ٱللَّهِ وَٱذْكُرُواْ ٱللَّهَ كَثِيرًا لَّعَلَّكُمْ تُفْلِحُونَ

"Bas, namoz tugagandan so'ng yer yuzi bo'ylab tarqaling va Allohning fazli(rizqi)dan talab qiling va Allohni ko'p eslang, shoyadki yutuqqa erishsangiz" (Juma .10)

Demak, juma namozi tugagach, behuda gap sotmasdan, undan ko‘ra tarqab tijorat qilish va Allohni zikr qilish afzal ekan.

2. “Xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi..”

Mulk xilma-xilligi Islomda asosan uchga bo‘linadi:

1.Umumiy mulk.

Bularga Alloh yaratgan tabiiy boyliklar kiradi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

المسلِمونَ شُركاءُ في ثلاثٍ ، في الكَلَإِ ، والماءِ ، والنَّارِ

"Musulmonlar uch narsada sherikdirlar: O't-o'lan, suv va olovda" (Abu dovud rivoyati)

Demak, davlat qo‘riqxona qilmagan va hech kimga tegishli bo'lmagan yaylovlardagi o't-o'lanlar, o'tin, ko‘mir kabi yoqilg'ilar, anhor dengizlardagi suvlar hammaning mulkidir.

2.Davlat mulki.

Bunda umumiy mulkni xalq manfaati uchun davlat rasmiylashtiradi. Davlat qo‘riqxonalari ham shu ma'noda. Bunga bir misol :

Islom avvalida yangi fath qilingan yerlar mujohidlarga taqsimlanar edi. Umar roziyallohu anhu xalifalik davrlarida bu taqsimni to‘xtatib, yangi yerlarni davlat mulkiga aylantirdilar. Chunki, fath bo‘lgan hamma yerlarni mujohidlarga taqsimlanaversa, kelajak avlodga nima qoladi ? Shunga binoan Iroq yerlarini davlat mulkiga aylantirdilar.

3.Xususiy mulk

Bunga misol: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من أحيا أرضًا مَيتةً لم تكنْ لأحدٍ قبلَه فهي له

"Kimiki hech kimga tegishli bo'lmagan bir o'lik (qarovsiz) yerni tiriltirsa (obod qilsa), u (yer)unikidir"

(Nasoiy rivoyati)

Shuningdek, urush vaqtida bir dushmanni o‘ldirgan uning narsalariga ega qilingani ham xususiy mulkka bir misol bo'ladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مَن قَتَلَ قَتِيلًا له عليه بَيِّنَةٌ فَلَهُ سَلَبُهُ

"Kim bir dushmanni o'ldirib, uni (o'ldirganiga) dalil keltirsa, uning ashyolari ungadir" (Buxoriy rivoyati)

Bundan boshqa sherikchilikka asoslangan aralash mulk kabi qismlar ham bor. Bular hammasi fiqh ilmida batafsil bayon qilingan.

Ammo aslini olganda mulkning haqqoniy egasi Allohdir. Bandaga mulk nisbat berilishi majoziy ma'noda ishlatiladi.

Alloh taolo aytadi:

لِلَّهِ مُلْكُ ٱلسَّمَٰوَٰتِ وَٱلْأَرْضِ وَمَا فِيهِنَّ وَهُوَ عَلَىٰ كُلِّ شَىْءٍ قَدِيرٌ

Osmonlaru yer va ulardagi narsalar Allohning mulkidir. Va U zot har bir narsaga qodirdir. (Moida.120)

وَمَا بِكُم مِّن نِّعْمَةٍ فَمِنَ ٱللَّهِ ثُمَّ إِذَا مَسَّكُمُ ٱلضُّرُّ فَإِلَيْهِ تَجْـَٔرُونَ

Sizda qaysiki ne'mat bo'lsa, Allohdandir. So'ngra qachonki sizga yomonlik yetsa, Ungagina yolvorursiz. (Nahl.53)

Bandaga mulkni beruvchi Alloh:

قُلِ ٱللَّهُمَّ مَٰلِكَ ٱلْمُلْكِ تُؤْتِى ٱلْمُلْكَ مَن تَشَآءُ وَتَنزِعُ ٱلْمُلْكَ مِمَّن تَشَآءُ وَتُعِزُّ مَن تَشَآءُ وَتُذِلُّ مَن تَشَآءُ بِيَدِكَ ٱلْخَيْرُ إِنَّكَ عَلَىٰ كُلِّ شَىْءٍ قَدِيرٌ

Sen: «Ey barcha mulkning egasi Robbim! Xohlagan kishingga mulk berursan va xohlagan kishingdan mulkni tortib olursan, xohlagan kishingni aziz qilursan, xohlagan kishingni xor qilursan. Barcha yaxshilik Sening qo'lingda. Albatta, Sen har bir narsaga qodirsan" deb ayt (Oli imron.26)

Bu ma'noni anglash ortidan kelib chiqadigan foyda shundaki, modom mulk Allohniki ekan, Allohning mulkida uni norozi qiladigan ishlar mumkin emas. Shaxsiy mulkim deb aroqxona ochish, to'ng'iz boqish kabi harom ishlarga ruxsat berilmaydi.

Shuningdek, inson o'z mulkini o'zi va birovga zarar beradigan ko'rinishda tasarruf etishiga ham yo'l qo'yilmaydi. Alloh taolo aytadi:

وَلَا تُؤْتُواْ ٱلسُّفَهَآءَ أَمْوَٰلَكُمُ ٱلَّتِى جَعَلَ ٱللَّهُ لَكُمْ قِيَٰمًا وَٱرْزُقُوهُمْ فِيهَا وَٱكْسُوهُمْ وَقُولُواْ لَهُمْ قَوْلًا مَّعْرُوفًا

Alloh (hayotingizni) turgizish (vositasi) qilgan mollaringizni esi pastlarga bermang. Ularni o'sha mollardan rizqlantiring, kiyintiring va ularga yaxshi so'zlar ayting. (Niso.4)

3."Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi”

Tadbirkorlik va mehnat erkinligi islom qonunlari bilan qaydlanishi lozim. Islomda tadbirkorlik erkinligi da'vosi bilan harom narsalar ishlab chiqarish, harom tijoratlar qilish mumkin emas.

Masalan, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam mast qiluvchi ichimliklar haqida aytadilar :

لعن الله الخمر، وشـاربها ، وسـاقيها ، وبائعها ، ومبتاعها ، وعاصـرها ، ومعتصـرها ، وحاملها ، والمحمولة إليه ، وآكل ثمنها

"Alloh, mast qiluvchi ichimliklarni ichuvchini, quyib beruvchini, sotuvchini, sotib oluvchini, siqib beruvchini, siqtiruvchini, ko‘tarib boruvchini, olib borilganini va uning pulini yeyuvchini la'natladi" (Abu dovud rivoyati)

Boshqa har qanday harom narsalar hukmi ham shunday. Ularda har qanday ko‘rinishda ishtirok etish gunohi barobar .

4. "Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir"

Islomda inson mulki himoyasi uchun o'g'rining qo‘lini kesish joriy qilindi. Mol-mulkni asrash islomdagi besh zaruriy narsalardan biridir. Ular "Din, jon, aql, nasab, mol-mulk"

5. "Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin"

Islom qonunlarida ham shaxsiy mulkni musodara qilish bor.

Masalan, zakot berishga qodir bo'la turub, bermagan kishi haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

ومن منعها فإنَّا آخذوها وشطرَ مالِهِ عَزْمَةً من عزماتِ ربنا عزَّ وجلَّ ليس لآلِ محمدٍ صلَّى اللهُ عليهِ وسلَّمَ منها شيءٌ

"Kim u(zakot)ni man qilsa, biz uni va uning yarim molini olamiz. Rabbimiz azza va jallaning buyruqlaridan bir buyruqdir. Unda Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) xonadoniga hech qanday nasiba yo‘q " (Abu Dovud rivoyati)

Asli bu hukmga amal qilish ham fiqh ulamolari orasida ixtilofli masalalardan. Lekin umuman olganda molni musodara qilishga asos bo'ladi.

Bunga yana bir misol. Umar raziyallohu anhu biror mintaqaga hokim tayinlasalar, uning mol-mulkini hisoblab qo‘yib, oyligidan ortiqchasini musodara qilar edilar. Bu ishlari bilan ular davlat moli o'marilishining oldini olganlar.

Hatto Ko’fa hokimi sahobiy Sa'd raziyallohu anhu o'zlariga qasr qurganlarida Umar raziyallohu anhu uni buzub tashladilar.

Yana bir misol. Umar raziyallohu anhu sutga suv qo‘shib sotishdan qaytardilar. Agar kim suv qo‘shsa, suti bilan qo‘shib to‘kib tashlar edilar. Bu ham musodara qilishning bir ko‘rinishidir. Bu siyosat asli Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam siyratlarida ham bor. Janglardan tushgan o'ljalardan so‘roqsiz ovqat pishirishganda, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uni qozoni bilan ag‘darib yuborar edilar.

Mol-mulkni musodara qilishga yana bir misol muflis kishilar hukmi.

Muflis deb mol-mulki kasodga uchragan, bankrot deb e'lon qilingan kishiga aytiladi. Shunda u odamning oldi -sotdilariga taqiq qo‘yiladi. Va zaruriy ehtiyojlaridan boshqa mol-mulklarini davlat musodara qilib haqdorlarga taqsimlaydi.

Imom Bayhaqiy rivoyat qilishicha, sahobiy Muoz ibn Jabal roziyallohu anhu muflis bo‘lganlarida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam u kishining mol-mulklarini sotib qarzdorlarga taqsimlaganlar.

Yana boshqa bir hadisda aytadilar :

من أدرك مالَه بعينِه عِندَ رجلٍ أو إنسانٍ قد أفلسَ فهوَ أحقُّ به من غيرِه

"Kimiki muflisning qo‘lida o‘zining molini topsa, o‘zi unga boshqalardan haqliroqdir"(Buxoriy rivoyati)

Demak, muflis insonni qo‘lida ayni o‘zining narsasini topgan kishi uni olib qo‘yishga haqli bo'lar ekan.

(Muflis ahkomlari haqida batafsil ma'lumot fiqh ilmida bayon qilingan)

Xulosa:

53-modda

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat islom qonunlaridan chiqmagan holda iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish (halol ko‘rinishda) erkinligini, barcha (halol) mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat islom qonunlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

54-modda.

Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Sharh:

Islomda ham mulkdor mulkida o'z xohishicha tasarruf qiladi. Faqat ushbu moddada ba'zi istisnolar qilingani kabi islomda ham kishi molidagi tasarrufi shariat qonunlariga zid bo‘lmasligi istisno qilinadi.

Chunki kishi molini nimaga sarflaganidan javobgardir. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

وعن مالِهِ من أينَ اكتسبَهُ وفيمَ أنفقَهُ

"..Kishi molini qayerdan topib qayerga ishlatgani haqida so‘raladi.." (Termiziy rivoyati)

Kishi haromdan mol topishi qaytarilgani kabi haromga sarflashi ham qaytarilgan.

Yuqorida aytilgan qaydlar "..ekologik muhitga zarar yetkazmasligi.. " ham shu ma'no ostiga kiradi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

لا ضرر ولا ضرار

"Zarar yetkizish (bexosdan) va zarar berish yo‘q " (Ibn Moja)

Hadisning bir ma'nosida ulamolar aytadilar: "Birovga beixtiyor yoki qasd bilan zarar berish mumkin emas"

Birovning mulkidan boshqa birov zarar ko‘rmasligi uchun islomda esi past kishilarni moliyaviy tasarrufiga cheklovlar qo‘yish joriy qilingan. Alloh taolo aytadi:

وَلَا تُؤْتُواْ ٱلسُّفَهَآءَ أَمْوَٰلَكُمُ ٱلَّتِى جَعَلَ ٱللَّهُ لَكُمْ قِيَٰمًا وَٱرْزُقُوهُمْ فِيهَا وَٱكْسُوهُمْ وَقُولُواْ لَهُمْ قَوْلًا مَّعْرُوفًا

Alloh (hayotingizni) turgizish (vositasi) qilgan mollaringizni esi pastlarga bermang. Ularni o'sha mollardan rizqlantiring, kiyintiring va ularga yaxshi so'zlar ayting. (Niso.4)

Ularning mol-mulklari vasiylari qo‘lida turadi. Vasiylar ularga yetarlicha nafaqa qilib turishga buyurilgan.

Shuningdek, kishi mol-mulkini islom davlati va musulmonlarga qarshi sarflamasligi kerak.

Alloh taolo aytadi:

إِنَّ ٱلَّذِينَ كَفَرُواْ يُنفِقُونَ أَمۡوَٰلَهُمۡ لِيَصُدُّواْ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ فَسَيُنفِقُونَهَا ثُمَّ تَكُونُ عَلَيۡهِمۡ حَسۡرَةٗ ثُمَّ يُغۡلَبُونَ وَٱلَّذِينَ كَفَرُوٓاْ إِلَىٰ جَهَنَّمَ يُحۡشَرُونَ

Albatta, kufr keltirganlar mollarini Allohning yo'lidan to'sish uchun sarflarlar. Bas, ularni sarflaydilar-u, so'ngra o'zlariga hasrat bo'ladir, keyin mag'lub bo'larlar. Kufr keltirganlar jahannamga to'planurlar.

(Anfol.36)

Va kishi mol-mulki bilan buzg'unchi jinoyatchilarga yordam bermasligi kerak.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مَنْ أَحْدَثَ حَدَثًا أَوْ آوَى مُحْدِثًا فَعَلَيْهِ لَعْنَةُ اللَّهِ وَالْمَلَائِكَةِ وَالنَّاسِ أَجْمَعِينَ

"Kim biror yomonlikni paydo qilsa, yoki yomonlik qiluvchiga boshqana bersa, unga Allohning la'nati, maloikalarning la'nati va jamiki insonlarning la'nati bo‘lsin. (Abu dovud)

Yoki dushmanga qurol sotishdan qaytarilgani ham shu bobdan. Imom Ahmad rivoyati qiladilar :

"**Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam fitna vaqtida qurol sotishdan qaytardilar"**

Chunki bu ish fuqarolar va davlatga zarar keltiradi.

Xulosa:

54-modda.

Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Mulkdan foydalanish islom qonunlariga zid ko'rinishda bo'lmasligi, ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

55-modda.

Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Sharh:

Umumiy boyliklar haqida Alloh taolo aytadi:

هُوَ ٱلَّذِى خَلَقَ لَكُم مَّا فِى ٱلْأَرْضِ جَمِيعًا

"U sizlar uchun yer yuzidagi barcha narsani yaratgan zot" (Baqara.29)

Demak, yer yuzidagi ne'matlar butun insoniyat uchun yaratilgan.

Yana ushbu ma'noda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

المسلِمونَ شُركاءُ في ثلاثٍ ، في الكَلَإِ ، والماءِ ، والنَّارِ

"Musulmonlar uch narsada sherikdirlar: O't-o'lan, suv va olovda" (Abu dovud rivoyati)

Har qanday yer va yer osti boyliklari hadisda ishora qilingan uch narsa ostiga kiradi. Islomda bu boyliklar davlat amaldorlarining boyligiga aylanib qolishiga yo'l qo‘yilmaydi. Xalq bu boyliklardan to'g'ri foydalanishiga davlat imkoniyat yaratib beradi.

Xulosa:

55-modda

Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

XIII bob. Jamoat birlashmalari

56-modda.

O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi.

Sharh:

Islomda yaxshilikka yordam va yomonlikning oldini olish maqsadida tuzilgan har qanday tashkilotlar, uyushmalar, jamoat birlashmalari joiz. Alloh taolo aytadi:

وَتَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡبِرِّ وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ

Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli zotdir. (Moida.2)

Oyatdagi "hamkorlik" so‘zi jamoaviy birlashish ma'nosiga ishora qiladi.

Ushbu ma'noga yana bir dalil:

لَّا خَيۡرَ فِي كَثِيرٖ مِّن نَّجۡوَىٰهُمۡ إِلَّا مَنۡ أَمَرَ بِصَدَقَةٍ أَوۡ مَعۡرُوفٍ أَوۡ إِصۡلَٰحِۭ بَيۡنَ ٱلنَّاسِۚ وَمَن يَفۡعَلۡ ذَٰلِكَ ٱبۡتِغَآءَ مَرۡضَاتِ ٱللَّهِ فَسَوۡفَ نُؤۡتِيهِ أَجۡرًا عَظِيمٗا

"Ularning ko'pgina maxfiy suhbatlarida yaxshilik yo'q, magar kim sadaqaga, yaxshilikka va odamlar orasida islohga amr qilsagina, yaxshilik bor. Kim o'sha ishni Allohning roziligi uchun qilsa, albatta, unga ulug' ajr beramiz" (Niso.114)

Demak, kim Alloh roziligi uchun odamlar o‘rtasini birlashtirsa unga buyuk ajr va'da qilingan.

Arablardan "Ash'ariylar" deb nomlangan qabila yaxshilik yo‘lida o‘zaro yordam uchun birlashishlarini maqtab, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

إنَّ الأشْـــعَرِيِّينَ إذا أرْمَلُوا في الغَزْوِ، أوْ قَلَّ طَعامُ عِيالِهِمْ بالمَدِينَةِ، جَمَعُوا ما كانَ عِنْدَهُمْ في ثَوْبٍ واحِدٍ، ثُمَّ اقْتَسَمُوهُ بيْنَهُمْ في إناءٍ واحِدٍ، بالسَّوِيَّةِ، فَهُمْ مِنِّي وأنا منهمْ.

"Ash'ariylar agar janglarda muhtoj bo‘lishsa, yoki Madinada taomlari oz qolsa, o'zlarida bor narsalarni bir matoga to‘plab, so‘ngra bir idishda o‘rtalarida tengma-teng uni taqsimlaydilar. Ular mendan men esa ulardanman!" (Muslim rivoyati)

Ya'ni ular qiyinchilik paytlarida jamoaviy birlashadilar. Narsalarni seniki-meniki qilmaydilar. Shuning uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ularni maqtab, "ular mendan" deb bu ishlarini o‘zlarining sunnatlaridan ekaniga ishora qildilar.

1.Kasaba uyushmalari.

Endi yuqorida aytilgan "..kasaba uyushmalari.." ma'nosiga ba'zi misollar keltirib o‘taylik.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

المُؤْمِنَ للمؤمنِ كالبُنْيانِ يشدُّ بَعضُهُ بعضًا

"Mo‘min-mo‘minga bino kabidir. Ular bir-birini quvvatlaydilar " (Buxoriy va muslim)

Ma'lumki, kasaba uyushmalari ham shu maqsadda tashkil qilinadi.

Bunga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Makkada kofirlar bilan zulm va adolatsizlikka qarshi ittifoqda ishtirok etganlari (Hilful-Fuzul qissasi) ham dalil bo‘ladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"Agar bu ittifoqqa islomda chaqirilsam ham, javob qilar edim" (Bazzor rivoyati)

2"..siyosiy partiyalar.."

Bu haqida 12- va 34-moddalar sharhida aytib o‘tdik. Islom nizomi bilan boshqariladigan davlatda siyosiy partiyalar bo‘lishi mumkin emas.

(Batafsil ma'lumot uchun ushbu moddalar sharhiga qarang)

3 .Olimlarning jamiyatlari.

Ular diniy yoki dunyoviy olimlar ekanidan qat'iy nazar islomda ularning jamiyatlari tashkil qilinishi man qilinmaydi.

4. Xotin qizlar tashkilotlari.

Bunga ham islomda hech qanday monelik yo‘q. Sahobiyalar ichida Asmo bintu Yazid roziyallohu anho ayollar nomidan Rasulullоh sallolohu alayhi va sallamga savollar va muammolarni yetkazib berar edilar. Shuning uchun u ayolni "Ayollar xotibasi" (notiqi) deyilar edi.

5. "..faxriylar va yoshlar tashkilotlari.."

Bunga ham islomda monelik yo‘q. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Uhud jangiga chiqishlaridan oldin Madina aholisining yoshlari va kattalaridan alohida-alohida maslahat olganlar. Demak, bu qissa ular ichida yoshlar va keksalarning alohida jamoatlari bo‘lganligiga ishora qiladi.

6. "..ijodiy uyushmalar ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari.."

Bunday uyushmalar hammasi Islom qonunlariga zid faoliyat olib bormasligi sharti bilan ijozat beriladi. Bu ma'nolar umumiy tarzda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning so‘zlari ostiga kiradi:

أَنْتُمْ أَعْلَمُ بِأَمْرِ دُنْيَاكُمْ.

"Sizlar dunyo ishlaringni o'zinglar yaxshiroq bilasizlar" (Muslim rivoyati)

Xulosa :

56-modda

Shariat qonunlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi.

57-modda.

Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Sharh:

Bu modda taqiqlangan jamoat birlashmalari haqida.

Ularni birma-bir ko‘rib chiqaylik:

1- Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi birlashmalar.

Avvalgi moddalar sharhida aytib o‘tganimizdek, konstitutsiya islomdan olingan bo‘lsa, davlat shariat qonunlariga muvofiq boshqarilsa, boshliqlar musulmon bo‘lsagina ushbu moddaga amal qilib konstitutsiyon tuzumga qarshi chiqish qaytariladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إن أُمِّرَ عليْكم عبدٌ حبشيٌّ مجدَّعٌ فاسمعوا لَهُ وأطيعوا ما قادَكم بِكتابِ اللَّهِ

"Agar ustinglarda qo'l oyog‘i kesilgan qora qul boshliq qilingan bo'lsa ham, uning amrini eshitib, unga itoat qilinglar. MODOMIKI SIZLARNI ALLOHNING KITOBI BILAN BOSHQARSA" (Ibn Moja rovoyati)

Ular namoz o‘qisalargina itoat lozimligi haqida aytadilar :

إنَّه يُسْــتَعْمَلُ علَيْكُم أُمَراءُ، فَتَعْرِفُونَ وتُنْكِرُونَ، فمَن كَرِهَ فقَدْ بَرِئَ، ومَن أنْكَرَ فقَدْ سَــلِمَ، ولَكِنْ مَن رَضِيَ وتابَعَ، قالوا: يا رَسولَ اللهِ، ألا نُقاتِلُهُمْ؟ قالَ: لا، ما صَلَّوْا.

"Hali ustinglardan bir amirlar qo‘yiladi. Ba'zi ishlarini yaxshi, ba'zisini yomon ko‘rasizlar. Kim yomon ko‘rsa (oxiratda javobgarlikdan) qutilibdi. Kim inkor qilsa, salomat qolibdi. Lekin kimiki rozi bo‘lib ergashsa (Halok bo‘libdi).

Odamlar aytishdi : "Ularga urishmaylikmi?" Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam aytdilar:

"**Yo‘q ! modom namoz o'qisalar !"** (Imom Muslim rivoyati)

Konstitutsiyon tuzumga qarshi chiqmaslik uchun mana shu ikki shart topilishi kerak.

1-Davlat islom qonunlari bilan boshqarilishi.

2-Boshliqlar **namoz** o‘qishlari.

Aks holda, hadisdan chiqadiki , musulmon kishi ushbu konstitutsiyon tuzumni qodir bo‘lganicha o‘zgartirishga buyurilgan.

Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

(مَنْ رَأَى مِنْكُمْ مُنْكَرًا فَلْيُغَيِّرْهُ بِيَدِهِ، فَإِنْ لَمْ يَسْــتَطِعْ فَبِلِسَــانِهِ، فَإِنْ لَمْ يَسْــتَطِعْ فَبِقَلْبِهِ، وَذَلِكَ أَضْــعَفُ الإِيمَانِ)

"Sizlardan kim biror yomonlikni ko‘rsa, uni qo'li bilan o'zgartirsin. Agar qodir bo‘lmasa, tili bilan. Agar unga ham qodir bo‘lmasa, qalbi bilan yomon ko‘rsin. Bu iymonning eng zaif ko‘rinishidir"

(Muslim rivoyati)

Shunga binoan musulmon kishi yo Allohning qonunlariga amal qilib, konstitutsiyani o'zgartirib dunyoda jinoyatchiga chiqariladi, yoki odamlardan qo‘rqib, Allohning qonunlariga zid konstitutsiyon tuzumga rozi bo'lib, Allohning nazdida jinoyatchi bo'ladi.

Alloh Qur'onda 52 o'rinda o‘ziga osiy kishilarni "مجرم" ya'ni "jinoyatchilar" deb zikr qilgan.

Bundan chiqadiki, Allohning shariatiga amal qilmaslik "jinoyat”dir.

2. "Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga raxna soladigan uyushmalar .."

Davlat suveriniti haqida 1-modda sharhida gapirib o‘tgan edik.

Davlat qachonki, Allohning qonunlari bilan boshqarilsa, shunda uning shariati ustunligiga, musulmonlarning yaxlitligi va xavfsizligiga raxna soladigan uyushmalar taqiqlanadi. Aks holda, "Allohu akbar" so‘zi Allohning qonunlarini ustun qilishga chaqiradi. Undan boshqa qonunlar ustunligini tan olinmaydi.

Shuningdek, "yaxlitlik" tushunchasi ham to'g‘ri yo‘l ustida birlashish ma'nosida tushunilishi kerak. Har qanday to‘planish yaxlitlik bo‘lib, undan ajralishga chaqirish firqabozlik bo‘lavermaydi. Payg'ambarlar qanday millatlarga kelsalar, ularga ergashganlar va ergashmaganlar ichida ikkiga bo‘linish sodir bo'lar edi. O'shanda ham odamlar payg'ambarlar va ularga ergashganlarni fitnachilik va tafriqa urug‘ini sochishlikda ayblar edi. Chunki haq hech qachon botil bilan birlashib yaxlit bo'lmaydi. Odamlar haqqa ergashib bo‘linishi botilda jamlanib turishidan yaxshiroq.

Shuning uchun , "Davlat yaxlitligiga raxna solish" da'vosi bilan dinga da'vat to'xtatilmaydi. Chunki insoniyatning ba'zi qismi bo‘lsa-da, islomga kirib do‘zaxdan qutilishi, botilda yaxlit bo‘lib do‘zaxga ketishidan yaxshiroq.

Yoki "Xavfsizlik" tushunchasi ham shunday. Botil tuzumlar insoniyatni faqat dunyodagi tinchligini o‘ylab ish ko‘radi. Bu tinchlik evaziga abadiy do‘zax bo'lsa ham ularga farqi yo‘q. Islomda esa insonning avvalo oxirati tinchligiga rioya qilingan. Shuning muqobilida dunyosida ba'zi notinchliklarga sabr qilishini buyuradi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga risolat kelishdan oldin Makkada tinchgina yashab yurgan edilar. Ammo haq din kelgach, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va sahobalar dunyosida tinchlik yo’qoldi. 23 yil mobaynida tinimsiz ozorlar va janglar bo'lib o‘tdi. Bularning barchasi insoniyatning oxirati tinchligi uchun edi. Dinga kirgan kishi xavf-xatardan xoli bo‘lmasligi haqida Alloh taolo aytadi :

وَلَنَبْلُوَنَّكُم بِشَىْءٍ مِّنَ ٱلْخَوْفِ وَٱلْجُوعِ وَنَقْصٍ مِّنَ ٱلْأَمْوَٰلِ وَٱلْأَنفُسِ وَٱلثَّمَرَٰتِ وَبَشِّرِ ٱلصَّٰبِرِينَ

Albatta, Biz sizlarni bir oz qo'rqinch va ochlik bilan, mol-mulkga, jonga, mevalarga nuqson yetkazish bilan sinaymiz. Va sabrlilarga bashorat ber. (Baqara.155)

Yana aytadi:

أَمْ حَسِبْتُمْ أَن تَدْخُلُوا۟ ٱلْجَنَّةَ وَلَمَّا يَأْتِكُم مَّثَلُ ٱلَّذِينَ خَلَوْا۟ مِن قَبْلِكُم ۖ مَّسَّتْهُمُ ٱلْبَأْسَآءُ وَٱلضَّرَّآءُ وَزُلْزِلُوا۟ حَتَّىٰ يَقُولَ ٱلرَّسُولُ وَٱلَّذِينَ ءَامَنُوا۟ مَعَهُۥ مَتَىٰ نَصْرُ ٱللَّهِ ۗ أَلَآ إِنَّ نَصْرَ ٱللَّهِ قَرِيبٌ

"Sizdan avval o'tganlarga kelganga o'xshash narsa sizlarga kelmasdan turib, jannatga kiramiz, deb o'yladingizmi? Ularni balo va musibatlar tutgan va larzaga tushirilganlar. Hattoki, Payg'ambar va u bilan iymon keltirganlar: «Allohning nusrati qachon bo'ladi?» deganlar. Ogoh bo'linglar, albatta, Allohning nusrati yaqindir. " (Baqara.214)

Demak, jannatga kirish oson emas! Kishi iymon, islomni og'izda e'lon qilib qo'yish bilangina jannatga kiravermaydi. Jannatga kirishning bir sharti–avvalgi ummatlardan unga kirishga haqdor bo'lganlarga yuborilgan og'ir sinovlarni boshdan o'tkazish zarur.

Shuning uchun, xavfsizlik da'vosi bilan musulmonlar diniga amal qilishlariga, da'vat qilishlariga taqiq qo‘yilmaydi. Dunyoda ozroq xavf-xatar sabab diniga amal qilmaydigan kishilarni Alloh Qur'onda munofiqlar safida zikr qilgan. Alloh taolo aytadi:

فَتَرَى ٱلَّذِينَ فِى قُلُوبِهِم مَّرَضٌ يُسَـٰرِعُونَ فِيهِمْ يَقُولُونَ نَخْشَىٰٓ أَن تُصِيبَنَا دَآئِرَةٌ ۚ فَعَسَى ٱللَّهُ أَن يَأْتِىَ بِٱلْفَتْحِ أَوْ أَمْرٍ مِّنْ عِندِهِۦ فَيُصْبِحُوا۟ عَلَىٰ مَآ أَسَرُّوا۟ فِىٓ أَنفُسِهِمْ نَٰدِمِينَ

Qalblarida kasallik borlarning, zamon aylanib bizga musibat yetishidan qo'rqamiz, deb ular (kofirlar) tomon shoshilganini ko'rasan. Shoyadki, Alloh fathu nusrat bersa yoki O'z tomonidan biron ish ato qilsayu o'zlaricha sirlashgan narsalariga nadomat qilsalar. (Moida.52)

Ya'ni, qalbida kasalligi borlardan maqsad qalbida nifoq borlar. Ular kofirlardan biror xatar kelishidan qo‘rqib , dinlaridan voz kechib bo‘lsa-da, ularni rozi qilishga shoshiladilar.

3. "..fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi jamoat birlashmalari tuzmaslik.."

Islomda kishining huquq-erkinligi uni yaratgan Allohning qonunlaridan chiqmasligi kerak. Bu haqida 29-modda sharhida aytib o‘tdik.

Shunga binoan islom hukmi bilan boshqariladigan davlatda fuqarolarni din qonunlari bilan qaydlanishga buyuradigan "Yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish hay'ati " kabi jamoaviy birlashmalar bo‘lishi kerak. Alloh taolo aytadi:

وَلْتَكُن مِّنكُمْ أُمَّةٌ يَدْعُونَ إِلَى ٱلْخَيْرِ وَيَأْمُرُونَ بِٱلْمَعْرُوفِ وَيَنْهَوْنَ عَنِ ٱلْمُنكَرِ وَأُوْلَٰٓئِكَ هُمُ ٱلْمُفْلِحُونَ

"Sizlardan yaxshilikka chaqiradigan, amri ma'ruf, nahyi munkar qiladigan bir ummat bo'lsin. Ana o'shalar, o'zlari najot topguvchilardir" (Oli imron. 104)

Yahshilikka chaqirib turuvchi jamoa bo'lmasa, dunyoda ezgulik qolmaydi. Ma'rufga, ya'ni, fazilat, haqiqat, yaxshilik va adolatga buyurib, munkardan, ya'ni razolat, botillik, zulm va yomonlikdan qaytarib turadigan jamoa bo'lmasa, hech bir qavm, hech bir ummat najot topa olmaydi.

Faqat fuqarolarning huquq va erkinliklari Islom doirasidan chiqmasligi shart qilinadi. Va islomga zid bo‘lgan huquq va erkinliklardan qaytaradigan jamoat birlashmalari tuzilaveradi.

4. "..urushni targ‘ib qiluvchi jamoat birlashmalari taqiqlanishi.."

Urush deganda musulmonlar o‘rtasida urush chiqarish, yoki bir davlat bayrog‘i ostida kelishib yashovchi musulmonlar va ahli zimma o‘rtasida urush chiqarish qasd qilinsa, bu to‘g'ri bo'ladi. Bunday fitnachilik yahudiylar sifati. Ular haqida Alloh taolo aytadi:

كُلَّمَآ أَوْقَدُوا۟ نَارًا لِّلْحَرْبِ أَطْفَأَهَا ٱللَّهُ وَيَسْعَوْنَ فِى ٱلْأَرْضِ فَسَادًا وَٱللَّهُ لَا يُحِبُّ ٱلْمُفْسِدِينَ

" Ular qachon urush olovini yoqsalar, Alloh o'chirar. Ular yer yuzida fasod qilib yurarlar. Alloh fasod qilguvchilarni sevmas" (Moida.64)

Ammo hech kim bilan urishmaslik ma'nosida urushga mutlaq ta'qiq qo‘yish esa to'g'ri emas. (Bu haqida batafsil ma'lumot uchun 17-modda sharhiga qarang)

Xususan, dushman bosib kelgach, har qanday davlat urushga targ‘ib qilishga majbur bo‘ladi. Ammo avvaldan bunday jamoa shakillantirilmagan bo'lsa, odamlar bir-ikki og'iz so‘z bilan jangga otlanib qolmaydi.

Shuning uchun Alloh taolo Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga jangga targ‘ib qilishni buyuradi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّبِيُّ حَرِّضِ ٱلۡمُؤۡمِنِينَ عَلَى ٱلۡقِتَالِۚ إِن يَكُن مِّنكُمۡ عِشۡرُونَ صَٰبِرُونَ يَغۡلِبُواْ مِاْئَتَيۡنِۚ وَإِن يَكُن مِّنكُم مِّاْئَةٞ يَغۡلِبُوٓاْ أَلۡفٗا مِّنَ ٱلَّذِينَ كَفَرُواْ بِأَنَّهُمۡ قَوۡمٞ لَّا يَفۡقَهُونَ.

" Ey Nabiy, mo'minlarni jangga chorla! Agar sizdan yigirmata sabrli bo'lsa, ikki yuztani yengadir. Agar sizdan yuzta bo'lsa, kufr keltirganlardan mingtasini yengadir. Bu ular tushunmaydigan qavm bo'lganlaridandir" (Anfol.65)

Qur'on va sunnatda jangga targ‘ib shu darajada ko‘pligidan har qanday hadis to‘plamlariga qarasak, alohida "Jihod kitobi" borligini topamiz.

Oyni etak bilan yopib bo‘lmaganidek, islomdagi bu oyat -hadislarni yashirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni to'g'ri o'rganib, odamlarga to'g'ri o‘rgatish va amal qilish kerak.

5. "..ijtimoiy, milliy, irqiy adovatni targ‘ib qiluvchi jamoatlar tuzish.."

Islomda bu shaklda bo‘linishlar qaytariladi. Alloh taolo aytadi:

إِنَّ هَٰذِهِۦٓ أُمَّتُكُمۡ أُمَّةٗ وَٰحِدَةٗ وَأَنَا۠ رَبُّكُمۡ فَٱعۡبُدُونِ

Albatta, sizning ushbu ummatingiz bir ummatdir va Men sizning Robbingizman. Bas, Mengagina ibodat qiling.

وَتَقَطَّعُوٓاْ أَمۡرَهُم بَيۡنَهُمۡۖ كُلٌّ إِلَيۡنَا رَٰجِعُونَ

Ular esa ishlarini parchaladilar. Barchalari Bizga qaytuvchidirlar. (Anbiyo.92-93)

Islom insoniyatni shakli, millatiga qarab ajratmasligi, insonlar faqat taqvosi bilan ajralishi haqida avval dalillarni aytib o‘tdik. (18-modda sharhiga qarang)

Sahobalardan Muhojir va Ansorlar bir-birlari bilan urishib ketganda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

دَعُوها فإنَّها مُنتنةٌ

"Sassiq millatchilik da'vosini qo‘yinglar!" (Buxoriy rivoyati)

Shunga binoan bunday maqsadlarda bo‘linish albatta, islomda ham ta'qiqlanadi.

6. "..diniy adovatni targ‘ib qiluvchi jamoatlar taqiqlanadi.."

Agar bir davlat bayrog‘i ostida yashovchi musulmon va ahli zimma o'rtasida adovat fitna qo‘zg‘atishga ta'qiq qo'yish qasd qilingan bo‘lsa, bu to‘g'ri.

Ammo diniy bag'rikenglikdan maqsad, boshqa dindagi kofirlarni mutlaqo yomon ko‘rmaslik bo'lsa, bu gaplar to'g‘ri emas. Chunki islomda kofirni yomon ko‘rish Allohning buyrug'idir.

Alloh ta'olo Qur’onda uch o‘rinda Tavba surasi 73 va 123-oyatlarida hamda Tahrim surasi 9-oyatida kofir va munofiqlarga dag'al bo‘lishimizga amr qilgan.

Al-Fath surasining 29-oyatida esa sahobalarning kofirlarga qattiqqo'ligini maqtagan.

مُّحَمَّدٌ رَّسُولُ ٱللَّهِ وَٱلَّذِينَ مَعَهُۥٓ" أَشِدَّآءُ عَلَى ٱلْكُفَّارِ رُحَمَآءُ بَيْنَهُمْ

"Muhammad Allohning Rasulidir. U bilan birga bo'lganlar kofirlarga shiddatli, o'zaro rahmdildirlar "

Yana Alloh ta'olo aytadi :

لَّا تَجِدُ قَوْمًا يُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ يُوَآدُّونَ مَنْ حَآدَّ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ وَلَوْ كَانُوٓاْ ءَابَآءَهُمْ أَوْ أَبْنَآءَهُمْ أَوْ إِخْوَٰنَهُمْ أَوْ عَشِيرَتَهُمْ أُوْلَٰٓئِكَ كَتَبَ فِى قُلُوبِهِمُ ٱلْإِيمَٰنَ وَأَيَّدَهُم بِرُوحٍ مِّنْهُ وَيُدْخِلُهُمْ جَنَّٰتٍ تَجْرِى مِن تَحْتِهَا ٱلْأَنْهَٰرُ خَٰلِدِينَ فِيهَا رَضِىَ ٱللَّهُ عَنْهُمْ وَرَضُواْ عَنْهُ أُوْلَٰٓئِكَ حِزْبُ ٱللَّهِ أَلَآ إِنَّ حِزْبَ ٱللَّهِ هُمُ ٱلْمُفْلِحُونَ

Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan qavmning Allohga va Uning Rasuliga dushmanlik qiluvchilarga do'stlik qilganlarini topmaysan. Hatto

u(dushman)lar o'z otalari, bolalari, aka-ukalari yoki qarindoshlari bo'lsa ham. Alloh undoq kishilarning qalblarida iymonni sobit qilgan, ularni O'z huzuridan bir ruh bilan qo'llagandir. Va ularni ostidan suvlar oqib turgan jannatlarga kiritadir. Unda abadiy qolurlar. Alloh ulardan rozi bo'ladir. Ular Allohdan rozi bo'ladir. Ana o'shalar, Allohning firqasidirlar. Ayo, ogoh bo'linglar, albatta, Allohning firqasi, ha, o'shalar yutuvchilardir. (Mujadala.22)

Keyin biz ularni yaxshi ko'rsak ham, ular hech qachon bizni yaxshi koʻrmaydi.

Bu haqida Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا تَتَّخِذُواْ بِطَانَةً مِّن دُونِكُمْ لَا يَأْلُونَكُمْ خَبَالًا وَدُّواْ مَا عَنِتُّمْ قَدْ بَدَتِ ٱلْبَغْضَآءُ مِنْ أَفْوَٰهِهِمْ وَمَا تُخْفِى صُدُورُهُمْ أَكْبَرُ قَدْ بَيَّنَّا لَكُمُ ٱلْءَايَٰتِ إِن كُنتُمْ تَعْقِلُونَ

"Ey iymon keltirganlar, o'zingizdan boshqadan (kofirlardan) sirdosh (yaqin) tutmang. Ular sizga yomonlik qilishini qo'ymaslar. Mashaqqatda qolishingizni xohlarlar. Dushmanliklari og'izlaridagi (so'zlari)dan bilinib turibdi. Dillarida maxfiy turgani yana ham kattaroq. Agar aql yuritadigan bo'lsangiz, biz sizlarga oyat-belgilarni bayon qilib bo'ldik"

هَٰٓأَنتُمْ أُوْلَآءِ تُحِبُّونَهُمْ وَلَا يُحِبُّونَكُمْ وَتُؤْمِنُونَ بِٱلْكِتَٰبِ كُلِّهِۦ وَإِذَا لَقُوكُمْ قَالُوٓاْ ءَامَنَّا وَإِذَا خَلَوْاْ عَضُّواْ عَلَيْكُمُ ٱلْأَنَامِلَ مِنَ ٱلْغَيْظِ قُلْ مُوتُواْ بِغَيْظِكُمْ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌۢ بِذَاتِ ٱلصُّدُورِ

"Hoy sizlar! Ularni yaxshi ko'rasizlar-u, ular sizni yaxshi ko'rmaydilar. Sizlar kitobning hammasiga iymon keltirasizlar-u, ular sizlarni ko'rganda, iymon keltirdik, derlar, ammo holi qolganlarida, sizlarga bo'lgan qattiq achchiqlaridan barmoq tishlarlar. Sen: «Achchiqlaring bilan o'lib ketinglar», deb ayt. Albatta, Alloh dillarni egallagan narsalarni biluvchidir». (Oli imron. 118-119)

Islomda Alloh uchun yaxshi koʻrish va Alloh uchun uning dushmaniga adovat qilish iymonning eng mustahkam bog'ichidir. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

أوثَقُ عُرَى الإيمانِ الحبُّ في اللهِ والبُغضُ في اللهِ

"Iymon bog'ichlarining eng mahkami Alloh yoʻlida yaxshi koʻrish va Alloh yoʻlida yomon koʻrish " (Ahmad rivoyati)

Har qanday kishi birov uning ota-onasiga dushman bo'lsa, uni o‘ziga dushman deb biladi. Unda bizni yaratgan Allohga dushman bo‘lgan kofirga qanday qilib diniy adovat qilmasligimiz mumkin bo'ladi?!

Xulosa qilib aytganda, "diniy adovatni targ‘ib qiluvchi jamoatlar tuzish mumkin emas " deyish “haqqoniy musulmonlar jamoasi bo‘lishi mumkin emas” deyishdek gap. Shuning uchun bu qonun to'g'ri emas.

7."..xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi.."

Islomda shuning uchun zino, aroq, qimor kabi fahshlar harom qilingan. Ayollar ko‘cha-kuyda yarim-yalang‘och yurishi taqiqlangan.

Alloh taolo mast qiluvchi ichimliklar va qimorlar ortidan kelib chiqadigan zararlar haqida aytadi :

إِنَّمَا يُرِيدُ ٱلشَّيْطَٰنُ أَن يُوقِعَ بَيْنَكُمُ ٱلْعَدَٰوَةَ وَٱلْبَغْضَآءَ فِى ٱلْخَمْرِ وَٱلْمَيْسِرِ وَيَصُدَّكُمْ عَن ذِكْرِ ٱللَّهِ وَعَنِ ٱلصَّلَوٰةِ فَهَلْ أَنتُم مُّنتَهُونَ

"Albatta, shayton xamr va qimor tufayli oralaringizga adovat va yomonlik solishni hamda sizlarni Allohning zikridan va namozdan to'sishni xohlaydi. Endi to'xtarsizlar?!" (Moida.91)

Alloh taolo bu ikki narsani — xamr va qimorni «ifloslik va shaytonning ishi», deb atamoqda. Alloh O'z bandalariga mehribon bo'lgani uchun ifloslik va shaytonning ishidan qaytaradi. Nopok taomlarni zararli bo'lgani uchun harom qilganidek, iflos ishlarni ham bandalariga zararli bo'lgani uchun harom qiladi. Ushbu oyati karimada zikr qilingan aroq bilan qimorning zararlaridan yana biri–ular odamlarni Allohning zikridan va namozdan to'sishi. Bu ma'lum va tushunarli hol. Aroqxo'rning aroq ichishining o'zi Allohni eslamasligiga dalil. Ichib mast bo'lib olgandan keyin esa, umuman esga olmaydi. Namoz ham, boshqa ishlar qatori, aroqxo'rning esidan chiqadi. Shuningdek, qimorga berilib ketgan qimorboz Allohning zikrini ham, namozni ham unutadi. Bu narsa aroq va qimor keltiradigan zararlarning eng kattasidir. Boshqa jinoyatlar shu unutishdan kelib chiqadi.

Zino va fahsh ortidan kelib chiqadigan zararlar haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

لم تظهَرِ الفاحشـةُ في قومٍ قطُّ حتَّى يُعْلِنوا بها، إلَّا فشـا فيهم الطَّاعونُ والأوجاعُ الَّتي لم تكُنْ مضَـتْ في أسلافِهم الَّذين مَضَوا قبلَهم

"Qaysiki qavm ichida fahsh zohir bo'lib oshkoraga aylansa, albatta ular ichida ulardan avvalgi o'tmishlarida bo‘lmagan vabo va kasalliklar tarqaydi" (Ibn Moja rivoyati)

Bugun fahsh va buzuqliklar ortidan OITS va boshqa o‘tmishda yo‘q kasalliklar kelib chiqqani ushbu hadisning tasdig‘idir.

Shunga binoan xalq orasida aroqxonalar, tungi klublar, barlar, qimorxona va kazinolar kabi noshar’iy jamoat joylariga taqiq qo‘yilishi lozim. Alloh taolo aytadi:

إِنَّ ٱلَّذِينَ يُحِبُّونَ أَن تَشِيعَ ٱلْفَٰحِشَةُ فِى ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَهُمْ عَذَابٌ أَلِيمٌ فِى ٱلدُّنْيَا وَٱلْءَاخِرَةِ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

"Albatta, iymon keltirganlar ichida fahsh tarqalishini yaxshi ko'radiganlarga bu dunyoyu oxiratda alamli azob bordir. Alloh biladir, sizlar bilmassizlar" (Nur.19)

8. "..shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning faoliyati taqiqlanadi.."

Agar davlat Allohning qonunlari ila boshqarilsagina bunday deyish to‘g'ri bo'ladi. Chunki sahobalar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘rashdi:

"افلا ننابذهم بالسيف يا رسول الله؟"

"(Zolim amirlarga) qilich bilan qarshi chiqmaylikmi, Ya Rasulullоh? "

Rasulullоh aytdilar :

"Yo‘q, modomiki, namoz o'qisalar" boshqa rivoyatda "Modomiki, sizlarni Allohning kitobi bilan boshqarsalar " dedilar .(Muslim rivoyati)

Agar davlat Allohning kitobi ila boshqarilmasa, unday davlatga qarshi harbiylik islomdagi eng oliy ibodat. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

ذروةُ سنامُ الإسلامِ الجهادُ في سبيلِ اللهِ لا ينالُه إلا أفضلُهم

"Islomning eng yuqori cho‘qqisi Alloh yo‘lida jihod qilishdir. Unga odamlarning eng afzaligina erishadi" (Tabaroniy rivoyati)

9. "..milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.."

Islomda millatchilikka targ‘ib qilish qaytarilgani haqida yuqorida aytib o‘tdik. Diniy ruhdagi siyosiy partiya mavzusiga ham ko‘p to‘xtaldik. Islomda Allohning jamoasi turli firqalarga bo'linmaydi.

Alloh taolo aytadi:

وَمَن يَتَوَلَّ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ وَٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ فَإِنَّ حِزْبَ ٱللَّهِ هُمُ ٱلْغَٰلِبُونَ

" Kim Allohni, Uning Payg'ambarini va iymon keltirganlarni valiy (do'st) qilib olsa, bas, albatta, Allohning hizbi (jamoasi)–ana o'shalar g'oliblardir" (Moida.56)

Undan boshqalar shaytonning jamoasi hisoblanadi.

Alloh taolo aytadi:

ٱسْتَحْوَذَ عَلَيْهِمُ ٱلشَّيْطَٰنُ فَأَنسَىٰهُمْ ذِكْرَ ٱللَّهِ أُوْلَٰٓئِكَ حِزْبُ ٱلشَّيْطَٰنِ أَلَآ إِنَّ حِزْبَ ٱلشَّيْطَٰنِ هُمُ ٱلْخَٰسِرُونَ

Shayton ularni egallab olgan va Allohning zikrini unutdirgan. Ana o'shalar, shayton firqasidirlar. Ayo, ogoh bo'linglar, shayton firqasi, ha, o'shalar, yutqazuvchidirlar. (Mujadala.19)

(Ushbu mavzuda batafsil ma'lumot uchun 34-modda sharhiga qarang)

10. "..Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.."

Bu qonun ham davlat islom qonunlari bilan boshqarilganda to'g'ri bo'ladi.

Islomga qarshi xoh maxfiy, xoh oshkora tashkilotlar tuzish taqiqlanadi. Qur'onda bunday maxfiy tashkilotlar shayton amali deyiladi . Alloh taolo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ إِذَا تَنَٰجَيْتُمْ فَلَا تَتَنَٰجَوْاْ بِٱلْإِثْمِ وَٱلْعُدْوَٰنِ وَمَعْصِيَتِ ٱلرَّسُولِ وَتَنَٰجَوْاْ بِٱلْبِرِّ وَٱلتَّقْوَىٰ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَ ٱلَّذِىٓ إِلَيْهِ تُحْشَرُونَ

"Ey iymon keltirganlar! Qachon sirli suhbat qilsangiz, gunoh, dushmanlik va Payg'ambarga ma'siyatga sirli suhbat qilmangiz. Yaxshilik va taqvoga sirli suhbat qilingiz. Huzuriga to'planib boradiganingiz Allohga taqvo qilingiz.

إِنَّمَا ٱلنَّجْوَىٰ مِنَ ٱلشَّيْطَٰنِ لِيَحْزُنَ ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَلَيْسَ بِضَآرِّهِمْ شَيْـًٔا إِلَّا بِإِذْنِ ٱللَّهِ وَعَلَى ٱللَّهِ فَلْيَتَوَكَّلِ ٱلْمُؤْمِنُونَ

Albatta, iymonlilarni ranjitish uchun qilingan sirli suhbat shaytondandur, bu sirli suhbatlar u(mo‘min)larga hech zarar yetkazmas. Magar Allohning izni bilan. Mo'minlar Allohning O'ziga tavakkal qilsinlar" (Mujadala, 9-10)

Ammo davlat islom qonunlariga muvofiq boshqarilmasa, Allohning diniga amal qilish, uni tatbiq qilish yo‘lidagi barcha faoliyatlar maxfiy bo‘lishiga Islom buyuradi. Shuning uchun Islom avvalida da'vat maxfiy bo‘ldi, kunduzgi namozlar maxfiy o‘qildi, iymonga kirgan sahobalarga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam iymonlarini yashirishni buyurdilar, ansorlar bilan uchrashuvlari, ulardan bay'at olishlari maxfiy bo‘ldi, hijrat maxfiy qilindi, jangga ketishlari, hujum boshlashlari maxfiy edi... bundan boshqa yuzlab misol keltirish mumkin.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

استعينوا على إنجاح الحوائج بالكتمان فإن كل ذي نعمة محسود

"Hojatlaringni muvaffaqiyatli bitirish uchun maxfiylikdan foydalaninglar. Chunki har qanday ne'mat egasiga hasad qilinadi" (Bayhaqiy rivoyati)

Xulosa:

57-modda

Islomiy tuzumni o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, Allohning qonunlari ustuvorligi, musulmonlar yaxlitligi va xavfsizligiga, Islomda ularga belgilagan huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, musulmonlar o'rtasida urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy adovatni targ‘ib qiluvchi, musulmonlar va musulmon bo‘lmagan bir davlat fuqarolari o‘rtasida fitna va urushni targ‘ib qiluvchi , xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Islomga zid tarzda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

58-modda.

Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sharh:

1. Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Yuqorida 56-57-moddalarda jamoat birlashmalari tuzilishi va taqiqlanishi holatlari haqida batafsil aytib o‘tdik.

Agar jamoat birlashmalari Islomda ijozat berilgan ko‘rinishda bo'lsa, davlat albatta ularning faoliyatlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib beradi va ularning huquqlarini himoya qiladi. Agar Islomga zid ko‘rinishdagi birlashmalar bo'lsa ularga ta'qiq qo‘yiladi va hech qanday huquqlari himoya qilinmaydi.

Bu ma'noga Allohning ushbu so‘zi dalolat qilishini aytib o‘tdik:

وَتَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡبِرِّ وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ

Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli zotdir. (Moida.2)

Oyatdagi ".. hamkorlik.." so‘zi jamoaviy birlashish ma'nosiga ishora qiladi.

2. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Islomda davlat din bilan chambarchas bog'liq. Uning har bir qonuni davlat qonuniga aylanadi

Ma'lumki hayotda islom aralashmaydigan soha yo‘q. Sahobiy Salmon roziyallohu anhuga aytishgan ekan:

عن سلمان -رضي الله عنه-، قال: قيل له: قد عَلَّمَكُمْ نَبِيُّكُم -صلى الله عليه وسلم- كل شيء حتى الخِرَاءَةَ، قال: فقال: أجَل «لقد نَهَانا أن نَستقبل القِبْلَة لِغَائِطٍ، أو بَول، أو أن نَسْتَنْجِيَ باليمين، أو أن نَسْتَنْجِيَ بِأَقَلَّ من ثلاثة أحْجَار، أو أن نَسْتَنْجِيَ بِرَجِيعٍ أَو بِعَظْمٍ».

"Sizlarga paygambaringlar hamma narsani ta'lim bergan ekan-da ? Hatto hojatga qanday kirishni ham ta'lim berganmi ? " deyishdi**.** Shunda u kishi aytdilar :

Ha shunday! Hojat yoki peshobda qiblaga orqa yoki oldimizni qaratib o'tirishdan, o‘ng qo‘l bilan tozalanishdan, uch toshdan kami bilan tozalanishdan, tezak yoki suyak bilan tozalanishdan qaytardilar” (Muslim rivoyati)

Demak, islom dini kishini hojatda qanday o'tirishigacha ta'lim bergan ekan, siyosiy masalalarini qoldirib ketmagan , albatta !

Shunga binoan islom bilan boshqariladigan davlat har qanday jamoat birlashmalarini hatti harakatlari dinga muvofiq yoki muxolifligi ustidan nazorat olib boradi. Agar islomda ijozat berilgan tarzda faoliyat olib borishsa shundagina davlat ularga aralashmaydi. Va ular ham davlat organlarini faoliyatiga aralashmaydilar.

Xulosa:

58-modda

Davlat islomiy shartlarga muvofiq faoliyat olib boruvchi jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi..

Jamoat birlashmalari Islomga muvofiq faoliyat olib borganda, davlat organlari va mansabdor shaxslar ularning faoliyatiga aralashishiga, shuningdek

jamoat birlashmalarining Islomga muvofiq faoliyat olib borayotgan davlati organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

59-modda.

Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a’zo bo‘lish ixtiyoriydir.

Sharh;

Kasaba uyushmalari haqida 34-va 56-moddalar sharhida to‘xtalib o‘tdik. Yaxshilikka yordam maqsadida tashkil qilingan kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishi ham o‘sha asoslarga ko‘ra ijozat beriladi. Ularga a'zo bo‘lish ixtiyoriyligi ham shunday.

Xulosa :

59-modda

Shar'iy me'yorlar asosida faoliyat olib boruvchi kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a’zo bo‘lish ixtiyoriydir.

60-modda.

Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta’minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

Sharh:

Islom davlatida siyosiy muxolifat partiyalar bo‘lishi mumkin emasligi haqida 12- va 34-moddalarda aytib o‘tdik.

Islom dini ahkomlari har qanday tabaqa va guruhlarning haq-huquqlarini himoya qilishga kifoya qiladi.

Ular Islom davlati adolati ostida hayot kechiradilar. Shunga binoan ushbu 60-moddada aytib o‘tilgan qonunlarga ehtiyoj qolmaydi.

Faqat siyosiy partiyalar o‘rniga, Islom davlatida yashovchi boshqa din vakillarini qo‘yish mumkin. Ular o‘zlari saylagan vakillari orqali davlat boshqaruvida ishtirok etadilar. Ularning davlat boshqaruvida ishtirok etish shartlarini 32-moddada aytib o‘tdik.

Boshqa din vakillari o‘zlarining saylagan vakillari orqali davlatga hisobot berib turadilar.

Xulosa:

60-modda

Musulmonlar bilan yashovchi boshqa din vakillari shariat ijozat bergan doirada davlat boshqarishda ishtirok etadilar. Ular o‘zlari saylagan vakillari orqali davlat organlariga hisobot berib turadilar.

61-modda.

Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar.

Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

Sharh:

Dinni davlatdan ajratish huddi jasadni ruhdan ajratishdek gap. Hech qanday davlatni dinsiz boshqarib bo‘lmaydi. Va hech qaysi davlat diniy tashkilotlarga aralashmay boshqarilmaydi.

Din odamlar o‘ylagandek faqat masjidlar va janozalar ahkomlaridan iborat emaski, davlat unga aralashmaydi deb rozi bo‘lsak !

Din to‘liq siyosat! U beshikdan tobutgacha hayot qonunlari va undan keyingi hayot xabarlaridan iborat . Davlat diniy tashkilotlar va birlashmalarga aralashmasa, nega muftiy, imomlar , noiblar davlat tomonidan saylanadi?

Davlat ularning faoliyatiga aralashmasa, nega xutbalarda nima aytilishi mumkin, nimalar mumkin emasligini davlat belgilab beradi ?

Davlat ularning faoliyatiga aralashmasa, nega hayitlar, Ramazon oyi davlat tomonidan belgilanadi?

Demak ochig'ini aytganda bu gaplarga hech kim amal qilmaydi.

Dinni davlatdan ajratish siyosati aslida bizning o‘lkalarga g'arbdan kirib keldi.

O‘rta asrlarda g‘arbliklar o‘zlarining buzulgan botil dinlari, nasroniylikni zamonaviy dunyoga yaroqsizligini tushunib yetgach, uning faoliyatini siyosatdan ayirib cherkovlarga qaydlab qo‘ydilar. Haqiqatdan ularning o‘zgargan va amaldan qolgan dinlari hozirgi zamon talablariga javob bermas edi. Asli shuning uchun ham Alloh dinni yangilab qiyomatgacha yaroqli Qur'on tushirgan edi. Nasroniylar yoki boshqalar botil dini hayotga yaroqsiz deb topilib davlatdan ajratilsa, musulmonlar Islomni ham shunday qilishi kerak degani emas. Alloh ta'olo aytadi:

وَلَا يَأْتُونَكَ بِمَثَلٍ إِلَّا جِئْنَٰكَ بِٱلْحَقِّ وَأَحْسَنَ تَفْسِيرًا

Ular senga biror masal keltirsalar, Biz, albatta, senga haqni va go'zal sharhini keltiramiz.

(AL-Furqon.33)

Demak odamlar qanday haq qonun o‘ylab topsalar Alloh uni avvaldan bizga kitobida ishora yoki izoh berib qo‘ygan bo‘ladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va u kishidan keyingi xalifalar siyratiga qarasak, ular diniy shaxslar edi. Ammo o'z navbatida davlat ishlarini hammasini ular boshqarar edilar. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam minbarda imom, jangda qo‘mondon, boshqaruvda siyosatchi edilar. Sahobalar ham, ulardan keyingi salafi solihlar ham shunday. Ular dinni o‘zlariga ma'qul kelgan qismiga amal qilib, nafslariga yoqmagan jihatida uni davlatdan ajratib tashlamas edilar.

Bundaylar haqida Alloh ta'olo aytadi:

أَفَتُؤْمِنُونَ بِبَعْضِ ٱلْكِتَٰبِ وَتَكْفُرُونَ بِبَعْضٍ فَمَا جَزَآءُ مَن يَفْعَلُ ذَٰلِكَ مِنكُمْ إِلَّا خِزْىٌ فِى ٱلْحَيَوٰةِ ٱلدُّنْيَا وَيَوْمَ ٱلْقِيَٰمَةِ يُرَدُّونَ إِلَىٰٓ أَشَدِّ ٱلْعَذَابِ وَمَا ٱللَّهُ بِغَٰفِلٍ عَمَّا تَعْمَلُونَ

" Yoki kitobning ba'zisiga iymon keltirib, ba'zisiga kofir bo‘lasizmi ?! Sizlardan o'shani qilganlarning jazosi bu dunyoda faqat rasvo bo'lishlikdir, qiyomat kunida esa, eng shiddatli azobga qaytarilurlar. Alloh qilayotganingizdan g'ofil emas" (Baqara.85)

Ilmoniylik siyosati ayni shu ma'no, din masjidda, siyosat esa parlamentda degan da'vo ustiga qurilgan.

Dinni mutlaqligicha siyosatdan ayirib tashlash nari tursin uning ba'zi qismini ajratib qo‘yishdan Alloh ogohlantirgan:

وَأَنِ ٱحْكُم بَيْنَهُم بِمَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ وَلَا تَتَّبِعْ أَهْوَآءَهُمْ وَٱحْذَرْهُمْ أَن يَفْتِنُوكَ عَنۢ بَعْضِ مَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ إِلَيْكَ فَإِن تَوَلَّوْا۟ فَٱعْلَمْ أَنَّمَا يُرِيدُ ٱللَّهُ أَن يُصِيبَهُم بِبَعْضِ ذُنُوبِهِمْ وَإِنَّ كَثِيرًا مِّنَ ٱلنَّاسِ لَفَٰسِقُونَ

Ular orasida Alloh nozil etgan narsa ila hukm yurit. Ularning xohishlariga ergashma va ular seni Alloh senga nozil qilgan BA'ZI narsada fitnaga solishlaridan ham hazir bo'l. Agar yuz o'girsalar, bilki, Alloh ularni ba'zi gunohlari tufayli musibatga solishni iroda qilibdi. Albatta, odamlardan ko'plari fosiqlardir. (Moida.49)

Shuningdek ushbu moddadagi "Diniy tashkilotlar va birlashmalar qonun oldida tengdir" degan so‘zga qaraylik.

Agar Inson jinoyat qilsa, musulmon yoki kofirligidan qat'iy nazar unga jazo bir xil. Bu jihatdan ular haqiqatdan qonun oldida tenglar. O'g'ri dinidan qat'iy nazar qo'li kesiladi, zinokor dinidan qat'iy nazar darralanadi yoki toshbo‘ron qilinadi va hokazo..

Chunki Alloh aytadi:

لَّيْسَ بِأَمَانِيِّكُمْ وَلَآ أَمَانِيِّ أَهْلِ ٱلْكِتَٰبِ مَن يَعْمَلْ سُوٓءًا يُجْزَ بِهِۦ وَلَا يَجِدْ لَهُۥ مِن دُونِ ٱللَّهِ وَلِيًّا وَلَا نَصِيرًا

(Din) Sizlarning xom xayolingizcha ham emas, ahli kitoblarning xom xayolicha ham emas. Kim yomonlik qilsa, uning jazosini tortadir. Va o'ziga Allohdan o'zga do'st ham, yordamchi ham topa olmas. (Niso.123)

Demak jinoyat qilgan kishi qonun oldida barobar.

Ammo ular e'tiqodi, qadr-qiymati jihatidan hech qachon teng emas. Biz musulmonni jinoyatini yomon ko‘ramiz, o'z navbatida uni baribir kofirdan yaxshi deb bilamiz. Kofirning yaxshiligini hurmat qilamiz. O'z navbatida baribir musulmondan yomon deb e'tiqod qilamiz.

Chunki Alloh Qur'onning bir qancha o‘rinlarida ularni teng emas deydi:

أَفَنَجْعَلُ ٱلْمُسْلِمِينَ كَٱلْمُجْرِمِينَ

Musulmonlarni jinoyatkorlarga o'xshatib qo'yarmidik?!

مَا لَكُمْ كَيْفَ تَحْكُمُونَ

Sizlarga nima bo'ldi, qanday hukm chiqaryapsizlar?! (Qalam.35-36)

Qanday qilib musulmonlar muftiysi va nasroniylar popi teng bo‘lishi mumkin?

Qanday qilib masjid va cherkov teng bo‘lishi mumkin?

Qanday qilib Alloh yagona degan so‘zlar yangraydigan minoralar bilan , Alloh uchta ilohning uchunchisidir degan xoch teng bo‘lishi mumkin?

Sizlarga nima bo'ldi, qanday hukm chiqaryapsizlar?!

Islomda davlat diniy birlashmalar faoliyatiga aralashadi. Ularning ixtiloflarini yechib beruvchilar davlat boshliqlari bo'ladi. Musulmonlar bilan boshqa dindagilar nizolari bo‘lsin, yoki musulmonlarning o‘zaro ixtiloflari bo'lsin hammasi islom qonunlariga muvofiq Islomiy boshliqlarga havola qilib yechiladi.

Xulosa:

61-modda

Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlat boshqaruvida bo'lib ular qonun oldida tengdirlar. Islomda farqli o‘rinlar bundan mustasno.

Davlat diniy birlashmalarning faoliyatini Islom qonunlariga binoan boshqaradi.

62-modda.

Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo‘yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

Sharh:

Bu moddaga amal qilish uchun ham sud va uning qarorlari Islomiy bo‘lishi shart.

Xulosa :

62-modda

Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo‘yish faqat Islomiy sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

XIV bob. Oila

63-modda.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

Sharh :

1.Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir.

Jamiyat haqiqatdan oilalardan tashkil topadi. Alloh taolo aytadi :

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ إِنَّا خَلَقۡنَٰكُم مِّن ذَكَرٖ وَأُنثَىٰ وَجَعَلۡنَٰكُمۡ شُعُوبٗا وَقَبَآئِلَ لِتَعَارَفُوٓاْۚ إِنَّ أَكۡرَمَكُمۡ عِندَ ٱللَّهِ أَتۡقَىٰكُمۡۚ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٞ

Ey odamlar! Biz sizlarni bir erkak va ayoldan yaratdik va sizlarni o'zaro tanishishingiz uchun xalqlar va qabilalar qilib qo'ydik. Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir. (Hujurot.13)

Demak, xalq va qabilalar erkak ayoldan, ya'ni oiladan boshlanadi.

Yana aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ ٱتَّقُواْ رَبَّكُمُ ٱلَّذِي خَلَقَكُم مِّن نَّفۡسٖ وَٰحِدَةٖ وَخَلَقَ مِنۡهَا زَوۡجَهَا وَبَثَّ مِنۡهُمَا رِجَالٗا كَثِيرٗا وَنِسَآءٗۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَ ٱلَّذِي تَسَآءَلُونَ بِهِۦ وَٱلۡأَرۡحَامَۚ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلَيۡكُمۡ رَقِيبٗا

Ey odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkovlaridan ko'plab erkagu ayollar taratgan Robbingizdan qo'rqinglar! Nomini ishlatib bir-biringizdan so'rovda bo'ladiganingiz Allohdan va qarindoshlik (aloqalari) dan qo'rqing. Albatta, Alloh ustingizdan raqobat etuvchi zotdir. (Niso.1)

Bu oyatda ham "ikkovlaridan ko‘plab erkagu ayollar taratgan " deganda oiladan jamiyatlar kelib chiqishiga ishora qildi.

Madina aholisi Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam u yerga bormaslaridan turub iymonga kirishlariga ham musulmon oilalar sabab bo‘lgan edi. Shuning uchun islomda oilani muhofaza qilinadi.

Oila buzulishu shaytonni eng xursand qiladigan ishdir. Chunki uning ortidan jamiyat ham buziladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إنَّ إبليسَ يضعُ عرشَه على الماءِ ، ثم يبعثُ سراياه ، فأدناهم منه منزلةً أعظمَهم فتنةً ، يجيءُ أحدُهم فيقولُ : فعلتَ كذا وكذا ، فيقولُ ما صنعتَ شيئًا ، ويجيءُ أحدُهم فيقولُ : ما تركتُه حتى فرَّقتُ بينَه وبين أهلِه ، فيُدْنِيه منه ، ويقولُ : نعم أنتَ

"Iblis taxtini suv ustiga o‘rnatib so‘ng lashkarlarini jo‘natadi. Ularni iblisga eng yaqini fitnasi eng kattasi bo‘ladi. Birlari kelib falon-falon ishlar qildim desa, iblis unga "hech narsa qilmabsan" deydi. Shunda birlari kelib falon kishini hech tinch qo‘ymadim oxiri u bilan oilasini ajratdim desa, iblis unga: "sen qanday ham yaxshisan" deydi. (Muslim rivoyati)

2. Oila jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Islomda ham oilani muhofaza qilish jamiyatga yuklangan vazifa.

Bunga bir misol er-xotinni yarashtirish oyati. Alloh taolo aytadi:

وَإِنْ خِفْتُمْ شِقَاقَ بَيْنِهِمَا فَٱبْعَثُواْ حَكَمًا مِّنْ أَهْلِهِۦ وَحَكَمًا مِّنْ أَهْلِهَآ إِن يُرِيدَآ إِصْلَٰحًا يُوَفِّقِ ٱللَّهُ بَيْنَهُمَآ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلِيمًا خَبِيرًا

"Agar ikkovlarining (er-xotinning)oralari buzilishidan qo'rqsangiz, erning ahlidan bir hakam va xotinning ahlidan bir hakam ajrating. Agar ular islohni iroda qilsalar, Alloh er-xotinning orasini muvofiqlashtiradi. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir" (Niso.35)

Oyatda aytilgan hakamlar vazifasi oilani muhofaza qilishdan iborat. Er-xotin muammolarini o‘zaro hal qilish imkonsiz bo‘lib qolganda ular ishga solinadi.

3. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

Islomda ham hech kimni majburlab nikohlash yo‘q.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

لا تُنكحُ الثيِّبُ حتى تُستأمرَ ، و لا تُنكحُ البكرُ حتى تُستأذنَ ، و إذْنُها الصموتُ

"Juvondan amr olinmaguncha uni nikohlanmaydi. Va bokiradan izn olinmaguncha uni nikohlanmaydi. Uning izni sukut saqlashidir" (Buxoriy rivoyati)

Juvon avval turmush ko‘rgani sabab bokiraga nisbatan roziligi ochiq amr bilan bo‘lishi shart qilindi. Bokira qiz esa tortinishi sabab unda sukut roziligi alomati qilindi.

Yana bir hadisda bir ayol Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga otasi uni roziligisiz nikohlaganidan shikoyat qilib keladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ayolga nikohni bekor qilish ixtiyorini topshirganlar. Shunda ayol aytadi : "Men otamning qaroriga roziman, faqat ayollarga ushbu huquqlarini bildirib qo‘yishni istadim " (Ahmad rivoyati)

Demak tomonlar norozi bo‘lgan nikoh sahih bo‘lmaydi.

4. Teng huquqliligiga asoslanadi.

Islomda erkak-ayol huquqlari aslida tengligi, faqat boshqaruv erkaklarga topshirilgani haqida 46-modda sharhida aytib o‘tdik.

Bu ma'noga Allohning so‘zi dalolat qiladi:

وَلَهُنَّ مِثْلُ ٱلَّذِى عَلَيْهِنَّ بِٱلْمَعْرُوفِ وَلِلرِّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ وَٱللَّهُ عَزِيزٌ حَكِيمٌ

Va u(ayol)larning burchlari muqobilida teng haqlari ham yaxshilik ila bordir. Va erkaklarga ulardan ustun daraja bordir. Alloh aziz va hakimdir. (Baqara.228)

Shuningdek, ayollar odatda hissiyot bilan qaror qabul qilishlari sabab, taloq huquqi ularga berilmadi. Alloh ta'olo qur'onda erkaklar haqida "**Nikoh aqdi qo‘lida bo‘lganlar**" (Baqara.237) deydi.

Bundan nikohni bekor qilish (taloq) haqqi erkaklar qo‘lida ekaniga dalil chiqadi.

Ayollarga esa eridan ajralish uchun xulu' haqqi berildi. Unga ko‘ra eriga moliyaviy harajatlarini qaytarish orqali nikohni buzuladi.

(Xulu' haqida fiqh kitoblariga qarang)

Xulosa :

63-modda

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi. Oila boshqaruvi va taloq qilish erkaklar qo‘lida. Ayollar xulu' orqali ajrashishga haqlidirlar.

64-modda.

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

Sharh:

1. Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Islomda ham farzand tarbiyasi va ta'minoti ota-onalar zimmasida.

Ularni ta'minotidan avval tarbiyasi birinchi darajada turadi. Ota-onaning vazifasi faqat ularni boqish emas, avvalo tarbiyalash. Chunki ularning ham bizni ham rizqimizga Alloh kafil bo‘lgan. Ammo tarbiyalash esa bizning vazifamiz. Alloh taolo aytadi:

وَلَا تَقْتُلُوٓاْ أَوْلَٰدَكُمْ خَشْيَةَ إِمْلَٰقٍ نَّحْنُ نَرْزُقُهُمْ وَإِيَّاكُمْ إِنَّ قَتْلَهُمْ كَانَ خِطْـًٔا كَبِيرًا

Bolalaringizni faqirlikdan qo'rqib o'ldirmang. Biz ularni ham, sizlarni ham rizqlantiramiz. Albatta, ularni o'ldirish katta xatodir. (Isro.31)

Ularni tarbiyalash haqida Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ قُوٓاْ أَنفُسَكُمۡ وَأَهۡلِيكُمۡ نَارٗا وَقُودُهَا ٱلنَّاسُ وَٱلۡحِجَارَةُ عَلَيۡهَا مَلَٰٓئِكَةٌ غِلَاظٞ شِدَادٞ لَّا يَعۡصُونَ ٱللَّهَ مَآ أَمَرَهُمۡ وَيَفۡعَلُونَ مَا يُؤۡمَرُونَ

Ey iymon keltirganlar! O'zingizni va ahli ayolingizni yoqilg'isi odamlaru toshdan bo'lgan (do'zax) o'tidan saqlang. Uning tepasida qo'pol, darg'azab farishtalar bo'lib, ular Allohning amriga isyon qilmaslar va nimaga buyurilsalar, shuni qilurlar. (Tahrim.6)

Oyatning tafsirida Ali raziyallohu anhu aytadilar: "Ya'ni ahli oilangizga ta'lim va odob beringlar"

Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam aytadilar:

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ، وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُمْ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلِهَا وَوَلَدِهِ، وَهِيَ مَسْئُولَةٌ عَنْهُمْ، وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ، أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِه

"**Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostinglardagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga bosh va xalqidan mas'ul . Kishi o'z ahliga boshliq va ulardan mas'ul. Ayol erining uyi va farzandlariga bosh va ulardan mas'ul. Va qul ham hojasining moliga boshliq, undan mas'ul. Barchalaring boshliq va qo‘l ostidagilardan mas'uldir"** (Buxoriy-Muslim)

Faqat, ta'minot asosan erkakning, tarbiya esa asosan ayolning zimmasiga yuklangan.

Ammo ikkisi ham umuman olganda farzandlar ta'minoti va tarbiyasidan mas'ul.

Ta'minot asosan otaning zimmasida ekani haqida Alloh ta'olo aytadi :

وَٱلۡوَٰلِدَٰتُ يُرۡضِعۡنَ أَوۡلَٰدَهُنَّ حَوۡلَيۡنِ كَامِلَيۡنِۖ لِمَنۡ أَرَادَ أَن يُتِمَّ ٱلرَّضَاعَةَۚ وَعَلَى ٱلۡمَوۡلُودِ لَهُۥ رِزۡقُهُنَّ وَكِسۡوَتُهُنَّ بِٱلۡمَعۡرُوفِۚ لَا تُكَلَّفُ نَفۡسٌ إِلَّا وُسۡعَهَاۚ لَا تُضَآرَّ وَٰلِدَةُۢ بِوَلَدِهَا وَلَا مَوۡلُودٞ لَّهُۥ بِوَلَدِهِۦۚ

Kim emizishni batamom qilishni iroda qilsa, onalar farzandlarni to'liq ikki yil emizadilar. Ularni yaxshilab yedirib, kiyintirish otaning zimmasidadir. Hech bir jonga imkondan tashqari taklif bo'lmaydi. Ona ham, ota ham bolasi sababidan zarar tortmasin. (Baqara.233)

Ayol ko‘proq uy ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgani uchun unga ta'minot yuklanmaydi. Balki uni ham farzandlarini ham ta'minoti ota zimmasida.

Hatto eridan ajralgan ayollar bola emizgani sabab erlaridan haq olishlari mumkin. Alloh taolo aytadi:

فَإِنْ أَرْضَعْنَ لَكُمْ فَـَٔاتُوهُنَّ أُجُورَهُنَّ وَأْتَمِرُواْ بَيْنَكُم بِمَعْرُوفٍ

Agar sizga (farzandni) emizib bersalar, haqlarini beringlar, o'zaro yaxshilik bilan maslahat qilinglar. (Taloq.6)

Erkak ayolini ta'minlashi lozim bo'lgani uchun ayol erining molidan uning iznisiz o‘ziga va farzandlariga yetadigan miqdorda insof bilan olishiga ham ruxsat berildi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan Hind so‘radi:

Ya Rasulullоh mening erim Abu Sufyon qizg'anchiq kishi. Menga va farzandlarimga yetarlik nafaqa bermaydi. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam:

خُذي ما يَكفيكِ وولدَكِ بالمعروفِ

"Sen o‘zing va farzandlaringga yetadigan narsani insof bilan olaver" (Buxoriy va muslim)

Oilasini qarovsiz tashlab qo‘ygan erkak eng osiy kishilardan hisoblandi

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

كَفَى بِالْمَرْءِ إِثْمًا أَنْ يُضَيِّعَ مَنْ يَعُولُ

"Oilasini zoye qilish kishining gunohkorligi uchun yetarlidir" (Nasoiy)

Xayr-ehsonni avvalo oilaga qilishga buyurdilar.

وابْدَأْ بمَن تَعُولُ

"(Sadaqani)Sen o‘zingning oilangdan boshla" (Buxoriy rivoyati)

Farzandlar o‘rtasida nafaqada adolatga buyurdilar:

اتَّقُوا اللَّهَ، وَاعْدِلُوا فِي أَوْلَادِكُمْ

"Allohdan qo‘rqinglar va farzandlaringga (nafaqada)adolat qilinglar" (Muslim rivoyati)

Bular barchasi ayol va farzandlarning huquqlarini ado qilishga targ'ibdir.

2. "Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi"

(Yuqorida aytib o‘tganimizdek, boqishdan avval tarbiyalash birinchi darajaga qo‘yilsa yaxshiroq bo‘ladi.)

Yetim-yesirlarni haq-huquqini rioya qilishga chaqirishda ham Islom diniga teng keladigan nizom yo‘q.

Alloh ta'olo qur'onda 22 o‘rinda yetimlar huquqlari to'g'risida gapirgan.

Hadislarda esa undan ham ko‘p.

Yetimga qahr qilishni Alloh ta'olo kofirning alomati deydi:

أَرَءَيْتَ ٱلَّذِى يُكَذِّبُ بِٱلدِّينِ

Jazo kunini yolg'onga chiqaruvchini ko'rdingmi?

فَذَٰلِكَ ٱلَّذِى يَدُعُّ ٱلْيَتِيمَ

Ana o'sha, yetimni qo'pollik bilan haydaydir. (Maun.1.2)

Alloh ta'olo ikki buyuk payg'ambar Muso va Xizr alayhissalamlarni yetimlar uchun xizmat qildirib qo‘ydi.

Ular Allohning amri bilan buzulib yotgan devorni tiklab qo‘ydilar. Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

وَأَمَّا ٱلْجِدَارُ فَكَانَ لِغُلَٰمَيْنِ يَتِيمَيْنِ فِى ٱلْمَدِينَةِ وَكَانَ تَحْتَهُۥ كَنزٌ لَّهُمَا وَكَانَ أَبُوهُمَا صَٰلِحًا فَأَرَادَ رَبُّكَ أَن يَبْلُغَآ أَشُدَّهُمَا وَيَسْتَخْرِجَا كَنزَهُمَا

Devorga kelsak, u shahardagi ikki yetim bolaniki bo'lib, uning ostida ikkovlarining xazinasi bor edi. Ularning otalari solih odam edi. Bas, Robbing ikkovlarining voyaga etishini va xazinalarini chiqarib olishini iroda qildi. (Kahf.82)

Yetimning moliga hatto yaqinlashmanglar dedi:

وَلَا تَقْرَبُواْ مَالَ ٱلْيَتِيمِ إِلَّا بِٱلَّتِى هِىَ أَحْسَنُ حَتَّىٰ يَبْلُغَ أَشُدَّهُۥ

Yetimning moliga, toki u balog'at yoshiga yetguncha, yaqinlashmanglar Magar yaxshilik ila bo'lsa, mayli (Isro.34 va An'om.152)

Oyatda aytilgan "Magar yaxshilik ila bo'lsa mayli" deganidan maqsad , yetimning molini tijorat bilan ko‘paytirib berilsa mayli.

Ammo yetimning molini yeydiganlar esa qorniga do‘zax o‘tini yegan bo‘ladi. Alloh ta'olo aytadi:

إِنَّ ٱلَّذِينَ يَأْكُلُونَ أَمْوَٰلَ ٱلْيَتَٰمَىٰ ظُلْمًا إِنَّمَا يَأْكُلُونَ فِى بُطُونِهِمْ نَارًا وَسَيَصْلَوْنَ سَعِيرًا

Albatta, yetimlarning molini zulm ila yeganlar, qorinlarida olovni yegan bo'ladilar. Va, shubhasiz, do'zaxga kiradilar. (Niso.10)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam o‘zlari va yetimning kafili jannatda yonma-yon ekanini aytdilar :

أنا وَكافلُ اليتيمِ في الجنَّةِ كَهاتين ، وأشارَ بأصبُعَيْهِ

"Men va yetimning kafili jannatda mana bundaymiz, deb ikki barmoqlarini ishora qildilar " (Buxoriy va muslim)

Yetimga qahr qilishdan qaytarildi. Alloh taolo aytadi:

فَأَمَّا ٱلْيَتِيمَ فَلَا تَقْهَرْ

Ammo yetimga qahr qilma. (Zuho.9)

Bugun yetimxonalardagi zulm va shafqatsizliklar, ularning haqlarini yeyish hammasi ularga qarovchilarda iymon yo‘qligidan. Bu muammolarning yechimi nizom va tarbiyachilar islomiy bo‘lishida. Chunki kishida "Alloh ko‘rib turibdi" degan e'tiqod bor ekan, uni hech kim ko‘rmasa ham, kameralar yo‘q bo'lsa ham, Allohdan qo‘rqadi.

Aslida Islom tarixida shuncha urushlar bo‘lsa-da yetimxonalar yo‘q edi. Chunki musulmonlar hech qachon yetimlarni qarovsiz tashlab qo‘ymas edilar. Shuning uchun yetimxonalarga ehtiyoj ham yo‘q edi.

3. "bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi"

Bu sohada ham Islom targ‘iboti hech kimga sir emas.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam beva va miskinlarga qarab yuruvchini Alloh yo‘lidagi mujohidga tengladilar.

السَّاعي على الأرملَةِ والمسكينِ كالمُجاهدِ في سبيلِ اللهِ أو كالَّذي يصومُ النَّهارَ ويقومُ اللَّيلَ

"Beva va miskinga yuguruvchi kishi Alloh yo‘lidagi mujohid yoki kunduzlari ro‘zador kechalari qoim bo‘luvchi kishi kabidir " (Buxoriy rivoyati)

Bevalar odatda yetimlari ham bo'ladi. Shunga binoan hadis yetimlarga yelib yugurib xizmat qiluvchilarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan hadisda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam yetimga vasiylik qiluvchi kishini jannatda o‘zlari bilan yonma-yon ekanligini aytganlari ham bunga bir misol bo'ladi.

Xulosa:

64-modda

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar tarbiyalash va boqishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni , tarbiyalash, o‘qitish va boqishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

65-modda.

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Sharh:

1. "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar"

Islomda kishini nasl-nasabi va kelib chiqishiga qarab ajratilmasligi haqida 18-modda sharhida aytib o‘tdik.

Shuningdek, farzandlar o‘rtasida adolat qilish haqida ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning hadislarini aytdik:

اتَّقُوا اللَّهَ، وَاعْدِلُوا فِي أَوْلَادِكُمْ

"Allohdan qo‘rqinglar va farzandlaringga adolat qilinglar" (Muslim rivoyati)

Islom tarixiga qarasak ham, bunga ko‘plab misollar ko‘ramiz. Islomda qullikdan chiqqan kishilar, Sayfuddin Qutz kabi qo‘mondonlar boshliqlik darajasiga qadar ko‘tarildilar.

Qullikdan chiqqan olim Ato ibn Abu robah majlisida shohlarning bolasi va gadoning bolasi barobar o‘tirar edi.

Aslida Imom al-Buxoriy rahimahulloh Buxorodan surgin qilinishlarining bir sababi ham u kishi amirlarning farzandlariga ajratib dars berishdan bosh tortishlari edi. U kishi shohning bolasini gadoning bolasidan farqi yo‘qligini amaliy ko‘rsatib berish qurboni bo‘ldilar. Alloh u kishini rahmat qilsin !

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam umrlarining eng oxirida qilgan hajlarida shu ma’noni ta’kidlab aytdilar:

يَا أَيُّهَا النَّاسُ أَلَا إِنَّ رَبَّكُمْ وَاحِدٌ وَإِنَّ أَبَاكُمْ وَاحِدٌ ، أَلَا لَا فَضْلَ لِعَرَبِيٍّ عَلَى أَعْجَمِيٍّ وَلَا لِعَجَمِيٍّ عَلَى عَرَبِيٍّ وَلَا لِأَحْمَرَ عَلَى أَسْوَدَ وَلَا أَسْوَدَ عَلَى أَحْمَرَ إِلَّا بِالتَّقْوَى

"Ey insonlar bilib qo‘yinglar Robbinglar bitta va otanglar ham bitta ! Arabni ajamdan, oqni qoradan, qorani oqdan taqvodan bo'lak fazli yo‘q "

(Ahmad rivoyati)

Kishi ota-bobolari bilan maqtanchoqlik qilishini gung qo'ng'izga o'xshatdilar:

إنَّ اللهَ قد أذهب عنكم عُبِّيَّةَ الجاهليةِ وفخرَها بالآباءِ , مؤمنٌ تقيٌّ , وفاجرٌ شـقيٌّ , أنتم بنو آدمَ , وآدم من تراب, لَيَدَعَنَّ رجالٌ فخرَهم بأقوامٍ , إنما هم فحمٌ من فحْمِ جهنمَ , أو لَيكونُنَّ أهونَ على اللهِ من الجِعْلَانِ التي تدفعُ بأنفْها النَّتِنَ .

"Alloh sizlardan johiliyat manmanligini va otalar bilan faxrlanishni ketkazdi. Insonlar yo taqvodor mo‘min yoki badbaxt fojir. Sizlar odam bolasi. Odam esa tuproqdan. Bir qavmlar otalari bilan faxrlanishdam to'xtaydilar aks holda Allohning nazdida burni bilan gung to‘plab yuruvchi qo'ngizdan battar xor bo‘ladilar." (Termiziy rivoyati)

2. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Islomda boshqalar qatori zaifa ona va bolani huquqlari ham muhofaza qilingan. Alloh ta'olo aytadi:

وَيَسْتَفْتُونَكَ فِى ٱلنِّسَآءِ قُلِ ٱللَّهُ يُفْتِيكُمْ فِيهِنَّ وَمَا يُتْلَىٰ عَلَيْكُمْ فِى ٱلْكِتَٰبِ فِى يَتَٰمَى ٱلنِّسَآءِ ٱلَّٰتِى لَا تُؤْتُونَهُنَّ مَا كُتِبَ لَهُنَّ وَتَرْغَبُونَ أَن تَنكِحُوهُنَّ وَٱلْمُسْتَضْعَفِينَ مِنَ ٱلْوِلْدَٰنِ وَأَن تَقُومُوا۟ لِلْيَتَٰمَىٰ بِٱلْقِسْطِ ۚ وَمَا تَفْعَلُوا۟ مِنْ خَيْرٍ فَإِنَّ ٱللَّهَ كَانَ بِهِۦ عَلِيمًا

"Sendan ayollar haqida fatvo so'rarlar. Sen: «Alloh sizga ular haqida va kitobda tilovat qilinadigan, siz ularga tayin qilingan narsani bermay nikohiga rag'bat qilganingiz ayollar haqida, zaifhol bolalar haqida va etimlarga adolat qilmog'ingiz haqida fatvo beradi», deb ayt. Alloh qilgan har bir yaxshiligingizni biluvchi zotdir" (Niso.127)

Islomdan avval erkaklar yetim qizlar va hechkimi yo‘q ayollarga haq-huquqini bermay uylanib olishar edi. Oyatda Alloh ta'olo ana shundan qaytarib ularni o‘z himoyasiga oldi. Ularni haq-huquqlarini berishni buyurdi. Buning amaliy ko‘rinishini esa boshliqlar tatbiq qiladilar.

Zaif ayollar va bolalarning himoyasiga yana bir misol:

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

خَيرُكم خَيرُكم لأهلِه، وأنا خَيرُكم لأهلي

"Sizlarning yaxshilaringiz ahliga yaxshi bo‘lganingizdir. Men ahliga eng yaxshingizdirman" (Termiziy rivoyati)

Hadisdagi "Ahl" so‘zidan maqsad kishining ayoli va bolalari. Kishining yaxshi yoki yomon ekani zaiflarga muomalasidan ma'lum bo'lar ekan.

Xulosa:

65-modda.

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan Islom qonunlari asosida muhofaza qilinadi.

66-modda.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Sharh:

Islomda ota-ona haqida oyat-hadilar va ulamolar so‘zlari juda ko‘p. Odob-axloq kitoblarining eng avvalida ana shu mavzu zikr qilinadi. Chunki Islomda Allohning haqqidan keyingi eng katta haq ota-ona haqqidir. Bu ma'no Qur'onda 4 o‘rinda ta'kidlangan. Alloh ta'olo aytadi:

1.

وَٱعۡبُدُواْ ٱللَّهَ وَلَا تُشۡرِكُواْ بِهِۦ شَيۡـٔٗاۖ وَبِٱلۡوَٰلِدَيۡنِ إِحۡسَٰنًا

Va Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani shirk keltirmanglar. Ota-onaga, yaxshilik qilinglar.

(Niso.36)

2.

لَا تَعۡبُدُونَ إِلَّا ٱللَّهَ وَبِٱلۡوَٰلِدَيۡنِ إِحۡسَانًا

Allohdan boshqaga ibodat etmaysiz, ota-onaga yaxshilik qilasiz (Baqara 83)

3.

أَلَّا تُشۡرِكُواْ بِهِۦ شَيۡـٔٗاۖ وَبِٱلۡوَٰلِدَيۡنِ إِحۡسَٰنًا

«Unga hech narsani shirk keltirmang! Ota-onangizga yaxshilik qiling! (An'om.151)

4.

وَقَضَىٰ رَبُّكَ أَلَّا تَعۡبُدُوٓاْ إِلَّآ إِيَّاهُ وَبِٱلۡوَٰلِدَيۡنِ إِحۡسَٰنًاۚ إِمَّا يَبۡلُغَنَّ عِندَكَ ٱلۡكِبَرَ أَحَدُهُمَآ أَوۡ كِلَاهُمَا فَلَا تَقُل لَّهُمَآ أُفّٖ وَلَا تَنۡهَرۡهُمَا وَقُل لَّهُمَا قَوۡلٗا كَرِيمٗا

Robbing faqat Uning O'zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishnigni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «uff» dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so'z ayt! (Isro.23)

Ota -onaga yaxshi qarashga buyruq qilgan oyatlar :

وَوَصَّيْنَا ٱلْإِنسَٰنَ بِوَٰلِدَيْهِ حَمَلَتْهُ أُمُّهُۥ وَهْنًا عَلَىٰ وَهْنٍ وَفِصَٰلُهُۥ فِى عَامَيْنِ أَنِ ٱشْكُرْ لِى وَلِوَٰلِدَيْكَ إِلَىَّ ٱلْمَصِيرُ

Biz insonga ota-onasi haqida tavsiya qildik: onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan ko'tardi, uni sutdan ajratish ikki yil ichidadir, «Menga va ota-onaga shukr qilgin. Va qaytish faqat Mengadir». (Luqmon.14)

Yana aytadi:

وَوَصَّيْنَا ٱلْإِنسَٰنَ بِوَٰلِدَيْهِ حُسْنًا

Va insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni tavsiya qildik. (Ankabut:8)

Yana aytadi:

وَوَصَّيْنَا ٱلْإِنسَٰنَ بِوَٰلِدَيْهِ إِحْسَٰنًا حَمَلَتْهُ أُمُّهُۥ كُرْهًا وَوَضَعَتْهُ كُرْهًا

Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi unga qiynalib homilador bo'ldi va uni qiynalib tug'di. (Ahqof.15)

Shunigdek hadislarda ham ota-onaga yaxshilik qilish haqida ko‘p rivoyatlar bor.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam eng afzal amallar haqida aytadilar :

أفضلُ الأعمالِ الصَّلاةُ لوقتِها ، و برُّ الوالديْنِ و الجِهادُ في سبيلِ اللهِ

"1-Vaqtida o‘qilgan namoz. 2-ota-onaga yaxshilik.

3- Alloh yo‘lida jihod" (Buxoriy rivoyati)

Jannatga kirish onaning etagini tutishga bog‘landi.

الزَمْها فإنَّ الجنَّةَ عند رِجلَيْها

"Onangni lozim tut. Chunki jannat uning oyoqlari ostida" (Nasoiy rivoyati)

Bundan boshqa yana yuzlab rivoyatlar keltirish mumkin. Inson ota-onasi qariganda unga yaxshi muomalada bo‘lishi uchun ana shunday rivoyatlarga iymoni bo‘lishi kerak. Shuning uchun musulmonlar tarixida hech qachon qariyalar uyi bo'lmagan. Hech kim ota-onasini qariyalar uyiga tashlab ketmagan. Balki ular uning jannati ekaniga iymonlari bor edi. Qachonki insonlarda ushbu e'tiqodlar yo'qolgach qariyalar uyi deb atalgan narsalar paydo bo‘ldi.

(Islomda oilaviy huquq va burchlar haqida oila kodeksi sharhida batafsil to‘xtalib o‘tamiz, in sha Alloh)

Xulosa :

66-modda

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

XV bob. Ommaviy axborot vositalari

67-modda.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sharh:

Axborot juda ko‘p tafsilotga muhtoj masalalardan.

Biz bu o‘rinda islomda axborotni ba'zi shartlariga ishora qilib o‘tmoqchimiz.

1.”Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi "

Islomda ham o‘ziga xos shartlar bilan axborot erkinligi kafolatlangan. Xalq davlatdan uning faoliyati to'g'risida ma'lumot talab qiladi. Buni axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Islomda qilgan ishidan so'ralmaydigan zot faqatgina Alloh ta'olo:

لَا يُسْـَٔلُ عَمَّا يَفْعَلُ وَهُمْ يُسْـَٔلُونَ

"U qilgan narsasidan so'ralmas. Holbuki, ular (odamlar)so'ralurlar" (Anbiyo.23)

Demak, har qanday shaxs va boshliqlar jurnalistlar va bloggerlar tomonidan so‘roqqa tutilishi joiz va ularning savollariga javob berishga majbur.

Chunki hukmronligida ta'qib qilish man etilgan zot faqat Alloh :

وَٱللَّهُ يَحْكُمُ لَا مُعَقِّبَ لِحُكْمِهِۦ

" Hukmni Alloh qiladir. Uning hukmini ta'qib qilguvchi yo'q. " (Ra'd. 41)

Shuningdek aytgan gapi o‘zgarmas bo‘lgan zot ham faqat Alloh :

مَا يُبَدَّلُ ٱلْقَوْلُ لَدَىَّ وَمَآ أَنَا۠ بِظَلَّٰمٍ لِّلْعَبِيدِ

"Mening huzurimda gap o'zgarmas va Men bandalarga zulm qilguvchi emasman" (Qof.29)

Demak aytgan gapidan hisob bermaslik, undan qaytmaslik bandalardan sodir bo‘lsa ularni zulmkor diktator bo‘lishlariga olib keladi. Alloh zulmdan pokligi uchun uning gapi o'zgarmas bo'ladi.

Davlatni zulmdan to‘sish uchun Alloh ahli ilmlardan haqiqatni aytishga ahd oldi:

وَإِذْ أَخَذَ ٱللَّهُ مِيثَٰقَ ٱلَّذِينَ أُوتُوا۟ ٱلْكِتَٰبَ لَتُبَيِّنُنَّهُۥ لِلنَّاسِ وَلَا تَكْتُمُونَهُۥ

"Alloh kitob berilganlardan, albatta, uni odamlarga bayon qilasiz va berkitmaysiz, deb ahd olganini esla" (Oli imron. 187)

Davlatdagi nohaqliklarni inkor qilib buning ortidan qatl qilingan kishi haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

سيد الشهداء حمزة بن عبد المطلب، ورجل قام إلى إمام جائر فأمره ونهاه، فقتله. رواه الحاكم

"Shahidlarning eng sayyidi Hamza ibn Abdul-muttalib va zolim podshohga turib unga yaxshilikni buyurib yomonlikdan qaytarganda podshoh uni qatl qilgan kishidir" (Hokim rivoyati)

Shuningdek jamiyatdagi munkarlarga kurashish har bir musulmonning burchi ekani haqida aytadilar :

ما مِن نَبِيٍّ بَعَثَهُ اللَّهُ في أُمَّةٍ قَبْلِي إلَّا كانَ له مِن أُمَّتِهِ حَوارِيُّونَ، وأَصْحابٌ يَأْخُذُونَ بسُنَّتِهِ ويَقْتَدُونَ بأَمْرِهِ، ثُمَّ إنَّها تَخْلُفُ مِن بَعْدِهِمْ خُلُوفٌ يقولونَ ما لا يَفْعَلُونَ، ويَفْعَلُونَ ما لا يُؤْمَرُونَ، فمَن جاهَدَهُمْ بيَدِهِ فَهو مُؤْمِنٌ، ومَن جاهَدَهُمْ بلِسانِهِ فَهو مُؤْمِنٌ، ومَن جاهَدَهُمْ بقَلْبِهِ فَهو مُؤْمِنٌ، وليسَ وراءَ ذلكَ مِنَ الإيمانِ حَبَّةُ خَرْدَلٍ

"Alloh ta'olo mendan oldin qanday ummatga payg'ambar yuborgan bo‘lsa albatta u payg'ambarning ummatidan unda yordamchilari va as'hoblari bo‘lgan. Ular payg'ambarlarining sunnatini ushlab ularning buyrug‘iga ergashar edilar. So‘ngra ulardan keyin boshqa avlodlar kelar edi. Ular qilmaydigan ishlarini gapiradilar, o‘zlariga buyurilmagan ishlarni qiladilar. Kim ana shunday kishilarga qo'li bilan kurashsa bas u mo‘mindir. Kim ularga tili bilan kurashsa u ham mo‘mindir. Kim ularga qalbi bilan kurashsa u ham mo‘mindir. Ammo bundan keyin xardal urug‘ichalik ham iymon yo‘q" (Muslim rivoyati)

Demak jamiyat ichidagi yomonliklarga qo'ldan kelgancha kurashish kerak. Jumladan til bilan kurashish iymondan. Axborot vositalari to'g'ri yo‘naltirilganda shu vazifani bajaradi.

Axborot vazifalaridan yana biri, xalqning ovozini yetkazib berish. Sahobalar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga bay'at berishlarida **"Barcha mo‘minga**

g'amxo'r bo‘lishga" deb shart qilingan edi. Bunga har bir mazlumni dardini yetkazib berish ham kiradi.

Boshqa bir hadisda , davlat amaldorlariga odamlarning arzini yetkazishga targ‘ib qilib aytadilar :

"من بلغ ذا سلطان حاجة من لا يستطيع إبلاغها، ثبت الله تعالى قدميه على الصراط يوم القيامة

"Kimda kim sultonga yeta olmayotgan kishining hojatini unga yetkazib bersa, Alloh qiyomat kunida sirotda uning qadamini sobit qiladi" (Bazzor rivoyati)

Bu ham bugun axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam o‘zlari ham Allohning hukmi tayin bo'lmagan o'rinlarda sahobalarda so‘z erkinligini shakillantirdilar.

Badr, uhud, xandaq jangida va boshqa ko‘plab o‘rinlarda ulardan maslahat oldilar. Sahobalar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning vahiyga daxlsiz shaxsiy fikrlarini rad qilib to'g'ri fikrni aytar edilar.

(Siyrat kitoblariga qarang)

Islomda kishilarni fikriy rivojlantirish uchun "Ijtihod" (Erkin ilmiy tadqiqot) eshigi ochib berildi. Kimda yetarlicha ilm bo‘lib ijtihod qilsa, xato qilsa ham bir ajrga, to'g'ri topsa ikki ajrga ega bo‘lishini aytdilar. (Buxoriy rivoyat qilgan hadisdan olidi)

Shuning ortidan islom tarixida ulamolar, mazhablar shakllandi. Hech kim ularni yetishib chiqishiga to‘sqinlik qilmadi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘ng xalifalar ham bu sunnatga amal qildilar.

Abu bakr roziyallohu anhu xalifa bo'lgan kunlaridayoq, islom doirasida odamlarga so‘z erkinligini berib dedilar:

"Men sizlarga bosh qilindim. Ammo sizlarning yaxshilaring emasman ! Agar yaxshilik qilsam yordamchi bo‘ling agar yomonlik qilsam meni to'g'irlanglar"

Umar raziyallohu anhu qanchalik qattiqqo‘llik bilan tanilgan bo‘salar-da oddiy ayol u kishiga inkor qila oldi.

Ammo Usmon raziyallohu anhu zamoniga kelib so‘z erkinligi shu darajada ko‘pligidan munofiqlar bundan foydalanib u kishiga qarshi fitnalar uyushtirdilar. Bu fitnalar oxiri u kishining qatl qilinishiga olib keldi.

Ali raziyallohu anhu xalifaligida ham shunday. Hatto u kishini kofir degan xavorijlarga erkinlik berildi. Ammo ular amaliy faoliyatga o‘tib musulmonlarga ozor bera boshlaganlaridan so‘ng ularga urush ochdilar. O‘shanda ham ularni tavba qilganlari kechirildi. Qochganlari quvlanmadi. Ularga "Birodarlarimiz, faqat bizga tajovuz qildilar " degan asos bilan urishdilar.

Abbosiylar xalifalaridan Abu Ja'far al-Mansur, Imom molikning "muvatto" kitoblarini davlat dasturi tarzida qabul qilmoqchi bo‘ldi . Ammo kitob muallifi imom molik esa, boshqalarning fikri va rivoyatlarini inobatga olib, o‘zlarini kitoblarini odamlarga majburiy nizom qilib qo‘yilishini istamadilar. Bu ham shariat ruxsat bergan ko‘rinishda Islomda so‘z erkinligiga ulamolardan bir misol bo'ladi.

2. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Islomda ham kishi tarqatgan axborotidan mas'uldir. Alloh ta'olo aytadi:

وَلَا تَقْفُ مَا لَيْسَ لَكَ بِهِۦ عِلْمٌ إِنَّ ٱلسَّمْعَ وَٱلْبَصَرَ وَٱلْفُؤَادَ كُلُّ أُوْلَٰٓئِكَ كَانَ عَنْهُ مَسْـُٔولًا

O'zing bilmagan narsaga ergashma! Albatta, quloq, ko'z va dil — ana o'shalar, mas'uldirlar. (Isro.36)

Ya'ni inson ko‘rmagan, eshitmagan, tushunmagan narsasini gapirishi nojoiz.

Axborot tarqatishning shartlari :

1-Xabarni tekshirib tarqatish. Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ إِن جَآءَكُمْ فَاسِقٌۢ بِنَبَإٍ فَتَبَيَّنُوٓاْ أَن تُصِيبُواْ قَوْمًۢا بِجَهَٰلَةٍ فَتُصْبِحُواْ عَلَىٰ مَا فَعَلْتُمْ نَٰدِمِينَ

Ey iymon keltirganlar! Agar fosiq xabar keltirsa, aniqlab ko'ringlar, bir qavmga bilmasdan musibat etkazib qo'yib, qilganingizga nadomat chekuvchi bo'lmanglar.

(Hujurot.6)

Alloh bizga Sulaymon alayhissalam qissasini hikoya qilar ekan o‘shanda u kishi hatto qushning xabarini tekshirganlariga ishora qiladi:

قَالَ سَنَنظُرُ أَصَدَقْتَ أَمْ كُنتَ مِنَ ٱلْكَٰذِبِينَ

"U (Sulaymon) : «Ko'ramiz, rost so'zladingmi yoki yolg'onchilardan bo'ldingmi?" dedi " (Naml.27)

Har qanday ma'lumotni tekshirmasdan, unga ishonib tarqatavermaslik kerak.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

(كفى بالمرء كذبا أن يحدث بكل ما سمع)

"Kishi eshitgan barcha narsasini gapiraverishi yolg'onchiligiga kifoyadir" (Muslim rivoyati)

Yolg‘on xabar tarqatuvchi muxbirlarga ogohlantirish berilishi, agar ogohlantirish foyda bermasa, ulardan vakolatlarini olib qo‘yilishi lozim. Shuning uchun Islomda yolg‘on guvohlik bergan kishining guvohligi qabul qilinmaydi.

2- Islomga qarshi yo‘naltirilgan xabarlar va fahsh munkarlar tarqatmaslik.

Bugun hech kimga sir emas, axborot vositalari din dushmanlari qo‘lida. Va ko‘pincha odamlarni dinga qayrash va ularni ma'naviy buzush maqsadida axborotdan foydalaniladi.

Axborotdan ma'siyat yo‘lida foydalanish qadimdan shayton uslubi. U Odam va Havvoga vasvas qilar ekan aytar edi :

فَوَسْوَسَ لَهُمَا ٱلشَّيْطَٰنُ لِيُبْدِيَ لَهُمَا مَا وُۥرِيَ عَنْهُمَا مِن سَوْءَٰتِهِمَا وَقَالَ مَا نَهَىٰكُمَا رَبُّكُمَا عَنْ هَٰذِهِ ٱلشَّجَرَةِ إِلَّآ أَن تَكُونَا مَلَكَيْنِ أَوْ تَكُونَا مِنَ ٱلْخَٰلِدِينَ

Bas, shayton ikkovlarining berkitilgan avratlarini ochish uchun ularni vasvasa qildi va: «Robbingiz sizni ushbu daraxtdan faqat ikkovingiz farishta bo'lmasligingiz yoki abadiy qolmasligingiz uchungina man qildi», dedi. (A'rof. 20)

Ya'ni yolg‘on ma'lumot bilan (farishtaga aylanasiz deb) ularni Allohga osiy bo‘lishga targ‘ib qilgan ekan. Bugungi axborot vositalari orqali odamlarga fahsh munkarni tarqatish, yoki fahsh munkar vositasida boshqa xabarlar tarqatish, kofirlar hayotiga taqlidni olib kirish, dindorlarni yomonlab ko‘rsatish hammasi shayton vazifasidir. Alloh ta'olo aytadi:

إِنَّ ٱلَّذِينَ يُحِبُّونَ أَن تَشِيعَ ٱلْفَٰحِشَةُ فِى ٱلَّذِينَ ءَامَنُوا۟ لَهُمْ عَذَابٌ أَلِيمٌ فِى ٱلدُّنْيَا وَٱلْءَاخِرَةِ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

Albatta, iymon keltirganlar ichida fahshlar tarqalishini yaxshi ko'radiganlarga bu dunyoyu oxiratda alamli azob bordir. Alloh biladir, sizlar bilmassizlar. (Nur. 19)

Islomda gunohi o'zidan boshqaga o'timsiz fosiqlarni ham satr qilishga buyuriladi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

يا معشرَ مَنْ آمَنَ بلسانه، ولم يدخُل الإيمانُ قلبَه، لا تغتابوا المسلمين، ولا تتَّبِعوا عوراتِهم؛ فإنَّه من تتبَّع عورة أخيه المسلم تتبَّع الله عورتَه، ومَنْ تتبَّع اللهُ عورتَه يفضحه ولو في جوف بيته

"Ey tilida iymon keltirib qalbiga iymon kirmaganlar! Musulmonlarni g‘iybat qilmanglar! Ularning ayblarini izlamanglar. Kim musulmon birodarining aybini ochishni istasa Alloh uning o‘zini aybini ochishni istaydi. Alloh kimniki aybini ochishni istasa, uni garchi uyining ichida bo‘lsa-da sharmanda qiladi" (Abu dovud rivoyati)

Yana aytdilar:

ومن ستر مسلماً، ستره الله يوم القيامة

"Kim bir musulmonni satr qilsa (aybini yopsa)Alloh uni qiyomat kunida satr qiladi "(Buxoriy va muslim)

3- Odamlar bilishlari foydasi yo‘q, bilmasliklari ziyoni yo‘q dunyo va oxiratlariga befoyda, bachkana xabarlar ham tarqatilmaydi. Alloh ta'olo mo‘minlar haqida aytadi:

وَٱلَّذِينَ هُمْ عَنِ ٱللَّغْوِ مُعْرِضُون

"Ular behuda narsalardan yuz o'girguvchilardir." (Mo‘minun.3)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مِنْ حُسْنِ إِسْلَامِ الْمَرْءِ تَرْكُهُ مَا لَا يَعْنِيهِ

"Kishi o‘ziga kerakmas narsalarni tark qilishi islomi chiroyli ekanidandir" (Termiziy rivoyati)

4- Odamlar ichida vahima keltirib chiqaradigan xabarlar tarqatilmaydi. Alloh taolo aytadi

وَإِذَا جَآءَهُمْ أَمْرٌ مِّنَ ٱلْأَمْنِ أَوِ ٱلْخَوْفِ أَذَاعُواْ بِهِۦ ۖ وَلَوْ رَدُّوهُ إِلَى ٱلرَّسُولِ وَإِلَىٰٓ أُوْلِى ٱلْأَمْرِ مِنْهُمْ لَعَلِمَهُ ٱلَّذِينَ يَسْتَنۢبِطُونَهُۥ مِنْهُمْ

Qachonki ularga eminlik yoki xavf(xatar) to'g'risida bir ish–xabar yetsa, uni (ovoza qilib)taratadilar. Agar uni Payg'ambarga va o'zlaridan bo'lgan ishboshilarga havola qilganlarida edi, ulardan ish negizini biladiganlari uni anglab yetar edilar. (Niso.83)

Shuning uchun ommaga taalluqli muhim xabarlarni mas'ullar ruxsati bilan tarqatish kerak.

5- Odamlar saviyasi ko‘tara olmaydigan, ular ichida fitna chiqaradigan xabarlar ham tarqatilmaydi.

Ibn Mas'ud raziyallohu anhu aytadilar:

"Sen odamlarga aqli yetmaydigan narsani gapirsang albatta bu ishing ularning ba'zilariga fitna bo'ladi " (Muslim rivoyati)

Xulosa qilib aytganda, axborot tarqatuvchi kishi o‘zida shar'iy ilmlar bo‘lishi yoki ilm ahlining maslahati bilan ish olib borishi lozim .

Endi moddaning "Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi" degan qismiga qaraylik. Bu ham hayotda hech amal qilinmaydigan qonunlardan. Chunki ko‘rsatuv va radio eshittirishlar, hatto masjid minbarlaridan nima gapirilishi hamma-hammasi davlat xavfsizligi ruxsatidan o‘tishi hech kimga sir emas.

Agar, "axborotni kimdir tahlil qilishi kerk-ku" deyilsa, bu to'g'ri! Ammo bu tahlil "kimlarningdir" ra'yi bilan emas, yuqorida aytilgani kabi shar'iy qonunlar asosida bo‘lishi kerak.

Xulosa:

67-modda.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va shar'iy qonunlarga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi va oqibati uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Shariy asoslarga ko‘ra faoliyat olib boruvchi axborot bo‘limlarida hech qanday bosimga yo‘l qo‘yilmaydi.

TO‘RTINCHI BO‘LIM. MA’MURIY-HUDUDIY VA DAVLAT TUZILISHI

XVI bob. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi

68-modda.

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

Sharh:

Islomda davlatni boshqarish idoraviy tizimi urf odatdan kelib chiqib amal qilinaveradi. Davlat boshqaruvini va xalq bilan muloqotni osonlashtirish maqsadida

viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq ovullar kabi taqsimlarga hech qanday monelik yo‘q. Yaxshilikka yordam har qanday suratda ijozat berilgan.

Insonlar xalq va qabilalarga bo‘linishi ham Allohning taqdiri. Alloh taolo aytadi :

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ إِنَّا خَلَقۡنَٰكُم مِّن ذَكَرٖ وَأُنثَىٰ وَجَعَلۡنَٰكُمۡ شُعُوبٗا وَقَبَآئِلَ لِتَعَارَفُوٓاْۚ إِنَّ أَكۡرَمَكُمۡ عِندَ ٱللَّهِ أَتۡقَىٰكُمۡۚ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٞ

Ey odamlar! Biz sizlarni bir erkak va ayoldan yaratdik va sizlarni o'zaro tanishishingiz uchun xalqlar va qabilalar qilib qo'ydik. Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir. (Hujurot:13)

Mintaqalar taqsimlanishi Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam davrlarida ham bor edi.

Faqat bunday taqsimlar ortidan postlar qo‘yish, bir din vakillari o'rtasida chegaralar tortish, buning ortidan odamlarga soliq solish, millatchilikka targ‘ib qilish, odamlarni shaharlik va qishloqiga ajratish kabi yomonliklar kelib chiqmasligi lozim.

Mintaqalar taqsimi odamlarga hayotini qiyinlashtirib narh-navoni ko‘tarilishiga sabab bo‘lishi emas, ularning hayotini qulaylashtirishga xizmat qilishi kerak.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam madinaga hijrat qilib kelgan vaqtlarida madinalik ansorlar va kelgindi muhojirlar o‘rtasida nizo chiqib "Muhojir va ansor" ga bo‘linish sodir bo‘ldi. Bu aslida islomiy istilohlar bo‘lsa-da, tafriqaga sabab bo‘lgach Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

دَعُوها فإنَّها مُنتنةٌ

"Sassiq millatchilik da'vosini qo‘yinglar!" (Buxoriy rivoyati)

Xulosa:

68-modda.

O‘zbekiston davlati , viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston davlatidan iborat.

69-modda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Sharh:

Islomda ham mintaqalar taqsimi "Sho'ro majlisi" ya'ni ulamolar hay'atiga havola qilinadi. Ular oliy majlis vazifasini bajaradilar. Chegaralar tashkil qilish va tugatish ularning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Alloh ta'olo mo‘minlar haqida aytadi :

وَأَمْرُهُمْ شُورَىٰ بَيْنَهُمْ

"**Ular ishlari o'zaro sho’ro (maslahat) ila bo'lganlardir"** (Sho’ro.38)

Faqat bu moddaga amal qilish uchun “Oliy majlis” a'zolarida “Sho’ro majlisi" a'zolaridagi sifatlar topilishi kerak.

Xulosa:

69-modda.

Qoraqalpog‘iston , viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish Sho'ro majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

XVII bob. Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sharh:

Avvalo islomda Qoraqalpog‘iston kabi aftanom respublika bo‘lishi hukmiga qaraylik.

Agar bunday mintaqa aholisi musulmonlardan iborat bo'lsa, aslini olganda bir butun Islom davlatini ikkiga bo‘lish mumkin emas. Alloh ta'olo bo'linishdan qaytaradi:

وَٱعْتَصِمُواْ بِحَبْلِ ٱللَّهِ جَمِيعًا وَلَا تَفَرَّقُواْ

Barchangiz Allohning arqonini mahkam tuting va bo'linib ketmang. (Oli-Imron. 103)

Ammo agar bunday davlatlarni bir bayroq ostida birlashtirishga kuch yo‘q bo'lsa, shundagina vaqtincha bosh davlatga tobe ichma ich davlatlar bo‘lishi mumkin. Bunga tarixdagi Abbosiylar davlati misol bo'ladi. Ular davrida markaziy xalifalik davlatiga tobe boshqa kichik davlatlar bor edi. Jumladan "Ixshiydiylar, To'lo'niylar, Zinkiylar, Ayyubiylar, Hamdoniylar kabi davlatlar.

Abbosiylar ularni to‘liq o‘ziga bo‘ysundira olishmagan. Ular o'z hududlarida o‘zlariga hukmron amirliklar edi. Faqat Abbosiylarga siyosiy bog‘liqliklari bor edi.

Bunday ko‘rinishdagi davlat ichida davlat bo‘lishi ibtidoan ruxsat berilmaydi. Faqat davlat zaiflik vaqtida voqelikda mavjud bo'lib turganda to davlat oyoqqa turub olguniga qadar uni qabul qilinadi. Chunki fiqh qoidalarida aytiladi : "Boshlab qilish nojoiz ishlar mavjud bo‘lgach kechiriladi"

Ammo agar avtonom davlat xalqi kofirlardan iborat bo‘lsa, musulmonlarga tobe ko‘rinishda o'z-o'zini boshqaruvchi davlat bo‘lishi joiz. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam madinada yahudlar bilan ittifoqlari shunga o‘xshash ko‘rinishda edi. Ushbu sulhda aytilgan edi :

"Banu avf yahudiylari mo‘minlar bilan yashovchi bir ummat. Yahudiylarga o'z dinlari, musulmonlarga ham o'z dinlari. Ushbu sahifada ishtirok etganlarga (Musulmonlar va yahudiylarga) hujum qilinganda o‘zaro himoya hammaning

burchidir. Ushbu sahifa ahli o‘rtasida oqibati xatarli har qanday nizolar bo‘lsa, uni Alloh ta'ologa va Muhammad (alayhissalam) ga havola qilinadi"

Ittifoq bandidan ko‘rinib turganidek, yahudiylar o'z-o'zini boshqaruvchi, siyosiy jihatdan esa musulmonlarga tobe davlat bo‘lgan.

Modomiki avtonom davlat ahkomlari tafsilotga muhtoj masalardan ekan, ushbu bobdagi moddalarni umumiy sharh berish bilan kifoyalanamiz. Tafsilot esa voqelikka qarab bayon qilinishi kerak.

70-modda.

Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.

Sharh:

Bu moddaga yuqorida aytilgan tafsilot (davlat ularni bir hukm ostida birlashtira oladimi yo‘qmi...)ga qarab voqelikdan kelib chiqib amal qilinadi. Chunki Islomda davlat quvvatli vaqtini o‘ziga yarasha, zaif vaqtini o‘ziga yarasha ahkomlari bor.

Umuman olganda, ikki musulmon davlat tarkibi bir bo‘lishi va birga muhofaza qilinishi to'g'ri.

Xulosa:

70-modda

Qoraqalpog‘iston davlati O‘zbekiston davlati tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbekiston tomonidan muhofaza etiladi.

71-modda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z Konstitutsiyasiga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas.

Sharh:

Avtonom davlat aholisi musulmon bo'lsa, ular o‘z konstitutsiyasiga ega deyishga hojat yo‘q. Chunki Islomiy konstitutsiya davlatdan davlatga qarab deyarli farq qilmaydi. Ammo agar aftanom davlat kofirlardan iborat bo'lsa, ularni islomga zid kelmaydigan o‘z ichki siyosatlari bo‘lishi, shunga binoan ular o'z qonunlariga ega bo‘lishlari mumkin. Nizo o‘rinlarida esa Allohning hukmiga qaytishlari kerak bo‘ladi. Bunga yuqorida aytilgan musulmonlar va yahudiylar o‘rtasidagi sulh bandi dalil bo'ladi. Unga ko‘ra ular qonunlari musulmonlar qonunlariga zid bo‘lishi mumkin emas. Qur'on hukmi boshqa kitoblardan ustunligi haqida Alloh ta'olo aytadi:

وَأَنزَلْنَآ إِلَيْكَ ٱلْكِتَٰبَ بِٱلْحَقِّ مُصَدِّقًا لِّمَا بَيْنَ يَدَيْهِ مِنَ ٱلْكِتَٰبِ وَمُهَيْمِنًا عَلَيْهِ فَٱحْكُم بَيْنَهُم بِمَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ وَلَا تَتَّبِعْ أَهْوَآءَهُمْ عَمَّا جَآءَكَ مِنَ ٱلْحَقِّ لِكُلٍّ جَعَلْنَا مِنكُمْ شِرْعَةً وَمِنْهَاجًا

"Va Biz senga kitobni haq ila, o'zidan oldingi kitobni tasdiqlovchi va uning ustidan nazorat etguvchi qilib nozil qildik. Bas, ular orasida Alloh nozil etgan narsa ila hukm yurit. O'zingga kelgan haqni qo'yib, ularning xohishlariga ergashma. Sizlardan har biringizga alohida shariat va yo'l qilib qo'ydik.. (Moida.48)

Demak, bir davlat ostida yashovchi barcha din vakillari o'zining shariyatiga amal qilib yashayveradi. Faqat, qur'on barcha kitoblar va diyonatlarni nazorat qiluvchi me'yor tarzida qabul qilinadi.

Xulosa:

71-modda

Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi O‘zbekiston Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas

72-modda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiydir.

Sharh:

Ushbu moddaga amal qilishda ham qonunlar Islomiy me'yorlardan kelib chiqib qabul qilingan bo'lishi shart qilinadi. Qoraqalpoqlar bo'lsin yoki boshqa har qanday musulmonlar Islomiy qonunlarga bo‘ysunishi shart. Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِي ٱلۡأَمۡرِ مِنكُمۡ فَإِن تَنَٰزَعۡتُمۡ فِي شَيۡءٖ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمۡ تُؤۡمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلۡيَوۡمِ ٱلۡأٓخِرِۚ ذَٰلِكَ خَيۡرٞ وَأَحۡسَنُ تَأۡوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Xulosa :

72-modda

Shariatga asoslangan O‘zbekiston qonunlari Qoraqalpog‘iston hududida ham majburiydir

73-modda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

Sharh:

Bu modda idoraviy boshqaruvga tegishli masalalardan. Hudud va chegaralarni belgilash, o‘z ma'muriy hududi tuzilishini o‘zi hal qilishi Islomda taqiqlanmaydi. Faqat chegara va hududlar tafriqaga, millatchilikka, odamlarga soliq solishga sabab bo‘lmasligi shart qilinadi.

Xulosa:

73-modda.

Qoraqalpog‘iston hududi va chegaralari uning roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog‘iston o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

74-modda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

Sharh:

Agar ikki xalq ham musulmonlardan iborat bo'lsa, referendum yoki boshqa har qanday uslub bilan ajralish islomga zid. Islom bo‘linishdan qaytaradi. Yuqorida Allohning so‘zini aytib o‘tdik:

وَٱعْتَصِمُواْ بِحَبْلِ ٱللَّهِ جَمِيعًا وَلَا تَفَرَّقُواْ

Barchangiz Allohning arqonini mahkam tuting va bo'linib ketmang. (Oli imron.103)

Yaqin tarixda Usmoniylar davlati parchalanishi ham ayni shu shaklda amalga oshirildi. Avvalo Saudiya arabistoni, so‘ng Misr Hudayviylari, so‘ngra Malik Husayn boshchiligida iordaniya, Suriya, Iroq davlatlari ajralib chiqdi. Oxiri Usmoniylar

davlati qulatildi. Va ulardan ajralib chiqqan ushbu davlatlar esa ingliz va fransuzlar mustamlakasi ostida qolib ketdi. Keyinchalik ushbu davlatlar nomiga "Mustaqil" deb e'lon qilingan bo‘lsa-da, ularning hokimlari haligacha g‘arbga tobeligi hech kimga sir emas. Demak ular yomg'irdan qochib do'lga tutildilar.. Musulmon davlatlar Usmoniylarga tobelikdan ajrab chiqib, kofirlarga tobe bo‘lib qoldilar.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki , ajralish va bo‘linishlar hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi.

Ammo agar aftanom davlat aholisi kofirlar bo'lsa, unda ajralib chiqish ular bilan o‘rtada kelishuvni buzish hisoblanadi. Unga ham ruxsat berilmaydi. Chunki buning ortidan davlat parchalanadi. Ustiga-ustak xalq umumiy referendumi ham Islomga zid. Bu haqida 9-modda sharhida aytib o‘tdik.

Shuningdek xalq ovozi bilan osonlikcha bir davlat boshqasidan ajralib ketishiga voqelikda ham hech imkon berilmaydi. Shunga binoan ushbu 74-moddaning keragi yo‘q. Ushbu moddaga uni yozganlar o‘zlari ham hech qachon amal qilishmadi..

Xulosa:

74-modda.

Musulmon xalqlar bir-birlaridan ajralib bo‘linishlari mumkin emas.

75-modda.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

Sharh:

Agar ikki davlat va xalq o'zlarini musulmon deb bilsalar Allohning shariati har qanday kelishuv yoki nizolarda o‘rtada hakamdir. Bu haqida Allohning so‘zini aytib o‘tdik:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِي ٱلْأَمْرِ مِنكُمْ فَإِن تَنَٰزَعْتُمْ فِي شَيْءٍ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمْ تُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ ذَٰلِكَ خَيْرٌ وَأَحْسَنُ تَأْوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Musulmonlarni murosaga keltiruvchi vosita shariat hukmiga qaytishdir.

Agar ikki davlat va xalqdan biri kofir bo‘lsa, unda nizolar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va yahudiylar o‘rtasidagi sulhda aytib o‘tilganidek hal qilinadi.

Xulosa:

75-modda

Musulmon xalqlar o‘rtasidagi nizolar Alloh va Rasulining hukmiga qaytish bilan hal qilinadi.

BESHINCHI BO‘LIM.

DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

XVIII bob. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

76-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

Sharh:

1."O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.."

Ma'lumki, oliy majlis xalq tarafidan saylanadi, xalq tarafidan olib tashlanishi ham mumkin. Bunga ko‘ra xalq o‘zining ustidan hukm chiqaruvchilarni o‘zlari olib kelib o‘zlari yo‘q qilishi mumkin ekan.

Endi bu ishni johiliyatdagilar taomdan but-sanam yasab unga sig'inib, so'ng och qolganlarida uni yeb qo'yishlaridan nima farqi bor ? !

Nega biz o‘zimiz yasab chiqargan narsamizga sig'inishim kerak?

Alloh ta'olo qur'onda Ibrohim alayhissalamni o'z qavmiga aytgan so‘zlarini keltiradi:

قَالَ أَتَعْبُدُونَ مَا تَنْحِتُونَ

U (Ibrohim) dedi:«O'zingiz yo'nib yasagan narsaga ibodat qilasizlarmi?!

وَٱللَّهُ خَلَقَكُمْ وَمَا تَعْمَلُونَ

Holbuki, sizni ham, qilgan narsalaringizni ham Alloh yaratgan-ku?!» (Soffat. 95-96)

Bizni ham oliy majlisni ham ular chiqaradigan qonunlarni ham Alloh yaratgan. Nega biz yaratganning qonunlari qolib yaralganning qonuniga itoat qilishimiz kerak?

Agar ushbu "Yaralganlar" qonunlari "Yaratganning" qonunlariga muvofiq bo‘lganda mayli edi. Ammo ular yaratganning qonunlarini umuman inobatga olmagan holda qonun chiqaradilar. Shuning uchun biz ularning qonunlariga itoat etmaymiz .

Kimdir "Axir hech kim oliy majlisga sig'inmaydi-ku! Shunga binoan o‘xshatish xato " desa, Unga javob qilib aytamiz : "Islomda hukm chiqarish sig‘inish o‘rnida turadi. " Hukmni yolg‘iz Allohga havola qilish kerak. Bandalar esa uning hukmidan kelib chiqib qonunlar chiqarishlari lozim. Aks hola boshqadan hukm so‘rash unga sherik qilish deyilgan. Alloh ta'olo aytadi:

وَلَا يُشْرِكُ فِى حُكْمِهِۦٓ أَحَدًا

" Va U O'z hukmida hech kimni sherik qilmas" (Kahf.26)

Shunga binoan, but sanam yasab sig'inish va Allohning hukmiga qarshi bo‘lgan hukm chiqaruvchi qonunchilik palatasi yoki oliy majlis saylab unga itoat qilish o‘rtasida farq yo‘q.

Oliy majlis yoki qonunchilik palatasi qachonki Allohning shariatiga muvofiq qonunlar chiqarsalar ana shunda ular Allohning qonunlarini ijro qiluvchilik e'tiboridan ularga itoat qilinadi.

Bizning lug‘atda "Qonunchilik" deb atalgan so‘z arab tilida "Tashriy'" deyiladi. Bu so‘z (Tashriy yoki qonunchilik) qur'onda ikki o‘rinda ochiq aytilgan.

1- Sho'ro surasi 13-oyatida :

شَرَعَ لَكُم مِّنَ ٱلدِّينِ مَا وَصَّىٰ بِهِۦ نُوحًا وَٱلَّذِىٓ أَوْحَيْنَآ إِلَيْكَ وَمَا وَصَّيْنَا بِهِۦٓ إِبْرَٰهِيمَ وَمُوسَىٰ وَعِيسَىٰٓ

U zot sizlarga din etib O'zi Nuhga vasiyat qilgan va senga vahiy qilgan narsamizni hamda Ibrohim, Muso va Iysolarga vasiyat qilgan narsamizni shariat (Qonun) qildi.

2- Sho'ro surasi 21-oyatida:

أَمْ لَهُمْ شُرَكَٰٓؤُا۟ شَرَعُوا۟ لَهُم مِّنَ ٱلدِّينِ مَا لَمْ يَأْذَنۢ بِهِ ٱللَّهُ وَلَوْلَا كَلِمَةُ ٱلْفَصْلِ لَقُضِىَ بَيْنَهُمْ وَإِنَّ ٱلظَّٰلِمِينَ لَهُمْ عَذَابٌ أَلِيمٌ

"Yoki ularning dindan Alloh izn bermagan narsalarni shariat (qonun)qilib bergan sherik (xudo)lari bormi?! Agar ajrim kalimasi bo'lmaganida, albatta, ular

o'rtasida hukm qilingan bo'lar edi. Albatta, zolim kimsalar uchun alamli azob bordir"

Oyatdan ochiq ko‘rinib turibdiki shariat ya'ni qonun chiqarish faqat " **Xudo**" ning haqqi! Uni boshqadan istash o‘sha boshqani "**Xudo**" qilish bo'lib qolar ekan!

Bu ma'noni ahli kitoblar haqida nozil bo‘lgan oyat ham tasdiqlaydi. Alloh ta'olo tavba surasining 31-oyatida aytadi:

ٱتَّخَذُوٓاْ أَحۡبَارَهُمۡ وَرُهۡبَٰنَهُمۡ أَرۡبَابٗا مِّن دُونِ ٱللَّهِ وَٱلۡمَسِيحَ ٱبۡنَ مَرۡيَمَ وَمَآ أُمِرُوٓاْ إِلَّا لِيَعۡبُدُوٓاْ إِلَٰهٗا وَٰحِدٗا لَّآ إِلَٰهَ إِلَّا هُوَ سُبۡحَٰنَهُۥ عَمَّا يُشۡرِكُونَ

"Ular Allohni qo'yib o'zlarining hibr (olimlari) va rohiblarini hamda Masih ibn Maryamni Robb tutdilar. Ular faqat bitta ilohdan boshqaga ibodat qilmaslikka amr qilingan edilar. Undan o'zga ibodatga sazovar zot yo'q. U zot ular shirk keltirayotgan narsadan pokdir"

Ushbu oyat haqida Imom Termiziy va boshqa ulamolar rivoyat qiladilar :

Adiy ibn Hotim Johiliyat davrida nasroniylik diniga kirgan ekan. U kishi Madinaga borganida, bo'yniga kumushdan yasalgan xoch taqqan holida Rasulullohning sollallohu alayhi va sallam huzurlariiga kiradi. Shunda u zot: **«Ular Allohni qo'yib o'zlarining hibr (olimlari) va rohiblarini hamda Masih ibn Maryamni Robb tutdilar»,** oyatini tilovat qilayotgan edilar. Adiy aytadilarki:

«Men: «Ularga hech ibodat qilishgani yo'q», dedim.

Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam : «Lekin ularga halolni harom qildilar va haromni halol qildilar, ular esa ergashdilar. Ana o'sha ularga ibodat qilishlaridir», dedilar!

Demak, Allohning qonunlari qolib, o'zlaricha "Mumkin, mumkin emas" deb qonun chiqarish o‘zini yaratganga teng qilishdir. Ularga itoat qilish esa ularga ibodat qilishdir!

Shuningdek "Oliy majlis" so‘zini qaraylik. Islomda mutlaq oliylik faqatgina Allohga ishlatiladi. Shuning uchun har sajdada unga boshimizni egib "Subhana Robbiyal-A'lo" ya'ni, "Oliy Robbim pokdir" deymiz.

Agar kimdir : "Oliy majlis " nisbiy istiloh, hech kim bandasini Allohdek yoki Allohdan oliy demaydi! Bandalarga nisbatan aytilgan majoziy istiloh" desa, unga

javoban aytamizki , unda bandalikni qilib Allohning shariatidan kelib chiqib qonunlar chiqarish kerak! Ana shunda bunday istiloh (Oliy majlis) to'g'ri bo'ladi. Allohning diniga qaramay o‘zicha oliylik tuzgan podshohlarni Alloh ta'olo qur'onda malomat qilgan. Masalan fir'avn haqida aytadi:

إِنَّ فِرْعَوْنَ عَلَا فِى ٱلْأَرْضِ وَجَعَلَ أَهْلَهَا شِيَعًا يَسْتَضْعِفُ طَآئِفَةً مِّنْهُمْ يُذَبِّحُ أَبْنَآءَهُمْ وَيَسْتَحْىِۦ نِسَآءَهُمْ إِنَّهُۥ كَانَ مِنَ ٱلْمُفْسِدِينَ

"Albatta, Fir'avn yer yuzida oliylik qildi. U (o'sha yer)ning aholisini bo'lib tashladi. Ulardan bir toifasini ezar, o'g'illarini so'yib, qizlarini tirik qoldirardi. Albatta, u buzg'unchilardan bo'lgan edi" (Qasos.4)

Yana aytadi:

وَإِنَّ فِرْعَوْنَ لَعَالٍ فِى ٱلْأَرْضِ وَإِنَّهُۥ لَمِنَ ٱلْمُسْرِفِينَ

"Albatta, Fir'avn yer yuzida oliylik qiluvchi edi. Albatta, u isrofchilardan edi." (Yunus.83)

Demak bandani "Oliyligi" Allohning shariati bilan qaydlanmasa bunday oliylik uni buzg‘unchi qilib haddidan oshirib yuboradi. Shuning uchun ikki oyatda ham oliylik, buzg‘unchilik va isrofchilik birga zikr qilindi .

Bandalar Alloh va Rasulining qonunlariga binoan qonun chiqaruvchi boshliqlargagina itoat qilishi kerak. Ushbu kitobda bu haqida ko‘p dalillarni o‘tdik. O‘zini musulmon sanagan har qanday shaxs shunday qilishi majburiydir. Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓا۟ أَطِيعُوا۟ ٱللَّهَ وَأَطِيعُوا۟ ٱلرَّسُولَ وَأُو۟لِى ٱلْأَمْرِ مِنكُمْ فَإِن تَنَٰزَعْتُمْ فِى شَىْءٍ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمْ تُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ ذَٰلِكَ خَيْرٌ وَأَحْسَنُ تَأْوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Bundan kelib chiqadiki, oliy majlis yoki qonunchilik palatasi a'zolari Alloh va Rasulining hukmlarini yaxshi bilishlari shart. Har bir ishda Alloh va Rasulining hukmini bilmagan kishi qanday qilib ularga muvofiq qonun chiqaradi?!

Shuning uchun Islomda oliy majlis yoki qonunchilik palatasi a'zolari shar'iy ilmlarni puxta egallagan bo‘lishlari shart qilinadi.

Xulosa qilib aytganda :

1- Ular Islom hukmlaridan xabardor ahli ilmlar bo‘lishlari kerak,

2-Ular shariati Islom asosida qonun chiqarishlari kerak.

Qadimda ularni "Sho'ro ahli (davlat maslahatchilari) yoki ahlul-halli val-aqd" (Qonun chiqarish va buzushga yaroqli shaxslar) deb nomlangan.

Shariatda istiloh qanday qo'yilishida muammo yo‘q. Mohiyat yuqorida aytilgan shartlarga ko‘ra bo'lsa shu kifoya.

Shu o'rinda bir shubhaga javob berib o‘tishimiz zarur. Hukm faqat Allohga xos deyilar ekan, ko‘pincha ba'zilar e'tiroz bildirib " Xavorijlar ham shundan chiqdi" deydi.

To'g'ri xavorijlar ham "Hukm faqat Allohniki" deb chiqdi. Ammo ular bunday deyishi va ahli sunna bu gapni aytishi orasida katta farq bor.

1-dan bu Allohning so‘zi! Qur'onda uch o‘rinda Alloh ta'olo bu so‘zni aytdi :

(An'om.57, Yusuf.40, Yusuf.67 -oyatlariga qarang)

Biror ahli bid'at islomdagi bir amalni noto'g‘ri talqin qilgani sabab o‘sha ishni tark qilib ketaversak, Islomdan hech narsa qolmaydi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam hadisda "Allohning hukmi" odamlarga unut bo‘lishidan ogohlantirganlar. Bu haqida aytadilar :

لتنقضن عرى الإسلام عروة عروة، فكلما انتقضت عروة تشبث الناس بالتي تليها، فأولهن نقضا الحكم، وآخرهن الصلاة

"Islom arqonlari birma bir uzilib boradi. Har qachon bir arqon uzilsa, odamlar keyingisini tutadi. Ularning eng avval uziladigani hukmdir.(ya'ni Allohning hukmini odamlar tark qiladi) oxirgisi esa namozdir" (Ahmad rivoyati)

Demak islomdagi ibodatlarni "falonchalar ham qilgan" deyish ortidan hatto kunlar kelib namoz ham "Falonchalar ishi" bo'lib odamlarga unut bo'lib ketar ekan! (Alloh asrasin unday zamonlarga yetishdan)

2-dan: Xavorijlar Allohning hukmini inson tatbiq qilishini , Allohning hukmi asosida inson qonun chiqarishi Allohning hukmiga muvofiqligini tushunmaydilar. Ularning fikricha inson umuman qonun chiqarishi mumkin emas! Albatta bu ahmoqlikdan boshqa narsa emas ! Chunki hayotdagi hamma ishlarga "Falon oyat yoki falon hadis" deb hukm qilish imkonsiz. Albatta shariatning umumiy qoidalaridan kelib chiqib ijtihod qilish kerak bo‘ladi. Tarixdagi mazhab ulamolariga qarasak ularning ijtihodlari ham shunday bo‘lgan. Agar hamma masalada Alloh va Rasulining so‘zi ochiq bo'lganida mazhablar o‘rtasida ixtilof bo‘lmasligi kerak edi. Ammo mazhablarga qarasak ba'zi mazhablar joiz degan ishni boshqalari nojoiz deydi. Chunki o‘sha masalada Allohning hukmi uzil-kesil emasligidan yoki ulamolarga o‘sha masalada dalillar yetib bormaganidan ular ijtihod qilishgan.

Ali raziyallohu anhu zamonida chiqqan xavorijlar ham masalani shu jihatidagi farqni anglab yetmasdan u kishini kofirga chiqarishgan edi.

Ammo Ibn Abbos roziyallohu anhumo ularga borib Allohning hukmidan kelib chiqib hakam tayinlash, hukmni Allohdan boshqaga havola qilish emasligini tushuntirdilar.

Bunga qur'ondan bir qancha misollar keltirdilar. Quyida shular bilan tanishib chiqamiz :

1- misol :

Ma'lumki, kishi haj yoki umrani niyyat qilib ehromga kirsa, ehrom omonlik ramzi bo‘lgani sabab unga yovvoyi hayvonlarni ov qilish harom qilingan. Agar biror kishi ehromda ov qilsa unga jarima solingan. Jarima, o'ldirib qo‘ygan yovvoyi hayvonning mislidek xonaki hayvon qurbonlik qilib beradi.

Ammo o‘ldirilgan yovvoyi hayvonning xonaki hayvonlardan qaysi biri mislidek ekanini kim belgilaydi?

Alloh ta'olo bu haqida aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا تَقۡتُلُواْ ٱلصَّيۡدَ وَأَنتُمۡ حُرُمٞۚ وَمَن قَتَلَهُۥ مِنكُم مُّتَعَمِّدٗا فَجَزَآءٞ مِّثۡلُ مَا قَتَلَ مِنَ ٱلنَّعَمِ يَحۡكُمُ بِهِۦ ذَوَا عَدۡلٖ مِّنكُمۡ هَدۡيَۢا بَٰلِغَ ٱلۡكَعۡبَةِ

Ey iymon keltirganlar! Ehromdalik holingizda ovni o'ldirmang. Sizdan kim uni qasddan o'ldirsa, jazosi sizdan ikki odil kishi hukmiga muvofiq chorva hayvonlaridan u(ov)ga teng keladiganini hadiy(qurbonlik)qilib Ka'baga etkazishdir. (Moida.95)

Demak, tafsiliy ishlarda hukmni Alloh ta'oloning o‘zi bandalarga havola qilgan. Oyatdagi "**ikki odil kishi hukmi"** deganidan shu chiqadi. Bu Allohning hukmini tark qilib bandani hokim qilish degani emas.

2-misol:

Alloh ta'olo er-xotinni yarashtirish haqida aytadi :

وَإِنۡ خِفۡتُمۡ شِقَاقَ بَيۡنِهِمَا فَٱبۡعَثُواْ حَكَمٗا مِّنۡ أَهۡلِهِۦ وَحَكَمٗا مِّنۡ أَهۡلِهَآ إِن يُرِيدَآ إِصۡلَٰحٗا يُوَفِّقِ ٱللَّهُ بَيۡنَهُمَآ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلِيمًا خَبِيرٗا

Agar ikkovlarining (er-xotinning)oralari buzilishidan qo'rqsangiz, erning ahlidan bir hakam va xotinning ahlidan bir hakam ajrating. Agar ular islohni iroda qilsalar, Alloh er-xotinning orasini muvofiqlashtiradi. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir. (Niso.35)

Bunda ham er-xotinni yarashtirish yoki ajratish hukmi hakamlarga havola qilingan. Demak ahli sunna val-jamoa e'tiqodida Allohning hukmi asosida bandalar hukm chiqarishi bor. Xavorijlar esa, har qanday banda hukmi shirk va kufr deb etiqod qilishadi.

Shunga binoan aytamizki, davlat boshqaruvida oliy majlis, qonunchilik palatasi bo'lishining o‘zi kufr yoki shirk emas. Balki ular hukmning asosini shariat qilmasdan g‘arb me'yorlari, demokratiya kabi tushunchalarni asos qilishlari kufr bo'ladi.

Islomda qonun chiqarish to‘rt bosqichga bo‘linadi:

1-bosqich.

Alloh va Rasulining hukmi tayin bo‘lgan ishlar. Bunda hech kim undan o‘tib qonun chiqarishga haqqi yo‘q. Unda qonun Alloh va Rasulining so‘zidir.

Alloh ta'olo aytadi :

وَمَا كَانَ لِمُؤْمِنٍ وَلَا مُؤْمِنَةٍ إِذَا قَضَى ٱللَّهُ وَرَسُولُهُۥٓ أَمْرًا أَن يَكُونَ لَهُمُ ٱلْخِيَرَةُ مِنْ أَمْرِهِمْ وَمَن يَعْصِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ فَقَدْ ضَلَّ ضَلَٰلًا مُّبِينًا

Hech bir mo'min erkak va hech bir mo'mina ayol uchun Alloh va Uning Rasuli bir ishga hukm qilganida, o'z ishlarini o'zlaricha ixtiyor qilmoq yo'q. Kim Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'lsa, bas, batahqiq, ochiq adashish-la adashibdi. (Ahzob.36)

Shunga binoan Alloh va Rasuli ijozat degan ishni kimdir kelib man qilishi, man qilgan ishga ijozat berishi mumkin emas. Oyatga ko‘ra bundaylarni biz ham "**Adashganlar**" deb ataymiz.

2-bosqich

Agar biror masalada Alloh va Rasulining hukmi mujmal suratda kelib turli ma'nolarga ko‘ra tushunish ehtimollari bo'lsa, masalan mazhablardagi turli xil hukmlar kabi, bunda qonunchilik palatasi ushbu mazhablardan birini tanlab undagi so‘zga amal qilishlari ham Allohning hukmiga amal qilish hisoblanadi. Chunki hech qaysi mazhab dalilsiz hukm chiqarmaydi. Faqat ba'zisining dalili ba'zisidan quvvatli yoki zaif bo'lishi mumkin. Qonunchilik palatasi vazifasi esa, ushbu mazhablar dalillarini o‘rganib chiqib ularni dalili quvvatli deb topganini qonun tarzda qabul qiladi. Buning uchun albatta ular dalillarni taqqoslash (tarjih) malakasiga ega ulamolar bo‘lishlari kerak.

3-bosqich:

Muayyan masalada ochiq dalil ham turli ma'noga ehtimollik mujmal dalil ham yo‘q bo'lsa, unda shariatdagi umumiy qoida-asoslar va shariat maqsadlaridan kelib chiqib qonun chiqariladi. Bunday asoslarni bilish uchun esa shariat maqsadlari, usul

ilmlari, fiqh qoidalaridan boxabar bo‘lish lozim. Shuning uchun ham qonunchilik palatasidagilarda shar'iy ilmlarni puxta egallash shart qilindi.

4-bosqich.

Agar muayyan masalada ochiq dalil ham, ehtimollik mujmal dalil ham bo‘lmasa, shariatdagi umumiy maqsad va qoidalardan ham unga javob chiqmasa, bunday holda qanday qilib qonun chiqariladi ?

Avvalo bunday bo‘lishi juda ham noyob holat. Agar yuqoridagi uch bosqichda ham shariatdan hukm chiqmasa, bu qonunchilik palatasidagilarning fahmi yetmayotganidan, Islomda yechim yo‘qligidan emas.

Aytaylik shunday bo‘lsa, unda Alloh ta'olo o‘sha ishda hukmni bandalariga havola qilgan bo'ladi. Chunki Alloh hech narsani unutib qoldirib ketmaydi. Alloh ta'olo aytadi:

وَمَا كَانَ رَبُّكَ نَسِيًّا

Robbing unutguvchi bo'lmagan. (Maryam.64)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

الحَلالُ مَا أَحَلَّ اللهُ فِي كِتَابِهِ ، وَالحَرَامُ مَا حَرَّمَ اللهُ فِي كِتَابِه ، وَمَا سَكَتَ عَنهُ فَهوَ مِمَّا عَفَا عَنهُ

"Halol Alloh o'z kitobida halol qilgan narsalar. Harom Alloh o'z kitobida harom qilgan narsalar. Alloh nimadan sukut qilgan bo'lsa, demak uni kechirib yuborgan " (Termiziy rivoyati)

Kechib yuborgani esa unda hukm bandalar ixtiyoriga havola qilingan demakdir.

Endi yana moddaga qaytaylik:

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

Senat so‘zi qadimgi rim imperiyasidagi "Oqsoqollar kengashi " ma'nosidan olingan. Keyinchalik ruslar bu so‘zni siyosiy ma'noda qo‘llashdi. Bizga esa bu istilohlar o‘shalardan kirib keldi.

Avval aytib o‘tilganidek shariatda istilohda yomonlik yo‘q. Ammo na bizning dinimiz va tilimizda bo'lmagan istilohlarni ishlatish o‘rniga, musulmon tarzda islom dini va islom lug‘ati , hech bo‘lmasa o'z tilimizdagi istilohlarini ishlatish yaxshiroq emasmi ?

Biz arab tilidagi istilohlarni qo‘llar ekanmiz, bu bizning tariximiz va dinimiz lug‘ati. Ammo rimliklar yoki ruslar lug'ati bizning na etiqodimiz na tariximizga bog'liq emas. Nega biz ularning lug'at va istilohlariga qaydlanib qolishimiz kerak?

Bu bilan istiloh harom demoqchi emasmiz. Ammo o'zligimizni eslatuvchi istilohlarga qaytish afzalligiga ishora qilmoqchimiz.

Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Islomiy istilohlarni yo’qolib ketishdan saqlashga buyurganlar.

Bunga bir misol: A'robiylar tungi namozni "Atama" deb nomlashar edi. "Atama" ma'nosi, yarim tunda tuya sog'ish vaqti degani. Ammo Islomda tungi namozning o'z ismi bor. Uni Alloh ta'olo qur'onda "al-isha'" deb nomlagan. (Nur.58-oyatida)

Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

لا يغلِبنَّكم الأعرابُ على اسمِ صلاتِكم فإنها العشاءُ

"A'robiylar sizlarning namozinglar ismiga g'olib kelmasinlar.(ya'ni uni o‘zgartirib yuborishmasin) Chunki u Allohning kitobida "I'sha" dir ! " (Muslim rivoyati)

Endi oliy majlisni ikki palataga bo‘linishi haqida to‘xtalib o‘taylik.

Insonlarni darajasi, tajribasiga qarab taqsimlash islomda ham e'tiborga olinadi. Alloh ta'olo payg'ambarlarni ham darajalarga bo‘lgan:

وَلَقَدْ فَضَّلْنَا بَعْضَ ٱلنَّبِيِّـۧنَ عَلَىٰ بَعْضٍ وَءَاتَيْنَا دَاوُۥدَ زَبُورًا

Batahqiq, Biz ba'zi Payg'ambarlarni ba'zilaridan afzal qildik. (Isro.55)

Shuningdek Alloh sahobalarni makka fathidan avval iymon keltirgan va undan keyin iymon keltirganiga qarab bir-biridan farqli qildi :

لَا يَسْتَوِى مِنكُم مَّنْ أَنفَقَ مِن قَبْلِ ٱلْفَتْحِ وَقَٰتَلَ ۚ أُو۟لَٰٓئِكَ أَعْظَمُ دَرَجَةً مِّنَ ٱلَّذِينَ أَنفَقُوا۟ مِنۢ بَعْدُ وَقَٰتَلُوا۟

Sizlardan hech kim fathdan ilgari ehson qilganlarga va urushda qatnashganlarga barobar bo'la olmaydir. Ularning darajalari fathdan so'ng ehson qilganlardan va urushda qatnashganlardan ko'ra ulug'dir. (Hadid.10)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uhud jangiga chiqishlaridan oldin Madina ahlidan yoshlari va kattalaridan alohida alohida maslahat olganlarliklari ham bunga bir misol bo'ladi.

Shuningdek Shomda vabo tarqaganda Umar raziyallohu anhu odamlar bilan maslahat qilib aytdilar :

"Menga eng birinchi hijrat qilganlarni chaqiringlar "

Ular bilan maslahat qilib bo‘lganlaridan so‘ng: "Endi menga Ansorlarni chaqiringlar " dedilar.

Ular bilan ham maslahat qilib so‘ng : "Menga makka fathida hijrat qilgan quraysh shayxlarini chaqiringlar " dedilar. (Muslim rivoyati)

Umar raziyallohu anhuning bu ishlari haqida Imom Navaviy rahimahulloh aytadilar:

"Umar odamlarni fazliga qarab ularni tartibga soldi" (Minhoj kitobidan)

Demak muammo oliy majlisni quyi palata yoki yuqori palataga bo‘lishning o‘zida emas. Balki muammo ushbu palatalardagi kishilar Islomiy shaxsiyat emasligi va qonunlar islom asosida chiqarilmasligida ekan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

Islomda sho’ro majlisi a'zolari vakolati muddati cheklanmagan.

Shuning uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida davlat maslahatchisi bo‘lgan sahobalar, ayni o‘zlari Abu Bakr raziyallohu anhu zamonlarida ham o‘sha ishlarini davom ettirdilar. Undan so‘ng Umar raziyallohu anhu xalifaligida ham. Umar raziyallohu anhu o‘zlaridan so‘ng qoldirib ketgan sho’ro ahli ham Ali raziyallohu anhu xalifalik davrlarigacha faoliyat olib bordilar.

Chunki Islomda qonunchilik palatasidagi kishilar ulamolardan tashkil topadi. Ulamolik esa, 5,6 yil o‘tishi bilan vakolati tugab qolmaydi. Balki borgan sari ularda tajriba va ilm ortib boradi. Ularni har besh yilda almashtirish birinchidan shuncha yillik tajribali kadrlarni zoyi qilish, ikkinchidan yangi tajribasiz kishilarga davlatni topshirib qo‘yish demakdir. Shuning uchun asli ularda vakolat muddati cheklanmaydi.

Faqat ularda dindan chiqaruvchi yoki ularning martabasiga noloyiq biror noshari'y amal (masalan kabira gunohlar)sodir bo'lsa, yohud ular aqldan ozib qolsa, yoki keksayib zaiflashib qolsalar shunda ularni vazifalaridan ozod qilinadi.

Tanbeh:

1. Albatta hamma ham sahobalar kabi ko‘plab yil bir mansabda o‘tirsa-da, taqvoda sobit bo'lishi qiyin. Biror mansabda uzoq vaqt o‘tiraverish insonni buzadi. Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

أَلَمْ يَأْنِ لِلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَن تَخْشَعَ قُلُوبُهُمْ لِذِكْرِ ٱللَّهِ وَمَا نَزَلَ مِنَ ٱلْحَقِّ وَلَا يَكُونُواْ كَٱلَّذِينَ أُوتُواْ ٱلْكِتَٰبَ مِن قَبْلُ فَطَالَ عَلَيْهِمُ ٱلْأَمَدُ فَقَسَتْ قُلُوبُهُمْ وَكَثِيرٌ مِّنْهُمْ فَٰسِقُونَ

Iymon keltirganlar uchun Allohning zikriga va nozil bo'lgan haqqa qalblari yumshash, ayni choqda, oldin kitob berilgan, so'ng muddat o'tishi bilan qalblari qotib qolgan, ko'plari fosiq bo'lganlarga o'xshamaslik vaqti kelmadimi?! (Hadid.16)

Demak o‘tgan kitob ahli uzoq vaqt o‘tishi mobaynida buzulib ketgani kabi holatdan Alloh ogohlantirdi.

Shuning uchun ba'zan voliylar va davlat amaldorlarini almashtirib turish ham kerak. Bu ularning holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

2. Islomda sho’ro majlisi a'zolarining soni cheklanmagan. Shunga binoan ularni eskilari ishdan ketib yangilariga yo'l ochish kerak degan gapga hojat y'oq. Ushbu maqomga layoqatli kishilar imkon qadar sho’ro majlisiga olinaveradi. Shuningdek Islomda bu vazifa shunchaki "ish" emas, balki ibodat.

Bu payg'ambarlar vazifasidir. Alloh ta'olo aytadi:

إِنَّآ أَنزَلْنَا ٱلتَّوْرَاةَ فِيهَا هُدًى وَنُورٌ يَحْكُمُ بِهَا ٱلنَّبِيُّونَ ٱلَّذِينَ أَسْلَمُواْ لِلَّذِينَ هَادُواْ وَٱلرَّبَّٰنِيُّونَ وَٱلْأَحْبَارُ بِمَا ٱسْتُحْفِظُواْ مِن كِتَٰبِ ٱللَّهِ وَكَانُواْ عَلَيْهِ شُهَدَآءَ فَلَا تَخْشَوُاْ ٱلنَّاسَ وَٱخْشَوْنِ وَلَا تَشْتَرُواْ بِـَٔايَٰتِى ثَمَنًا قَلِيلًا وَمَن لَّمْ يَحْكُم بِمَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ فَأُوْلَٰٓئِكَ هُمُ ٱلْكَٰفِرُونَ

Biz Tavrotni nozil qildik. Unda hidoyat va nur bor. U bilan U zotga taslim bo'lgan Payg'ambarlar, Allohning kitobini muhofaza qilishga mukallaf bo'lgan robboniylar va ahborlar (ulamolar)yahudiy bo'lganlarga hukm yuritarlar. Ular bu kitobga guvoh qilinganlar. Odamlardan qo'rqmanglar, Mendan qo'rqinglar. Mening oyatlarimni arzon bahoga sotmanglar. Kim Alloh nozil qilgan narsa ila hukm yuritmasa, o'shalar kofirlardir. (Moida.44)

Oyatdan ko‘rinib turibdiki, hukm chiqarish shunchaki davlat ishi emas, Payg'ambarlar, Robboniy ulamolar vazifasi ekan. Ular buni oylik olish maqsadida bajarmaydilar. Shuning uchun ularning soni ko‘pligi sabab ma'oshlari g'ami hech kimni havotirga solmasligi kerak .

Xulosa:

76-modda

Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo‘lib, shariat asosida qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Oliy Majlis a'zolari ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat bo‘lishi joiz.

Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati cheklanmagan. Zarurat va hojat o‘rinlarida Islomiy asoslar va tajribalardan kelib chiqib ularning vakolat muddatini cheklash va mansabidan ozod etish bundan mustasno.

77-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosi bo‘lishi mumkin.

Deputatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

Sharh:

1. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat"

Yuqorida aytib o‘tganimizdek islomda sho’ro majlisi a'zolari adadi cheklanmagan. Alloh ta'olo qur'onda:

وَأَمْرُهُمْ شُورَىٰ بَيْنَهُمْ

"Ular ishlari o'zaro sho'ro (maslahat) ila bo'lganlardir" (Sho’ro.38)

deganda va shuningdek,

وَشَاوِرْهُمْ فِى ٱلْأَمْرِ

" ular bilan ishlarda mashvarat qil"

(Oli imron. 159) deganda ham mu'ayyan adadga cheklamagan. Bu o'z navbatida cheklash nojoiz degani ham emas. Faqat, qur'on va sunnat qaydlamagan narsani qaydlamaslik afzal.

2. Qonunga muvofiq saylanadigan ..

Islomda sho’ro majlisi a'zolari ulamolar hay'atidan iborat bo‘lishini aytib o‘tdik. Shunga binoan, bu mansabga har kim o‘zining nomzodini qo‘yavermaydi. Va har kim ham ularni saylayvermaydi.

To'g'ri, o'sha ulamolar xalq nazariga tushgan kishilar bo'ladi. Ammo xalq nazariga tushish bu doim ham to'g'ri o'lchov emas. Ilm ko‘tarilgan, jaholat hukmron zamon va makonlarda, odamlarga kim o‘zini ko‘rsata bilsa o‘sha olim bo'lib ko‘rinaveradi. Umrida sahrodan boshqani ko‘rmagan kishi, maysani daraxt deb o‘ylaydi. Shunda "xalqni irodasi" da'vosi bilan dushman o‘zining xoin yollanma "ulamo" lari orqali ishlarni egallab oladi. Avom xalq fitnani anglamay qolaveradi. Mansabga harislar o'z maqsadlariga yetish uchun targ‘ibot-tashviqot uslubida ko‘p sodda kishilarning ovozini to‘plashlari mumkin. Unday bo‘lsa, kimni tashviqotga sarmoyasi ko‘p bo‘lsa, o‘sha saylovda ko‘proq ovoz to‘plab g‘olib bo‘laveradi. Bu esa hech qachon xalqning sof irodasini ifoda etmaydi.

Shuning uchun Islomda davlat boshlig'ini saylash ham, qonunchilik palatasini saylash ham umumiy xalq saylovi bilan bo‘lmaydi. Balki , haqiqatparvarligi, Allohdan boshqadan qo'rqmasligi bilan tanilgan ulamolarni o'zaro xos doirasida amalga oshiriladi.

Bu xalq irodasini mensimaslik emas, voqelik va haqiqatdir. Xalq uning irodasidan foydalanib kursiga o‘tirib oluvchilarning "Xalqning irodasi muhim" degan yolg‘on va'dalariga aldanmasligi kerak ! Chunki ular xalqning irodasini o'z manfaatlariga vosita qiladilar. Shuning uchun, saylovlar o'tgach, avvalgi va'dalardan

asar ham qolmaydi. Bu aslida shayton uslubidir. Odam va Havvoni jannatdan chiqarishda ularga qarab "Shu mevadan yenglar , men sizlarga yaxshilikni ravo ko‘rayapman xolos " deb o'zini ularga g'amxo'r ko'satib aldadi..

Islom dini insonlarga mana shu achchiq haqiqatni tushuntirishni istaydi. Dushmanlar bizdan o'z maqsadlariga yetish uchun ko'prik yasamasinlar.

Buning uchun xalq o‘zining irodasini Rabboniy Ulamolarga havola qilishi kerak. Davlat boshlig‘ini ham qonunchilik palatasi a'zolarini ham ular saylaydilar.

Bunga qo‘shimcha, saylovda kishi o‘zini mansabga taklif qiladi. Avval aytib o‘tganimizdek Islomda mansabni so‘ragan kishiga mansab berilmaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

انا والله لا نولى هذا الأمر أحدا سأله او حرص عليه.

"Allohga qasam biz bu ishlarni (mansabni) so‘ragan yoki haris bo‘lgan kishilarga topshirmaymiz "

(Buxoriy va muslim)

Ammo Yusuf alayhissalam misr podshohiga:

ٱجۡعَلۡنِي عَلَىٰ خَزَآئِنِ ٱلۡأَرۡضِۖ إِنِّي حَفِيظٌ عَلِيمٞ

«Meni yerning xazinalari ustiga qo'y. Albatta, men muhofaza qiluvchi va biluvchiman», (Yusuf.55)

deb mansab talab qilganlari sababi:

1-dan: O‘shanda bu mansabga u kishidan boshqa yaroqli kishi yo‘q edi.

2-dan: Yusuf alayhissalam payg'ambar bo'lib mansab hech qachon u kishini buzmas edi.

Boshqalar mansabni talab qilganda berilmasligi sababi unday odamda mansabparastlik borligi.

Ularga mansab tegsa, odatda undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanadilar. Shuning uchun ularni Yusuf alayhissalam holatiga qiyoslanmaydi.

Aytaylik, shunga o‘xshash vaziyatlar sodir bo‘lsa, mansabga yaroqli hech kim bo‘lmasa, shundagina o‘zini haqli deb bilgan kishilar o'z nomzodini o‘zi taklif qilishi mumkin. Bu istisnoiy holatlardan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat...

Senat haqida yuqoridagi moddada sharhlab o‘tdik. (Oldingi moddaga qarang)

4. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi.."

Senat a'zolarining barcha shaharlardan olinishi yaxshi ish. Ammo ularning adadini barcha viloyatlarda olti kishiga qaydlab qo‘yish adolatdan emas.

Chunki adolat son bilan emas, sifat bilan o'lchanadi. Masalan, bir viloyatda senat a'zosi bo‘lishga loyiq 100 nafar kishi bor, boshqa viloyatda esa 10 nafar kishi. Shunda ikkisidan ham 6 kishini olish adolat deyilmaydi. Balki ko‘pdan ko‘p, kamdan esa kamroq miqdorda taqsimlanib olinishi adolat bo'ladi. Bunga yana bir misol keltiraylik.

Uch kishi bir devordan o‘tmoqchi. Devor balandligi ikki metr.

1-kishining uzunligi ikki metr.

2-kishining uzunligi bir metr.

3-kishiniki esa yarim metr .

Ularga narvon berishimiz kerak bo'lsa, nechi metrdan taqsimlashimiz kerak bo'ladi ? "Adolat" deb hammasiga ikki metrlik narvon berishmi?! Y'oq ,albatta!

Balki 1-ga umuman bermaslik, 2-ga bir metrlik narvon berish, 3-ga esa bir yarim metrlik narvon berish adolat bo'ladi.

Shunga o‘xshash senat a'zolari hamma viloyatdan teng miqdorda emas, viloyatlardan ushbu mansabga layoqatlilar miqdoriga qarab taqsimlanishi kerak.

67-modda sharhida aytib o‘tganimiz, Imom Molik o‘zlarini "Muvatto" kitoblarini davlat dasturi qilinishiga norozi bo‘lganlari sababi ham shunda edi. U kishi kitobni Madinada yozdilar. Ammo boshqa Islom o‘lkalaridagi ulamolar fikri ham olinishi adolatdan edi.

5. "..O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi..."

Islomda sho’ro majlisi a'zolarini davlat rahbari tanlashga haqli. Umar raziyallohu anhu Ibn Abbos roziyallohu anhuni yosh bo'lishiga qaramay sho’ro majlisiga ixtiyor qilganlari bunga misol bo'ladi.

Faqat bu moddaning davlat boshlig‘i tanlaydigan o‘n olti nafar a'zo "fan, san'at, adabiyot sohasida xizmat ko‘rsatgan obruli fuqarolar orasidan tanlanishi " degan qismiga to‘xtalib o‘taylik:

Fan, san'at ham islomda ijozat berilgan chegaradan chiqmasligi shart. Masalan qo'shiqchilik, aktyorlik kabi ishlar islomda san'at deb nomlanmaydi va unga umumiy tarzda ruxsat ham berilmaydi.

Shuningdek, insonlarni yaxshilikka targ‘ib qilmaydigan, yomonlikdan qaytarmaydigan adib va shoirlik ham qur'onda malomat qilingan. Alloh ta'olo aytadi:

وَٱلشُّعَرَآءُ يَتَّبِعُهُمُ ٱلْغَاوُۥنَ

Va shoirlarga gumrohlar ergashur.

أَلَمْ تَرَ أَنَّهُمْ فِى كُلِّ وَادٍ يَهِيمُونَ

Ularning har vodiyda daydishini.

وَأَنَّهُمْ يَقُولُونَ مَا لَا يَفْعَلُونَ

Va o'zlari qilmaydigan ishlarni aytishini ko'rmadingmi?

إِلَّا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَعَمِلُواْ ٱلصَّٰلِحَٰتِ وَذَكَرُواْ ٱللَّهَ كَثِيرًا وَٱنتَصَرُواْ مِنۢ بَعۡدِ مَا ظُلِمُواْ وَسَيَعۡلَمُ ٱلَّذِينَ ظَلَمُوٓاْ أَيَّ مُنقَلَبٖ يَنقَلِبُونَ

Magar iymon keltirib, solih amallar qilganlar, Allohni ko'p zikr etganlar va mazlum bo'lganlaridan keyin nusrat qozonganlar (unday emaslar). Zulm qilganlar esa, tezda qaysi ag'darilish joyiga ag'darilishlarini bilurlar. (Shu'aro. 224-227)

Demak shoirlar iymonli va solih amal qiluvchi bo‘lishlari , she'riyatdan haq yo‘lida foydalanishlari kerak. Shunda ularni xalqqa xizmat ko‘rsatgan deyish to‘g'ri bo'ladi. Aktyorlik sohasi ham shunday.

Ammo ishlab chiqarish va boshqa insonlarning dunyo va oxiratiga manfaatli sohalar bo‘lsa bu to'g'ri.

Endi moddaning "..eng obruli fuqarolar.." degan qismiga qaraylik.

Inson odamlar orasi taniqli bo'lib qolishi bilan obruli shaxsga aylanib qolavermaydi. Ba'zan kishi Alloh huzurida zarracha qadri bo‘lmasa-da, odamlar oldida taniqli bo'lib qolishi mumkin. Bunga hadisdan bir misol keltiraylik:

مَرَّ رَجُلٌ عَلَى رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ ، فَقَالَ لرَجُلٍ عِنْدَهُ جَالِسٍ : (مَا رَأْيُكَ فِي هَذَا ؟) ، فَقَالَ : رَجُلٌ مِنْ أَشْرَافِ النَّاسِ ، هَذَا وَاللَّهِ حَرِيٌّ إِنْ خَطَبَ أَنْ يُنْكَحَ ، وَإِنْ شَفَعَ أَنْ يُشَفَّعَ، قَالَ: فَسَكَتَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ ثُمَّ مَرَّ رَجُلٌ آخَرُ ، فَقَالَ لَهُ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : (مَا رَأْيُكَ فِي هَذَا ؟) ، فَقَالَ: يَا رَسُولَ اللَّهِ ، هَذَا رَجُلٌ مِنْ فُقَرَاءِ الْمُسْلِمِينَ ، هَذَا حَرِيٌّ إِنْ خَطَبَ أَنْ لاَ يُنْكَحَ ، وَإِنْ شَفَعَ أَنْ لاَ يُشَفَّعَ ، وَإِنْ قَالَ أَنْ لاَ يُسْمَعَ لِقَوْلِهِ ، فَقَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : (هَذَا خَيْرٌ مِنْ مِلْءِ الأَرْضِ مِثْلَ هَذَا)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam oldilaridan bir kishi o‘tib qoldi. Payg'ambarimiz yonlaridagi kishiga qarab : "Bu kishiga nima deysan?" dedilar. U aytdi : Allohga qasam bu odam agar sovchi qo‘ysa uylana oladi, o‘rtaga tushsa shafoat qiladi ! (Ya'ni obru e'tiborli, gapi yerda qolmaydigan odam)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam sukut qildilar.

So‘ng, yana bir kishi o‘tib qoldi. Payg'ambarimiz: "Bunisiga nima deysan?" dedilar . U aytdi:

Ya Rasulullоh! Bu odam musulmonlarning faqirlaridan! Sovchi qo‘ysa unga qiz berishmaydi, shafoat qilsa qabul qilinmaydi, gapirsa unga quloq solishmaydi! (Ya'ni, odamlar nazariga ilmaydigan obru e'tiborsiz kishi)

Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

"Mana shu (ikkinchisi) anovi (birinchi) mislidan yer to'laligichasidan yaxshidir!" (Buxoriy rivoyati)

Demak, islomda kishining obro’si odamlarga taniqli bo'lib qolishidagina emas . Hech kim nazariga ilmaydigan kishi bo‘lsa-da, obro' uning taqvosi bilan o'lchanar ekan.

6. Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosi bo‘lishi mumkin.

Islomda shoro majlisiga a'zo bo‘lish ma'lum yoshga cheklanmagan. Chunki “Aql yoshda emas boshda" .

Shuning uchun Umar raziyallohu anhu hali yigirmaga to‘lmagan Ibn Abbos roziyallohu anhuni sho’ro majlisiga qabul qilganlar. To'g'ri hamma ham Ibn Abbos emas. Shuning uchun yigirma besh yoshni qaydlash nojoiz deya olmaymiz. Faqat avval aytganimizdek, Islomda mutlaq qo‘yilgan ishlar mutlaqligicha olingani yaxshi. Chunki qancha yigirmaga kirmaganlar borki o‘ttizga kirganlardan aqlli.

Agar biror yoshga qaydlash kerak bo‘lsa ham, insonning aqliy tajribasi eng yetilgan yosh, qirq yoshga qaydlangan afzal. Chunki Alloh ummatlarni boshqaruvchi payg'ambarlarni ham shu yoshda jo‘natgan. Qur'onda bu yosh insonni aqliy yetilish yoshi ekaniga ishora qilingan. Alloh ta'olo aytadi:

حَتَّىٰٓ إِذَا بَلَغَ أَشُدَّهُۥ وَبَلَغَ أَرۡبَعِينَ سَنَةٗ قَالَ رَبِّ أَوۡزِعۡنِيٓ أَنۡ أَشۡكُرَ نِعۡمَتَكَ ٱلَّتِيٓ أَنۡعَمۡتَ عَلَيَّ وَعَلَىٰ وَٰلِدَيَّ وَأَنۡ أَعۡمَلَ صَٰلِحٗا تَرۡضَىٰهُ وَأَصۡلِحۡ لِي فِي ذُرِّيَّتِيٓۖ إِنِّي تُبۡتُ إِلَيۡكَ وَإِنِّي مِنَ ٱلۡمُسۡلِمِينَ

"..Toki u kamolga yetib, <u>qirq yoshga</u> kirganida: «Robbim O'zing menga va ota-onamga bergan ne'matlaringga shukr qilishimga va sen rozi bo'lgan solih ishlarni qilishimga ilhom bergin. Va mening zurriyotlarimni ham solihlardan

qilgin. Albatta, men tavba qildim va albatta, men musulmonlardanman, dedi. " (Ahqof.15)

Demak, inson qirq yoshda oʻzligini, ota-onasini, farzandi va oxiratini gʻamini haqiqiy tushinib yetar ekan!

Ammo uni yigirma besh yoshga qaydlash esa, na ilohiy kitoblardan, na ilmiy tajribalardan olingan emas. Balki bu yoshga qaydlash odatda gʻarb qonunlarida qoʻllanilgan. Boshqa qonunlar singari bu ham bizga ulardan kirib keldi.

Shu oʻrinda bir shubhaga javob berib oʻtishni lozim deb bildik.

Ma'lumki, agar kishi voyaga yetsa, moliyaviy tasarrufi ixtiyori oʻziga berilishi kerak. Ammo, ba'zan, voyaga yetgan boʻlsa-da, molini keraksiz narsaga ishlatib qo'yuvchilar ham bo'ladi. Shundaylarni aqli kirguniga qadar moliyaviy tasarrufiga cheklov qoʻyish joiz. Ammo bu cheklov qachongacha davom etadi? Shunda Abu Hanifa rahimahulloh yigirma besh yoshgacha deganlar.

Kimdir hanafiy mazhabidagi shu fatvoni olib konstitutsiyadagi yigirma besh yoshga hujjat qilsa, unga aytamizki, konstitutsiya boshidan oxirigacha dinga , ulamolarga qiyo boqmay, shu yigirma besh yosh masalasida Abu Hanifa rahimahulloh fatvosiga suyanib qabul qilindimi ?!

Albatta ular bu fatvoga suyanmagan. Balki bu qayd yuqorida aytilganidek gʻarb normalaridan qabul qilingan..

Endi ".. besh yil muqim yashagan.." degan shartga toʻxtalib oʻtaylik.

Buni shart qilishda, kechagina chetdan kelgan kishida yurt haqida to'g'ri tasavvur boʻlmaydi, uning o'zi ham tajribadan o'tmagan degan ma'nolar qasd qilingan boʻlsa, bu qisman to'g'ri.

Umar raziyallohu anhu siyratlariga qarasak, hamma mintaqaga o'sha yerga yaroqli kishilarni tayinlar edilar.

Faqat bunda ham besh yilga qaydlab qoʻyishda qanday asosga suyanilgan? Nega aynan besh yil?

Buni nojoiz deya olmasak-da, muayyan muddatni qaydlashda qandaydir asosga suyanish kerak.

Endi "...o'zbekiston respublikasi fuqarosi..." shart qilinishiga qaraylik.

Biz musulmonlarda fuqarolik kofirlar tomonidan belgilangan chegaralar bilan o'lchanmasligini aytib o‘tdik.

Ammo voqelikda buni tatbiqi imkoni bo‘lguniga qadar, hamma yurtga o‘zidan boshliq tayinlash yomon joyi y'oq.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam fath qilgan yerlari, yoki aholisi Islomga kirgan yerlarga o‘shalarning o‘zlaridan boshliq tayinlar edilar. Shuning uchun Makka fathida ham, Makkadagi barcha boshqaruvni avvalgi egalarida qoldirdilar.

7. Deputatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Biz ham bu bandga "shartlar islom qonunlari bilan belgilanadi" degan qaydni qo‘shamiz .

Unga ko‘ra, Sho’ro majlisi yoki oliy majlis a'zolarida:

1- Islom

2- adolat

3- aqliy sog'lomlik

4- o'tmishida shar'iy hududlar bilan jazolanmagan

5- shar'iy ilmlarni puxta egallagan

6- mansabga o‘zini taklif qilmagan bo‘lishi shart qilinadi..

8. "..Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi bo‘lishi mumkin emas."

Ikki tabaqa ham o'z vazifasini mukammal darajada bajarishi uchun bunday shart qo‘yilishi Islomda taqiqlanmaydi. Shunga ko‘ra moddaning bu qismida e'tirozga hojat yo‘q. (Allohu a'lam)

Xulosa :

77-modda

Oliy Majlisning qonunchilik palatasi shar'iy qonunlarga muvofiq tanlanadigan ulamolardan iborat.

Ular davlatning barcha viloyatlaridan adolat bilan ixtiyor qilinadi.

Davlat rahbari, xalq orasida taqvosi, haqiqatparvarligi va xalqqa xizmati bilan tanilgan kishilarni oliy majlisga ixtiyor qilish huquqiga ega.

Oliy majlisga a'zo bo‘lish uchun qo‘yiladigan talablar shar'iy qonunlar bilan belgilanadi.

78-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

2) O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

3) O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

8) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;

10) O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;

12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

16) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;

17) O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;

18) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

Sharh:

Oliy majlisning qonunchilik palatasi va senat a'zolari vakolatlarini gapirishdan avval yana eslatib o‘tamiz, eng avvalo ularda islomiy shartlar topilishi kerak. Shundagina bu moddada aytiladigan vakolatlar ularga havola qilinishi joiz bo'ladi.

Demak, shunday farazga ko‘ra ushbu vakolatlarni ko‘rib chiqaylik:

1) "O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish.."

Avvalo, Islomda konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish haqida to‘xtalib o‘taylik.

Islomda asoslar hech qachon o‘zgarmaydi. Ammo zamon va makon ehtiyojlariga qarab juz'iy hukmlar o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun qiyomatga qadar ijtihod eshigi ochiq qoldirildi. Musulmonlar ijtihod shartlaridan qo‘rqib uni berkitishlari sabab bugun dinni davlatdan ajratadigan "Ilmoniylik" tushunchasi kelib chiqdi. Ularning fikriga ko‘ra, din hozirgi zamon talablariga javob bermas emish. Shuning uchun din faqat masjidlarda bo'lishi kerak, siyosatga aralashmasin deyishadi. Ularning bunday fikrlashlariga mutaassib musulmonlar ham qisman sabab. Chunki, shar'iy asoslardan kelib chiqib zamonaviy masalalarga hukmlar chiqarib berishda sustlik qildilar.

Odamlarning rivojlanishiga qarab ahkomlar yangilanishi Allohning Ilohiy sunnati. Shuning uchun Alloh payg'ambarlar va kitoblarini tez-tez jo‘natib turar edi. Ammo Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga kelgan Qur'on esa, qiyomatga qadar o'zini o'zi yangilaydigan umumiy asoslarga ko‘ra nozil bo‘ldi. Lekin ushbu qur'onni nozil qilishda, ba'zi oyatlar hukmi bekor bo‘lib o‘rniga boshqasi tushishi, yoki bekor

bo‘lmasa-da hukmiga amal qilish kechiktirilishiga ruxsat berilgani ham yuqoridagi ma'noni anglatadi.

Ya'ni, shariat bosqichma-bosqich tatbiq qilinadi.

Bu ma'noni Oisha raziyallohu anho so‘zlaridan ham tushunsak bo'ladi:

إنَّما نَزَلَ أوَّلَ ما نَزَلَ منه سُورَةٌ مِنَ المُفَصَّلِ، فِيهَا ذِكْرُ الجَنَّةِ والنَّارِ، حتَّى إذَا ثَابَ النَّاسُ إلى الإسْلَامِ نَزَلَ الحَلَالُ والحَرَامُ، ولو نَزَلَ أوَّلَ شَـيءٍ: لا تَشْـرَبُوا الخَمْرَ، لَقالوا: لا نَدَعُ الخَمْرَ أبَدًا، ولو نَزَلَ: لا تَزْنُوا، لَقالوا: لا نَدَعُ الزِّنَا أبَدًا،

"Qur'onda avvalo kichik suralar nozil bo‘ldi. Unda jannat, do‘zax zikr qilinar edi. Qachonki odamlar islomga intilgach, keyin halol va harom ahkomlari tushdi. Agar avvaldan "aroq ichmanglar" deganda, odamlar : "Aroqni hech qachon tark qilmaymiz" derdilar! Agar avvaldan "zino qilmang" deganda, odamlar "zinoni hech qachon tark qilmaymiz" derdilar..." (Buxoriy rivoyati)

Demak, odamlarga avvalo e'tiqod so‘ng ahkomlar bosqichma-bosqich ta'lim berilishi kerak ekan.

Bunga o‘xshash ma'no Umar ibn Abdulaziz rahimahullohdan ham rivoyat qilingan.

U kishi xalifa bo‘lganlarida o‘g‘illari u kishiga aytdi : "Ey ota ! Nega odamlarni o‘zingiz istagandek yo‘lga solmayapsiz?"

U kishi aytdi :

"Ey o'g'lim! Men odamlarni bir hamlada dinga undasam bir hamlada dindan chiqib ketishlaridan qo‘rqaman !"

Demak, Islomda sho’ro majlisi a'zolari, odamlarning holatiga qarab, shariat ijozat bergan darajada qonunlarga o‘zgartirish va yangiliklar kiritishlari joiz bo'ladi. Faqat ularda bunga yetarli darajada ilmiy saviya bo'lishi kerak.

2) "O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish"

Bunda ham, yuqorida aytib o‘tilganidek qonun chiqaruvchilar islomiy shaxsiyat egasi bo‘lishi va asoslar shar'iy bo'lishi lozim. Shunga ko‘ra, ular qonunlar qabul qiladi yoki qonunlarga o‘zgartirish kiritadi.

Bunga mazhab ulamolari o'z ijtihodlarini o'zgartirishlarini misol qilish ham mumkin. Masalan Imom Shofeiy rahimahullohning qadim va yangi mazhablari bor edi. Shuningdek Imom Ahmadni bir masalada uch -to‘rt xil fatvolari naql qilinadi. Shunga ko‘ra, qonunlar dalil va ehtiyojlarga qarab shar'iy doirada o'zgartiriladi.

3) "O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish"

Islomiy nizomda ommaviy saylov va referendumlar o'rniga sho’ro nizomi joriy qilingan. Bu haqida "Saylov tizimi" da batafsil to'xtalamiz.

(117-modda sharhiga qarang)

4) "O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish"

Islom nizomida ham, ichki va tashqi siyosatni sho’ro majlisi olib boradi. Bunga Qur'onda malika Bilqis qissasida ham ishora bor. Sulaymon alayhissalam ularga bostirib borish bilan tahdid qilganlarida, u ayol davlatning oliy kengashi bilan maslahat qiladi . Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

قَالَتْ يَٰٓأَيُّهَا ٱلْمَلَؤُا۟ أَفْتُونِى فِىٓ أَمْرِى مَا كُنتُ قَاطِعَةً أَمْرًا حَتَّىٰ تَشْهَدُونِ

U (malika) aytdi«Ey a'yonlar! Menga bu ishimda fatvo beringlar. Sizlar shohid bo'lmaguningizcha, men bir ishga qat'iy qaror qilmasman» (Naml.32)

Malikaning bu ishiga Alloh iqror bo‘ldi. Shunga binoan ichki va tashqi siyosat oliy kengash maslahati bilan boshqarilishi kerak.

5) "O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash"

Qonun chiqaruvchi organlar haqida avval aytib o‘tdik. Ijro etuvchi va sud hokimiyati haqida keyingi bo‘limlarda to‘xtalamiz. Bu yerda aytilish kerak bo‘lgan narsa, ushbu organlar vakolatlarini oliy majlis belgilashi. Islomiy nizomda ham ularning vakolati sho’ro majlisi orqali belgilanadi.

Bunga xulafoyi roshidinlar ushbu organlar vazifalaridagi shaxslarning vakolatlarini belgilaganlari dalil bo'ladi

6) "O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash"

Bunda ham davlat tuzilmalarini shariat asosida qabul qilish va tugatish shartiga ko‘ra ushbu vakolatlar sho’ro majlisiga havola qilinadi.

7) "boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish"

Boj haqida 51-modda sharhiga to‘xtalib o‘tdik.

Ammo valyuta va kredit ishlari esa islomiy qonunlarga asoslanishi, ribodan xoli bo‘lishi shart qilinadi.

Umuman olganda Islomiy iqtisodga asoslanishi kerak.

8) "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish"

G‘arb lug‘atida Davlat budjeti deyilgan narsa, Islom lug'atida "Baytul-mol" deb ataladi. Aslida istilohda muammo yo‘q bo'lsa-da, ular modom o'z tilidagi so'zlardan foydalanmay, g'arb istilohlarini ishlatar ekan, biz ham Islom istilohlarini ishlatamiz.

Umuman olganda Islomiy nizomda ham baytulmol boshqaruvi davlat boshlig‘i va sho’ro ahli nazoratida bo'ladi .

9) "soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish"

Islomiy nizomda soliq tizimi haqida 51-modda sharhida aytib o‘tdik.

Soliq o‘rniga asosan zakot, xaroj, jizya kabi to‘lovlar joriy qilinadi. Qolgan majburiy to‘lovlar esa, taqdim etilgan manfaat evaziga bo'ladi.

Ularni ijro qilish davlat boshlig‘i va sho’ro majlisiga havola qilinadi.

10)" O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish:

Bu ikki band haqida 68-modda sharhida aytib o'tdik.

Xulosa qilib aytganda bu ikki vakolat Islomda ham sho’ro majlisiga havola qilinadi.

12) "davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish"

Buni ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam siyratlarida misollari ko‘p.

Yangi Islomga kirgan kishilarning dinini mustahkamlash maqsadida ularga mukofotlar berar edilar. Makka fathida Abu Sufyonga imtiyoz berib **"Kim uning hovlisiga kirsa omonda"** dedilar. Janglarda xizmat ko‘rsatgan sahobalarga "**Allohning qilichi, Allohning arsloni, Rasulullohning himoyachisi** " kabi unvonlar berdilar.

Shunga binoan bunday mukofotlar tayinlashni islomiy asosda faoliyat olib boruvchi sho’ro majlisiga havola qilish ham joiz.

13)"O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash"

Islomiy nizomda ham davlat boshlig‘i qarorini sho’ro ahli tasdiqlab beradi. Bunga Malika Bilqis qissasida ishora qilinganini aytib o‘tdik. (4-bandga qarang)

U o‘zining a'yonlarining masalahatisiz qaror bermagani zikr qilinib uning bu ishi ma'qullandi.

14) "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish"

Bu haqida ushbu moddaning 3-bandi sharhida aytib o‘tdik.

Islomiy nizomda saylov va unga tegishli boshqa tashkilotlarga ehtiyoj yo‘q.

15) "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish"

Vazirlik va uning dalillari haqida 20-bobda batafsil to‘xtalamiz in sha Alloh.

Umuman olganda vazirlar tayinlash va ularni boshqarish Islomda ham davlat boshlig‘i va sho’ro majlisiga havola qilinadi.

16) "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash"

Inson huquqlari haqida avval to‘xtalib o‘tdik.

Bu banddan maqsad, inson huquqlari bo‘yicha vakil va uning o‘rinbosarini saylash oliy majlis vakolatiga topshirilishi ekan.

Bu ham idoraviy boshqaruvga tegishli masala. Bunda kerakli odamni o‘rniga qo'yilaveradi.

Faqat avval aytib o‘tganimizdek inson huquqlari da'vosi bilan shariat harom qilgan ishlarga ruxsat chiqarish mumkin emas. Insonni nimaga haqqi boru nimaga haqqi yo‘qligi g‘arb mezoni bilan emas, shar'iy mezon bilan o'lchanishi kerak. (13-modda sharhiga qarang)

17) "O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish"

Islomda Hisob palatasi vazifasini davlat rahbarining eng yaqin yordamchilari boshqaradi .

Kishining eng yaqin yordamchilari "Bitona" (ishonchli sirdosh)deb nomlanadi.

Alloh ta'olo bu haqida aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ لَا تَتَّخِذُواْ بِطَانَةً مِّن دُونِكُمْ

Ey iymon keltirganlar, o'zingizdan boshqadan sirdosh tutmang. (Oli-Imron.118)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

ما بعثَ اللهُ من نَبِيٍّ ، ولا اســـتخلَفَ مِنْ خليفَةٍ إلَّا كانتْ لَهُ بطانتانِ : بطانةٌ تأمرُهُ بالمعروفِ ، وتحضُّهُ عليْهِ ، وبطانَةٌ تأمرُهُ بالشَّرِّ ، وتحضُّهُ ، فالمعصومُ مَنْ عصمَهُ اللهُ

"Alloh qanday payg'ambar yuborgan bo‘lsa, va qanday xalifa qilgan bo'lsa albatta uning ikki sirdosh yaqini bo'ladi. Biri uni yaxshilikka buyurib unga targ‘ib qiluvchi, ikkinchisi uni yomonlikka buyurib unga undovchi yaqini. Bundan Alloh asragan kishilargina omon qoladilar." (Buxoriy rivoyati)

Hozirgi zamonda hisob palatasi deyilgan bo‘lim vazifasini oyat va hadisda "Bitona" deb zikr qilingan kishilar bajaradi. Ular eng ishonchli kishilardan tanlanadilar. Ularning hisobotlarini ko'rib chiqish vakolatini sho’ro majlisi yoki Islomiy faoliyat olib boruvchi oliy majlisga havola qilish, "yaxshilikda o‘zaro yordamchi bo'lish" asosiga ko‘ra joiz bo‘laveradi.

18) "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan

shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash"

Islomda ham davlat boshlig‘i ommaviy safarbarlik e'lon qilsa Sho’ro majlisi uni tasdiqlaydi. Bunday muhim ishlar ular o‘rtasida sho’ro bilan bo‘lishini Qur'onda malika Bilqis qissasida ham ishora qilinganini aytib o‘tdik:

قَالَتْ يَٰٓأَيُّهَا ٱلْمَلَؤُا۟ أَفْتُونِى فِىٓ أَمْرِى مَا كُنتُ قَاطِعَةً أَمْرًا حَتَّىٰ تَشْهَدُونِ

U (malika) aytdi«Ey a'yonlar! Menga bu ishimda fatvo beringlar. Sizlar shohid bo'lmaguningizcha, men bir ishga qat'iy qaror qilmasman» (Naml.32)

Hal qiluvchi qarorni esa davlat boshlig‘i beradi. Bunga bir misol, Abu Bakr raziyallohu anhu xalifaliklarida murtadlarga urush ochishni e'lon qildilar. Sho'ro ahlidan ko‘pchilik hatto Umar raziyallohu anhu ham avvalda bunga norozi bo‘ldilar. Ammo Abu Bakr raziyallohu anhu o'z fikrlarida qat'iy turdilar. Oxiri Umar raziyallohu anhu ham u kishining fikriga qo‘shildilar. Shunga binoan agar davlat boshlig‘i o'z qarorini dalillar bilan quvvatlay olsa, sho’ro ahli davlat boshlig‘ining qaroriga rozi bo‘lishlari shart.

19) "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash"

Umuman olganda bu ham sho’ro majlisi vakolatidagi ishlardan. Alloh ta'olo aytadi:

وَأَمْرُهُمْ شُورَىٰ بَيْنَهُمْ

"Ular ishlari o'zaro sho’ro (maslahat) ila bo'lganlardir" (Sho’ro.38)

وَشَاوِرْهُمْ فِى ٱلْأَمْرِ

ular bilan ishlarda mashvarat qil. (Oli imron. 159)

20) "xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish"

Ya'ni xalqaro shartnomalalarni tasdiqlash va bekor qilish ham oliy majlis vakolatidan.

Ratifikatsiya va denonsatsiya lotin va fransuz tilidagi istilohlar. Ushbu konstitutsiya ulardan kirib kelgani sabab ularning istilohlari ishlatilgan.

Biz esa, musulmon o'laroq Allohning kitobi nozil bo‘lgan lug‘at, Islom lug'atidagi istilohlarga odatlanishimiz kerak.

Endi maqsadga qarasak, ushbularni oliy majlis vakolatiga havola qilishda monelik yo‘q. Islomda ham bu ishlar sho’ro majlisiga havola qilinadi.

21) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Parlament nazoratini boshqarish bo'lsin, konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlar bo'lsin hammasi shar'iy asoslarga zid bo‘lmasligi shart. Buning uchun esa konstitutsiya shar'iy asoslarga ko‘ra yozilgan bo‘lishi kerak.

"Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi"

Bunga ham yuqoridagi shartlar bilan amal qilinadi.

Palatalar islomiy bo'lgach ularning vakolatlariga nimalar kiradi va nimalar kirmaydi bular hammasi islomiy asoslardan kelib chiqib belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy majlis a'zolari Islomiy shaxsiyatlar bo'lishi sharti bilan ushbu moddada aytilgan vakolatlarga ular haqli bo'ladi. Ularning hammasi shariatga zid bo‘lmagan tarzda amalga oshiriladi.

O'zgartirish asosan saylov, soliq va kredit kabi Islomga zid sohalarga tegishli.

Xulosa:

78-modda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1) Konstitutsiya qabul qilish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

2 Shariat asosida qonunlar qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

3) Sho’ro majlislarini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) Davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) Davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini shar’iy asoslarga ko‘ra belgilash;

6) Yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularni davlat tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valyuta va iqtisodga oid ishlarini shar'iy yo‘l bilan tartibga solish;

8) Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni shar'iy asosda joriy qilish;

10) Davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;

12) Davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

13) Davlat rahbarining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash

14) Sho’ro komissiyasini tuzish;

15) Davlat rahbarining taqdimiga binoan Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

16) Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;

17) Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;

18)Davlat rahbarining Davlatga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

19) Davlat rahbarining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) Sho’ro majlisi nazoratini va shar'iy asoslarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval Oliy majlisning Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

79-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

3) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Sharh:

1. Spiker, qo‘mita raislarini saylash.

Bunda ham qonunchilik palatasida islomiy shartlar topilishiga qarab bu vakolatlarni ularga taqdim qilinaveradi.

Muhimi ishlarni o'z egasiga topshirish kerak. Bu haqida 11-modda sharhida batafsil aytib o'tdik.

2.Shuningdek deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish ham Islomiy asoslardan kelib chiqib amalga oshirilishi kerak

3.O'z faoliyati va ichki tartiblarini idora qilish to'g'risida chiqarilgan qarorlari islomga zid kelmasa, bunda ham monelik yo‘q.

4. Siyosiy masalalar, ichki va tashqi siyosat..

Bu bandga ham islomga muvofiq siyosat olib borilishi sharti bilan amal qilinadi.

Umuman olganda bu modda ham idoraviy boshqaruvga tegishli bo‘lib ushbu vakolatlar berilgan shaxslarda islomiy shartlar topilishi lozim.

Xulosa:

79-modda.

Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

3) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

80-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisini tayinlash;

(80-moddaning 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 31 maydagi O‘RQ-430-sonli

Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2017 y., 22-son, 406-modda)

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Sharh:

Senat mutlaq vakolatlarida haqida gapirar ekanmiz, qonunchilik palatasi kabi senatning faoliyatda ham Islomiylik shart qilinadi.

Senatda shu shart topilishiga qarab ularga ushbu vakolatlar beriladi.

1. Senat raisi , o'rinbosarlarini tayinlash...

Ularni saylashda ham Islomiy shartlar topilgan kishilar bo‘lishlari shart qilinadi.

2. Konstitutsiyaviy sudni saylash..

Konstitutsiya Islomiy bo‘lganda, konstitutsiyaviy sud saylash senat vakolatiga kirishida ham monelik yo‘q. Bu haqida 108-modda sharhida batafsil to‘xtalamiz.

3. Oliy sudni saylash

4. Sudyalar oliy kengashini raisini tayinlash

Oliy sud va sudyalar kengashi Islomga asoslansa ularni tayinlash vakolati senatga topshirilishi mumkin.

5. Band olib tashlangan ekan. Demak konstitutsiyaga odamlar fikri bilan o‘zgartirish kiritish mumkin ekan, nega Allohning kitobi asosida unga o‘zgartirish kiritish mumkin emas ?

6. Prokurorlar tayinlash va ozod etish..

Prokuratura faoliyati Islomiy ko‘rinishda bo'lishi shart qilinadi.

Prokuratura haqida 24-bobda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

7. Milliy xavfsizlik raisini tayinlash va ozod etish vakolati..

Milliy xavfsizlik islomga muvofiq faoliyat olib borishi shart.

8. Diplomatik vakillarni tayinlash va ozod etish vakolati.

Bunda ham diplomatlarning faoliyati islomiy bo'lishi shart.

9. Markaziy bank raisini tayinlash va ozod etish...

Banklar islomiy faoliyat olib borishi shart.

10. Amnistiya to'g'risida hujjatlar qabul qilish..

Islomda jinoyatni kechirish tafsilotga muhtoj masalalardan. Ba'zan kechirish, ba'zan kechirmaslik afzal bo'ladi. Buni o‘rnida qo‘llay bilish uchun avlaviyyot ilmlarini (Ya'ni qaysi o‘rinda qanday qaror qabul qilish afzalligini) bilish kerak bo‘ladi. Masalan, Makka fathida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aholiga ommaviy kechirim e'lon qildilar. O‘sha kunda ozod bo‘lganlar "To'laqolar" (qo‘yib yuborilganlar) deb nomlanar edi. Ammo, aholidan to'rt kishini, ka'baning pardasiga osilib o‘tirishgan bo‘lsalar ham o'ldiringlar dedilar. Chunki ular musulmonlarga qattiq zarar bergan kishilar edi.

Banu mustalaq va havozin asirlarini ozod etishda esa, ularda sahobalar haqlari borligi uchun o‘zlari ozod qilib yubormadilar. Faqat Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ozod qilish fikrini taqdim qildilar sahobalar esa o'z ixtiyorlari bilan ularni ozod qilishdi.

Shu kabi kimni avf etish kimni jazolash Islomiy asoslardan kelib chiqib amalga oshirilishi kerak.

11. Senatni daxlsizlik huquqidan mahrum etish vakolati..

Bunga amal qilish uchun ham daxlsizlik haqqidan ozod etish Islomiy asoslarga ko‘ra amalga oshirilishi kerak.

12.Bosh prokuror va bank raisining hisobotlarini eshitish..

Bular haqida 6- va 9-bandlarda aytib o‘tdik.

Umuman olganda ularning hisobotlarini eshitishda monelik yo‘q.

13. O'z faoliyati va ichki tartiblari bilan bog‘liq qarorlar qabul qilish..

Ushbu bandga ham qarorlar islomga asoslangan bo'lishi sharti bilan amal qilinadi.

14. Siyosiy , ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish..

Bu sohalardagi qabul qilingan barcha qarorlar ham Islomiy asoslardan kelib chiqqan bo‘lishi shart.

Umuman olganda senat a'zolarida shar'iy asoslar topilganda ularga ushbu vakolatlar berilishida mumkin.

Xulosa:

80-modda.

Senat mutlaq vakolatlariga:

1) Senat Raisini va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) Davlat rahbarining taqdimiga binoan Konstitutsiyaviy sudni saylash;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) Davlat rahbarining taqdimiga binoan Sudyalar oliy kengashining raisini tayinlash;

(80-moddaning 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 31 maydagi O‘RQ-430-sonli

Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2017 y., 22-son, 406-modda)

6) Davlat rahbarining Bosh prokuror va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) Davlat rahbarining Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) Davlat rahbarining taqdimiga binoan chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) Davlat rahbarining taqdimiga binoan Markaziy banki Boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) Davlat rahbarining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) Bosh prokurorning taqdimiga binoan Senat a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

12) Bosh prokurorning, Markaziy bank boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

81-modda.

Vakolat muddati tugagach, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tegishincha yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan

kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o‘tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir,

Vazirlar Mahkamasining a’zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki Boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o‘tkazadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlislari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda o‘tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo‘shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o‘tkazilishi mumkin.

Sharh:

1. "Vakolat muddati tugagach, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilikbpalatasi va Senati tegishincha yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.."

Bu banddan maqsad, yangi a'zolar ish boshlaguniga qadar eskilari faoliyatini davom ettirib turishi.

Avval aytib o'tganimizdek Islomda sho’ro majlisi a'zolari ma'lum vaqtda almashtirilmaydi. Balki, ularda o'z vazifasiga noloyiqlik holati topilsagina vazifasidan ozod etiladi.

Shunga binoan bu bandga ehtiyoj qolmaydi.

2. "..O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi..."

Bu banddan maqsad, qonunchilik palatasi va senat majlislarini belgilash.

Islomda majlislar o‘tkazish mu'ayyan vaqtga cheklanmagan. Balki, ehtiyojga qarab o'tkazilaveradi.

Faqat muhim masalalarni kechiktirish joiz emas. Shuning uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan keyin, sahobalar u kishini dafn qilishdan avval tezda majlislar o‘tkazib Abu Bakr raziyallohu anhuni xalifa qildilar. So‘ng, u kishi bosh-qoshligida dafn marosimi o‘tkazildi. Chunki ummatni birligi eng birinchi darajali vazifa edi.

3. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o‘tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o‘tkaziladi"

Majlislar qachondan qachongacha va necha marta o‘tkazilishi Islomda cheklanmagan. Buni ham ehtiyojga qarab tashkil qilinaveradi.

4. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart"

Islomiy nizomda deputat va senatorlar shar'iy ilmga ega ulamolardan iborat bo‘lishini aytib o‘tdik. Shunga ko‘ra, ularning majlislaridagi qarorlar inobatga olinishi uchun ham, ularning aksar qismi majlisda ishtirok etgan bo‘lishi shart. Shuning uchun fiqh ilmida, "ulamolar sukuti ittifoqqa hujjat emas " deyiladi. Ba'zi ulamolar sukut qilsa ittifoq kuchini yo’qotar ekan, ular aksari ishtirok etmagan majlislar va undagi qarorlar ham albatta kuchini yo’qotadi . Imom Ahmad rahimahulloh aytadilar: "Kim ulamolar ijmosini da'vo qilsa yolg'on aytibdi".

Chunki ularni hammasini fikrini bilish qiyin. Ba'zilar e'tirozi bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam musulmonlar jamoasini lozim tutishga buyurganlarida, ko‘pchilik fikri haqiqatga yaqin bo‘lishiga ishora qilganlar. Bu qur'onda yomonlangan "ko'pchilikka qarab ish qilish" emas. Chunki, yomonlangan ko‘pchilikdan maqsad, dinsiz tabaqa insonlar nazarda tutilgan. Dindor musulmonlar ko‘pchiligi esa "Jumhur" deb nomlanib ular bir -ikki kishidan ko‘ra haqqa yaqin bo‘ladilar.

Shunga binoan deputat va senatorlar shar'iy ilm sohibi bo‘lmasalar, ularning uchdan ikkisidan ko'prog'i yoki hammasi ittifoqi ham hech qanday qonunga hujjat bo‘lmaydi.

5. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a’zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki Boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin..."

Bu band deputat va senatorlar majlislarida kimlar ishtirok etishi mumkinligi haqida ekan.

Islomda qonun chiqarish majlislarida kim ishtirok etishidan qat'iy nazar ularda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytgan ikki shart topilishi kerak.

1-Modom namoz o'qisalar.. 2-Modom sizlarni Allohning kitobi ila boshqarsalar" (Imom Muslim rivoyat qilgan hadisdan olingan shartlar)

6."O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o‘tkazadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlislari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda o‘tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo‘shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o‘tkazilishi mumkin..."

Majlislar va ularni o‘tkazish tartibi islomga xilof bo‘lmasligi sharti bilan bunga ham monelik yo‘q

Umuman olganda bu modda ham idoraviy boshqaruvga tegishli bo‘lib shariatga zid kelmaydigan ko‘rinishda amal qilinishi lozim.

Xulosa:

81-modda.

Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasi tayinlangandan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay sho'ro komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o‘tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o‘tkaziladi.

Senat majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o‘tkaziladi.

Oliy Majlis palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida davlat rahbari, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a’zolari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi raislari, Bosh prokuror, Markaziy bank Boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, Oliy Majlisning Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o‘tkazadilar.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlislari Davlat rahbari qasamyod qilganda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda o‘tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo‘shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o‘tkazilishi mumkin.

82-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Sharh:

1. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi"

Islomda qonunchilik palatasi qaror qabul qilishi shartlari va chegarasi haqida 76-modda sharhida batafsil aytib o‘tdik.

2. "Deputatlar va senat a'zolari sonining ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilish.."

Avval aytib o‘tganimizdek, deputat va senatorlar dini va shar'iy ilmi e'tiborga olinmas ekan, unday ko'pchilikka qarab amal qilib bo‘lmaydi. Insonlarni diniy saviyasidan qat'iy nazar, ko'prog'iga ergashib ketaverish ayni Alloh ogohlantirgan "**Ko'pchilik**" dir.

Ammo ushbu deputat va senatorlar dindor ulamolardan tashkil topsa, ana shunda ularning ko'prog'i fikri haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

عليكم بالجماعةِ وإيَّاكم والفُرقَةَ فإنَّ الشـيطانَ معَ الواحدِ وهو منَ الاثنَينِ أبعَدُ مَن أراد بحبوحةَ الجنةِ فلْيلزَمِ الجماعةَ

"Sizlar (musulmonlar) jamoasini lozim tutinglar. Firqalanishdan ehtiyot bo‘linglar. Chunki shayton, yakka bilan. Ikki kishidan esa uzoqroqdir. Kim jannatning markazini istasa jamoatni lozim tutsin" (Termiziy rivoyati)

Shuning uchun ulamolar koʻpincha "Jumhur ulamolar" fikrini qabul qilishadi. Lekin bundan "Jumhur xato qilmaydi" degan ma'no chiqmaydi. Balki hadisda aytilganidek shayton bir kishiga qaraganda ulardan uzoqroq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda muammo koʻpchilikni fikrini qabul qilishda emas, muammo koʻpchilik kimlardan tashkil topganida.

3. ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ya'ni, koʻpchilik fikriga koʻra qaror qabul qilishdan konstitutsiyada nazarda tutilgan ba'zi holatlar mustasno .

U holatlarni biz ham oʻzimizning Islomiy asoslar boʻyicha istisno qilamiz. Ba'zan koʻpchilik emas, yakka shaxs fikri to'g'ri boʻlishi mumkin.

Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhu aytadilar:

"الجماعة ما وافق الحق وان كنت وحدك"

"Sen garchi bir oʻzing bo'lsang ham haqqa muvofiq kelgan vaqting jamoatsan"

Masalan Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan soʻng, murtadlarga urush ochishni aksar sahobalar mavridi emas deb oʻyladilar. Ammo Abu Bakr raziyallohu anhu yakka oʻzlari ularga urush ochishni e'lon qildilar. To'g'ri qaror ham u kishining fikri boʻldi. Shu kabi yakka kishining fikri bo'lsa-da dalilga muvofiqroq holatlar, ko'pchilik fikri ustunligidan mustasno bo'ladi .

Xulosa :

82-modda.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati, shari'y me'yorlarda o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari , ulamolar umumiy sonining koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Shar'iy dalillarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

83-modda.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, o‘z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub’ektlari tomonidan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Sharh:

Bu modda qonunchilik tashabbusi huquqiga ega shaxslar haqida.

Ular prezident, deputatlar, vazirlar mahkamasi, konstitutsiyaviy sud, oliy sud, bosh prokurorlar .

Islomda bular yoki bulardan boshqa har qanday tashkilotlar qonun chiqarish tashabbusiga ega bo‘lishlari uchun avvalo ularda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytgan shartlar topilishi kerak:

"1-Modom namoz o'qisalar.. 2-Modom sizlarni Allohning kitobi ila boshqarsalar" (Imom Muslim rivoyat qilgan hadisdan olingan shartlar)

Ikkinchidan 76-modda sharhida aytilgan to‘rt bosqichga rioya qilgan holda qonun chiqarishlari shart.

Shunda ular chiqargan qonunlariga amal qilinadi. Bu shartlarga rioya qilmay qonun chiqarish, Allohning hokimiyat haqqiga tajovuz bo'ladi.

Xulosa :

83-modda.

Qonunchilik tashabbusiga haqli kishilarda (Davlat rahbari, deputatlar, vazirlar mahkamasi, sud bo‘linmalari, va bosh prokurorda) qonun chiqarishga oid shar'iy me'yorlar topilishi lozim.

Ular qonun chiqarish tartibini shar'iy asoslarga tayanib amalga oshiradilar.

84-modda.

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma’qullagan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kun ichida yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o‘ttiz kun ichida imzolanadi va e’lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma’qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko‘rib chiqilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o‘z e’tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

Sharh:

1.Qonun kuchga kirishi uchun Prezident tomonidam imzolanishi.

Islomda ham qonunlar rasmiy kuchga kirishi uchun davlat boshlig‘i qarori lozim.Bunga Allohning so‘zida ishora bor :

" وَشَاوِرْهُمْ فِى ٱلْأَمْرِ فَإِذَا عَزَمْتَ فَتَوَكَّلْ عَلَى ٱللَّهِ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُتَوَكِّلِينَ

ular bilan ishlarda mashvarat qil. Azmu qaror qilganingdan so'ng Allohga tavakkal qil. Albatta, Alloh tavakkal qiluvchilarni sevadir. (Oli imron. 159)

Oyatdan ko‘rinib turibdiki, atrofdagilar bilan maslahat bitgach, oxirigi azmu-qarorni boshliq berar ekan. Shunda qonun ishga tushadi.

(Rasmiy e'lon qilish haqida keyingi bandlarda to‘xtalamiz)

2. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.."

Qaror qabul qilinishi mu'ayyan kunga qaydlab qo'yilmasdan, ehtiyoj va zaruratga ko‘ra imkon qadar tez bo'lgani yaxshiroq.

Bunga qur'onda kelgan Sulaymon alayhissalam davlat boshqaruvlaridan bir misol keltiraylik :

قَالَ يَٰٓأَيُّهَا ٱلْمَلَؤُا۟ أَيُّكُمْ يَأْتِينِى بِعَرْشِهَا قَبْلَ أَن يَأْتُونِى مُسْلِمِينَ

U (Sulaymon): «Ey a'yonlar! Ular menga taslim bo'lib kelishlaridan oldin qaysingiz huzurimga u(malika)ning taxtini keltira oladir?» dedi.

قَالَ عِفْرِيتٌ مِّنَ ٱلْجِنِّ أَنَا۟ ءَاتِيكَ بِهِۦ قَبْلَ أَن تَقُومَ مِن مَّقَامِكَ وَإِنِّى عَلَيْهِ لَقَوِىٌّ أَمِينٌ

Jinlardan bo'lgan Ifrit: «Men uni senga maqomingdan turguningcha keltirurman. Albatta, bunga quvvatim va ishonchim bor», dedi.

قَالَ ٱلَّذِى عِندَهُۥ عِلْمٌ مِّنَ ٱلْكِتَٰبِ أَنَا۟ ءَاتِيكَ بِهِۦ قَبْلَ أَن يَرْتَدَّ إِلَيْكَ طَرْفُكَ

Kitobdan ilmi bor shaxs: «Men uni senga ko'zingni ochib yumguningcha keltirurman», dedi. (Naml.38-39-40)

Qissadan ko‘rinib turganidek, Sulaymon alayhissalam avvalgi ifritning taklifini sekin hisobladilar.

Hozir hech kimda bunday imkoniyat yo‘q, albatta.Lekin bir qaror qabul qilish muddatini o'n kunga qaydlab qo‘yish uzoq muddat. Biz uni nojoiz deya olmaymiz. Lekin qaydlansa ham qisqaroq muddat qo‘yilishi kerak.

3..O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma’qullagan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kun ichida yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o‘ttiz kun ichida imzolanadi va e’lon qilinadi.."

Bunda ham "o'n kun, o‘ttiz kun" degan qaydlar qisqartirilishi yoki mutlaq olib tashlanishi afzal.

4.. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.."

Islom nizomida, ulamolar tarafidan ishlab chiqilgan qonun rad etilishi uchun uni to'g'ri emasligi shar'iy dalillar bilan isbotlab berilishi kerak. Shunda uni qayta ko‘rib chiqilishi lozim bo'ladi.

5.. "Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma’qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.."

Islomda shunchaki ko'pchilik (uchdan ikki) qismga qarab emas, qaysi tarafning so‘zi shar'iy dalillarga yaqinroq ekaniga qarab tarjih (ustun) qilinadi.

Agar ikki tomonni ham dalillari kuchli bo‘lsa, shundagina ko‘pchilikni tashkil qilgan taraf , jamoatni lozim tutishga targ'ib qilinganlik e'tiboridan ustun keladi. (Bu haqida o‘tgan moddalar sharhida aytib o‘tdik)

6.." O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko‘rib chiqilishi kerak.."

Ixtiloflarni bartaraf etish bo‘yicha jamoat tuzish Islomda ham buyuriladi. Uni komissiya deb atashda muammp yo‘q. Faqat, ushbu komissiya taraflarni Allohning hukmiga qaytarishga mas'uldir.Alloh taolo aytadi

وَإِن طَآئِفَتَانِ مِنَ ٱلْمُؤْمِنِينَ ٱقْتَتَلُواْ فَأَصْلِحُواْ بَيْنَهُمَا فَإِنْ بَغَتْ إِحْدَىٰهُمَا عَلَى ٱلْأُخْرَىٰ فَقَٰتِلُواْ ٱلَّتِى تَبْغِى حَتَّىٰ تَفِيٓءَ إِلَىٰٓ أَمْرِ ٱللَّهِ فَإِن فَآءَتْ فَأَصْلِحُواْ بَيْنَهُمَا بِٱلْعَدْلِ وَأَقْسِطُوٓاْ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُقْسِطِينَ

Agar mo'minlardan ikki toifa urishib ketsalar, bas, o'rtalarini isloh qiling. Agar ulardan biri ikkinchisiga tajovuz qilsa, siz tajovuz qilganiga qarshi, to u Allohning amriga qaytgunicha urishing, agar qaytsa, bas, o'rtalarini adolat bilan isloh qiling. Odil bo'ling, albatta, Alloh adolat qilguvchilarni suyadir. (Hujurot. 9)

Oyatda zikr qilingan islohga buyurilgan kishilar hakam yoki komissiya vazifasini bajaradilar.

Shuningdek er-xotin nizolarini yechishda ham shunday hakamlar tashkil qilishga buyurgan.

Alloh ta'olo aytadi:

وَإِنْ خِفْتُمْ شِـقَاقَ بَيْنِهِمَا فَٱبْعَثُوا۟ حَكَمًا مِّنْ أَهْلِهِۦ وَحَكَمًا مِّنْ أَهْلِهَآ إِن يُرِيدَآ إِصْـلَٰحًا يُوَفِّقِ ٱللَّهُ بَيْنَهُمَآ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلِيمًا خَبِيرًا

Agar ikkovlarining (er-xotinning)oralari buzilishidan qo'rqsangiz, erning ahlidan bir hakam va xotinning ahlidan bir hakam ajrating. Agar ular islohni iroda qilsalar, Alloh er-xotinning orasini muvofiqlashtiradi. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir. (Niso.35)

Jamiyatning boshqa sohalaridagi nizolar ham shunga o‘xshash hakamlar yoki komissiya tuzish orqali hal qilinadi.

7.. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o‘z e’tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli .."

Davlat rahbari qonunni rad qilish huquqi Islomda ham bor.

Xususan, chiqarilgan qonunlar shariatga zid bo‘lsa, davlat rahbari bir o‘zi bo'lsa ham unday qonunlarni rad etishi kerak.

Bunga Abu Bakr raziyallohu anhu sho’ro ahliga qarshi ularoq olib borgan siyosatlarini misol qilish mumkin. (Zakot bermaganlarga urush ochishlari, Rumga askar yuborishlari va boshqalar)

Shuningdek Bilqis qissasida ham bunga bir misol bor:

قَالَتْ يَٰٓأَيُّهَا ٱلْمَلَؤُا۟ أَفْتُونِى فِىٓ أَمْرِى مَا كُنتُ قَاطِعَةً أَمْرًا حَتَّىٰ تَشْهَدُونِ

U (malika) aytdi«Ey a'yonlar! Menga bu ishimda fatvo beringlar. Sizlar shohid bo'lmaguningizcha, men bir ishga qat'iy qaror qilmasman» (Naml.32)

قَالُوا۟ نَحْنُ أُو۟لُوا۟ قُوَّةٍ وَأُو۟لُوا۟ بَأْسٍ شَدِيدٍ وَٱلْأَمْرُ إِلَيْكِ فَٱنظُرِى مَاذَا تَأْمُرِينَ

Ular: «Biz kuch-quvvat egalarimiz va shiddatli azmu shijoat egalarimiz. Ish o'zingga havola. Nima amr qilishingni o'ylab ko'r», dedilar.

قَالَتْ إِنَّ ٱلْمُلُوكَ إِذَا دَخَلُوا۟ قَرْيَةً أَفْسَدُوهَا وَجَعَلُوٓا۟ أَعِزَّةَ أَهْلِهَآ أَذِلَّةً وَكَذَٰلِكَ يَفْعَلُونَ

U (malika): «Albatta, podshohlar biror shahar-qishloqqa kirsalar, uni vayron qilurlar va uning aziz ahllarini xor qilurlar. Ana shunday qilurlar.

وَإِنِّى مُرْسِلَةٌ إِلَيْهِم بِهَدِيَّةٍ فَنَاظِرَةٌۢ بِمَ يَرْجِعُ ٱلْمُرْسَلُونَ

Men ularga bir hadya yuborurman, ko'ray-chi, elchilar nima bilan qaytar ekanlar», dedi.

(Naml.32-35)

Qissadan ko‘rinib turganidek, malika Bilqis atrofdagilar fikrlarini eshitib chiqib ularga qanoatlanmay rad qildi va to'g'ri fikrni (o‘z fikrini) ijro qildi.

Shunga binoan, Davlat boshlig‘i shariat doirasidan chiqmagan holda ushbu vakolatga ega deyish mumkim.

8.. "Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak.."

Bu bandda asosan ikki masala bor.

1- uchdan ikki va undan ko‘proq son bilan ma'qullangan qonun amalga kirishi.

Bunday ko'plikka amal qilish shartini aytib o‘tdik. Ular shunchaki deputatlar emas, shar'iy ilm egalari bo‘lishlari kerak.

2- o'n to‘rt kun ichida prezident tomonidan imzolanishi.

Bunga ham yuqorida tanbeh berdik. (2-band sharhiga qarang)

9..."Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.."

Odamlarni aybdor qilishdan avval, ularga qonunlarni tanitish Allohning buyrug‘i. Alloh ta'olo aytadi:

وَمَا كُنَّا مُعَذِّبِينَ حَتَّىٰ نَبْعَثَ رَسُولًا

Toki Payg'ambar yubormagunimizcha, azoblovchi bo'lgan emasmiz. (Isro.15)

Yana aytadi:

رُّسُلًا مُّبَشِّرِينَ وَمُنذِرِينَ لِئَلَّا يَكُونَ لِلنَّاسِ عَلَى ٱللَّهِ حُجَّةٌۢ بَعْدَ ٱلرُّسُلِ وَكَانَ ٱللَّهُ عَزِيزًا حَكِيمًا

Bashorat beruvchi va ogohlantiruvchi Payg'ambarlarni Alloh huzurida odamlarga Payg'ambarlardan so'ng hujjat bo'lmasligi uchun yubordik. Va Alloh aziz va hakim bo'lgan zotdir. (Niso.165)

Alloh ta'olo bandalarini qonunlari bilan tanishtirmasdan jazolamas ekan bandalar batariqi a'lo bunday qilishga haqqi yo‘q. Shuning uchun qonunlar kuchga kirish uchun, albatta e'lon qilinishi kerak.

Xulosa :

84-modda.

Qonun Islomiy Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan shar'iy deb ma’qullanib, Davlat rahbari tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Senat tomonidan shar'iy asoslar bilan rad etilgan qonun, Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar Senat tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Islomiy qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma’qullasa, qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e’lon qilinishi uchun Davlat rahbariga yuboriladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari orasidan shar'iy asoslarga ko‘ra kelishtiruvchi komissiya tuzishi mumkin.

Davlat rahbari o'zi ham qonunni noshari'y deb topsa Oliy Majlisga qaytarishga haqli.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

85-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Qonunchilik palatasi qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o‘zga tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko‘radi;

7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;

8) ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

Sharh:

Ushbu modda xulosa qilib aytganda qonunchilik palatasi o'zlariga spiker va uning o‘rinbosarini saylash tartibi va uning vakolatlari haqida.

Islomda har qanday boshliq saylov bilan emas, sho’ro bilan tayinlanadi. Sho’roning saylovdan farqi sho’roda shunchaki ko'pchilik ovozi g‘olib kelavermaydi. Balki din-diyonatli shaxsiyatlar tanloviga rioya qilinadi. Va qo‘yilgan nomzodlar ham o'z vazifasining egasi bo‘lishi kerak.

Oisha raziyallohu anho aytadilar:

أَمرَنا رسولُ اللهِ صلَّى اللهُ عليهِ وسلَّمَ أنْ نُنزِّلَ الناسَ مَنازلَهُمْ

"Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizga, odamlarni o'z o‘rinlariga qo‘yishni buyurdilar"

(Bayhaqiy rivoyati)

Shuningdek ularni olib tashlash ham sho’ro majlisi orqali amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasi spikeriga ushbu vakolatlar berilishi uchun ular shunchaki deputatlar emas, balki faoliyati shariati islom asosidagi ulamolar bo'lishlari shart. Shunda bu bandlardagi vakolatlarga amal qilish to'g'ri bo'ladi.

Shuningdek "Qonunchilik palatasi spikeri farmoyishlar chiqaradi" deganda ham ularning farmoyishlari shar'iy asoslardan kelib chiqishi shart.

Xulosa :

85-modda

Qonunchilik palatasi o‘z tarkibidan Qonunchilik palatasining boshlig'ini va uning o‘rinbosarlarini shar'iy asoslarga ko‘ra sho’ro bilan saylaydi va vazifasidan ozod etadi.

Qonunchilik palatasi boshlig'i:

1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Qonunchilik palatasi qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4)Qonunlarning va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) Qonunchilik palatasi, boshqa davlat Organlari ,chet davlatlar, xalqaro va o‘zga tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko‘radi;

7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;

8) Islomiy qonunlarga asoslangan konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qonunchilik palatasi rahbari shariat asosida farmoyishlar chiqaradi.

86-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o‘z tarkibidan Senat Raisi va uning o‘rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o‘rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qarorlariga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi:

1) Senat majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Senat qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko‘radi;

7) Senat qarorlarini imzolaydi;

8) ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi.

Sharh:

Ushbu modda tuzilishi o‘tgan 85-modda bilan bir xil ekan. Faqat unda qonunchilik palatasi spikerini saylash va uning vakolatlari haqida bo'lsa 86-modda esa senat raisini saylash va uning vakolatlari haqida.

Ikki modda tarkibi bir xilligi sabab, bu modda izohini 85-moddaga berilgan izohga havola qilamiz.

Xulosa:

86-modda.

Senati o‘z tarkibidan Senat Raisi va uning o‘rinbosarlarini shar'iy asoslarga ko‘ra o‘zaro maslahat bilan saylaydi va vazifasidan ozod etadi.

Senat Raisi Davlat rahbarining taqdimiga binoan saylanadi.

Senati Raisi:

1) Senat majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Senat qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4)Qonunlarning va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko‘radi;

7) Senat qarorlarini imzolaydi;

8) Islomiy qonunlarga asoslangan konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Senat Raisi shariat asosida farmoyishlar chiqaradi.

87-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarnibdastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo‘mitalarni saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo‘mitalarni saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo‘lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

Sharh:

Ushbu moddadan maqsad qo‘mita va komissiyalar tuzish.

Agar qonunchilik palatasi va senat a'zolari Islomiy faoliyat olib borsa, ularning bu faoliyatiga ko‘maklashuvchi qo‘mita va komissiyalar bo‘lishi Islomda qaytarilmaydi. Shunda bu qo‘mita va komissiyalar yaxshilikka o‘zaro yordam ma'nosi ostiga kiradi. Alloh ta'olo aytadi :

وَتَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡبِرِّ وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ

Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli zotdir. (Moida.2)

Xulosa:

87-modda.

Qonunchilik palatasi va senat shar'iy asoslarga ko‘ra qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi va senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, qonunlar hamda qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasi va senat a'zolari orasidan qo‘mitalarni saylaydilar.

Qonunchilik palatasi va Senati zarurat bo‘lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun shar'iy asoslarga ko‘ra deputatlar va senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

88-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlariga va Senati a’zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a’zolari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

Sharh:

1. Deputat va senat a'zolari faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar qoplanishi.

Islomiy shartlar topilgan deputat va senat a'zolari faoliyati mobaynida harajatlari qoplanishi kerak.

Islomda kim birovni mashg‘ul qilsa, zimmasiga uning nafaqasi lozim bo'ladi. Shunga binoan, sho’ro majlisi a'zolari xalq va davlat uchun mashg‘ul bo‘lgach, ularning nafaqasi ham xalq va davlat zimmasiga tushadi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

أعطوا الأجيرَ أجْرَه قَبلَ أنْ يَجِفَّ عَرَقُه.

"Yollangan ishchiga terisi qurimasidan haqqini beringlar" (Ibn moja rivoyati)

Shundan kelib chiqib Islomda asli ibodat bo‘lgan imomlik, muazzinlik kabi mansablarga ham oylik maosh joriy qilingan.

2. "..Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a’zolari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas..."

Abu Bakr raziyallohu anhu xalifaliklaridan oldin tijorat bilan shug‘ullanar edilar. Xalifa bo‘lganlaridan so‘ng doimgidek bozorga ketayotganlarida Umar raziyallohu anhu u kishini uchratib qolib : "Qayerga ey Rasulullоh xalifasi?" dedilar. Abu Bakr raziyallohu "Bozorga" dedilar.

Shunda Umar raziyallohu anhu sho'ro ahlini to‘plab "Bu kishiga oylik chiqarib beringlar" dedilar. Ular Abu Bakr raziyallohu anhuga 2000 oylik belgilashdi. So‘ng Abu Bakr farzandlari ko'pligini xabar qilgach 2500 ga chiqarishdi va u kishini bozorda ishlashdan qaytarishdi.

Chunki, davlatni boshqaruvchi kishi bozorda ishlab yurishi avvalo uning haybatini yo’qotadi. Ikkinchidan uning faoliyatiga ta'sir qiladi. Shuning uchun mana bu moddada aytilganidek, ularni faqat ilmiy va pedagogik faoliyat bilan

shug'ullanishlarigagina ijozat berish, boshqa turdagi haq to‘lanadigan mashg'ulotlardan qaytarish to‘g'ri bo'ladi.

3. "..O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.."

Qonun chiqaruvchi organlar Islomiy faoliyat olib borganda daxlsizlik huquqidan foydalanishlariga ruxsat berilishi shart. Ularning farmonlari ijro bo'lishi uchun ular hech kimni oldida tili qisiq joyi bo‘lmasligi kerak. Avval aytib o‘tganimizdek Islom tarixida qozilarga ana shunday daxlsizlik huquqi berilganidan ular hatto xalifani sud qilar edi.

Xulosa:

88-modda.

Islomga muvofiq faoliyat olib boruvchi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a’zolari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputati va Senat a’zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

XIX bob. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti

89-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

Sharh:

Islom manbalarida davlat boshlig‘i "**Xalifa, Malik** (ya'ni podshoh), **Amir** deb zikr qilingan.

Alloh ta'olo aytadi:

يَٰدَاوُۥدُ إِنَّا جَعَلۡنَٰكَ خَلِيفَةٗ فِي ٱلۡأَرۡضِ فَٱحۡكُم بَيۡنَ ٱلنَّاسِ بِٱلۡحَقِّ

Ey Dovud, albatta, Biz seni yer yuzida xalifa qildik. Bas, odamlar orasida haq ila hukm yurit (Sod.26)

Va Yusuf alayhissalam qissalarida, u kishi vazirlik qilgan Misr davlati podshohini "**Malik**" deb ataldi.

(Yusuf surasi : 43, 50, 54, 72, 76- oyatlariga qarang)

Shuningdek Baqara surasida Banu Isroil o‘zlariga "**Malik**" so‘rab payg'ambarlariga murojaat qilganlari zikr qilindi. Va ularning ichida payg‘ambar bo'la turub Alloh ularga Tolutni podshoh qilib tayinlandi.

(Baqara surasi: 246, 247 – oyatlariga qarang)

Tarixdan ma'lumki, Allohning xalifasi Dovud alayhissalam mana shu Tolut podshohligida sarkarda edilar. Demak u kishining xalifaliklari Tolutning podshohligida boshlandi.

Shundan bilamizki, boshliqni malik, xalifa, podshoh va boshqa ko‘rinishda nomlashda muammo yo‘q. Muammo boshliqda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytgan ikki shart topilmasligida:

1-Modom namoz o'qisalar.. 2-Modom sizlarni Allohning kitobi ila boshqarsalar" (Imom Muslim rivoyat qilgan hadisdan olingan shartlar)

Agar ushbu shartlar boshliqlarda topilsa ularning kimligidan qat'iy nazar ularga itoat qilamiz.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إن أُمِّرَ عليْكم عبدٌ حبشيٌّ مجدَّعٌ فاسمعوا لَهُ وأطيعوا ما قادَكم بِكتابِ اللَّهِ

"Agar qo'l oyog'i kesilgan qora qul sizlarga amir qilinsa ham uning amrini eshitib unga itoat qilinglar. Modom u sizlarni Allohning kitobi ila boshqarsa" (Ibn moja rivoyati)

Xulosa :

89-modda.

Davlat boshlig‘i davlat hokimiyati organlarining shari'atga asoslangan holda fa'oliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

90-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga saylanadi.

Prezidentni saylash tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

Sharh:

Ushbu moddada prezidentlikka nomzodini qo‘yish shartlari bayon qilingan:

1. O‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmasligi.

77-modda sharhida aytib o‘tganimizdek, Islomda davlat boshqaruvi uchun yosh cheklanmagan. Agar tajribali bo‘lish uchun yoshni ahamiyati bor deyilsa, bu to'g'ri. Ammo buning uchun eng ma'qul yosh o‘ttiz besh yosh emas, qirq yosh ekaniga qur'onda ishora bor. Alloh ta'olo aytadi:

حَتَّىٰٓ إِذَا بَلَغَ أَشُدَّهُۥ وَبَلَغَ أَرْبَعِينَ سَنَةً قَالَ رَبِّ أَوْزِعْنِىٓ أَنْ أَشْكُرَ نِعْمَتَكَ ٱلَّتِىٓ أَنْعَمْتَ عَلَىَّ وَعَلَىٰ وَٰلِدَىَّ وَأَنْ أَعْمَلَ صَٰلِحًا تَرْضَىٰهُ وَأَصْلِحْ لِى فِى ذُرِّيَّتِىٓ إِنِّى تُبْتُ إِلَيْكَ وَإِنِّى مِنَ ٱلْمُسْلِمِينَ

"..Toki u kamolga yetib, qirq yoshga kirganida: «Robbim O'zing menga va ota-onamga bergan ne'matlaringga shukr qilishimga va sen rozi bo'lgan solih ishlarni qilishimga ilhom bergin. Va mening zurriyotlarimni ham solihlardan qilgin. Albatta, men tavba qildim va albatta, men musulmonlardanman, dedi. " (Ahqof.15)

2. Davlat tilini yaxshi bilishi..

Albatta bu ham kerak. Chunki, hatto payg'ambarlar o‘zining qavmi tilida yuborilgan. Alloh ta'olo aytadi :

وَمَآ أَرْسَلْنَا مِن رَّسُولٍ إِلَّا بِلِسَانِ قَوْمِهِۦ لِيُبَيِّنَ لَهُمْ فَيُضِلُّ ٱللَّهُ مَن يَشَآءُ وَيَهْدِى مَن يَشَآءُ وَهُوَ ٱلْعَزِيزُ ٱلْحَكِيمُ

Qaysiki Payg'ambarni yuborgan bo'lsak, bayon qilib berishi uchun o'z qavmi tili ila yuborganmiz.(Ibrohim:4)

Chunki boshliq kishi ham odamlarga bayon qilish vazifasini bajaradi. Bu uchun u odamlarning tilini yaxshi bilishi kerak. Bunga qo‘shimcha arab tilini ham bilishi afzal.

3. Saylovgacha o‘n yil O‘zbekiston hududida muqim yashagan bo‘lishi.

Islomda vatan hududi qandaydir chegaralarga qarab o'lchanmaydi. Shunga binoan "falon davlat hududida yashagan" degan shartlarga ham ehtiyoj yo‘q. Yer Allohniki , uni solih bandalariga nisbat bergan:

إِنَّ ٱلْأَرْضَ لِلَّهِ يُورِثُهَا مَن يَشَآءُ مِنْ عِبَادِهِۦ ۖ وَٱلْعَٰقِبَةُ لِلْمُتَّقِينَ

Yer Allohniki, uni bandalaridan kimni xohlasa, o'shanga meros qilib beradi. Va oqibat taqvodorlarnikidir» (A'rof. 128)

Yana aytadi :

وَلَقَدْ كَتَبْنَا فِى ٱلزَّبُورِ مِنۢ بَعْدِ ٱلذِّكْرِ أَنَّ ٱلْأَرْضَ يَرِثُهَا عِبَادِىَ ٱلصَّٰلِحُونَ

Batahqiq, Biz zikrdan so'ng Zaburda ham: «Albatta, yerga solih bandalarim merosxo'r bo'lurlar», deb yozgan edik. (Anbiyo:105)

Muso alayhissalam misrdan tashqarida madyan shahrida o‘n yil yashagan bo‘lsalar-da Alloh u kishini Banu Isroilga boshliq qilib Misrga qaytardi. Payg‘ambarlik nafaqat dunyoviy balki oxiratga ham tegishli boshliqlikdir.

Shunga o'xshash Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ham, makkadan madinaga hijrat qilib kelgan kunlaridanoq odamlarning din va dunyo ishlarini boshqardilar. Alloh ta'olo hech qayerda avval o'n yil muqim yashashlikni shart qilmadi. Shunga binoan davlatga boshliqlikda bunday shartga islomda o‘rin yo‘q.

4. O‘zbekiston respublikasi fuqarosi bo'lishi..

Islomda fuqarolik tushunchasi haqida 21-modda sharhida aytib o‘tdik.

Shunga ko‘ra, bu shartga ham Islomda ehtiyoj yo‘q. Buning o‘rniga, davlat boshlig'ini namoz o‘qishi va Allohning kitobi bilan bizni boshqarishi shart qilinadi.

5. Ayni bir shaxs, surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo‘lishi mumkin emasligi..

Bu ham quruq qog'ozdagi moddalardan. Chunki O‘zbekistonning birinchi prezidenti, har xil hiylalar va konstitutsiyani o‘zgartirish yo'li bilan o‘ttiz yil boshliq bo‘lgani hech kimga sir emas. Alloh ta'olo aytadi:

لِمَ تَقُولُونَ مَا لَا تَفْعَلُونَ

Nima uchun qilmaydigan narsangizni gapirasiz. (Saf.2)

Konstitutsiya bir kishining taxtda qolish ra'yi uchun o‘zgartirilishi mumkin-da, Allohning so‘zini deb uni o‘zgartirgan kishi jinoyatchi bo‘ladimi?! Bu qanday hukm?!

Nima bo‘lganda ham bu ma'noga islomiy nazar bilan qaraylik:

Islomda har besh yilda prezident saylovi o‘tkazish yo‘q . Davlatga bosh bo'lgan kishi, vafot etguniga qadar mansabda qoladi.

Yoki kishini dindan chiqaruvchi ochiq kufr ish undan sodir bo'lsagina olib tashlanadi.

Shuning uchun ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘ng xalifalar barchasi vafot etguniga qadar boshliq bo‘ldilar. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Usmon Raziyallohu anhuga aytdilar :

"يا عثمانُ إن اللهَ مُقَمِّصُكَ قميصًا، فإن أرادك المنافقونَ على خَلْعِهِ فلا تَخْلَعْهُ

"Ey Usmon! Alloh senga bir ko‘ylak (Xalifalik maqomi) kiygizadi. Agar munofiqlar sendan uni yechishingni istashsa, uni yechma!" (Termiziy rivoyati)

Demak, mavjud xalifa tirik bo'lib boshqasini saylash mumkin emas.

Shunda odamlarni aldab soxta saylovlar o‘tkazish, o‘zlari chiqargan qonunlarni o‘zlari o'zgartirishlariga ham hojat qolmaydi. Va shunda uzoq yillik tajribaga ega boshliqlar davlatni boshqaradi.

Odamlarni Islom bilan boshqarib turgan davlat boshlig‘iga qarshi chiqqan kishini Islomda bog'iy deyiladi.

U yaxshilikcha bu yo‘lidan qaytmasa, uni o‘ldirishga buyuradi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

مَن أتاكُمْ وأَمْرُكُمْ جَمِيعٌ علَى رَجُلٍ واحِدٍ، يُرِيدُ أنْ يَشُقَّ عَصاكُمْ، أوْ يُفَرِّقَ جَماعَتَكُمْ،

فاقْتُلُوهُ.

"Sizlar ishinglar bir (Boshliq)kishiga jamlanib turganda, birliginglarni sindirishni istagan yoki jamoatinglarga tafriqa solishni istagan kishini o'ldiringlar!" (Muslim rivoyati)

Faqat boshliq dindan chiqadigan ochiq kufr ish qilsa , yoki aqldan ozgan holatlari bundan mustasno. Bunday holatda uni kuch bilan bo‘lsa-da olib tashlanadi.

6. "..Fuqarolar tomonidan saylanadi .."

Avval aytib o'tganimizdek Islomda boshliq saylash umumxalq saylovi bilan bo‘lmaydi.

Ba'zilar, Abu Bakr raziyallohu anhu xalifaliklari saylov bilan bo‘lgan deb o‘ylaydi. Lekin bu xato fikr.

Abu Bakr raziyallohu anhuga xos doirada avval Umar raziyallohu anhu, so‘ng muhojir va ansorlar tomonidan bay'at berildi. Undan so‘ng umum xalq bay'at berdi.

Agar hozirgilar aytganidek umumiy saylov bo‘lganda, avval xos doirada Muhojir va Ansorlar bay'at berib o‘tirishi mantiqsizlik edi.

Uning ustiga, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan avval Oisha onamizga :

ادْعِي لِي أَبَا بَكْرٍ، أَبَاكِ، وَأَخَاكِ، حتَّى أَكْتُبَ كِتَابًا، فإنِّي أَخَافُ أَنْ يَتَمَنَّى مُتَمَنٍّ ويقولُ قَائِلٌ: أَنَا أَوْلَى، وَيَأْبَى اللَّهُ وَالْمُؤْمِنُونَ إِلَّا أَبَا بَكْرٍ.

"Menga otang Abu Bakr va akangni chaqir , sizlarga (xalifa Abu Bakr ekanini) yozib beray, toki havaskorlar (xalifalikni)orzu qilib men haqliman demasin" dedilarda, so‘ng : "Alloh ham, mo‘minlar ham Abu Bakrdan boshqasiga unamaydi" deb, yozishni tark qildilar. (Muslim rivoyati)

Rivoyatidan ko‘rinib turganidek, bu bay'atda hech qanaqa saylov, ovozlar hisoblash yo‘q edi. Balki boshqa nomzod ham yo‘q edi. Agar bo‘lganda ham, mo‘minlar boshqaga unamasligini ishora qildilar.

Shunga o‘xshash, Banu Isroil payg‘ambarlaridan podshoh so‘raganlarida, payg‘ambar ularga Tolutni podshoh deb e'lon qildi. Shunda Banu Isroil aksari uning podshohligiga norozi bo‘ldilar.

Ularning fikricha, Tolut badavlat kishi emas, shuning uchun undan podshoh chiqmas ekan.Podshohlikni boylikka daxli yo‘qligini ular tushunmas edilar. Podshohlikda muhimi ilm va quvvat. Shuning uchun ularning noroziliklari umuman e'tiborga olinmadi. Hech qanday saylov ham o‘tkazilmadi.

Alloh ta'olo bu haqida aytadi:

أَلَمْ تَرَ إِلَى ٱلْمَلَإِ مِنۢ بَنِىٓ إِسْرَٰٓءِيلَ مِنۢ بَعْدِ مُوسَىٰ إِذْ قَالُوا۟ لِنَبِىٍّ لَّهُمُ ٱبْعَثْ لَنَا مَلِكًا نُّقَٰتِلْ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ قَالَ هَلْ عَسَيْتُمْ إِن كُتِبَ عَلَيْكُمُ ٱلْقِتَالُ أَلَّا تُقَٰتِلُوا۟ قَالُوا۟ وَمَا لَنَآ أَلَّا نُقَٰتِلَ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ وَقَدْ أُخْرِجْنَا مِن دِيَٰرِنَا وَأَبْنَآئِنَا فَلَمَّا كُتِبَ عَلَيْهِمُ ٱلْقِتَالُ تَوَلَّوْا۟ إِلَّا قَلِيلًا مِّنْهُمْ وَٱللَّهُ عَلِيمٌۢ بِٱلظَّٰلِمِينَ

Musodan keyingi Bani Isroildan bo'lgan a'yonlarni bilmadingmi?! Vaqtiki o'z Nabiylariga: «Bizga bir podshoh tayin qilgin, Allohning yo'lida urush qilaylik», dedilar. U: «Agar sizlarga urush farz qilinsa, urishmasalaringiz-chi?!» dedi. Ular: «Bizga nima bo'libdiki, diyorimizdan va farzandlarimizdan judo qilinsak ham, Allohning yo'lida urishmasak», dedilar. Urush farz qilinganda esa, ozginalaridan boshqalari yuz o'girib ketdilar. Va Alloh zulm qiluvchilarni biluvchidir.

وَقَالَ لَهُمْ نَبِيُّهُمْ إِنَّ ٱللَّهَ قَدْ بَعَثَ لَكُمْ طَالُوتَ مَلِكًا قَالُوٓا۟ أَنَّىٰ يَكُونُ لَهُ ٱلْمُلْكُ عَلَيْنَا وَنَحْنُ أَحَقُّ بِٱلْمُلْكِ مِنْهُ وَلَمْ يُؤْتَ سَعَةً مِّنَ ٱلْمَالِ قَالَ إِنَّ ٱللَّهَ ٱصْطَفَىٰهُ عَلَيْكُمْ وَزَادَهُۥ بَسْطَةً فِى ٱلْعِلْمِ وَٱلْجِسْمِ وَٱللَّهُ يُؤْتِى مُلْكَهُۥ مَن يَشَآءُ وَٱللَّهُ وَٰسِعٌ عَلِيمٌ

Nabiylari ularga: «Albatta, Alloh Tolutni sizga podshoh qilib tayinladi», dedi. Ular: «U bizga qayoqdan podshoh bo'lsin. Undan ko'ra podshohlikka biz haqliroqmiz. Qolaversa, unga ko'proq mol ham berilmagan» dedilar. U (payg'ambarlari): «Albatta, uni Allohning O'zi sizlarga tanladi va ilmda, jismda kengligini ziyoda qildi. Alloh podshohligini kimga xohlasa, o'shanga beradi. Va Alloh keng qamrovli va biluvchidir», dedi. (Baqara.246-247)

Demak, podshohlikka loyiq kishi bor ekan, odamlarning istak va xohishlariga qarab o'tirilmasligi Abu Bakr raziyallohu anhu va Tolut qissasidan yaqqol ko‘rinib turibdi.

Shunga binoan, Islomda boshliq tayinlash quyidagi ko‘rinishlarning biri bilan amalga oshadi:

1-sho'ro ahli ixtiyori bilan. (Usmon raziyallohu anhu saylanganlari kabi)

2-Avvalgi boshliq o‘zidan keyin birovga qoldirib ketishi bilan. (Abu Bakr raziyallohu anhu Umar raziyallohu anhuga qoldirganlari kabi)

3-Mavjud boshliq boshqa birovga mansabdan tushib berishi bilan. (Hasan raziyallohu anhu Muoviya roziyallohu anhuga tushib berganlari kabi)

4-Biror musulmon boshqaruvchi kishi kuch bilan davlatni egallab olishi va xalq unga taslim bo‘lishi ko‘rinishida tayin bo'ladi. (Umaviylar xalifaligi kabi)

Xulosa :

90-modda

"Davlat rahbarini tayinlash islomiy asoslarga ko‘ra (sho’ro tizimi yoki boshliq qoldirish orqali) amalga oshiriladi.

Boshliqlar namoz o‘qishi va Allohning kitobi bilan xalqni boshqarishlari shart.

Ularda ushbu shartlar topilgan taqdirda vafot etguniga qadar boshqaruvda qoladilar. Ular tirikligida va ulardan ochiq kufr amal sodir bo‘lmaganda, ularga qarshi nomzod qo‘yilishi mumkin emas. Ularda paydo bo'lgan aqliy noqislik holati bundan mustasno."

91-modda.

Prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

Sharh:

1.Davlat boshlig‘i, vazifa bajarish muddatida haq to‘lanadigan boshqa ishlar bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Bu haqida 88-moddaning 2-bandi izohida Abu Bakr raziyallohu anhu siyratlaridan misol bilan aytib o‘tdik

2. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

Islom tarixida eng birinchi xalifa Abu Bakr raziyallohu anhuni ham Ikkinchi xalifa Umar raziyallohu anhuni ham qo'riqchilari yo‘q edi.

Fors qo‘mondoni hurmuzon u kishini ko‘rib, qo'riqchilari yo‘qligidan ajablanib "Bu inson payg'ambar bo'lishi kerak ekan" degan edi. Sahobalar unga "Balki payg‘ambarlar amalidek amal qiladi" dedilar.

Ammo, g‘araz niyatli shaxslar ana shundan foydalanib u kishini namozda pichoqlashdi. Keyinchalik Usmon va Ali raziyallohu anhumlar ham xavorijlar tomonidan qatl qilindilar. Va Muoviya raziyallohu anhuga ham namozda hujum bo‘ldi. Shundan so‘ng Muoviya roziyallohu anhu mehrobni panjara bilan o‘ratib, qo'riqchilar tayinladilar.

Aslida, ehtiyoj bo‘lganda qo‘riqlanish Allohning buyrug‘i. Bunga xovf namozi bir misol bo'ladi. Unda musulmonlar armiyasi ikkiga bo‘linib, bir- birlarini qo‘riqlab namoz o‘qiydilar. Alloh ta'olo shu namozni ta'lim berib ehtiyotga buyuradi :

وَلْيَأْخُذُواْ حِذْرَهُمْ وَأَسْلِحَتَهُمْ وَدَّ ٱلَّذِينَ كَفَرُواْ لَوْ تَغْفُلُونَ عَنْ أَسْلِحَتِكُمْ وَأَمْتِعَتِكُمْ فَيَمِيلُونَ عَلَيْكُم مَّيْلَةً وَٰحِدَةً وَلَا جُنَاحَ عَلَيْكُمْ إِن كَانَ بِكُمْ أَذًى مِّن مَّطَرٍ أَوْ كُنتُم مَّرْضَىٰٓ أَن تَضَعُوٓاْ أَسْلِحَتَكُمْ وَخُذُواْ حِذْرَكُمْ إِنَّ ٱللَّهَ أَعَدَّ لِلْكَٰفِرِينَ عَذَابًا مُّهِينًا

Ehtiyot bo'lib, silohlarini o'zlari bilan olsinlar. Kufr keltirganlar silohlaringiz va matohlaringizdan g'ofil bo'lsangiz, ustingizdan birdan hamla qilishni istarlar. Yomg'irdan ozor etsa yoki bemor bo'lsangiz, silohlaringizni qo'ymog'ingizda gunoh yo'qdir. Xushyor bo'linglar! Albatta, Alloh kofirlarga xorlovchi azob tayyorlagandir. (Niso.102)

Ba'zan Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ham qo'riqchilar bilan yurar edilar. Bir kecha bezovta bo'lib

ليتَ رجُلًا صالحًا مِن أصحابي يحرُسُني اللَّيل

"As'hoblarimdan bir solih kishi qani edi shu kecha meni qo‘riqlasa "dedilar. Shunda Sa'd ibn molik roziyallohu anhu kelib qo'riqladilar. (Buxoriy rivoyati)

Xulosa :

91-modda.

Davlat rahbari o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Davlat rahbarining shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

92-modda.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

«O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

Sharh:

Avvalo qasamyod qilish hukmiga qaraylik. Islomda qasamyod faqat Alloh nomi bilan joiz. Allohdan boshqa bilan qasam ichish shirk. Bu haqida tavhid darslarida batafsil gapirilgan.

Shuning uchun, bir qo‘lni qur'onga, birini konstitusiyaga qo‘yib qasamyod qilish mumkin emas.

Hatto, faqat qur'onning o‘ziga qo‘lni qo‘yib qasam ichishda ham ulamolar ixtilof qilganlar.

Ibnul-Arobiy rahimahulloh qur'onga qo‘lni qo‘yib qasam ichishni bid'at deydilar. Ammo shofe'iy ulamolar esa, qur'on Allohning kalomi degan e'tibordan uni ushlab qasam ichishga ruxsat berganlar.

Modom qur'onga qo‘lni qo‘yib qasam ichishda ixtilof bor ekan bir mazhabni tanlab amal qilishni malomat qila olmaymiz.

Ammo, boshqa kitobni ushlab qasamyod qilish umuman mumkin emas. Qasamni ta'kidlash lozim deyilsa unda faqat qur'onni ushlab qasamyod qilish kerak.

Endi, qasamyod qilish siyg'asiga qaraylik :

O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

Aslini olganda davlat boshlig‘i xalqqa xizmat qilishga, qonunlarga rioya etishga qasam ichishi yomonligi yo‘q. Xususan qonunlar Islomga muvofiq bo‘lganda.

Shuningdek ushbu moddada aytilganidek faqat vijdonan emas, iymonan vazifani bajarishi kerak.

Ammo buning o'rniga Abu Bakr raziyallohu anhu xalifalikka o‘tirgan kunlarida aytgan so‘zlarini keltirsak :

أما بعد أيها الناس فإني قد وليت عليكم ولست بخيركم، فإن أحسنت فأعينوني، وإن أسأت فقوموني، الصـــدق أمانة، والكذب خيانة، والضـــعيف فيكم قوي عندي حتى أريح عليه حقه إن شـــاء الله، والقوى فيكم ضـــعيف حتى آخذ الحق منه إن شـــاء الله، لا يدع قوم الجهاد في ســـبيل الله إلا ضـــربهم الله بالذل، ولا تشـــيع الفاحشة في قوم قط إلا عمهم الله بالبلاء، أطيعوني ما أطعت الله ورسوله، فإذا عصيت الله ورسوله فلا طاعة لي عليكم".

"Ey insonlar! Men sizga boshliq qilindim. Aslida esa sizlarning yaxshinglar emasman! Agar yaxshilik qilsam menga yordamchi bo‘linglar. Agar yomonlik qilsam, meni to'g'irlanglar. Rostgo'ylik omonatdir. Yolg'on esa xiyonat. Sizlar oranglardagi zaif kishi, mening oldimda quvvatlidir. In sha Alloh unga haqqini olib beraman. Sizlar oranglardagi quvvatli kishi mening oldimda zaifdir. In sha Alloh men undan haqni olaman.

Qaysiki qavm Alloh yo‘lida jihodni tark qilar ekan, albatta Alloh ularga xorlikni bitadi. Qaysiki qavm ichida fahsh tarqar ekan, Alloh ularga umumiy balolar jo‘natadi. Men Allohga va Rasuliga itoat etsam menga itoat etinglar. Agar Allohga va Rasuliga osiy bo‘lsam, menga itoat qilish sizlar burchinglar emas!"

(Ibn Hishom rivoyati)

Mana shu hikmatli so‘zlarga ergashib qasamyod qilinishi sunnatga muvofiq. Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

فعليكم بسُنَّتي وسُنَّةِ الخُلَفاءِ الرَّاشِدينَ المَهْدِيّينَ،

"Sizlar mening sunnatimni va hidoyatlangan xulafoyi roshidinlar sunnatini lozim tutinglar" (Abu dovud rivoyati)

Chunki bu so‘zlarda davlat boshlig'i "**Sizlarga boshliq qilindim, yaxshilaring emasman**" deb kamtarlikni yodga oladi.

"**Yaxshilik qilsam yordam beringlar, yomonlik qilsam to'g'irlanglar"** deganda, mustabidlik oldi olinadi.

“Sizlarning zaifingiz mening nazdimda quvvatli, quvvatligingiz esa zaifdir”deganda, qonunlar hammaga barobar qo‘llanilishiga va'da beriladi. “**Alloh yo‘lida jihod”** zikr qilinib ummatning izzati yodda saqlanadi. Fahsh munkarlar ortidan keladigan balolar eslatiladi.

“Alloh va Rasuliga itoat etsam menga itoat eting” deganda, boshliqqa itoat etish chegarasi eslatiladi...

Xulosa :

92-modda

Davlat rahbari Oliy Majlis yig‘ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

“Xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishga, Allohning kitobiga va shar'iy qonunlarga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, Davlat rahbari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman”

“Ey insonlar! Men sizga boshliq qilindim. Aslida esa sizlarning yaxshinglar emasman! Agar yaxshilik qilsam menga yordamchi bo‘linglar. Agar yomonlik qilsam, meni to'g'irlanglar. Rostgo'ylik omonatdir. Yolg'on esa xiyonat. Sizlar oranglardagi zaif kishi, mening oldimda quvvatlidir. In sha Alloh unga haqqini olib beraman. Sizlar oranglardagi quvvatli kishi mening oldimda zaifdir. In sha Alloh men undan haqni olaman.

Qaysiki qavm Alloh yo‘lida jihodni tark qilar ekan, albatta Alloh ularga xorlikni bitadi. Qaysiki qavm ichida fahsh tarqar ekan, Alloh ularga umumiy balolar jo‘natadi. Men Allohga va Rasuliga itoat etsam menga itoat etinglar. Agar Allohga va Rasuliga osiy bo‘lsam, menga itoat qilish sizlar burchinglar emas!"

93-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O‘zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta’minlaydi;

5) o‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta’minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi hamda uni iste’foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qiladi;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

13) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkiblariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o‘rinbosarlarini, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi; O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining a’zolarini qonunga muvofiq tasdiqlaydi;

15) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti- harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruvi organlarining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo‘lgan hollarda to‘xtatadi, bekor qiladi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Sharh:

Ushbu modda prezident vakolatlari haqida .

Bu modda bandalariga qisqacha nazar solib chiqamiz.

1.Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir.

Islomda ham davlat boshlig‘i xalqining huquq va erkinliklariga va Islomiy qonunlarga rioya etilishiga kafil bo'ladi. Alloh ta'olo aytadi :

يَٰدَاوُۥدُ إِنَّا جَعَلۡنَٰكَ خَلِيفَةٗ فِي ٱلۡأَرۡضِ فَٱحۡكُم بَيۡنَ ٱلنَّاسِ بِٱلۡحَقِّ وَلَا تَتَّبِعِ ٱلۡهَوَىٰ فَيُضِلَّكَ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ

Ey Dovud, albatta, Biz seni yer yuzida xalifa qildik. Bas, odamlar orasida haq ila hukm yurit. Havoi nafsga ergashma! Yana u seni Allohning yo'lidan adashtirmasin. (Sod.26)

Oyatdan ko‘rinib turganidek, odamlar haq-huquqini ajrim qilish xalifaga yuklatilgan.

Shuningdek Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

وإنَّما الإمَامُ جُنَّةٌ يُقَاتَلُ مِن ورَائِهِ ويُتَّقَى به

"Boshliq qalqondir. Uning ortida urush qilinadi va u bilan himoyalanadi" (Buxoriy rivoyati)

Hadisda **"u bilan himoyalanadi"** deyilgani ham yuqoridagi ma'noni bildiradi.

Faqat qonunlar va huquqlar Islomiy bo‘lishi shart albatta.

2) O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

Islomda , davlat Allohning qonunlarini tatbiq qilsa, shunda u davlat xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish eng oliy ibodat bo'ladi. Bu haqida 1-modda sharhida gapirib o‘tgan edik.

Demak, davlat Allohning hukmi bilan boshqarilishiga qarab bu bandga amal qilinadi.

Shunda bu banddagi so'zlar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ushbu so‘zlari ma'nosi ostiga kiradi:

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ،

Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostinglardagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga bosh va xalqidan mas'ul . (Buxoriy va muslim)

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O‘zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta’minlaydi;

Bular idoraviy boshqaruvga oid vazifalar bo'lib, Davlat nomidan ish ko‘rish, muzokaralar olib borish, bitimlar tuzish hammasi vakolat e'tiboridan joiz vazifalar. Faqat bitim va kelishuvlar Islom doirasida bo‘lishi shart.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam qo‘shni davlatlarga maktublar yo‘lladilar. Ular muhrsiz maktublarni qabul qilmasliklari xabar qilinganda, muhr bilan tasdiqlab jo‘natdilar. Bu idoraviy boshqaruvda ishlar kengligiga dalolat qiladi.

5) o‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

Bu vakolatlar davlat rahbariga berilishiga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va Xulafoyi roshidinlar siyratida misollar ko‘p. Ular ham davlatlar bilan muzokaralar olib bordilar, elchilar jo‘natdilar, sulhlar bo'ldi...

8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta’minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi;

Bular ham davlat boshlig‘i va sho’ro ahli o‘rtasida bamaslahat olib borilishi buyurilgan ishlardan. Yaxshilikka yordam va yomonlikni oldini olish maqsadida tuzulgan har qanday tashkilotlar Islomda buyurilganini aytib o‘tdik.

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

Bu haqida 86-modda sharhida batafsil aytib o‘tdik.

10) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi hamda uni iste’foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qiladi;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

Vazir va vazirlar mahkamasini tayinlash yoki lavozimidan ozod etish, ishni o'z egasiga topshirishga buyurilgan oyat va hadislardan kelib chiqib o‘zaro maslahat bilan amalga oshirilaveradi. Bu haqida avvalgi moddalarda aytib o‘tdik.

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

13) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkiblariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o‘rinbosarlarini, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi; O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining a’zolarini qonunga muvofiq tasdiqlaydi;

15) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

Bu bandlarda aytilgan vakolatlar , prokuror, hisob palatasi raisi, konstitutsiyaviy sud, oliy sud, bank raisi, hokimlar tayinlash va bularning barchasini lavozimidan olish Islomiy asoslarga ko‘ra amalga oshirilishi sharti bilan davlat rahbarida bo'ladi.

Islomiy shartlar topilganda ularni lavozimiga qo‘yadi, Islomiy shartlar yo‘q bo‘lsa ularni lavozimidan oladi.

Shuningdek "konstitutsiya va qonunlarni buzgan, o‘z sha'ni va qadr - qimmatiga dog‘ tushiradigan hatti harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlari" o'z vazifasidan ozod etilishida ham Islomiy qonunlarni buzgan holatlarga talqin qilamiz.

16) respublika davlat boshqaruvi organlarining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo‘lgan hollarda to‘xtatadi, bekor qiladi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

Islomda Davlat rahbari Qabul qilingan hujjatlar shar'iy me'yorlarga muvofiqligini nazorat qiladi. Qarorlar shar'iy asoslarga nomuvofiq bo‘lgan holatlarda ularni to‘xtatatadi va bekor qiladi.

Shuningdek vazirlar mahkamasi majlislarida raislik qilish vakolatiga ham ega.

17) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

Islomda qonun chiqarishninh to‘rt bosqichi haqida 76-modda sharhiga batafsil aytib o‘tdik. O‘sha shartlarga ko‘ra qonunlar imzolansa, va e'tirozlar ham shar'iy dalillar asosida bo‘lsa joiz. Ammo umumiy ovozga qo‘yish nojoizligi haqida 82-modda sharhida aytib o‘tdik.

18) O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

Islomda jihod farzi ayn bo‘lish holatlaridan biri, Musulmon amir ommaviy safarbarlik e'lon qilishi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

"وإذَا اسْتُنْفِرْتُمْ فَانْفِرُوا."

"Agar (boshliq tomonidan jangga) safarbar etilsanglar qo'zg'alinglar" (Muslim rivoyati)

Ammo qabul qilgan qarorini oliy majlis tasdig‘iga kiritishda uch kun deb belgilanmagani afzal. Balki bunday muhim ishlarda vaziyatga qarab imkon qadar tezroq qaror qabul qilinishi kerak.

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

Musulmon boshliqlar yaxshilikka buyurganda "**yengillik va qiyinchilikda**" unga itoat etish lozim. Bu haqida avvalgi bo‘limlarda aytib o‘tdik. Favqulodda holatlar ham shu jumladan. Faqat favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi Islom qonunlariga zid kelmaydigan ko‘rinishda amalga oshirilishi kerak.

20) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

Islomda ham davlat rahbari bosh qo‘mondon vazifasini bajaradi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ham bosh qo‘mondon tarzida birinchi safda jang qilar edilar.

Namozda xalifalar imom o‘tishi ham ularning qo‘mondonlik vazifasiga ishora.

Agar davlat boshlig‘i, bosh qo‘mondon bo‘lmasa, qurolli kuchlarning qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib qoladi. Bunga tarixda Abbosiylar xalifalari o'z armiyasi qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib qolganini misol qilish mumkin.

Shuningdek oliy qo‘mondonlar tayinlash va vazifasidan ozod etish ham davlat rahbari vazifasi.

Shuning uchun Ali raziyallohu anhu xalifalikka o‘tirgan kunlarida hamma voliy va qo‘mondonlari almashtirdilar. Ba'zilar bunga e'tiroz bildirganda, "Hokimlarini almashtira olmaydigan xalifa qanday xalifa bo'ladi?!" Deb javob berganlar.

21) O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

Bu haqida 78-moddaning 12-bandi sharhida aytib o‘tdik.

22) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

Davlat rahbarida bunday vakolat bo‘lishiga Islomda monelik yo‘q. Bu ma'noga Allohning ushbu so‘zida ishora bor :

وَإِنْ أَحَدٌ مِّنَ ٱلْمُشْرِكِينَ ٱسْتَجَارَكَ فَأَجِرْهُ حَتَّىٰ يَسْمَعَ كَلَٰمَ ٱللَّهِ ثُمَّ أَبْلِغْهُ مَأْمَنَهُۥ ذَٰلِكَ بِأَنَّهُمْ قَوْمٌ لَّا يَعْلَمُونَ

Agar mushriklardan birontasi panoh so'rasa, unga panoh ber, toki u Allohning kalomini eshitsin. So'ngra uni omonlik joyiga etkazib qo'y. Bu ularning bilmaydigan qavm bo'lganlari uchundir. (Tavba.6)

Makka fathida Ummu Honi' ismli muslima ayol, bir kofirga boshpana beradi. Bu haqida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga aytganda :

قَدْ أَجَرنَا مَنْ أَجَرتِ يَا أُمَّ هَانِئ

"Sen boshpana bergan kishiga biz ham boshpana berdik ey Ummu Honi' " dedilar . (Buxoriy va muslim)

Demak davlat boshlig‘i tasdig‘i bilan har qanday musulmon hatto ayol kishi ham biror kishiga boshpana berishi mumkin.

23) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

Agar biror jinoyatchida Allohning haqqi (ya'ni hududlar) sobit bo'lsa, va davlat mas'ullariga ish ko‘tarilsa, uni hech kim, hatto davlat boshlig‘i ham kechib yuborishga haqqi yo‘q.

Ammo mas'ullarga yetib bormasdan har kim o‘ziga qilingan jinoyatlarni kechib yuborishga haqqi bor.

Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

تَعافُوا الحُدُودَ فِيما بَينَكمْ ، فمَا بَلغَنِى من حَدٍ فقدْ وجَبَ

"Hududlarni o‘zaro oralaringda kechib yuboringlar. Qaysiki had menga yetib kelsa batahqiq u vojib bo‘libdi " (Abu dovud rivoyati)

Ammo jinoyat hududlar darajasiga bormasa, yoki asirlar mas’alalarida davlat boshlig‘i va mas'ullar ularni kechirib yuborishga haqli.

Sumoma raziyallohu anhuni islomga kirishlaridan avval, Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam u kishini masjidda qamab o‘tirib so‘ngra uch kundan keyin qo‘yib yuborganlari, shuningdek Badr jangidagi qo'lga tushgan asirlar, Havozin qabilasi asirlarini avf etishlari ham bunga misol bo'ladi. (Asirlar borasida batafsil ma’lumot uchun Muhammad surasi 4-oyati tafsiriga qarang)

24) Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

Milliy xavfsizlik tizimi faoliyati islomga muvofiq bo‘lishi sharti bilan, ularga boshliq tayinlash davlat rahbari qo‘lida bo'lishi shart. Chunki har qanday qurolli kuchlar davlat rahbari qo'l ostida bo‘lmasa, unday davlatda ixtilof , inqiloblar tugamaydi. Bunga tarix va bugunda misollar ko‘p.

25) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Islomda davlat boshlig‘i shariat qonunlarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. Va o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Chunki Islomda har qanday ishlar o'z egasidan boshqaga topshirilishi mumkin emas. Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

إذا ضيعت الأمانة فانتظر الساعة. قال: كيف إضاعتها يا رسول الله؟ قال: إذا أسند الأمر إلى غير أهله فانتظر الساعة

Agar omonat zoye qilinsa qiyomat soatini kutaver!

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga aytildi: Omonat zoye bo‘lishi qanday bo'ladi?

Shunda aytdilar : **"Agar ish o'z egasidan boshqasiga topshirilsa qiyomatni kutaver "** (Buxoriy rivoyati)

Tarixda ba'zi Islomiy imperiyalar zaiflashib oxiri qulashining sabablaridan biri ham shu edi. Ularda davlat boshliqlari ma'ishatga berilib, o‘z vakolatlaridagi ishlarni boshqalarga topshirib qo‘yishar edi. Oxiri hamma vakolatdan mahrum bo'lgan rahbar, xoin amaldorlar qo‘lida qo'g'irchoq bo'lib qolishar edi.

Faqat, Islomda davlat boshlig‘i vaqtincha o‘rniga birovni tayinlab turishi bor. Masalan Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam safarlarida o‘rinlariga madinada birovni qoldirib ketar edilar. U kishidan keyin Xulafoyi roshidinlar ham bu sunnatga amal qilishgan. Ehtimol hozirgi zamonda aloqa vositalari qulayliklari orqali bunga ehtiyoj bo‘lmasligi ham mumkin.

Umuman olganda Islomiy shartlar topilgan davlat rahbari ushbu 93-moddada aytilgan 25 vakolatga ega bo‘ladi.

Xulosa :

93-modda

Davlat rahbari:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, shari'at qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) Davlat xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, Islomiy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda davlat nomidan ish ko‘radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda shartnoma va bitimlarni imzolaydi, davlat tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta’minlaydi;

5) Diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) Chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlash uchun nomzodlarni Senatga taqdim etadi;

7)Oliy Majlisga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

8) Oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta’minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlisning palatalari tasdig‘iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni Oliy majlisning Senatiga taqdim etadi;

10) Oliy Majlisning palatalari ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun Bosh vazir nomzodini taqdim etadi hamda uni lavozimidan ozod etadi.

11)Bosh vazirning taqdimiga binoan Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) Bosh prokuror va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni Senat tasdig‘iga kiritadi;

13) Oliy Majlisning Senatiga Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud tarkiblariga, shuningdek Sudyalar oliy kengashining raisi, Markaziy bank Boshqaruvining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o‘rinbosarlarini, Harbiy sud raisini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

Sudyalar oliy kengashining a’zolarini shar'iy qonunlarga muvofiq tasdiqlaydi;

15) Bosh vazirinng taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini shar'iy qonunlarga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi.

Shar'iy qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Davlat rahbari o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16)Davlat boshqaruvi organlarining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular shar'iy me'yorlarga nomuvofiq bo‘lgan hollarda to‘xtatadi, bekor qiladi; Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) qonunlarni imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli;

18) Davlatga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini tez fursatda Oliy Majlis palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, Davlatning butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini tez fursatda Oliy Majlisning palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi;

20) Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21)Davlat ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, Davlatning malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22)Fuqarolik va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlisning Senatiga taqdimnoma kiritadi va sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarni shar'iy asoslarga ko‘ra afv etadi;

24) Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni Oliy Majlisning Senati tasdig‘iga kiritadi;

25) Shar'iy qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Davlat rahbari, o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

94-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Sharh:

Islomda qaror chiqarish shartlari haqida 76-modda sharhida aytib o‘tdik. Davlat rahbari ham ana shu shartlar asosida qarorlar chiqarishsa haqli bo'ladi.

Xulosa:

94-modda.

Davlat rahbari shar'iy qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi "

95-modda.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

Sharh:

Avval aytib o‘tganimizdek Islomda qonunchilik palatasi a'zolari shar'iy ilmga ega ulamolar hay'atidan iborat bo‘ladi. Shunga binoan ularni vazifasidan ozod etish ham shar'iy asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi. Ular o‘rtasidagi ixtiloflar esa Qur'on va sunnatga qaytish bilan hal qilinadi. Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِي ٱلۡأَمۡرِ مِنكُمۡ فَإِن تَنَٰزَعۡتُمۡ فِي شَيۡءٖ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمۡ تُؤۡمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلۡيَوۡمِ ٱلۡأٓخِرِۚ ذَٰلِكَ خَيۡرٞ وَأَحۡسَنُ تَأۡوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Shunga binoan Islom ulamolari orasida kelishib bo‘lmaydigan darajada ixtilof sodir bo‘lmaydi. Garchi hammani bir fikrga jamlab bo‘lmasa-da, muxolifning fikriga hurmat, odob saqlanadi. Bunga qadimda mujtahid ulamolar siyratini misol qilish mumkin.

Masalan Abu Hanifa rahimahulloh haqida, u kishining ko‘p ijtihodlariga xilof qilgan Imom Shofeiy rahimahulloh aytadilar: "Odamlar fiqhda Abu Hanifaga muhtojdir"

Shuningdek Imom Ahmad rahimahulloh, Imom Shofeiy rahimahullohga ko'p ijtihodlarida qarshi bo‘lsalarda, u kishining o'g'liga aytar edilar : "Seni otang (Shofeiy) men har kecha haqqiga duo qiladigan olti kishining biridir"

Aytaylik ular orasida urush janjal chiqsa unda Allohning mana bu so‘ziga amal qilamiz :

وَإِن طَآئِفَتَانِ مِنَ ٱلْمُؤْمِنِينَ ٱقْتَتَلُواْ فَأَصْلِحُواْ بَيْنَهُمَا فَإِنْ بَغَتْ إِحْدَىٰهُمَا عَلَى ٱلْأُخْرَىٰ فَقَٰتِلُواْ ٱلَّتِى تَبْغِى حَتَّىٰ تَفِيٓءَ إِلَىٰٓ أَمْرِ ٱللَّهِ فَإِن فَآءَتْ فَأَصْلِحُواْ بَيْنَهُمَا بِٱلْعَدْلِ وَأَقْسِطُوٓاْ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُقْسِطِينَ

Agar mo'minlardan ikki toifa urishib ketsalar, bas, o'rtalarini isloh qiling. Agar ulardan biri ikkinchisiga tajovuz qilsa, siz tajovuz qilganiga qarshi, to u Allohning amriga qaytgunicha urishing, agar qaytsa, bas, o'rtalarini adolat bilan isloh qiling. Odil bo'ling, albatta, Alloh adolat qilguvchilarni suyadir. (Hujurot. 9)

Ammo ushbu moddaning "yangi saylov uch oy mobaynida o‘tkaziladi " degan qismiga Islomiy sho’o tizimida ehtiyoj yo‘q. Chunki ularni tarqatib yuborishga ehtiyoj yo‘q bo'lgach, qayta saylashga ham ehtiyoj bo‘lmaydi.

Aytaylik ularda sho’ro majlisida ishtirok etishga shar'iy moneliklar topilsa, shunda ehtiyojga qarab ularni yangidan tashkil qilinadi. Buning uchun mu'ayyan muddat belgilanmaydi.

Islomda sho’ro tizimini tarqatib yuborish yo‘q ekan moddaning oxirgi bandida aytilgan :**”Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.”** degan so'zlarga ham sho’ro tizimida ehtiyoj qolmaydi.

Xulosa :

95-modda

Qonunchilik palatasi yoki sho’ro majlisi orasida chiqqan ixtiloflar shar'iy asoslarga qaytish orqali hal qilinadi.

Ularda qasddan shar'iy asoslarga zid qonun chiqarish kuzatilganda va ixtilof odoblariga rioya qilinmagan holatlarda kerakli ogohlantirishlardan so‘ng ularni tarqatib yuboriladi. Ularni yangidan tashkil etish ehtiyojga qarab eng tez fursatda amalga oshiriladi.

96-modda.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi Qonunga to‘liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o‘tkaziladi.

Sharh:

Islomda Davlat rahbari o‘zining o‘rniga vaqtincha boshqa bir kishini qo‘yib turishi joizligini aytib o‘tdik. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam tabuk g'azotiga safarlarida o‘rinlariga Ali raziyallohu anhuni qoldirib ketgan edilar. Bu ma'noga Muso alayhissalam siyratlarida ham ishora bor. Tur tog'iga safar qilganlarida, ortlaridan akalari Horun alayhissalamni banu Isroilga o‘rinbosar qilib qoldirdilar.

Ammo doimiy suratda "Xalifa o‘rinbosari" yoki "Amirul-mo'minin o‘rinbosari" mansabi yo‘q edi. Biz buni nojoiz deya olmasak-da bunday mansab bo‘lmagani yaxshiroq. Chunki, odatda ana shu o‘rinbosarlar tezroq mansabga ko‘tarilish maqsadida inqiloblar uyushtirishlari kuzatiladi. Vaqtidan avval valiyul-ahd tayinlab qo‘yilgach, ular eski boshliqqa turli xil fitnalar uyushtirib, uni boshqaruvga yaroqsiz deb e'lon qilib o‘zlari taxtga o‘tirib olishlari Abbosiy va Usmoniy xalifalarida ko‘p kuzatildi. Shuning uchun ham bu ishlar xulafoyi roshidinlar siyratida yo‘q edi.

Faqat, Umar raziyallohu anhu pichoqlanganlarida o‘zlaridan so‘ng yangi xalifa tayinlangunga qadar imomlikni Suhayb raziyallohu anhuga topshirdilar. Demak yangi boshliq tayinlangunga qadar vaqtincha biror kishini tayinlab qo‘yish joiz . Uni tayinlash esa sho'ro ahliga havola qilinadi.

Endi "uch oy ichida prezident saylovi o‘tkaziladi" degan qismiga qaraylik.

Umar raziyallohu anhu pichoqlanganlarida o‘zlaridan so‘ng uch kun o‘tmay musulmonlarga bir boshliq tayinlashni buyurganlar. Chunki sahobalar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam vafotidan uch kun o‘tmay Abu Bakr raziyallohu anhuni xalifa qilib tayinlagan edilar.

Shunga binoan Islomda davlat boshlig‘i tayinlashni uch oygacha kechiktirib yurish mumkin emas. Uzog‘i bilan uch kunda yangi boshliq tayin qilinishi shart.

Xulosa :

96-modda .

Amaldagi boshliq o'z vazifasini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari oliy majlisga havola qilinadi. Ular o‘zlaridan biror kishini vaqtincha boshliq qilishlari mumkin.

Yangi rahbar uch kun ichida tayin qilinishi shart.

97-modda.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozimini egallaydi.

Sharh:

Bu moddaga islomiy nizomda ehtiyoj yo‘q. Chunki 90-modda sharhida aytib o‘tganimizdek Islomda davlat boshlig‘i vafot etguniga qadar vakolati davom etadi. Yoki dindan chiqib murtad bo‘lsagina olib tashlanadi. Bundan boshqa holatda uning vakolati tugamaydi. Shunga binoan bu moddaga ehtiyoj bo‘lmaydi . Faqat amaldagi davlat rahbari o'z ixtiyori bilan boshqa birovga mansabidan tushib bersa, shunda uning huquqlari himoya qilinishi va sho'ro maslahatchisi bo‘lishi mumkin.

Xulosa:

97-modda.

O'z vakolatidan voz kechgan davlat rahbari sho'ro majlisi a'zosi lavozimini egallashga haqli.

XX bob. Vazirlar Mahkamasi.

98-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi:

1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi;

2) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

3) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi;

5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma’ruzalar taqdim etadi;

6) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri:

1) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi;

2) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;

3) xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko‘rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini taqdim etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

Islom tarixida vazirlik maqomi alohida mansab tarzida Abbosiylar davlatida tashkil etildi. Ularning asrida sodir bo‘lgan ishlar ummatga hujjat bo‘lmasa-da, o‘sha asrlardan beri ummat bu masalaga e'tiroz bildirmaganini ijmo desak ham bo‘ladi.

Undan avval, bu mansab alohida ajralib chiqmagan bo‘lsa-da, shu vazifani bajaruvchi shaxslar bor edi.

Masalan Abu Bakr raziyallohu anhu xalifaliklarida Umar raziyallohu anhu vazir o‘rnida edilar.

Bu ikki sahobiy esa, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam yonida vazir vazifasini bajarib kelganlar.

Bunga Qur'onda ham ba'zi ishoralar bor. Muso alayhissalam duolari haqida Alloh ta'olo aytadi:

وَٱجۡعَل لِّي وَزِيرٗا مِّنۡ أَهۡلِي

Menga o'z ahlimdan bir vazir qilib ber. (Toha.29)

Alloh ta'olo Muso alayhissalomni bu duolarini qabul qilib akalari Horun alayhissalomni u kishiga yordamchi vazir qilib berdi. Alloh ta'olo aytadi:

وَجَعَلۡنَا مَعَهُۥٓ أَخَاهُ هَٰرُونَ وَزِيرٗا

va unga akasi Horunni vazir qildik. (Furqon.35)

Shunga binoan vazirlar mahkamasi, Allohning shariatini ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Ularda ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam hadisda aytgan ikki shart **1-Namoz o‘qish. 2- Allohning kitobi bilan ummatni boshqarish** topilishi kerak.

Endi vazirlar mahkamasining vazifalari haqida:

1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi;

Bularning barchasini Islomga zid kelmagan ko‘rinishda amalga oshirilishi shart qilinadi, albatta.

Xususan pul-kredit siyosati ribo va boshqa noshar'iy muomalalardan uzoq bo‘lishi shart.

Shuningdek madaniyat ma'nosi qanday o‘rinlarda ishlatilishini ham islomga muvofiq ma'noda tushunish kerakligini 42-modda sharhida aytib o‘tgan edik.

Islomda badaviylik qoralangan. Badaviy sahroyi arablar haqida Alloh ta'olo aytadi:

ٱلْأَعْرَابُ أَشَدُّ كُفْرًا وَنِفَاقًا وَأَجْدَرُ أَلَّا يَعْلَمُوا۟ حُدُودَ مَآ أَنزَلَ ٱللَّهُ عَلَىٰ رَسُولِهِۦ ۗ وَٱللَّهُ عَلِيمٌ حَكِيمٌ

A'robiylar kufr va nifoqda ashaddiyroq va Alloh O'z Payg'ambariga nozil qilgan narsaning chegaralarini bilmaslikka loyiqroqdirlar. (Tavba.97)

Chunki ular chet joylarda yashab ilm ma'rifatdan uzoqlashib qoladilar. Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

مَن سكَنَ البادية جفا

"Kim badaviy (sahroda) yashasa qo'pollashib ketadi" (Abu dovud rivoyati)

Madaniyat Islomiy shiorlar yo'qotilishi evaziga bo‘lmaydi. Jumladan erkaklar soqolsiz, ayollar hijobsiz yurishlari hech qachon madaniyat deb atalmaydi. Alloh ta'olo bu ishlarni jaholat deb aytadi:

وَقَرْنَ فِى بُيُوتِكُنَّ وَلَا تَبَرَّجْنَ تَبَرُّجَ ٱلْجَٰهِلِيَّةِ ٱلْأُولَىٰ

"Viqor bilan uyingizda o'tiring. Ilgarigi johiliyatning ochiq-sochiqligi kabi ochiq-sochiq yurmang." (Ahzob.33)

Shuning uchun madaniyat chegarasini ham islomga muvofiq ma'noda tushunish kerak.

Ta'lim tizimini rivojlantirish esa, Islomda eng birinchi nozil bo‘lgan oyat "O'qi" deb bu ma'noga ishora qildi.

Sog‘liqni saqlash ham Islomda alohida e'tibor qaratilgan sohalardan.

Bu haqida 40-modda sharhida aytib o‘tdik.

Shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlarini rivojlantirish ham Islomdagi maqsadlardan. Bu haqida 42-modda sharhida aytib o‘tdik.

2) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Bu ham yuqoridagi 1-band ostiga kiradi. Faqat bunga qo‘shimcha, insonlarning dunyo va oxirati manfa’atiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi kerak.

3) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi;

Bu bandga ham "Islom qonunlariga muvofiq nazoratni ta'minlaydi " deb qo‘shimcha qilinadi.

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi;

Vazirlar mahkamasi oliy majlis va davlat boshlig‘i farmonlarini ijrosini ta'minlashi sharti, ushbu farmonlar shariatga zid bo‘lmasligi kerak. Shunda Allohning mana bu so‘ziga amal qilgan bo‘lamiz:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِى ٱلْأَمْرِ مِنكُمْ

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. (Niso.59)

5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma’ruzalar taqdim etadi;

Islomda yaxshilik yo'lida o‘tkazilgan tadbirlarga targ‘ib qilinadi. Alloh ta'olo aytadi:

لَّا خَيْرَ فِى كَثِيرٍ مِّن نَّجْوَىٰهُمْ إِلَّا مَنْ أَمَرَ بِصَدَقَةٍ أَوْ مَعْرُوفٍ أَوْ إِصْلَٰحٍۭ بَيْنَ ٱلنَّاسِ وَمَن يَفْعَلْ ذَٰلِكَ ٱبْتِغَآءَ مَرْضَاتِ ٱللَّهِ فَسَوْفَ نُؤْتِيهِ أَجْرًا عَظِيمًا

"Ularning ko'pgina maxfiy suhbatlarida yaxshilik yo'q, magar kim sadaqaga, yaxshilikka va odamlar orasida islohga amr qilsagina, yaxshilik bor. Kim o'sha ishni Allohning roziligi uchun qilsa, albatta, unga ulug' ajr beramiz" (Niso.114)

Taqdim qilingan ma'ruzalar ham shu ma'nolarga muvofiq amalga oshiriladi.

6) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bunda ham "shariat qonunlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi" deb izohlanadi.

“Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi”

Vazirlar mahkamasining qarorlari majburiy bo'lishi uchun ular shariatga muvofiq qonun chiqarishi kerak. Shunda bu bandga amal qilish lozim bo'ladi. (Niso.114-oyatiga binoan)

“Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir”

Islomda har qanday shaxs o'zidan yuqori kishilar oldida mas'uldir. Jumladan vazirlar mahkamasi ham davlat rahbari oldida mas'uldir. Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْــئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْــئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْهُمْ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلِهَا وَوَلَدِهِ، وَهِيَ مَسْـئُولَةٌ عَنْهُمْ، وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ، أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ) متفق عليه.

"Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostinglardagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga bosh va xalqidan mas'ul . Kishi o'z ahliga boshliq va ulardan mas'ul. Ayol erining uyi va farzandlariga bosh va ulardan mas'ul. Va qul ham hojasining moliga boshliq, undan mas'ul. Barchalaring boshliq va qo‘l ostidagilardan mas'uldir" (Buxoriy-Muslim)

“Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

Moddaning bu bandiga islomiy nizomda ehtiyoj yo‘q. Islom tarixida mo‘tabar asrlarda hech qachon bunday ish sodir bo‘lmadi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Britaniya yordamida Iroq o'lkasi Usmoniylardan ajratib olingach, ularning konstitutsiyada shunga o‘xshash ishlar paydo bo‘ldi. Iroqning yaqin tarixiga qarasak har qachon yangi qirol saylangach eski vazirlik o'z vakolatini soqit qilib yangi qirolga yangi vazirlik tashkil qilinar edi. Ammo bu ishlar keyinchalik quruq rasmiyatchilikka aylanib qoldi. Buning ortidan hech qanday manfa'at ham chiqmadi. Shuning uchun bu bandga ehtiyoj yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri:

1) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi;

2) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;

3) xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Bosh vazirga ushbu vakolatlar topshirilishi uchun uIslomga muvofiq faoliyat olib borishi shart qilinadi. Va shariat qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

“O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko‘rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini taqdim etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi”

Islomiy nizomda siyosiy partiyalar bo‘lmasligi va shunchaki ko'pchilik ovoziga qarab qaror qabul qilinmasligini aytib o‘tdik. Shunga binoan, bosh vazir tayinlash partiyalarning ko'pchilik ovozi bilan emas, davlat boshlig'i tanlovi va sho’ro ahlining maslahati bilan bo'ladi.

Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish uchun o'n kun muddat belgilashga ham hojat yo‘q. Ehtiyojga qarab eng qisqa muddatda tayinlanaveradi.

Shuningdek vazirlar mahkamasining harakat dasturini taqdim qilishi ham Islomiy asoslarga ko‘ra amalga oshirilishi kerak.

"..Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.."

Islomda davlat organlari sho’ro tizimi orqali tayinlanishini va uning saylovdan farqi haqida avval aytib o‘tdik.

Shunga binoan, bosh vazir va vazirlar mahkamasini a'zolari ham sho’ro ahlining ixtiyori bilan tayinlanadi. Muhimi ularni tayinlashda shar'iy asoslarga rioya qilish kerak.

"..O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi"

Islomiy nizomda har qanday kelishmovchiliklar Alloh va Rasulining hukmiga qaytish bilan hal qilinadi.

Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِى ٱلۡأَمۡرِ مِنكُمۡ فَإِن تَنَٰزَعۡتُمۡ فِى شَىۡءٖ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمۡ تُؤۡمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلۡيَوۡمِ ٱلۡأٓخِرِۚ ذَٰلِكَ خَيۡرٞ وَأَحۡسَنُ تَأۡوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Agar bosh vazir yoki vazirlar mahkamasi bundan bosh tortsa yoki ularda shariatga zid faoliyati dalillar bilan isbotlansa, shunda davlat boshlig‘i va sho’ro ahli maslahati bilan ularni vazifasidan ozod etiladi. Ularni ovoz sonini hisoblash, uchdan ikkisini aniqlashga ehtiyoj yo‘q.

"..Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.."

Masalani bu darajada chigallashtirishga hojat yo‘q. Bu o‘rinda Allohning so‘zi umumiy bir asos tarzida kifoya qiladi :

وَأَمۡرُهُمۡ شُورَىٰ بَيۡنَهُمۡ

"Ular ishlari o'zaro sho’ro (maslahat) ila bo'lganlardir" (Sho’ro.38)

Shunga binoan " bosh vazir yoki vazirlar mahkamasi o‘zaro maslahat bilan tayinlanadi " deyish kifoya.

Aslida ushbu moddaning oxirgi qismi : "Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi" deyish umumiy asos tarzida kifoya edi. Tafsilotlar esa tatbiq asnosida hal qilinishi kerak.

Xulosa:

98-modda

Vazirlar mahkamasi, shari'atni ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Ularda Namoz o‘qish va Allohning kitobi bilan ummatni boshqarish shart qilinadi.

Ular insonlarning dunyo va oxiratiga manfaatli bo'lgan barcha sohalarni (jumladan, ta'lim, iqtisod, fan, Islomiy madaniyat, sog‘liqni saqlash kabi sohalarni) rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora tadbirlarlarni amalga oshiradi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan Islomiy qonunlarga muvofiq nazoratni ta'minlaydi.

Islomga muvofiq ishlab chiqilgan farmonlar, qonunlar va qarorlar ijrosini ta'minlaydi.

Har yil sho’ro majlisiga davlatdagi muhim masalalar yuzasidan hisobotlar taqdim etadi. Va shariat asosida davlatning butun hududida bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar mahkamasi o'z faoliyatidan davlat rahbari va sho’ro majlisi oldida mas'uldir.

Bosh vazir :

1) Vazirlar mahkamasining faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi;

2)Vazirlar mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;

3) Xalqaro munosabatlarda vazirlar mahkamasi nomidan ish ko‘radi;

4)Shariat asosida belgilangan boshqa vazifalarni bajaradi.

Bosh vazir tayinlash va vazirlar mahkamasini tashkil etish, davlat rahbari va sho’ro majlisi o‘zaro maslahati bilan amalga oshiriladi.

Bosh vazir va sho’ro ahli o‘rtasidagi ziddiyatlar Alloh va Rasulining hukmiga qaytish bilan hal qilinadi.

Bosh vazir yoki vazirlar mahkamasida noshar'iy faoliyatlari dalillar bilan isbotlansa, Davlat boshlig'i va sho’ro majlisi ularni o‘z vazifasidan ozod etadi.

Vazirlar mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi shar'iy asoslar bilan belgilanadi.

XXI bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

99-modda.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Sharh:

Islomda hokimiyatning vakillik organlari nima deb nomlanishi muhim emas. Ularni hokimlar deysizmi, deputatlar deysizmi muhimi ularda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytgan ikki shart topilishi kerak:

1-Namoz o‘qish. 2-Allohning kitobi bilan boshqarish. Shunda musulmonlar ularga itoat etishi lozim.

Endi "Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o'z vakolatlariga ta'alluqli masalalarni hal etadilar " degan qismiga qaraylik.

Islomda bunga "dunyo va oxirat manfa'atlarini ko‘zlab " degan shart qo‘shiladi. Chunki, insonni oxiratiga zarar bergan ish, dunyosiga manfa'at bo‘lib ko‘rinsa-da islomda unga ijozat berilmaydi. Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

وَعَسَىٰٓ أَن تَكْرَهُواْ شَيْـًٔا وَهُوَ خَيْرٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تُحِبُّواْ شَيْـًٔا وَهُوَ شَرٌّ لَّكُمْ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

"..Shoyadki yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa. Va shoyadki yoqtirgan narsangiz siz uchun yomon bo'lsa. Alloh biladi, siz bilmaysiz" (Baqara.216)

Xulosa :

99-modda.

“Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq oqsoqollari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular Islomiy shartlar asosida tayinlanadi. Ular davlat va fuqarolarning dunyo va oxiratdagi manfa'atlarini ko‘zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar "

100-modda.

Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;

mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Sharh:

Ushbu modda mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari haqida :

1)qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

Bunda Islomiy qonuniylik va huquq-tartibotni shart qilinadi.

Fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash deganda ham shunday. Xavfsizlik ma'nosi islomiy e'tiqod bilan talqin qilinadi. Shunga ko‘ra, Islom buyurgan ishlar "xavfsizlik" deb tark qilinmaydi.

2)hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

Iqtisodiy va madaniy rivojlanish ham islomiy iqtisod va madaniyatga asoslanishi shart. Islomga zid iqtisodiy va madaniy ishlarga ruxsat berilmaydi. Buning tafsilotini avvalgi moddalar sharhida aytib o‘tdik.

3)mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;

Bu ham Islomiy iqtisod tizimiga asoslanishi kerak. Unga ko‘ra , musulmonlardan zakot, ahli zimmadan jizya, yerlardan olinadigan xaroj va rikoz (topilmalar) kabi yig'imlarga asoslanadi.

Ammo "Mukus" (yo'lto'sarlik)tarzida soliqlar yig‘ishga ruxsat berilmaydi. Bu haqida 51-modda sharhida aytib o‘tdik.

4) mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish;

Islomda "Foyda ko‘rish chiqim evaziga" degan qoida bor. Shunga binoan, xalq kommunal xizmatlardan foydalanar ekan, uni haqqini ado qilishi kerak. Uni boshqarish esa mahalliy hokimiyat organlariga havola qilinadi.

Atrof muhitni muhofaza qilish haqida esa 50-modda sharhida batafsil aytib o‘tdik.

5)fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash;

Fuqarolarning arzlarini eshitish davlat organlari zimmasidagi burchlardan. Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من وَلِيَ من أمرِ المسلمين شيئًا ، فاحتجَب عن أُولي الضَّعفِ والحاجةِ ؛ احتجب اللهُ عنه يومَ القيامةِ

"Kim musulmonlar ishlaridan bir ishga bosh bo'lib zaif va hojati borlardan berkinib olsa, Alloh qiyomat kunida undan berkinadi" (Abu dovud rivoyati)

Boshqa bir hadisda davlat amaldorlariga odamlarning arzini yetkazishga targ‘ib qilib aytadilar :

"من بلغ ذا سلطان حاجة من لا يستطيع إبلاغها، ثبت الله تعالى قدميه على الصراط يوم القيامة

"Kim sultonga yeta olmayotgan kishining hojatini unga yetkazib bersa, Alloh qiyomat kunida sirotda uning qadamini sobit qiladi" (Bazzor rivoyati)

Bu haqida 35-modda sharhida ham aytib o‘tdik.

6)normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Bunda ham "Davlatning vakillik organlari Islomiy asoslarga zid kelmaydigan tarzda hujjatlar qabul qiladi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi " deb shart qilinadi.

Xulosa :

100-modda .

Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

1)qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini Islomga muvofiq ta’minlash;

2) hududlarni iqtisodiy ijtimoiy va madaniy rivojlantirishni islomga muvofiq tarzda amalga oshirish;

3) Islomiy iqtisod asosida mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish,

4) mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish;

5)fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash;

6) Islomiy normalar asosida hujjatlarni qabul qilish hamda Islom qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

101-modda.

Mahalliy hokimiyat organlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o‘zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati — 5 yil.

Sharh:

1.Mahalliy hokimiyat organlari yuqori organlarning farmonlarini amalga oshirishi uchun ularda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytgan ikki shart topilishi kerakligi yana eslatib o‘tamiz.

1-namoz o‘qish. 2-Allohning kitobi bilan boshqarish. Shunda Allohning mana bu so‘ziga binoan ularga itoat qilinadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِي ٱلۡأَمۡرِ مِنكُمۡ فَإِن تَنَٰزَعۡتُمۡ فِي شَيۡءٖ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمۡ تُؤۡمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلۡيَوۡمِ ٱلۡأٓخِرِ ذَٰلِكَ خَيۡرٞ وَأَحۡسَنُ تَأۡوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Va bu itoat faqat yaxshilikka buyurilganda bo'ladi. Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

لا طاعة في المعصية، إنما الطاعة في المعروف رواه البخاري

"(Allohga) ma'siyat o‘rnida itoat y'oq! Itoat faqat yaxshilikda" (Imom Buxoriy rivoyati)

Yana Alloh ta'olo :

وَلَا يَعۡصِينَكَ فِي مَعۡرُوفٖ

va senga yaxshilik ishda isyon qilmaslikka bay'at qilib kelsalar.. (Mumtahana.12) deydi.

Aslida payg‘ambar yaxshilikdan boshqaga buyurmaydi. Lekin shunda ham faqat "**yaxshilikda isyon qilmaslik"** deb shart qildi. Toki xalq boshqa amaldorlarga ko‘r-ko'rona itoat etmasin.

2. "respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar."

Bu mavzuga maslahatga buyurgan oyatlarda ishora bor :

وَأَمۡرُهُمۡ شُورَىٰ بَيۡنَهُمۡ

"Ular ishlari o'zaro sho'ro (maslahat) ila bo'lganlardir" (Sho'ro.38)

3. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati — 5 yil.

Islomda vakolat muddati vaqt bilan emas vakolatga yaroqlilik bilan o'lchanishini aytib o‘tdik.

Qachon ularda o'z vakolatlariga yaroqsizlik uchratilsa o‘shanda ularni vazifasidan ozod etiladi.

Ba'zan odamlar o‘rtasida fitna chiqmasligi uchun asli aybsiz bo‘lsa-da amaldorlarni bo‘shatish ham mumkin. Bunga Umar raziyallohu anhu Kufa hokimi Sa'd ibn abu vaqqos raziyallohu anhuni hech qanday aybi yo‘q bo‘lsa ham, odamlarning gap so‘zini bosish uchun mansabdan olib tashlaganlari misol bo'ladi. Chunki Islomda ommaning manfaati, tinchligi, xos kishilar manfaatidan ustun turadi.

Xulosa:

101-modda

Mahalliy hokimiyat organlari, yuqori organlarining Islomiy shartlar asosida chiqargan qarorlarini amalga oshiradilar, Davlat va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. Yuqori organlarning shar'iy vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

Xalq oqsoqollari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati ularning salohiyatiga qarab belgilanadi.

102-modda.

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Sharh:

1.Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Bu ma'noga yuqorida aytib o‘tilgan hadis ishora qiladi :

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْهُمْ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلِهَا وَوَلَدِهِ، وَهِيَ مَسْـئُولَةٌ عَنْهُمْ، وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ، أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ) متفق عليه.

"Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostinglardagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga boshliq va xalqidan mas'ul . Kishi o'z ahliga boshliq va ulardan mas'ul. Ayol erining uyi va farzandlariga boshliq va ulardan mas'ul. Va qul ham hojasining moliga boshliq, undan mas'ul. Barchalaring boshliq va qo‘l ostidagilardan mas'uldir" (Buxoriy-Muslim)

Ya'ni har qanday yuqori bo‘lim pastgi bo‘limni boshqaradi. Faqat ushbu boshqaruv shar'iy asoslarga ko‘ra amalga oshirilishi shart.

2. "Viloyat va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi"

Bularning barchasi idoraviy boshqaruvga oid masalalar bo'lib ularga amal qilishda monelik yo‘q.

Xulafoyi roshidinlar siyratlariga qarasak ularda ham boshliqlik ichma ich suratda tayinlangan. Xalifa bosh voliyni, u esa o‘z navbatida qo'l ostidagilarni boshqarar edi. Faqat har qanday o‘ringa layoqatli kishini tayinlash kerak. Oisha raziyallohu anho aytadilar:

أَمرَنا رسولُ اللهِ صلَّى اللهُ عليهِ وسلَّمَ أنْ نُنزِّلَ الناسَ مَنازلَهُمْ

"Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam bizga odamlarni o'z o‘rinlariga qo‘yishni buyurdilar"

(Bayhaqiy rivoyati)

Va bu vazifalarga qo‘yilgan kishilarda Islomiy boshliqlik shartlari (namoz o‘qish va Allohning kitobi bilan boshqarish)topilishi kerak.

Xulosa :

102-modda.

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyatlar hokimlari davlat rahbari tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Tumanlarga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

103-modda.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari o‘z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o‘zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo‘yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1. "Viloyat, tuman va shahar hokimlari o‘z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o‘zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar

Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo‘yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi"

Islomda ham pastdagi bo‘limlar o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar va qo'l ostidagilardan javobgar bo‘ladilar. Bunga yuqoridagi "**Barchangiz boshliqsiz va qo‘l ostingdagilardan mas'uldir"** hadisi ham ishora qilgan. Shuningdek Islomda "**urafo** (oqsoqollar) va **Nuqabo** (rahbarlar)" tizimi ham bunga ishora qiladi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Havozin jangidan so‘ng asirlarni ozod qilib yubormoqchi bo‘ldilar. Lekin jangda ishtirok etgan Sahobalarning asirlarda haqqi borligi uchun ularning ijozatini so‘radilar. Sahobalar roziliklarini bildirsalar ham Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ularga :

"**Sizlardan kim roziyu kim norozi men qanday bilaman ?!" deb, hamma o‘zining "Urafo" (ya'ni qabilasidagi oqsoqollariga) roziligini bildirsin dedilar.** (Imom Buxoriy rivoyati)

Shundan so‘ng Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam **urafolardan** rozilik olishlari sahobalarning hammasidan rozilik olishlaridek bo‘ldi. Demak, urafolar yakkabosh tartibda qo'l ostidagilarni boshqaruvchi va ulardan mas'ul edilar. Bunga yana bir misol Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ansorlarga aytdilar :

"أخرجوا إليَّ منكم اثني عشر نقيبًا يكونون على قومهم بما فيهم"

"Sizlar o'z qavmlariga va ulardagi narsalarga boshliq bo‘lgan o‘n ikki naqib (boshliq) menga chiqaringlar" dedilar. Ansorlar to'qqiz **naqibni** xazraj qabilasidan, uch **naqibni** avs qabilasidan chiqardilar. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ularga aytdilar :

«أنتم على قومكم بما فيهم كفلاء ككفالة الحواريين لعيسى بن مريم، وأنا كفيل على قومي»

"Sizlar huddiki Iyso ibn maryam uchun havoriylari kafil bo‘lganidek o'z qavminglar va undagi narsalarga kafilsizlar. Va men ham qavmimga kafilman" (Albidoya-van-nihoya)

Bunda ham yuqorida aytilgan yakkabosh tarzda boshqaruvchi va yuqoriga hisobot topshiruvchi kabi bo‘limlar tuzishga ishora bor.

2. "Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi"

Bunda ham "Islom qonunlari bilan belgilanadi" degan shartni qo‘shamiz.

Xulosa:

103-modda.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari o‘z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o‘zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari

yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo‘yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi Islom qonunlari bilan belgilanadi.

104-modda.

Hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi.

Sharh:

Albatta bunda ham hokimda va uning faoliyatida islomiy shartlar topilishi va yaxshilikka buyurgan bo'lishi kerak. Shunda **"Ishboshilarga itoat qilinglar"** (Niso.59) oyatiga binoan ularga itoat qilinadi.

Xulosa:

104-modda.

Hokim o‘ziga berilgan shar'iy vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi.

105-modda.

Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1. "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi"

Bu ham "manfaatli narsalarni hosil qilish va zararli narsalarni daf qilish" qoidasi asosida amalga oshiriladi.

Islomda har qanday to‘planish boshliqsiz bo‘lmaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إذا خرجَ ثلاثةٌ في سفَرٍ فليؤمِّروا أحدَهُم

"Agar uch kishi safarga chiqsalar birlarini o‘zlariga boshliq qilsinlar" (Abu dovud rivoyati)

Ushbu hadisda **"o‘zlariga birlarini boshliq qilsinlar"** deganlarida ham yuqorida aytilgan "o‘zini-o‘zi boshqarish " ma'nosiga ishora bor.

Muhimi ushbu kichik organlar ham Islomiy asoslardan kelib chiqib o'z vazifalarini bajarishlari kerak.

Ammo, ularning vakolat muddatini ikki yarim yilga cheklash o‘rniga ularda mansablariga salohiyat topilishini shart qilgan yaxshiroq . Bu haqida avval aytib o‘tdik.

2. "O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi"

Bunda ham "Islom qonunlari bilan belgilanadi " degan shart qo‘shamiz. Shunda, bandalarning faqat dunyosiga emas "dunyo va oxiratiga" manfaatli

qarorlar chiqariladi. Chunki, Islom insonga faqat dunyosini emas, uning oxiratini ham obod qilish uchun qonunlar olib kelgan. Alloh ta'olo aytadi:

فَمِنَ ٱلنَّاسِ مَن يَقُولُ رَبَّنَآ ءَاتِنَا فِى ٱلدُّنْيَا وَمَا لَهُۥ فِى ٱلْءَاخِرَةِ مِنْ خَلَٰقٍ

Odamlardan ba'zilari: «Robbimiz bizga bu dunyoda bergin», deydi va unga oxiratda nasiba yo'qdir.

وَمِنْهُم مَّن يَقُولُ رَبَّنَآ ءَاتِنَا فِى ٱلدُّنْيَا حَسَنَةً وَفِى ٱلْءَاخِرَةِ حَسَنَةً وَقِنَا عَذَابَ ٱلنَّارِ

Va ulardan ba'zilari: «Robbimiz, bizga bu dunyoda ham yaxshilikni, oxiratda ham yaxshilikni bergin va bizni do'zax olovi azobidan saqlagin», deydi."

أُوْلَٰٓئِكَ لَهُمْ نَصِيبٌ مِّمَّا كَسَبُوا۟ وَٱللَّهُ سَرِيعُ ٱلْحِسَابِ

Ana o'shalarga qilgan kasblaridan nasiba bor. Va Alloh tez hisob qiluvchidir. (Baqara.200-202)

Xulosa:

105-modda.

Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi va vakolatidan ozod etish Islom qonunlari bilan belgilanadi.

XXII bob. O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati

Sharh:

Islomda sud hokimiyati "Qozilik" deb ataladi. Aslida fiqhi qoidalarga binoan "Istilohda tortishuv yo‘q".

Lekin konstitutsiya yozuvchilari ham baribir to‘liq o‘zbek tilida emas, lotin va fransuz lug'atlaridan foydalanib ushbu konstitutsiyani yozishgan. Biz esa musulmon

o'laroq, Qur'on lug‘ati bo‘lmish arab tilidagi va tariximizdagi atamalarni odamlarga tanitib o‘tishni istadik. Sud hokimiyatini qozilik deb atash shart demoqchi emasmiz.

Islomda qozilik (sud hokimiyati) asli Alloh va Rasulining haqqidir. Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

وَمَا كَانَ لِمُؤْمِنٍ وَلَا مُؤْمِنَةٍ إِذَا قَضَى ٱللَّهُ وَرَسُولُهُۥٓ أَمْرًا أَن يَكُونَ لَهُمُ ٱلْخِيَرَةُ مِنْ أَمْرِهِمْ وَمَن يَعْصِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ فَقَدْ ضَلَّ ضَلَٰلًا مُّبِينًا

Hech bir mo'min erkak va hech bir mo'mina ayol uchun Alloh va Uning Rasuli bir ishga qazo (hukm) qilganida, o'z ishlarini o'zlaricha ixtiyor qilmoq yo'q. Kim Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'lsa, bas, batahqiq, ochiq adashish-la adashibdi. (Ahzob.36)

Shunga binoan qozilik Alloh va Rasulining chegarasidan chiqmagan holda amalga oshirilishi shart.

Bunga o‘xshash "Qozilik" so‘zi ishlatilgan yana bir oyat :

فَلَا وَرَبِّكَ لَا يُؤْمِنُونَ حَتَّىٰ يُحَكِّمُوكَ فِيمَا شَجَرَ بَيْنَهُمْ ثُمَّ لَا يَجِدُواْ فِيٓ أَنفُسِهِمْ حَرَجًا مِّمَّا قَضَيْتَ وَيُسَلِّمُواْ تَسْلِيمًا

Yo'q, Robbingga qasamki, seni o'z oralarida chiqqan kelishmovchiliklarga hakam qilmagunlaricha, keyin, chiqargan hukmingga dillarida tanglik topmasdan, butunlay taslim bo'lmagunlaricha, zinhor mo'min bo'la olmaslar! (Niso.65)

Oyatda **"chiqargan hukmingiz"** deb tarjima qilingan so‘z, asli arab tilida "**qozoyta**" ya'ni, "siz qozilik qilgan" deb kelgan.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan so‘ng bu vazifa Abu Bakr raziyallohu anhuga, u kishidan keyin Umar raziyallohu anhuga o‘tdi. Ular Alloh va Rasulining hukmiga binoan qozilik qildilar. Keyinchalik Umar raziyallohu anhu bu mansabga alohida shaxs "Shurayhul-qozini" tanladilar. Va qozilik uchun alohida hovli "qozixona" tayinladilar. Shundan bu mansab alohida hokimiyat tarzida ajralib chiqdi.

106-modda.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sharh:

Islomda ham qozining faoliyati mustaqil bo‘lishi shart qilingan. Yuqorida aytib o‘tilgan qozi Shurayh 60 yil qozilik qildilar. Ali raziyallohu anhu o'zlarining xalifalik zamonlarida bir yahudiy bilan sovut masalasida tortishib qoladilar. Shunda qozi Shurayh xalifaning ziddiga yahudiyning foydasiga hukm chiqardi.

Chunki Ali raziyallohu anhu da'volariga dalil keltira olmadilar. Shariatda birovning qo‘lidagi narsani da'vo qilgan kishi dalil keltirishi shart. Aks holda "tanish bilish " tarzida hukm qilish yo‘q. Mana bu, qozining faoliyati qay darajada mustaqil bo‘lganiga dalolat qiladi.

Xulosa :

106-modda

Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda shar'iy asoslarga ko‘ra ish yuritadi.

107-modda.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma’muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman, shahar ma’muriy sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sharh:

1. Bu moddada aytilgan sud hokimiyati turlari hammasi Islomiy faoliyat olib borishi sharti bilan joiz.

Sud ishini bunday taqsimlarga bo‘lishdan maqsad ularni vazifasini yengillatish. Bu bo‘limlarga "**yaxshilikka hamkor bo'ling "** (Moida .2) kabi umumiy asoslardan kelib chiqib ijozat beriladi.

2. "Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi"

Bunda "Islomiy qonunlar bilan belgilanadi" degan shart qo‘shiladi.

3. "Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi"

Bunday sudlar zulm va tajovuzga sabab bo'lishi mumkinligi sabab unga ruxsat berilmaydi. Chunki Alloh ta'olo gunoh va tajovuzga yordamchi bo‘lishdan qaytaradi.

وَتَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡبِرِّ وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ

Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli zotdir. (Moida.2)

Xulosa:

107-modda.

Sud tizimi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston davlati fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar, fuqarolik va jinoyat ishlari

bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston davlati, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma’muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman, shahar ma’muriy sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi Islom qonunlari bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

108-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakilini qo‘shgan holda saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi o‘z tarkibidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining raisini va uning o‘rinbosarini saylaydi.

Sharh:

Demak bu modda konstitutsion sud faoliyati, uning tuzilishi va uning raisini saylash haqida

1.Konstitutsiyaviy sud.

Islomda davlat organlarining Islom qonunlariga qay darajada amal qilishini tekshiruvchi sud bo‘linmasi tashkil qilishga monelik yo‘q. Uni "Hisbah" bo‘linmasi deb ham ataladi. Istilohda tortishuv yo‘q. Muhimi ular himoya qiladigan konstitutsiya yoki qonunlar islomiy bo'lishi.

2. Ularni siyosiy va huquq sohasidagi mutaxassislardan saylash.

Islomiy nizomda esa, ular shar'iy qonunlarni himoya qiluvchi bo‘lishini inobatga olib ularda "shar'iy ilmlar mutaxassisligi" ham shart qilinadi.

3. Konstitutsion sud raisi va uning o‘rinbosarini saylash.

Bu ham shar'iy asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Xulosa:

108-modda.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Islomiy qonunlarga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarini ko‘radi.

Konstitutsiyaviy sud shar'iy siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan tayinlanadi.

Konstitutsiyaviy sud o‘z tarkibidan o'zining raisini va uning o‘rinbosarini shar'iy ko‘rinishda saylaydi.

109-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston

Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi;

7) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat’iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

Bu moddadan maqsad konstitutsiyaviy sud vazifalari .

Umumiy qilib aytganda, konstitutsiya Islomga muvofiq bo‘lishi sharti bilan ushbu sud tashkil qilinishi va bu moddada aytilgan vakolatlar unga berilishi mumkin. 1-2-3-bandlarda aytilgan vakolatlar hammasi shu ma'no ostiga kiradi.

4-bandda aytilgan konstitutsiya va qonun normalariga sharh berish ham zaruriy ishlardan. Islomda oyat, hadislar hatto ulamolar yozgan kitoblar ham sharh va izohga muhtoj. Shunga ko‘ra qonunlarga sharh berish ham zarur.

5- Oliy sudning faoliyatini konstitutsiyaga muvofiqligini ko‘rib chiqish.

Bu bandga ham Islomiy qonunlarga muvofiqligini ko‘rib chiqish ma'nosida amal qilinadi.

6- Qonuniylik holati to‘g‘risida yillik hisobot taqdim etish.

Hisobot topshirish ma'nosiga Urafolar va nuqabolar faoliyatida ishora qildik.

7-O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi.

Bu bandni "shar'iy qonunlar bilan berilgan boshqa vakolat doirasidagi ishlarini ko‘rib chiqadi"deb o‘zgartiriladi.

"Konstitutsiyaviy sudning hujjati rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi."

Qonun kuchga kirishi uchun uni e'lon qilish shartligi haqida 84-moddaning 9-bandi sharhida aytib o‘tdik.

"Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat’iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas."

Bunday deyish uchun konstitutsiyaviy sud hujjatlari Allohning shariatidan olingan bo‘lishi kerak.

Chunki xoliq qonunigina maxluqqa qat'iy va uning ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Bu haqida Allohning so‘zini aytib o‘tdik:

وَمَا كَانَ لِمُؤْمِنٍ وَلَا مُؤْمِنَةٍ إِذَا قَضَى ٱللَّهُ وَرَسُولُهُۥٓ أَمْرًا أَن يَكُونَ لَهُمُ ٱلْخِيَرَةُ مِنْ أَمْرِهِمْ وَمَن يَعْصِ ٱللَّهَ وَرَسُولَهُۥ فَقَدْ ضَلَّ ضَلَٰلًا مُّبِينًا

Hech bir mo'min erkak va hech bir mo'mina ayol uchun Alloh va Uning Rasuli bir ishga qazo (hukm) qilganida, o'z ishlarini o'zlaricha ixtiyor qilmoq yo'q. Kim Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'lsa, bas, batahqiq, ochiq adashish-la adashibdi. (Ahzob.36)

Oyatda " **Alloh va Rasulining** " deyilgani sababi esa, Rasuli ham Allohning hukmini yetkazadi. Shunga binoan, banda hukmi qachon Alloh hukmidan kelib chiqsagina unga taslim bo'lish shart va uning ustidan shikoyat qilgan kishi Allohning dinidan shikoyat qilgan bo'ladi.

"..Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi..."

Bunga ham "Islom qonuni bilan belgilanadi" degan shartni qo‘shamiz.

Xulosa :

109-modda.

Konstitutsiyaviy sud :

Davlatdagi barcha ichki va tashqi siyosatga oid qaror va farmonlarning shar'iy qonunlarga muvofiqligini aniqlaydi;

Konstitutsiya va qonunlar normalariga sharh beradi;

Oliy sudning faoliyatini shar'iy qonunlarga muvofiqligini ko‘rib chiqadi;

Qonunchilik palatasiga davlatdagi qonuniylik haqida yillik hisobot taqdim etadi;

Konstitutsiyaviy sudning hujjati rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy sud shariatga asoslanganda uning hujjati qat’iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyati tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi.

110-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Sharh:

1.Oliy sud..

Islomda oliy sud "Qozil-quzot" ya'ni "qozilar qozisi" deb nomlanadi.

Hanafiy mazhabi ulamolaridan Abu Yusuf rahimahulloh Abbosiylar davrida shu mansabda xizmat qilganlar. Hozirgi zamon tilida aytganda sud hokimiyatining oliy organi hisoblanganlar.

2. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va bajarilishi shart bo'lishi uchun ular Islomiy sud bo‘lishi kerak. Shunda Allohning mana bu so‘ziga amal qilgan bo‘lamiz:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِى ٱلْأَمْرِ مِنكُمْ فَإِن تَنَٰزَعْتُمْ فِى شَىْءٍ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمْ تُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ ذَٰلِكَ خَيْرٌ وَأَحْسَنُ تَأْوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Va bu itoat faqat yaxshilikka buyurilganda bo'ladi. Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar :

لا طاعة في المعصية، إنما الطاعة في المعروف رواه البخاري

"(Allohga) ma'siyat o‘rnida (hech kimga) itoat y'oq! Itoat faqat yaxshilikda" (Imom Buxoriy rivoyati)

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Yuqori organ quyi organlar ustidan nazorat olib borishi Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning quyidagi so‘zlari ostiga kiradi:

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْهُمْ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلِهَا وَوَلَدِهِ، وَهِيَ مَسْـئُولَةٌ عَنْهُمْ، وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ، أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ) متفق عليه.

"Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostinglardagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga bosh va xalqidan mas'ul . Kishi o'z ahliga boshliq va ulardan mas'uldir. Ayol erining uyi va farzandlariga bosh va ulardan mas'uldir Va qul ham hojasining moliga boshliq, undan mas'uldir. Barchalaring boshliq va qo‘l ostidagilardan mas'uldir" (Buxoriy va muslim)

Xulosa :

110-modda.

Oliy sud fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan shar'iy asoslarga ko‘ra qabul qilingan hujjatlar qat’iy va butun davlat hududida bajarilishi majburiydir.

Oliy sud quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

111-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining organi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1. Sudyalar oliy kengashi.

Bunday tashkilotdan maqsad sud hokimiyatining mustaqilligi va qonuniyligini ta'minlash. Bunga **"Yaxshilikka yordam"** (Moida.2) ma'nosidagi oyat va hadislarda ishora bor.

2.Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi

Bunda ham shariy qonunlar bilan belgilanadi degan shartni qo‘shamiz

Xulosa :

111-modda.

Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining organi bo‘lib, u sud hokimiyatining mustaqilligi shar'iy asoslarga rioya etilishini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi.

112-modda.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a’zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko‘rsatilgan asoslar bo‘lgandagina ozod etilishi mumkin.

Sharh:

1.Sudyalar daxlsizligi haqida 106-modda sharhida aytib o‘tdik .

2.Sudyalarni daxlsizligi qonun bilan kafolatlanishi ham shu ma'noda.Bunga o‘xshash ma'noni 91-modda sharhida bayon qilindi.

3. Sudyalar ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emasligi.

Bunga o‘xshash ma'noni 88-modda sharhida deputatlar misolida aytib o‘tdik. Abu Bakr raziyallohu anhu xalifalik muddatlarida bozorda savdo qilib yurganlarida Umar raziyallohu anhu bundan qaytarib u kishiga oylik chiqarib berdilar. Chunki bunday ishlar ularni o‘z vazifalaridan chalg'itishi mumkin.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

لا يَقْضِيَنَّ حَكَمٌ بيْنَ اثْنَيْنِ وهو غَضْبَانُ.

"Qozi g‘azabi chiqib turgan holatda ikki kishi orasida hukm qila ko‘rmasin " (Buxoriy rivoyati).

Chunki jahl chiqsa aql ketadi. Qozini mashg‘ul qiladigan boshqa holatlar ham shunga qiyoslanadi.

Ammo ilmiy faoliyat esa uning rivojlanishi uchun zarar. Shuning uchun bu holatni istisno qilinadi.

4. Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko‘rsatilgan asoslar bo‘lgandagina ozod etilishi mumkin.

Islomiy nizomda sudya vakolati mu'ayyan yilga cheklanmagan.

Umar raziyallohu anhu qozi Shurayhni bu mansabga tayinlaganlaridan so‘ng u kishi 60 yil qozilik qildi.

Bu bandning o‘rniga "layoqat holatiga qarab” (dindan chiquvchi amal, kabira gunoh sodir etish, qasddan noshar'iy hukm chiqarish, aqldan ozish va hokazo..) uni vazifasidan ozod etilishi to'g'riroq bo'ladi.

Xulosa :

112-modda.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat shariat qonunlariga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a’zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati belgilanmaydi. Sudyalik vazifasidan faqat shar'iy qonunlarda ko‘rsatilgan asoslar bo‘lgandagina ozod etilishi mumkin.

113-modda.

Hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

Sharh:

Sudlar ochiq majlislarda hammaning ko‘z o‘ngida o‘tishi nohaqliklarni oldini olish uchun bir vosita.

Shari'atda jinoyatchilarga jazo berishdan ko‘zlangan maqsadlardan biri ularni boshqalarga ibrat qilish. Bu maqsad amalga oshishi uchun ham sudlar ochiq o‘tishi kerak.

Alloh ta'olo zinokorlarga beriladigan jazo haqida aytadi :

وَلْيَشْهَدْ عَذَابَهُمَا طَآئِفَةٌ مِّنَ ٱلْمُؤْمِنِينَ

Va ularning azobiga bir toifa mo'minlar guvoh bo'lsinlar. (Nur.2)

Umar raziyallohu anhu davrida Sud uchun alohida "qozixona" tashkil qilingani ham ushbu majlislar oshkora bo‘lishi kerakligiga dalildir.

Islom tarixida sudlar "yopiq majlisda" bo‘lganini hech uchratmadik. Shuning uchun "ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi" degan bandni, shariy qonunlarda bunga ijozat berilganini aniqlashga havola qilamiz.

Xulosa:

113-modda.

Hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga shar'iy asos taqdim etilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

114-modda.

Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Sharh:

Sudning qarori qat'iy, amal qilish lozim bo'lishi uchun sudyalar shar'iy hukm chiqargan bo'lishi kerak. Shunda "**o'zinglardan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling"** oyatiga binoan bunday sud qarorlari majburiy bo'ladi. Alloh ta'olo aytadi:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَطِيعُواْ ٱللَّهَ وَأَطِيعُواْ ٱلرَّسُولَ وَأُوْلِى ٱلۡأَمۡرِ مِنكُمۡۖ فَإِن تَنَٰزَعۡتُمۡ فِي شَيۡءٖ فَرُدُّوهُ إِلَى ٱللَّهِ وَٱلرَّسُولِ إِن كُنتُمۡ تُؤۡمِنُونَ بِٱللَّهِ وَٱلۡيَوۡمِ ٱلۡأٓخِرِۚ ذَٰلِكَ خَيۡرٞ وَأَحۡسَنُ تَأۡوِيلًا

Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va Payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir. (Niso.59)

Xulosa:

114-modda.

Sud hokimiyati shar'iy asoslarga ko‘ra chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

115-modda.

O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

Sharh:

Inson o‘ziga qo‘yilgan ayblovni tushunishi va o‘zini himoya qilishi uchun sud uning tilida yoki tarjimon orqali bo'lishi shart. Shuning uchun Alloh har bir ummatga hujjat qoim qilishda o'zinig tilida payg'ambarlar yuborgan. Alloh ta'olo aytadi :

وَمَآ أَرْسَلْنَا مِن رَّسُولٍ إِلَّا بِلِسَانِ قَوْمِهِۦ لِيُبَيِّنَ لَهُمْ فَيُضِلُّ ٱللَّهُ مَن يَشَآءُ وَيَهْدِى مَن يَشَآءُ وَهُوَ ٱلْعَزِيزُ ٱلْحَكِيمُ

Qaysiki Payg'ambarni yuborgan bo'lsak, bayon qilib berishi uchun o'z qavmi tili ila yuborganmiz. (Ibrohim:4)

Yana aytadi:

وَلَوْ جَعَلْنَٰهُ قُرْءَانًا أَعْجَمِيًّا لَّقَالُوا۟ لَوْلَا فُصِّلَتْ ءَايَٰتُهُۥٓ ءَا۬عْجَمِىٌّ وَعَرَبِىٌّ

Agar Biz uni ajamiycha Qur'on qilganimizda, albatta: «Uning oyatlari mufassal bayon qilinganida edi. Arabiyga ajamchami?!» der edilar. (Fussilat.44)

Ushbu oyatdan ko‘rinib turibdiki arabga ajam tilda hukm qo‘yilmaydi. Shuning uchun qur'on ham uni eng birinchi tinglovchilar (arablar) tilida tushdi.

Xulosa :

115-modda.

Sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

116-modda.

Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’minlanadi.

Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

Bu moddadan maqsad ayblanuvchi o‘zini himoya qilishi. Islomda kishi nohaq ayblanayotgan bo‘lsa o‘zini o‘zi himoya qilishi va o‘zining himoyasi uchun vakil (advakat) yollashi mumkin.

Alloh ta'olo taqvodor bandalarini sifatida ular o‘zini himoya qiluvchi bo‘lishini aytadi:

وَٱلَّذِينَ إِذَآ أَصَابَهُمُ ٱلۡبَغۡيُ هُمۡ يَنتَصِرُونَ

O'zlariga tajovuzkorlik etganda nusrat qozonadiganlar(Haqqini oladiganlar)dir.

(Sho'ro .39)

Hatto kofirlarga aytadi:

قُلۡ هَاتُواْ بُرۡهَٰنَكُمۡ إِن كُنتُمۡ صَٰدِقِينَ

«Agar rostgo'y bo'lsangiz, hujjatingizni keltiring», deb ayt. (Baqara .111)

Yana aytadi :

وَلَمَنِ ٱنتَصَرَ بَعۡدَ ظُلۡمِهِۦ فَأُوْلَٰٓئِكَ مَا عَلَيۡهِم مِّن سَبِيلٍ

Albatta, kim o'ziga bo'lgan zulmdan keyin nusrat qozonsa, (o'zini himoya qilsa)bas, undaylarni (ayblashga) hech yo'l yo'q. (Sho'ro.41)

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

لو يعطى الناس بدعواهم، لادعى رجالٌ أموال قومٍ ودماءهم، لكن البينة على المدَّعِي، واليمين على من أنكر

"Agar odamlarga da'volari bilan talablari berilaversa, bir odamlar bir qavmlarning mollari va qonlarini da'vo qilar edilar ! Lekin da'vo qiluvchi dalil keltirishi lozim, inkor qiluvchi esa qasam ichishi kerak"(Bayhaqiy rivoyati)

Ammo boshqa birovni advakat tarzida yollash esa vakillik deb e'tibor qilinadi. Vakillik esa umuman olganda joiz.

Lekin kishi o‘zini nohaqligini, xasm tarafni haqligini bila turub, o‘zini-o‘zi oqlashi ham, advakat yollashi ham mumkin emas. Buni bilgan advakat ham unga yordam berishi mumkin emas. Qozi ikala tarafni eshitib kimning hujjati kuchliroq bo‘lsa o‘shaning foydasiga hukm qiladi. Ammo bu baribir nohaq tarafga birovning haqqini halollab bermaydi. Bu haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar :

إِنَّمَا أَنَا بشَرٌ، وَإِنَّكُمْ تَخْتَصِمُونَ إِلَيَّ، وَلَعَلَّ بَعْضَكُمْ أَنْ يَكُونَ أَلْحَنَ بحُجَّتِهِ مِنْ بَعْضٍ؛ فأَقْضِي لَهُ بِنحْوِ مَا أَسْمَعُ، فَمَنْ قَضَيْتُ لَهُ بحَقِّ أَخِيهِ فَإِنَّمَا أَقْطَعُ لَهُ قِطْعَةً مِنَ النَّارِ

"Men ham bir odamman. Sizlar menga talashib kelasizlar. Ehtimol ba'zinglar hujjatda ba'zinglardan tili burro bo'lar. Men eshitganimga ko‘ra uning foydasiga hukm qilib beraman. Kimgaki birodarining haqqini hukm qilib bergan bo‘lsam, unga do‘zaxdan bir bo‘lak bergan bo'laman ! (Buxoriy-muslim)

Demak, kishi nohaq bo‘lsa, unga advakat tugul payg'ambar hukm qilib bersa ham u baribir nohaq.

O'z navbatida haq taraf ham imkon qadar haqqini talab qilishni bilishi kerak. Agar o‘zi eplay olmasa, ana shunda birovni (advakatni) yollashi mumkin bo'ladi.

Kishi o‘zi haqqini talab qila olmaydigan zaif bo'lsa birovni vakil qilishi haqida Alloh ta'olo aytadi:

فَإِن كَانَ ٱلَّذِى عَلَيْهِ ٱلْحَقُّ سَفِيهًا أَوْ ضَعِيفًا أَوْ لَا يَسْتَطِيعُ أَن يُمِلَّ هُوَ فَلْيُمْلِلْ وَلِيُّهُۥ بِٱلْعَدْلِ

.. Agar haq zimmasiga tushgan kishi esi past, zaif yoki aytib tura olmaydigan bo'lsa, uning valiysi adolat bilan aytib tursin.. (Baqara.282)

Ammo kishi nohaq bo'la turub unga advokatlik qilib bo‘lmaydi. Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

إِنَّآ أَنزَلۡنَآ إِلَيۡكَ ٱلۡكِتَٰبَ بِٱلۡحَقِّ لِتَحۡكُمَ بَيۡنَ ٱلنَّاسِ بِمَآ أَرَىٰكَ ٱللَّهُ وَلَا تَكُن لِّلۡخَآئِنِينَ خَصِيمٗا

Albatta, Biz senga kitobni haq ila odamlar orasida senga Alloh ko'rsatgani bilan hukm qilishing uchun tushirdik. Sen xoinlarning yonini oluvchi bo'lma! (Niso.105)

Oyatda aytilgan **"xoinlarni tarafini oluvchi bo'lma"** degan so‘z ostiga ularga advokatlik qilmaslik ma'nosi ham kiradi.

Yana aytadi:

وَلَا تُجَٰدِلۡ عَنِ ٱلَّذِينَ يَخۡتَانُونَ أَنفُسَهُمۡ إِنَّ ٱللَّهَ لَا يُحِبُّ مَن كَانَ خَوَّانًا أَثِيمٗا

O'z jonlariga xiyonat qiladiganlarni mudofaa qilma. Albatta, Alloh xiyonatchi va gunohkor bo'lgan kimsani xush ko'rmas. (Niso.107)

Demak **"o'z joniga xiyonat qilgan"** ya'ni jinoyatchi kimsalarni mudofaa qilish advakatlarga halol emas.

Xulosa :

116-modda.

Ayblanuvchi kishi shar'iy qonunlar asosida himoyalanish huquqi bilan ta’minlanadi.

Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi.

XXIII bob. Saylov tizimi

117-modda.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o‘zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilikdan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining saylov to‘g‘risidagi hamda referendum to‘g‘risidagi qonunlariga va boshqa qonunlarga amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi komissiya a’zolari orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimi bo‘yicha komissiya majlisida saylanadi.

Saylov o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

Islomda saylov tizimi o‘rniga sho’ro tizimi yo‘lga qo‘yilgani haqida avval aytib o‘tdik. Ba'zilar o‘ylaganidek sho’ro bu saylov emas.

Chunki saylovda mavjud odamzodning e'tiqodi, tushunchasidan qat'iy nazar qaysi qismi ko‘proq bo'lsa o‘sha tomon g‘olib keladi. Bunga ko‘ra, yer yuzida yetti milliard inson bo'lsa, ularning ko'prog'i nima fikr bildirsa o‘sha qabul qilinishi kerak. Bu esa Islom ummatiga katta balo eshigini ochib beradi. Ushbu yetti milliard insonning bor yog‘i bir yarim milliardi musulmon bo'lsa, saylov tizimi bo‘yicha ularning hech qanday o‘rni bo‘lmasligi kerak. Ustiga ustak o‘sha bir yarim millard musulmonlarning ham qanchasi nomiga musulmon. Shuning uchun ham Alloh ta'olo qur'onda bunday ko‘pchilikka ergashish Allohning yo‘lidan adashtirib qo‘yishini aytadi:

وَإِن تُطِعْ أَكْثَرَ مَن فِى ٱلْأَرْضِ يُضِلُّوكَ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ إِن يَتَّبِعُونَ إِلَّا ٱلظَّنَّ وَإِنْ هُمْ إِلَّا يَخْرُصُون

Va agar yer yuzidagilarning ko'plariga itoat qilsang, seni Allohning yo'lidan adashtiradilar. Ular gumondan boshqaga ergashmaslar. Ular taxmin qilarlar, xolos.

(An'om. 116)

Keyin saylov tizimida taqvodor musulmon va fosiq kofirning ovozi teng qilinadi. Bu ham Islomda mumkin emas. Chunki e'tiqod jjihatidan musulmon bilan kofir teng emas. Alloh ta'olo aytadi :

لَا يَسْتَوِىٓ أَصْحَٰبُ ٱلنَّارِ وَأَصْحَٰبُ ٱلْجَنَّةِ أَصْحَٰبُ ٱلْجَنَّةِ هُمُ ٱلْفَآئِزُونَ

Do'zax egalari va jannat egalari teng bo'lmaslar. Jannat egalari, o'shalar yutuqqa erishuvchilardir (Hashr.20)

Yana aytadi:

أَمْ نَجْعَلُ ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ وَعَمِلُواْ ٱلصَّٰلِحَٰتِ كَٱلْمُفْسِدِينَ فِى ٱلْأَرْضِ أَمْ نَجْعَلُ ٱلْمُتَّقِينَ كَٱلْفُجَّارِ

Yoki Biz iymon keltirib, solih amallar qilganlarni er yuzida buzg'unchilik qiluvchilar kabi qilarmidik?! Yoki Biz taqvodorlarni fojirlar kabi qilarmidik?! (Sod.28) Yana aytadi:

أَفَنَجْعَلُ ٱلْمُسْلِمِينَ كَٱلْمُجْرِمِينَ

Musulmonlarni jinoyatkorlarga o'xshatib qo'yarmidik?!

مَا لَكُمْ كَيْفَ تَحْكُمُونَ

Sizlarga nima bo'ldi, qanday hukm chiqaryapsizlar?! (Qalam.35-36)

Islom tarixida hech qaysi xalifa umumxalq saylovi bilan mansabga ko‘tarilmadi. Ular sho’ro tizimi bilan tayinlanadilar.

Qur'onda "**Sho’ro**" nomlik bir sura bor. U surada Alloh ta'olo aytadi:

وَأَمْرُهُمْ شُورَىٰ بَيْنَهُمْ

"Ular ishlari o'zaro sho’ro (maslahat) ila bo'lganlardir" (Sho’ro.38)

Sho’ro "mashvarat, maslahat" degan ma'nolarda ishlatiladi. Ya'ni xos davrada ahli ilmlar maslahati bilan ishlar hal qilinadi. Shunda ularning ko'pchiligi tarafidan dalillar bilan isbotlagan fikrlari haq bo‘ladi. Bu umumxalq saylovi degani emas.

Kimdir aytsaki: "Ushbu ahli ilmlar maslahatining natijasi nima bilan hal bo‘ladi? Baribir ularning o‘rtasida ovozlar ko‘pligiga qarab amal qilinmaydimi?! Demak baribir saylov tizimiga qaytar ekanmiz-ku?!"

Bunga javob:

1-dan bunda har qanday odamning ko‘pchiligi ovozi emas, xos ahli ilmlarning ko‘pchiligi ovoziga qaytamiz. Buning natijaga ta’siri bor. Alloh ta'olo aytadi :

قُل لَّا يَسْتَوِى ٱلْخَبِيثُ وَٱلطَّيِّبُ وَلَوْ أَعْجَبَكَ كَثْرَةُ ٱلْخَبِيثِ

"Sen ayt : Agar nopokning ko'pligi seni ajablantirsa ham, pok bilan nopok teng bo'la olmas" (Moida.100)

Modom ozgina yaxshi insonlarga ko‘p yomonlar hech qachon teng bo‘lmas ekan, qanday qilib ko‘p yaxshilarning ovozini yomonlarning ovoziga (sho’roni saylovga) tenglash mumkin?!

2-dan sho’ro tizimida shar'iy dalil kim tarafida bo'lsa, u bir kishi bo'lsa ham uning so‘zi so‘z bo'ladi. Saylovda esa, shar'iy dalil kimning so‘zini quvvatlashidan qat'iy nazar kimning so‘zi ko‘proq ovoz olishi e'tiborga olinadi.

Bunga bir misol keltiraylik. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan so‘ng Abu Bakr raziyallohu anhu murtadlar va zakot berishdan bosh tortganlarga urush ochdilar. Usoma raziyallohu anhuni Rumga urushga yubordilar. Agar bu ishlarini saylov ovoziga qo‘yilsa, u kishining o‘zlaridan boshqa hamma rad qilar edi. Hatto eng yaqin maslahatchilari Umar raziyallohu anhu ham avvalda qarshi edilar. Lekin shar'iy dalil Abu Bakr raziyallohu anhu tarafda edi. Shuning uchun hech kimning ovoziga qarab o‘tirmay qaror qabul qildilar. Shunga binoan shar'iy dalil bor o‘rinda hech kimsaning ovoziga qarab o‘tirilmaydi.

Mana shu Abdulloh ibn mas'ud raziyallohu anhuning so‘zlari ma'nosi:

"الجماعة ما وافق الحق وان كنت وحدك"

"Sen garchi bir o‘zing bo'lsang ham haqqa muvofiq kelgan vaqting jamoatsan"

Shuning uchun sho’ro ahlining ko‘pchiligi, umumxalqning ko'pchilik ovoziga taqqoslanmaydi.

Amma agarda ozchilik o'zining so'zini shar'iy dalillar ila isbotlab bera olmasa, unda Sho’roda ko'pchilik tarafning ovozi e'tiborga olinadi. Bunga dalillar ko‘p. Masalan :

عليكم بالجماعةِ وإيَّاكم والفُرقَةَ فإنَّ الشـيطانَ معَ الواحدِ وهو منَ الاثنَينِ أبعَدُ مَن أراد بحبوحةَ الجنةِ فلْيلزَمِ الجماعةَ

"Sizlar (musulmonlar) jamoasini lozim tutinglar. Firqalanishdan ehtiyot bo‘linglar. Chunki shayton, yakka bilan. Ikki kishidan esa uzoqroqdir. Kim jannatning markazini istasa jamoatni lozim tutsin" (Termiziy rivoyati)

Ko‘pchilik ozchilikdan e'tiborli ekaniga yana bir misol :

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

يُسَلِّمُ الرَّاكبُ عَلَى الْمَاشِي، وَالْماشي عَلَى القَاعِدِ، والقليلُ عَلَى الكَثِيرِ

"Ulov mingan piyodaga, piyoda o‘tirganga, ozchilik esa ko'pchilikka salom beradi" (Buxoriy va muslim)

Demak, ko‘pni hurmati e'tiborga olinib, ozchilik birinchi bo‘lib unga salom berishiga amr qilindi.

Umar raziyallohu anhu o'zlaridan so‘ng xalifa saylashni olti kishiga (Sho’ro ahliga) tashlab ketib ularga aytganlar :

"Agar ikki tomon teng ovoz olsa, qaytadan sho’ro qilinglar. Agar to‘rt kishi bir fikr, ikki kishi boshqa fikrda bo‘lsa, ko‘pchilik tarafni fikrini olinglar" (Tobaqotul-kubro kitobidan)

Mana bu qissada ham sho’ro ahlining ko'pchilik tarafining so‘zi olinishiga ishora.

Lekin bu ham umumiy insoniyatning ko‘pchiligi emas, xos doiradagi ahli ilmlarning ko‘pchiligi so‘zi mu'tabarligiga dalil.

Imom Shofeiy rahimahulloh sahobalarning so‘zlari bir-biriga teskari bo'lsa, qaysi birining so‘zini olishimiz kerakligi haqida aytadilar:

"Agar ular (sahobalar) biror dalolatsiz ixtilof qilsalar ularning aksarining so‘ziga qaraymiz"

(Bayhaqiy rivoyati)

Demak, bundan chiqadiki hatto sahobalarning ham koʻpchiligiga ergashish sharti, ixtilofli tomonlarning hech birida quvvatli dalil y'oq bo'lishi kerak. Agar bir tarafda quvvatli dalil bo'lsa, u tarafning sonidan qat'iy nazar oʻsha tomon haq boʻladi.

Bu ma'noni Ibnul-qayyum rahimahulloh ham aytadilar:

"Agar to'rt xulafoyi roshidinlar bir taraf bo'lsa, ularning soʻzi haqligiga shubha yoʻq. Agar ularning koʻprog'i bir taraf bo'lsa ham, o'sha taraf haqligi g'olibroqdir " (I'lomul-muvaqqi'yn)

Yana Xotiybul-Bag'dodiy rahimahulloh roviylar oʻrtasida tarjih qilish (ya'ni bir tarafni ustun qilish)haqida aytadilar:

"Agar ikki rivoyat bir-biriga teskari kelsa, u rivoyatlarning qay birini roviysi koʻproq bo'lsa o'shasini ustun qilamiz. Chunki xato qilish va unutish koʻpchilikdan uzoqroq va kamchilikka yaqinroqdir."

(Al-kifoyah fi ilmir-rivayah)

Agar shoʼro natijasida ovozlar teng boʻlib qolsa, unda Umar raziyallohu anhu aytganlaridek qaytadan shoʼro oʻtkaziladi.

Aytaylik yana ovozlar teng kelaversa, unda har qanday bir tarafni ixtiyor qilamiz.

Agar taraflar bunga norozi bo'lsa, ular oʻrtasida qur'a tashlaymiz. Qur'a qaysiga chiqsa oʻsha gʻolib bo'ladi.

Qur'a nizomi Qur'on va sunnat bilan sobit. Alloh ta'olo Maryam alayhassalam qissasida aytadi:

وَمَا كُنتَ لَدَيْهِمْ إِذْ يُلْقُونَ أَقْلَٰمَهُمْ أَيُّهُمْ يَكْفُلُ مَرْيَمَ وَمَا كُنتَ لَدَيْهِمْ إِذْ يَخْتَصِمُونَ

Ular qaysilari Maryamning kafili bo'lishiga qalamlarini tashlashayotganlarida, oldilarida emasding va tortishayotganlarida ham oldilarida emasding. (Oli imron. 44)

Demak huquqlar talash boʻlganda qur'a tashlash joiz ekan.

Shuningdek, Yunus alayhissalam qissalarida ham qur'a tashlaganlariga ishora bor. Alloh ta'olo aytadi:

فَسَاهَمَ فَكَانَ مِنَ ٱلْمُدْحَضِينَ

" Bas, u qur'a tashlab mag'lublardan bo'ldi." (Soffat. 141)

Shuningdek Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam safarga chiqsalar ayollari o‘rtasida qur'a tashlar va kimning nasibasi chiqsa uni o‘zlari bilan olib ketar edilar. (Muslim rivoyati)

Mana bunda ham teng huquqli shaxslardan birini muayyan o‘ringa tanlash kerak bo‘lganda ular orasida qur'a tashlash joizligiga dalil bor.

Shuningdek Qodisiyya jangida ikki muazzin azon aytishga talashib qoladilar. Shunda sahobiy Sa'd ibn abu vaqqos raziyallohu anhu ular o‘rtasida qur'a tashlaganlar.

Mana bular hammasi sho’ro tizimini saylovdan farqlari. Saylov tizimida saylanuvchilar ham saylovchilar ham bu shartlarga rioya qilishmaydi. Balki Yahudiy ham nasroniy ham saylash va saylanish huquqiga ega deyilgan. Bunga ko‘ra ularning ovozi g‘olib kelsa ular ham musulmonlarga bosh bo'lishi va ularning yurtini egallab olishi mumkin degan gap chiqadi. Saylovning xatari ana shunda. Sho’ro tizimida esa hech qachon bu muammolarga duch kelinmaydi.

Xulosa qilib aytganda sho’roni saylovdan farqi :

1- Dalil bor o‘rinda sho’ro bo‘lmaydi. Saylovda esa bunga qaralmaydi.

2- Sho’roda ahli ilm ovoziga qaraladi. Saylovda esa taqvodor mo'min bilan kofir saylanish va saylash haqqi barobar.

3- Saylovda natija faqat ko'p ovozga qarab hal qilinadi. Sho’roda esa dalil qaysi tarafni ko‘proq quvvatlasa shunga amal qilinadi.

4- Sho’roda dalillar aniq bo‘lmaganda ko'pchilik ovoziga qaraladi. Saylovda esa har qanday holatda ko'pchilik ovozi hal qiluvchi bo'ladi.

Shu o‘rinda din dushmanlari tarafidan tashlanadigan bir shubhaga javob berib o‘tsak.

Ular xalqni Islomdan nafratlantirib "Islom nazdida xalqning o‘rni yo‘q ekan" deb yurishadi.

1- dan :

Aslida Musulmon xalqning irodasi inobatga olinadi. Bu haqida Umar raziyallohu anhu aytadilar:

"فمَن بايَع امراً مِن غيرِ مشورةٍ مِن المسلِمينَ فإنَّه لا بيعةَ له ولا للَّذي بايَعه"

"Kim musulmonlardan maslahatsiz biror kishiga bay'at bersa unga ham va u bay'at bergan kishisiga ham bay'at yo‘qdir " (Buxoriy rivoyati)

Modom MUSULMON XALQ ning so‘zi, fikri inobatga olinar ekan, unda nega saylov o'tkazilmaydi? Mu'ammo haq va botilni, yaxshi va yomonni farqini anglab yetgan MUSULMON XALQ topilishi qiyinligida. Aksar odamlar yolg‘on va'dalar, saylovdan oldingi targ‘ibot, tashviqotlarga aldanuvchi bo‘ladilar.

Kimlardir kursiga ko‘tarilib shaxsiy imperiyasini qurushi uchun bunday tashviqotlar bilan xalqni aldab, ularga va'dalar berib so'ng "Xalqning irodasi" dan foydalanishiga musulmonlar qarab turmaydi. Chunki bu xalqning irodasi emas, nafsning irodasi bo'ladi.

Kim ko‘proq tashviqotlar bilan odamlarni nafsini o‘ziga qarata olsa o'sha g‘olib bo‘laveradi. Bu Alloh oyatda aytgan gumon va havoyi nafsga ergashishdir:

إِن يَتَّبِعُونَ إِلَّا ٱلظَّنَّ وَمَا تَهْوَى ٱلْأَنفُسُ وَلَقَدْ جَآءَهُم مِّن رَّبِّهِمُ ٱلْهُدَىٰٓ

"Ular Robbilaridan hidoyat kelganiga qaramay gumon va havoyi nafs xohishiga ergasharlar, xolos." (Najm.23)

Xususan hukm sohasida insonlar aqliga emas havosiga ergashadilar. Shuning uchun Alloh ta'olo Dovud alayhissalam va boshqalarni bundan ogohlantirib aytadi :

دَاوُۥدُ إِنَّا جَعَلْنَٰكَ خَلِيفَةً فِى ٱلْأَرْضِ فَٱحْكُم بَيْنَ ٱلنَّاسِ بِٱلْحَقِّ وَلَا تَتَّبِعِ ٱلْهَوَىٰ فَيُضِلَّكَ عَن سَبِيلِ ٱللَّهِ

Ey Dovud, albatta, Biz seni yer yuzida xalifa qildik. Bas, odamlar orasida haq ila hukm yurit. Havoi nafsga ergashma! Yana u seni Allohning yo'lidan adashtirmasin. (Sod.26)

2-dan:

Saylovda ham baribir xalqning juda koʻp qismi norozi boʻladi.

Chunki bir davlatda ovoz berishga loyiq masalan yuz million inson bor deylik. Saylovda ikki nomzodning biri 51 % , ikkinchisi 49% ovoz oldi. Oxir oqibat ana shu 49% xalqni ya'ni qirq toʻqqiz million insonni norozi qilamizku?! Ularning fikri fikr emasmi?

Demak baribir odamlarning ma'lum qismi norozi bo'lar ekan. Faqat biz ularni Alloh roziligi uchun norozi qilamiz. Saylovdagi kabi gʻolib tarafning roziligi uchun emas.

Imom Shofeiy rahimahulloh aytadilar:

"رضا الناس غاية لا تدرك، ورضا الخالق غاية لا تترك"

"Odamlarni rozi qilish yetib boʻlmas g'oyadir.

Xoliqni rozi qilish tark qilinmas g'oyadir " (Sifatus-sofvah)

3-dan:

Aksar holatda saylovlar haqqoniy oʻtmaydi. Saylovlardagi g'irromliklar, ovozlarni sotib olish hech kimga sir emas. Xalqni irodasi da'vosi bilan chiquvchilar avvalo oʻzlari xalqning irodasi bilan qanday oʻyin qilishlariga boqishlari kerak.

4-dan:

shoʼro tizimi bilan xulafoyi roshidinlar davlat boshqardilar va bu tizim tajribadan oʻtdi.

Hech kim buning ortidan baxtiqaro boʻlmadi. Balki musulmon ham kofir ham oʻsha davlatlar adolati soyasida baxtli yashadilar. Demak bu nizomga amal qilish shunchaki tajriba emas voqe'likda tasdigʻini topgan amaliy nizom.

Endi shu o‘rinda bir nuqtaga tanbeh berib o‘tishimiz lozim.

Saylov aslida islomiy nizom bo‘lmasa-da bir davlatda unga amal qilinar ekan to‘liq Islomiy nizomga erishilgunga qadar musulmonlar u orqali davlatni isloh qilishga harakat qilishlari bu boshqa holat.

Shariatda qoida bor :

"يُغتفر في البقاء ما لا يغتفر في الابتداء"

"Boshlashga ijozat berilmagan ishlar bajarilib bo‘lgach kechiriladi "

Shuningdek yana bir qoida:

ما لا يدرك كله، لا يترك كله

"Hammasiga erishib bo'lmagan ishlar hammasi tark qilinmaydi"

Shunga binoan, to‘liq Islomiy nizom sho’ro yo‘q ekan deb qo'l qovushtirib o'tirmasdan qo'ldan kelgancha islohga harakat qilinadi. Ibn Taymiyya rahimahulloh aytadilar:

"Boshliq kishi xalqning dini va dunyosini islohiga imkon qadar harakat qilar ekan u o'z zamonining eng afzalidandir. Va u Alloh yo‘lidagi eng afzal mujohidlardan bo'ladi" (Fatavo kitobidan)

Demak ana shu maqsadda Shar'iy asoslardan chiqmagan holda siyosiy faoliyat va saylovga aralashiladi. Bunday holatda musulmonlar saylanish va saylashi qay darajada ta'siri borligiga qarab masalaga hukm qo‘yiladi. Bu zamon va makonga qarab o‘zgarishi mumkin.

Odamlar ichida mazlumni himoyasi va haq-huquqini olishga qandaydir nizom kerak. Alloh ta'olo aytadi :

فَٱتَّقُواْ ٱللَّهَ مَا ٱسْتَطَعْتُمْ وَٱسْمَعُواْ وَأَطِيعُواْ

"Allohga qo'lingizdan kelganicha taqvo qiling va (amrini) tinglang va itoat qiling " (Tag'obun.16)

Yana aytadi :

وَأَعِدُّواْ لَهُم مَّا ٱسْتَطَعْتُم مِّن قُوَّةٍ

"Ular uchun qo'lingizdan kelganicha kuch-quvvat tayyorlang " (Anfol. 60)

Demak dushmanga qarshi qo‘ldan kelgancha harakat qilinaveradi.

Va Isloh qo‘ldan kelgancha lozimligi haqida Shuayb alayhissalam so‘zlarini aytadi:

وَمَآ أُرِيدُ أَنْ أُخَالِفَكُمْ إِلَىٰ مَآ أَنْهَىٰكُمْ عَنْهُ إِنْ أُرِيدُ إِلَّا ٱلْإِصْلَٰحَ مَا ٱسْتَطَعْتُ وَمَا تَوْفِيقِىٓ إِلَّا بِٱللَّهِ عَلَيْهِ تَوَكَّلْتُ وَإِلَيْهِ أُنِيبُ

" Men sizlarni o'zim qaytarayotgan narsada o'zim xilof qilmoqchi emasman. Men imkonim boricha isloh qilishdan o'zga hech narsani xohlamasman. Mening muvaffaqiyatim faqat Allohga bog'liq. Ungagina tavakkal qildim. Ungagina qaytaman. " (Hud.88)

Ammo ba'zi ulamolar bu fikrga qarshi chiqib aytadilarki :

"Makka davrida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga ayni shuni (hukumatda sheriklikni) taklif qilishdi, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam qabul qilmadilar -ku?! "

Bu ham bir hisobdan to'g'ri fikr. Lekin Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam eng komil ko‘rinishda Islomga amal qilar edilar. Zarurat holatidagi ruxsatlarga ko‘ra emas. Biz yuqorida aytgan holat esa, ochlikdan o'limtikni yeb jon saqlashga o‘xshaydi.

To‘liq shar'iy siyosatga amal qilish imkon bo‘lmaganda qisman amal qilishga Yusuf alayhissalam siyratlarida misollar ko‘p.

Shuningdek, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam asli kofir jamiyat va hukumatga payg'ambar bo'lib keldilar. Ular qo‘ygan kufriy shartlar bilan ularning ichida islohot qilish imkonsiz edi. Shuning uchun ularning shartlarini qabul qilmadilar. Biz yuqorida ishora qilgan holat esa musulmon xalqlarga din va dunyosini islohi uchun qisman bo'lsa-da hissa qo‘shish. Xalq asliy kofirligi va asliy musulmonligi masalani farqli nuqtasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda bu masalada ikki tomonning ham o‘ziga yarasha dalillari bor. Kim azimat (qat'iy hukmni) olsa, unga ayblov yo‘q!

Ammo hammani o‘zi olgan azimatga majburlab, ruxsatni olganlarni malomat qilishga haqqi yo‘q. (Allohu a'lam)

Endi 117-modda bandlariga qaraylik :

1. "O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi"

Yuqorida aytib o‘tganimizdek bu moddalarda saylash va saylanishda kishilarning na dini na e'tiqodiga rioya qilinmagan.

Bu eng katta xatarlardan. Aytaylik bir yurtda yahudiylar yoki nasroniylar yoxud kommunistlar ovozi g‘olib kelsa, bu modda bo‘yicha o‘shalar g‘olib bo'lishi kerak. Chunki har qanday kishi saylash va saylanish huquqiga ega deyilgan.

Shuning uchun Islomda davlat boshlig‘ini tayinlash bu tarzda olamon fikri bilan hal qilinmaydi.

Umar raziyallohu anhu umrlarini oxirida haj qiladilar. Shunda ba'zilar "Agar Umar o'lsa, men falonchaga bay'at beraman, chunki Umar ham Abu Bakrga (bir o'zi)bay'at bergan ekanku..!" deb yurganini eshitadilar. Ya'ni bu odamning fikricha, har kim o'zicha ovoz berishga haqli ekan! Nega desa Umar ham Abu Bakrga avvalda bir o‘zlari bay'at bergan. So‘ng boshqalardan bay'at olingan..

Shunda Umar bundan jahllari chiqib "Men odamlarga shu kecha (haj mavsumida) xutba qilaman" deydilar.

Lekin sho’ro ahlidan Abdurrahmon ibn Avf : "Ey mo‘minlar amiri! Bunday qilmang ! Chunki hajda cho‘ponlar, har xil befarosat odamlar ham to‘planadi. Ular ichida bu gaplarni gapirsangiz noto'g'ri tushunib gap tarqatadilar. Men o'ylaymanki siz madinaga boring . Madina, sunnat, hijrat va salomatlik diyori. Siz u yerda ahli fiqh va oqil fikrlilar bilan xos o‘tirib o‘shalar bilan bu mavzuni maslahat qiling" dedilar va Umar raziyallohu anhu bu fikrni ma'qulladilar.

Mana shu qissadan ko‘rinib turganidek , davlat boshlig'ini tayinlash kim-ko'ringan odamlarning rayi bilan hal qilinmaydi. Balki xos odamlarning maslahati bilan ish qilinadi.

Shunga binoan taqvodor mo‘min va aqlsiz fosiqlar ovozi teng qilinishi mumkin emas. Alloh ta'olo aytadi :

أَفَمَن كَانَ مُؤْمِنًا كَمَن كَانَ فَاسِقًا لَّا يَسْتَوُۥنَ

Axir, mo'min bo'lgan odam fosiq bo'lgan odamdek bo'ladimi?! Teng bo'lmaslar. (Sajda.18)

Saylov tizimida bu ikki toifa saylash va saylanish huquqiga nafaqat teng, balki, agar fosiqlar ovozi ko‘pchilikni tashkil qilsa ular g'olib ham bo‘ladi !

Shuningdek saylovga nomzodini qo‘ygan kishida mansab talab qilish sifati ham bor. Buni esa Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam qaytarganlar :

انا والله لا نولى هذا الأمر أحدا سأله او حرص عليه.

"Allohga qasam biz bu ishlarni so‘ragan yoki haris bo‘lgan kishilarga topshirmaymiz "

(Buxoriy va muslim)

Ammo Yusuf alayhissalam misr podshohidan talab qilganlariga nima deymiz ? Alloh ta'olo u kishi haqida aytadi :

قَالَ ٱجْعَلْنِى عَلَىٰ خَزَآئِنِ ٱلْأَرْضِ إِنِّى حَفِيظٌ عَلِيمٌ

U: «Meni yerning xazinalari ustiga qo'y. Albatta, men muhofaza qiluvchi va biluvchiman», dedi. (Yusuf.55)

Birinchidan:

U kishidan boshqa bu mansabga yaroqli shaxs y'oq edi.

Ikkinchidan :

U kishi mansabga erishish uchun emas, din yo‘lida talab qildilar.

Bunga o‘xshash istisnoiy holatlar hukmi vaziyatga qarab o‘zgaradi.

2. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda —

dekabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.."

Islomda davlat boshlig‘i vakolat muddati muayyan vaqtga emas, yaroqsizlik holati topilishiga qarab belgilanishini aytib o‘tdik.

Shunda kimdir aytishi mumkin:

"Rahbarlarga bunday uzoq vakolat berish, ularni mustabid qilib yuboradi-ku? Shuning uchun har besh yilda ularni almashtirib turgan yaxshi emasmi ? "

Bu savolga savol bilan javob beramiz:

"Konstitutsiya bo‘yicha har besh yilda saylov o‘tkazish joriy qilingan davlatlar rahbarlari ham baribir o'lgunicha boshliqlikda qolib mustabid bo‘lmayaptimi?!"

Demak, mustabid boshliqlarda muammo insof, Allohdan qo‘rqish yo‘qligida. Ularni uzoq qolishidagina emas. Shuning uchun tarixda qarasak Umar raziyallohu anhu xalifalik muddati o'n yildan oshiq davom etsa-da, hech qanday mustabidlik bo‘lmadi. Ammo Yazid ibn Muoviya xilofoti bor yo'g’i uch yil davom etgan bo‘lsa-da bu muddat ichida tarixning eng qonli sahifalari yozildi. Demak, muammo faqat vaqtda emas. Boshliqni va uning atrofidagilarning salohiyati yo‘qligida ekan.

Ammo hokimlarni o‘rnini almashtirib turish boshqa holat. Ba'zan bir hokim uzoq vaqt bir mintaqada turib qolib, tanish -bilish orttirib adolatsizliklar sodir bo‘lmasligi uchun ularni ma'lum muddatda o‘rnini almashtirib turish vaziyatga qarab ijozat beriladi.

Endi saylov o‘tkazish sanasiga qarasak:

"..dekabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida.."

Islomiy nizomda tarix imkon qadar hijriy sana, qamariy oy bilan belgilanadi.

Shuningdek dam olish kuni ham yahudiy va nasroniylar kuni (shanba va yakshanba) emas, juma kuni bo'ladi.

Endi "..o'n sakkiz yoshga to'lganlar.." saylash huquqiga ega ekaniga qaraylik.

Garchi saylov tizimiga ehtiyojimiz yoʻq boʻlsa-da, Islomda voyaga yetish o'n sakkiz yoshga qaydlanmasligini eslatib oʻtamiz. Bu haqida 45-modda sharhida aytib oʻtdik.

Nima boʻlganda ham davlat boshligʻi tayinlash o'n sakkiz yoshlik oʻg'il-qizlar fikri bilan boʻlmaydi. Ularn o'n sakkiz yoshida musulmonlar armiyasiga boshliq bo'lib rumga gʻazot qilgan Usama ibn Zayd Raziyallohuga qiyoslay olmaymiz Bugun undaylar bo'lsa ham juda ozchilikni tashkil qiladi. Oxirzamon yoshlari, sahobalar yoshlariga taqqoslanmaydi.

3".. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qoʻshma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan soʻng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yoʻli bilan saylanadilar.."

Avval aytib oʻtganimizdek senat a'zolari va boshqa vakilliklar ham saylov bilan emas sho'ro bilan tayinlanadi. Shuningdek ularni tayinlashga bir oy vaqtni qaydlash ham shart emas.

Umar raziyallohu anhu "To'rtinchi kun kelmay musulmonlarga boshliq tayin boʻlsin" deganlaridek bu ishlar ham uch kundan oshiq davom etmasligi kerak.

4. "..Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita cheklashga yoʻl qoʻyilmaydi.."

Demak ularning qonunlariga qarshi chiqqan va jinoyatchi deb e'tiborga olingan shaxslarning ovozi inobatga olinmas ekan.

Islomda ham Allohning qonunlariga qarshi chiqqan fosiq-fojirlar qanchalik koʻp boʻlsa ham ularning ovozi inobatga olinmaydi. Alloh ta'olo aytadi :

قُل لَّا يَسْتَوِى ٱلْخَبِيثُ وَٱلطَّيِّبُ وَلَوْ أَعْجَبَكَ كَثْرَةُ ٱلْخَبِيثِ

"Sen ayt : Agar nopokning ko'pligi seni ajablantirsa ham, pok bilan nopok teng bo'la olmas" (Moida.100)

5. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o‘zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Islomda har qanday shaxs o‘ziga topshirilgan vazifani to‘liq bajara olishi maqsad qilingan. Agar ikki va undan ortiq vazifani bajara olmasa unga ijozat berilmaydi.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

أَحَبُّ الأعمالِ إلى اللهِ أدْومُها و إن قَلَّ

"Allohga amallarning eng suyuklisi oz bo‘lsa-da doim bo‘lganidir" (Buxoriy va Muslim)

Bunday ishlar odamlarning manfaatlariga qarab o‘zgaraveradi.

Imom Shotibiy rahimahulloh aytadilar:

"Shariat qonunlari odamlarga foyda keltirishni qasd qiladi. Shariatda odatiy hukmlar odamlarga foyda keltirishi yoki yo‘qligiga qarab o‘zgaradi. Mu'ayyan ish odamlarga manfa'at keltirsa mumkin deyilsa , qachonki manfa'at keltirmasa nojoizga aylanadi" (Muvafaqot kitobidan)

6. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilikdan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining saylov to‘g‘risidagi hamda referendum to‘g‘risidagi qonunlariga va boshqa qonunlarga amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi komissiya a’zolari orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimi bo‘yicha komissiya majlisida saylanadi.."

Islomda saylov yo‘q ekan bu bandlarda aytilgan "saylov komissiyasi" ga ham ehtiyoj bo‘lmaydi.

Ammo sho’ro majlisi fa'oliyatini nazorat qiluvchi nozir yoki komissiya bo'lishi zarari yo‘q.

Umar raziyallohu anhu o‘zlaridan so‘ng xalifa saylashni sho’ro ahlidan olti kishiga havola qilar ekanlar o‘g‘illari Abdullohni ularga nozir qilganlar. Va Miqdod , Abu Tolha raziyallohu anhumlarga sho’ro ahlini faoliyatini nazorat qilishni buyurdilar. Suhayb raziyallohu anhuni esa vaqtincha Imom qildilar. Shunga binoan saylov komissiyasi o‘rniga sho’ro majlisi noziri yoki komissiyasi tuzilishi mumkin. Ular "saylov va referendum qonunlariga" emas, “ sho’ro qonunlariga" amal qiladi. Ularni tayinlash ham davlat rahbari va sho’ro ahlining tanlovi bilan shar'iy asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi.

7. "..Saylov o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi"

Islomiy nizomda :

"Sho’ro o‘tkazish tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi"

Shunda mana shu oxirgi band yuqoridagi hamma bandlardan bizni behojat qiladi.

Xulosa:

117-modda

"Davlat rahbari va boshqa vakilliklarni tayinlash sho’ro tizimi bilan amalga oshiriladi. Sho’ro ahlini tayinlash va ularning faoliyati tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi. Ularning faoliyatini shar'iyligini nazorat qilish uchun sho’ro komissiyasi tashkil qilinadi"

XXIV bob. Prokuratura

Sharh:

Avvalo prokuratura nimaligini tushunsak shunda Islomiy tizimda bunday mansab tashkil qilish hukmini tushunamiz.

Prokuratura davlatdagi qonuniylikni ta'minlaydigan, jinoyatchilar jazodan qutulib qolishini oldini oladigan bo‘linma. Ular jinoyatchilarni qoralovchi vazifasini bajaradi.

Prokuratura istilohi aslida fransuzlardan kirib kelgan so‘z.

Ammo bunday nizom boshqa nomlar bilan atalsa-da qadimdan Islomda ham qo‘llanib kelingan. Avvalda bunday vazifa qozilik vakolati ostida edi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

البينة على المدعي، واليمين على من أنكر"

"Da'vo qiluvchi hujjat isbot keltiradi, inkor qiluvchi esa qasam ichadi"

Mana shu hadisda, qozi (sudyaning) qarshisida ikki taraf bo‘lishiga ishora bor.

1- Muddaiy (Qoralovchi)

2-Munkir (Jinoyatni inkor qilib oqlovchi)

Faqat bu hadisdagi qoralovchi ham oqlovchi ham umumiy vakillik organi ko’rinishida emas, da'vo ochuvchi va ayblanuvchi shaxslar ko‘rinishida.

Ammo ba'zi o‘rinlarda jinoyatchilarga da'vo ochuvchi mu'ayyan shaxs (jabrlanuvchi) bo‘lmaydi. Shuning uchun ular birovga jinoyat qilmay turib umumiy suratda jinoyatchilarni fosh qiluvchi ularni izlab topib jazolovchi mu'ayyan bo‘linma tashkil qilish lozim. Prokuratura mana shu vazifani bajaradi.

Alloh ta'olo aytadi :

وَلْتَكُن مِّنكُمْ أُمَّةٌ يَدْعُونَ إِلَى ٱلْخَيْرِ وَيَأْمُرُونَ بِٱلْمَعْرُوفِ وَيَنْهَوْنَ عَنِ ٱلْمُنكَرِ وَأُوْلَٰٓئِكَ هُمُ ٱلْمُفْلِحُونَ

Sizlardan yaxshilikka chaqiradigan, amri ma'ruf–nahyi munkar qiladigan bir ummat bo'lsin. Ana o'shalar, o'zlari najot topguvchilardir” (Oli imron. 104)

Yana aytadi:

كُنتُمْ خَيْرَ أُمَّةٍ أُخْرِجَتْ لِلنَّاسِ تَأْمُرُونَ بِٱلْمَعْرُوفِ وَتَنْهَوْنَ عَنِ ٱلْمُنكَرِ وَتُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ

Siz odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat bo'ldingiz. Amri ma'ruf qilasiz, nahyi munkar qilasiz va Allohga iymon keltirasiz. (Oli-Imron.110)

Islomda prokuratura mana shu vazifani bajaradi. Ular butun insoniyatni jinoyat va jinoyatchilikdan to‘sadi.

Shuningdek, Alloh bizni jinoyatchilarni tarafdori bo‘lishdan, ularni himoya qilishdan qaytardi:

إِنَّآ أَنزَلْنَآ إِلَيْكَ ٱلْكِتَٰبَ بِٱلْحَقِّ لِتَحْكُمَ بَيْنَ ٱلنَّاسِ بِمَآ أَرَىٰكَ ٱللَّهُ وَلَا تَكُن لِّلْخَآئِنِينَ خَصِيمًا

Albatta, Biz senga kitobni haq ila odamlar orasida senga Alloh ko'rsatganiga bilan hukm qilishing uchun tushirdik. Sen xoinlarning yonini oluvchi bo'lma! (Niso.105)

Ushbu oyatning nozil bo‘lish sababida aytiladi :

Musulmonlardan bir kishi boshqa bir kishining qurol va sovutlarini o'g'irlaydi. Jinoyatchilar izidan tushilgach ular qo‘rqib o'g'irlangan buyumlarni bir yahudiyni uyiga tashlab qochishadi. Jinoyatchilarni qo'lga olinganda ular jinoyatni be-ayb yahudiyning bo‘yniga qo‘yib yuborishadi. Qurollar uning uyidan chiqqach Rasulullo sollallohu alayhi va sallam ularni jinoyatchi deb e'tiborga oladilar. Shunda yuqoridagi oyatlar nozil bo'lib Rasulullo sollallohu alayhi va sallamga yahudiyning aybsizligini, asli aybdor o‘zini musulmon sanagan kishilar ekanini Alloh bildiradi. Va unday xoinlarni tarafini oluvchi bo‘lishdan qaytaradi. Shundan ko‘rinib

turibdiki jinoyatchilarni aniqlovchi bir guruh bo‘linma bo'lishi lozim ekan. Xususan odamlar ichida xoinlik, insofsizlik tarqagan zamonlarda bunga ehtiyoj ortadi.

Shuningdek Maxzumiyya qabilasidan bir sharafli ayol o'g'irlik qilganda, odamlar Usoma raziyallohu anhuni Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam oldiga yuborishdi. Usoma u ayolni kechirishni so‘rab o'rtakashlik qildilar. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam bundan jahillari chiqib aytdilar :

أَتَشْفَعُ في حَدٍّ مِن حُدُودِ اللَّهِ،

إنَّما أهْلَكَ الَّذِينَ قَبْلَكُمْ، أنَّهُمْ كَانُوا إذَا سَـرَقَ فِيهِمُ الشَّـرِيفُ تَرَكُوهُ، وإذَا سَـرَقَ فِيهِمُ الضَّـعِيفُ أقَامُوا عليه الحَدَّ، وايْمُ اللَّهِ لو أنَّ فَاطِمَةَ بنْتَ مُحَمَّدٍ سَرَقَتْ لَقَطَعْتُ يَدَهَا.

"Sen Allohning hudud (jazolari)dan bir jazoga o'rtakashlik qilasanmi ?Sizlardan avvalgilarni halok qilgan narsa ular ichida sharafli kishi o'g‘irlik qilsa uni tark qilishar, zaif o‘g‘irlik qilsa unga jazo qoim qilishar edi.Allohga qasamki agar Fotima bintu Muhammad o'g'irlik qilsa men uning qo‘lini kesaman " (Imom Buxoriy rivoyati)

Mana bu qissada ham jinoyatchini qoralovchi vazifasiga ishora bor. Hech kim unga jazo qo‘llashni oldini olishga haqqi yo‘q.

Mana shu va boshqa qissalardan ko‘rinib turganidek Prokuratura vazifasi Islomda alohida bo‘linma tarzida ajrab chiqmagan bo'lsa-da qozilik vakolati ichida edi. Islom bunday tashkilotga buyurmadi ham qaytarmadi ham. Islom mutlaqligicha qoldirgan odamlarga manfaati bor bunday ishlar odamlarning foydasi uchun tashkil qilinishi joiz. Bunday ishlarni usul-fiqh ilmida "Masolihul-mursala" ya'ni "Shariat mutlaq qo‘ygan manfaatlar" deb nomlanadi.

Ibn Taymiyya rahimahulloh aytadilar:

"Shariat qonunlari odamlarga foydali ishlarni hosil qilib takomillashtirish va zararli ishlarni esa kamaytirib yo‘q qilish uchun kelgan" (Minhajus-sunnah)

Keyinchalik Abbosiylar asriga kelib bu vazifa qozilikdan ajrab chiqdi. Ulamolardan Ibn Xoldun va Imom Mavridiy rahimahullohlar bu masalada birinchi bo'lib ijtihod qilganlar. Shuningdek Muhammad ibn Hasan Al-farro rahimahulloh "Ahkomus-sultoniyyah" kitobini yozib unda qozidan alohida "muhtasib yoki muhasib" (ya'ni qonuniy hisobchi) nomli vakolat sohibi bo'lishi lozimligini aytib o‘tganlar.

Chunki yuqorida aytib o‘tilganidek qozi faqat o‘zining oldiga kelgan jabrlanuvchi va jinoyatchilar o‘rtasida hukm qiladi. Muhasib esa, jinoyatchilarni izlab topib ularga qarshi hech kim da'vo ochmasa ham ularni jazolaydi. Chunki kasallikni oldini olish uni davolashdan osonroq deganidek, jinoyatlarni ham oldini olish ulardan qoziga shikoyat qilib kelinguniga qadar qarab o‘tirishdan yaxshi. Bunga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam va Xulafoyi roshidinlar siyratlaridan misollar ko‘p.

Masalan Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam bir kuni bozorda yurib bug‘doy sotuvchi oldiga borib bug‘doyga qo‘llarini solib ko‘radilar. Qarasalar bug‘doy nam. Bu nimasi ? deydilar. Shunda sotuvchi "Yomg‘ir tegib qolibdi " deydi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam :

"Unda odamlar shuni ko‘rishi uchun nam bug‘doyni ustiga chiqarib qo‘ysang bo‘lmaydimi?" deydilar. (Muslim rivoyati)

Qissadan ko‘rinib turganidek hech kim shikoyat qilib kelmasdan jinoyatni avvaldan fosh qildilar.

Shuningdek Umar raziyallohu anhu bozorlarda, ko‘chalarda aylanib yurib jinoyatlarni fosh qilganlariga misollar ko‘p. Mana bular hammasi prokuratura vazifasidan.

Islom tarixida bunday nom bilan faoliyat olib borgan vakillik organi ajrab chiqmagani uni shar'iy ko‘rinishda tashkil qilinishini man qilmaydi. Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam davrida bundan boshqa ko‘p ishlar ham yo‘q edi. Lekin zamon ehtiyojiga qarab keyinchalik tashkil qilindi.

Masalan Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonida qamoqxona yo‘q edi, lekin Umar raziyallohu anhu tashkil qildilar. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida alohida qozilik mansabi yo‘q edi. Umar raziyallohu anhu birinchi bo'lib qozixona tashkil qilib shurayhul-qozini bu mansabga tayinladilar.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonida qur'on kitob shaklida yo‘q edi, Usmon raziyallohu anhu uni kitob shaklida chop qildilar.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam davrida hadis, sarf, nahu va boshqa ilmlar ham asosi bo‘lsa-da alohida ilm tarzida ajralib chiqmagan edi. Ammo bularning barchasi keyinchalik alohida bo‘linmalar tarzida ajralib chiqdi.

Xulosa qilib aytganda, shar'iy qonunlar asosida faoliyat olib boruvchi prokuratura organi bo'lishi joiz ekan.

118-modda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

Sharh:

Bu modda yuqoridagi muqaddima orqali tushunarli bo‘ldi deb o‘ylaymiz. Shunga ko‘ra :

Xulosa:

118-modda.

Davlat hududida Islomiy qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

119-modda.

Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Prokurori O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati — besh yil.

Sharh:

1. Yagona markazlashtirilgan tizimga bosh prokuror tayinlanishi va u boshqa prokurorlarni tayinlashi.

Har qanday tizimga boshliq shartligi haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam so‘zlarini aytib o‘tdik :

إذا خرجَ ثلاثةٌ في سفَرٍ فليؤمِّروا أحدَهُم

"Agar uch kishi safarga chiqsalar birlarini o‘zlariga boshliq qilsinlar" (Abu dovud rivoyati)

Shunga binoan Islomiy faoliyat olib boruvchi prokuratura tizimi ham bir boshliqqa bo‘ysunishi shart.

Yuqori organ quyi organlar ustidan nazorat olib borishi esa Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam quyidagi so‘zlari ostiga kiradi:

أَلَا كُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَالْأَمِيرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ، وَهُوَ مَسْـئُولٌ عَنْهُمْ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلِهَا وَوَلَدِهِ، وَهِيَ مَسْـئُولَةٌ عَنْهُمْ، وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ، أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ، وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ) متفق عليه.

"Barchalaring boshqaruvchisizlar va qo‘l ostinglardagi kishilardan mas'ulsizlar. Amir odamlarga bosh va xalqidan mas'ul . Kishi o'z ahliga boshliq va ulardan mas'ul. Ayol erining uyi va farzandlariga bosh va ulardan mas'ul. Va qul ham hojasining moliga boshliq, undan mas'ul. Barchalaring boshliq va qo‘l ostidagilardan mas'uldir" (Buxoriy va muslim)

2. "..Prokurorlar vakolat muddati besh yil"

Avval aytib o‘tganimizdek sud hokimiyati kabi prokuratura hokimiyati a'zolarining vakolat muddatini ham yil bilan emas o'z vazifasiga yaroqlilik holatiga bog‘lansa yaxshiroq.

(112-modda sharhiga qarang)

Xulosa:

119-modda.

Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga Bosh prokuror boshchilik qiladi.

Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi.

Bosh prokurorning, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati ularning o'z vazifalariga shar'iy yaroqliligi bilan belgilanadi.

120-modda.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo‘ysunib amalga oshiradilar.

Prokurorlar o‘z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a’zolikni to‘xtatib turadilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

1. Prokuratura mustaqilligi

Sud hokimiyati mustaqil faoliyat olib borishi lozim bo‘lganidek Prokuratura ham mustaqil holda faoliyat olib borishi kerak. Ular faqat shar'iy qonunlarga bo‘ysunadilar.

(106-modda sharhiga qarang)

2."..Prokurorlar o‘z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a’zolikni to‘xtatib turadilar.."

Islom nizomida bunga amal qilishda ham monelik yo‘q. Bu haqida 88- va 112-moddalar sharhida aytib o‘tdik.

3. "..Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi."

Bunga "Shar'iy qonunlar bilan belgilanadi " degan qaydni qo‘shiladi.

Xulosa :

120-modda.

Prokuratura organlari o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat shar'iy qonunlarga bo‘ysunib amalga oshiradilar.

Prokurorlar o‘z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a’zolikni to‘xtatib turadilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi shar'iy qonunlar bilan belgilanadi.

121-modda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi ta’qiqlanadi.

Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin.

Sharh:

1. "Jinoyatchilarga mustaqil jazo qo‘llovchi jamoat va tashkilotlar ta'qiqlanishi"

Islomiy nizomda ham shar'iy jazolarni faqat davlat boshlig‘i va u tayinlagan shaxslar bajaradi.

Fuqaholar ittifoq qilgan qoida bo‘yicha:

"لا يقيم الحدود الا الامام أو نائبه"

"Shar'iy jazolarni faqat rahbar yoki uning vakili qoim qiladi "

Shuning uchun Alloh ta'olo qur'onda jinoyatchilarga jazo qo‘llash haqida "Darralanglar..Qo'lini kesinglar" deb ko‘plik tarzida gapiradi.

Buning ma'nosi ushbu jazolarni qo‘llash har kimni emas ummat va uning boshlig'ini vazifasi demakdir.

2. "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga fuqarolar yordam ko‘rsatishi"

Islomda har bir musulmon jinoyatchilarga qarshi davlatga yordam berishi kerak. Alloh ta'olo aytadi:

وَتَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡبِرِّ وَٱلتَّقۡوَىٰۖ وَلَا تَعَاوَنُواْ عَلَى ٱلۡإِثۡمِ وَٱلۡعُدۡوَٰنِۚ وَٱتَّقُواْ ٱللَّهَۖ إِنَّ ٱللَّهَ شَدِيدُ ٱلۡعِقَابِ

Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh iqobi shiddatli zotdir. (Moida.2)

Va Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إنَّ النَّاسَ إذا رأَوْا ظالمًا فلم يأخُذوا على يدَيْه أوشك أن يعُمَّهم اللهُ بعقابٍ

"Odamlar zolimni ko‘rib uni qo‘lidan tutmasalar tezda Alloh ularga umumiy jazo yuboradi" (Abu dovud rivoyati)

Shuningdek jinoyatchilarga boshpana berishdan ham qaytarilgan. Bu haqida aytadilar:

" من أحدث حدثا، أو آوى محدثا، فعليه لعنة الله ولعنة اللاعنين والملائكة والناس أجمعين"

"Kim bir yomonlik paydo qilsa, yoki yomonlik paydo qilganga boshpana bersa, unga Allohning, maloikalarning va jamiki odamlarning la'nati bo‘lsin" (Buxoriy va Muslim)

Xulosa:

121-modda.

Shar'iy qonunlar tatbiq qilinadigan davlat hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor- qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi ta’qiqlanadi.

Shari'y asoslarga muvofiq qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin.

XXV bob. Moliya va kredit

122-modda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

O‘zbekistonning Davlat budjeti Respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat.

Sharh:

Islomda moliya tizimi o‘ziga xos tizim. Moliya tizimi ribo (sudxo‘rlik), harom narsalar ishlab chiqarish yoki sotish kabi yomonliklardan xoli bo'lishi kerak.

Bu mavzu qisqa satrlarda to‘liq ifoda qilinadigan masala emas. Shuning uchun umumiy suratda "Islomiy iqtisod" deyish bilan kifoyalanib tafsilotini fiqh kitoblariga havola qilamiz.

Ammo davlat budjeti esa Islomda "Baytul-mol" deb nomlanishini aytib o‘tdik.

Aslida, "Istilohda tortishuv yo‘q". Lekin "Budjet " so‘zi ham o‘zbekcha so‘z emas. Shunga binoan Islomiy istilohlar ishlatilishi yaxshiroq.

Xulosa:

122-modda.

Davlat o‘z moliya va Islomiy iqtisod tizimiga ega.

Baytul-mol davlat mulki va mahalliy yig'imlardan iborat.

123-modda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.

Sharh:

Islomdagi soliq tizimi bugungi soliq tizimlardan farq qiladi. Bu haqida 51-modda sharhida batafsil aytib o‘tdik. (51-moddaga qarang)

Xulosa:

123-modda.

Soliq tizimi shar'iy asoslarga ko‘ra amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat sho’ro majlisi haqli.

124-modda.

O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.

Sharh:

Davlatda Islomiy iqtisodga asoslangan bank tizimi bo‘lishiga monelik yo‘q.

Xulosa:

124-modda.

Islomiy iqtisodga asoslangan bank tizimini Markaziy bank boshqaradi.

XXVI bob. Mudofaa va xavfsizlik

Sharh:

Har qanday davlatni xavfsizligini ta'minlash uchun mudofaa tizimi bo‘lganidek Islomda ham bunday tizim bor.

Islomda shar'iy davlatni himoya qiluvchi armiya "**Mujohidlar**" deb nomlanadi. Ularning fa'oliyati "**Jihod**" esa Islomning eng yuqori cho‘qqisi deyilgan. Bu haqida 52- modda sharhida batafsil aytib o‘tdik .

(52-moddaga qarang)

125-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

Sharh:

Qurolli kuchlar "Mujohid" deb nomlanishi va qatl qilinsalar "shahid" lik maqomiga musharraf bo'lishi uchun ular "Davlat suverinititi" yo‘lida emas, "Allohning kalimasi oliyligi" yo'lida jang qilishi va Allohning shari'atini tatbiq qiluvchi davlatni va uning fuqarolarini qo‘riqlashlari kerak.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘rashdi: Bir kishi millatchilik uchun urishadi, yana biri shijo'atidan urishadi, yana biri o‘zini ko‘rsatib riyokorlik uchun urishadi. Bularning qaysi Alloh yo‘lida (jihod)?

Shunda aytdilar :

(مَن قاتَل لتكونَ كلمةُ اللهِ هي العليا فهو في سبيلِ اللهِ)

"Kimiki Allohning kalimasi oliy bo‘lsin uchun urishsa, ana shu Alloh yo‘lidagi urushdir "

(Buxoriy va muslim)

Hadisdagi " **Allohning kalimasi oliy bo‘lishi"**dan maqsad, Allohning dini hayotga tatbiq bo‘lishidir.

Shunchaki millatchilik uchun jang qilish esa qattiq qaytarilgan. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar:

ومن قاتل تحت رايةٍ عَمِيَّةٍ ، يغضـبُ لعَصَـبِيةٍ ، أو يَدْعُو إلى عَصَـبِيَّةٍ ، أو ينصـرُ عَصَـبِيَّةً ، فقُتِلَ ، فقِتْلَه جاهليةٌ ،

"Kim ko'r-ko'rona bayroq ostida jang qilsa, millatchilik uchun g'azab qilsa yoki millatchilikka chaqirib qatl qilinsa johilona qatl qilinibdi" (Muslim rivoyati)

Shunga binoan, mujohidlar Islom davlatini va unda yashovchi har qanday aholini (musulmon bo‘lsin ahli zimma bo'lsin)xavfsizligini ta'minlaydilar. Davlat suverinititi yo‘lida emas, Allohning kalimasi oliy bo‘lishi yo‘lida jang qiladilar.

Shuningdek Islomda mujohidlar vazifasi faqatgina mudofaa va xavfsizlik emas. Bu Islomiy jihodning bir qismi xolos. Jihodning ikkinchi qismi "Talab jihodi" ham bor.

Unga ko‘ra, Islomga da'vat qilingan kofirlar Islomga kirishlari yoki Islom davlatiga jizya to'lashga rozi bo‘lishlari shart. Aks holda musulmonlar qudratiga qarab ularga urush to‘xtamaydi. Alloh ta'olo aytadi:

وَقَٰتِلُوهُمْ حَتَّىٰ لَا تَكُونَ فِتْنَةٌ وَيَكُونَ ٱلدِّينُ لِلَّهِ فَإِنِ ٱنتَهَوْا۟ فَلَا عُدْوَٰنَ إِلَّا عَلَى ٱلظَّٰلِمِينَ

"Fitna (odamlarni Islomdan to'sish sodir)bo'lmasligi va din Allohga bo'lishi uchun ular bilan jang qiling. Agar to'xtasalar, zolimlardan boshqalarga dushmanlik yo'q." (Baqara.193)

Yana aytadi:

قَٰتِلُوا۟ ٱلَّذِينَ لَا يُؤْمِنُونَ بِٱللَّهِ وَلَا بِٱلْيَوْمِ ٱلْءَاخِرِ وَلَا يُحَرِّمُونَ مَا حَرَّمَ ٱللَّهُ وَرَسُولُهُۥ وَلَا يَدِينُونَ دِينَ ٱلْحَقِّ مِنَ ٱلَّذِينَ أُوتُوا۟ ٱلْكِتَٰبَ حَتَّىٰ يُعْطُوا۟ ٱلْجِزْيَةَ عَن يَدٍ وَهُمْ صَٰغِرُونَ

Allohga va oxirat kuniga iymon keltirmaydiganlarga, Alloh va Uning Rasuli harom qilgan narsalarni harom deb bilmaydigan va haq dinga yurmaydigan kitob berilganlarga qarshi, to ular bo'yinsungan hollarida o'z qo'llari bilan «jizya» bermagunicha, jang qiling. (Tavba.29)

Jizya, g'ayridin kishining Islom himoyasi ostida yashashi, musulmonlar tomonidan taqdim etilgan ommaviy xizmatlardan foydalanishi va boshqa sabablar uchun Islom davlatiga to'lab turiladigan mablag'idir. Jizyani o'z qo'li bilan bo'yinsungan holda beradigan ahli kitoblarga qarshi musulmonlar urishmaydilar.

Ammo bu shartlarga ko'nmaganlarga esa imkoniyat bo‘lganda urush ochiladi. Chunki musulmonlar ularga urishmasa ham ular baribir musulmonlarni tinch qo‘ymaydilar. Alloh ta'olo aytadi:

وَلَا يَزَالُونَ يُقَٰتِلُونَكُمْ حَتَّىٰ يَرُدُّوكُمْ عَن دِينِكُمْ إِنِ ٱسْتَطَٰعُوا۟

Ular agar qodir bo'lsalar, sizlarni diningizdan qaytargunlaricha sizga qarshi urush qilaveradilar. (Baqara.217)

Ba'zilar aytadigan "ularga teginmasang senga teginmaydi" degan gap Islomga nisbatan hech qaysi din vakili amal qilmaydigan asossiz so‘z . Chunki shayton bor ekan u va uning askarlari hech qachon Allohni bandalarini tinch qo‘ymaydilar. Ular musulmonlarga bosib kelgunicha qarab o'tirmaslik uchun musulmonlar ularga (da'vatdan so‘ng)hujum qilishga buyurilganlar.

Aslida urush janjal hech kimga yoqmaydi. Lekin har qanday davlat boshqalar unga o‘ylab muomala qiladigan buyuk davlat bo‘lishi uchun siyosatida hujum bo'lishi kerak. Alloh ta'olo aytadi:

كُتِبَ عَلَيْكُمُ ٱلْقِتَالُ وَهُوَ كُرْهٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تَكْرَهُواْ شَيْـًٔا وَهُوَ خَيْرٌ لَّكُمْ وَعَسَىٰٓ أَن تُحِبُّواْ شَيْـًٔا وَهُوَ شَرٌّ لَّكُمْ وَٱللَّهُ يَعْلَمُ وَأَنتُمْ لَا تَعْلَمُونَ

Sizga yoqmasa ham, jang qilishingiz farz qilindi. Shoyadki yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa. Va shoyadki yoqtirgan narsangiz siz uchun yomon bo'lsa. Alloh biladi, siz bilmaysiz. (Baqara.216)

Chunki hujum qilgan davlat, urush maydonini o‘zining mintaqasidan raqibining mintaqasiga ko‘chiradi. Vayron bo‘lish kerak bo'lsa raqibining yerlari vayron bo'ladi.

Tarixda ham bugun ham buning tasdig'ini ko‘rishingiz mumkin. Islom davlatlari talab jihodini qoim qilganlarida Islom o'lkalari gullab yashnadi, ilm markazlariga aylandi. Bunga Bag‘dod, Misr, Andalus, Samarqand va boshqa o'lkalarni misol qilish mumkin. Ammo qachonki musulmonlar talab jihodini tark qilgach dushman bu o‘lkalarga bosib kelib vayron qildi. Mug'ullar Buxoro , Bag'dod va boshqa o'lkalarni qanday vayron qilgani ma'lum. Shuningdek, Andalus o‘lkasi ham batamom yo‘q qilindi. Talab jihodi tark qilinganda bizning o‘lkalarga ruslar bosqini ortidan kelgan zararlar ham hech kimga sir emas. Buning ortidan bosqinchi ruslar rivojlandi, chunki urush ularning o‘lkalaridan uzoqda bo‘lib ularda ilmi-fan rivojlandi. Yoki g‘arb davlatlari, Britaniya qirolligi, Amerika siyosati ham shu ma'no ustiga qurilgan. Italiya libiyani bosib olganda, libiya italiyaga hujum qilgan emasdi. Fransuzlar Suriyani bosib olganda ham Suriyaliklar fransiyaga hujum qilmagan edi. Ular urush maydonini o'z mintaqasidan dushmanning mintaqasiga ko‘chirish evaziga o'zlarida tinchlikni saqlab, yurtlarini obod qilib, ilm-fanni rivojlantirdilar.

Dushman kelsagina urush qilamiz deb qarab o‘tirgan davlat xor bo‘ladi. Ali raziyallohu anhu aytadilar:

"اغزوهم قبل ان يغزوكم فوالذي نفسي بيده ما غزى قوم فى عقر دارهم الا ذلوا"

"Ular sizga bosib kelishidan avval siz ularga bosib boring. Nafsim qo‘lida bo'lgan zotga qasamki qaysiki qavmga o'z diyorida g‘azot qilinar ekan ular xor bo‘ladi" (Zaxoir kitobidan)

Agar jihod faqat mudofaadan iborat bo‘lganda, talab jihodi yo‘q bo'lganda, biz faxrlanadigan tariximizdagi biror davlat bo‘lmas edi.

Temuriylar faqat mudofaa bilan Anadol, Hind, o'lkalariga yetib keldimi ?

Yoki Usmoniylar faqat mudofaa bilan Istambul va yevropa o'lkalarini fath qilishdimi ?

Yo‘q, Albatta ! Bular hammasiga talab jihodi bilan erishildi.

Xulosa:

125-modda.

Qurolli Kuchlar Allohning qonunlari ustuvorligini va davlatning hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish Islomiy qonunlar bilan belgilanadi.

126-modda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega.

Sharh:

Islomda yetarli darajada dushmanga tayyorgarlik farzi kifoya.

Alloh ta'olo aytadi:

عِدُّواْ لَهُم مَّا ٱسْتَطَعْتُم مِّن قُوَّةٍ وَمِن رِّبَاطِ ٱلْخَيْلِ تُرْهِبُونَ بِهِۦ عَدُوَّ ٱللَّهِ وَعَدُوَّكُمْ وَءَاخَرِينَ مِن دُونِهِمْ لَا تَعْلَمُونَهُمُ ٱللَّهُ يَعْلَمُهُمْ وَمَا تُنفِقُواْ مِن شَىْءٍ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ يُوَفَّ إِلَيْكُمْ وَأَنتُمْ لَا تُظْلَمُونَ

Ular uchun qo'lingizdan kelganicha kuch-quvvat va egarlangan otlarni tayyor qo'yingiz, bu bilan Allohning dushmanini, o'z dushmaningizni va ulardan boshqa o'zingiz bilmaydiganlarni qo'rqitasiz. Ularni Alloh biladir. Alloh yo'lida nimani sarf qilsangiz, sizga to'liq qaytarilur. Sizga zulm qilinmas. (Anfol.60)

Agar dushman xatari kattarib mavjud armiya kifoya qilmasa jangga qodir har bir kishi qo‘liga qurol olishi farzi aynga aylanadi. Umuman olganda, janga qodir har bir musulmon g'azotni ko'nglida tugub yurishi kerak. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

مَن ماتَ ولَمْ يَغْزُ، ولَمْ يُحَدِّثْ به نَفْسَهُ، ماتَ علَى شُعْبَةٍ مِن نِفاقٍ.

"Kim g‘azot qilmay, nafsida g‘azot niyati ham yo‘q bo'lib o'lsa, qisman nifoq ustida o'libdi"

(Muslim rivoyati)

Umuman olganda bu ma'noni yuqoridagi 125-moddadan ham tushunish mumkin. Bu haqida 52-modda sharhida ham aytib o‘tgan edik.

Xulosa:

126-modda.

Davlat o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega.

OLTINCHI BO‘LIM.

KONSTITUTSIYAGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

Sharh:

Avvalo bilish lozimki, Islomda qat'iy o‘zgarmas ahkomlar bor, sabab va illatlarga bog‘langan ahkomlar bor.

Qat'iy ahkomlarga o‘zgartirish kiritishga hech kimni haqqi yo‘q. Chunki Alloh dinini komil qilib bo‘lgan. Alloh ta'olo aytadi:

ٱلْيَوْمَ أَكْمَلْتُ لَكُمْ دِينَكُمْ وَأَتْمَمْتُ عَلَيْكُمْ نِعْمَتِى وَرَضِيتُ لَكُمُ ٱلْإِسْلَٰمَ دِينًا

"Bugungi kunda Men sizning diningizni mukammal qilib berdim. Sizga ne'matimni batamom qildim. Va sizga Islomni din deb rozi bo'ldim" (Moida.3)

Yana aytadi:

وَتَمَّتْ كَلِمَتُ رَبِّكَ صِدْقًا وَعَدْلًا لَّا مُبَدِّلَ لِكَلِمَٰتِهِۦ ۚ وَهُوَ ٱلسَّمِيعُ ٱلْعَلِيمُ

"Robbingning so'zlari (xabarlari)sodiqlik va (qonunlari) adolat ila batamom bo'ldi. Uning so'zlarini o'zgartuvchi yo'q. Va U yaxshi eshitguvchi va yaxshi bilguvchi zotdir." (An'om.115)

Shunga binoan, Alloh va Rasulining hukmi aniq bo'lgan, ijtihodga o‘rin yo‘q masalalarda hech kim uni o'zgartishi mumkin emas. Bunday qilish faqat Allohga yo'liqishga iymoni yo‘q kishilardangina sodir bo'ladi. Ular haqida Alloh ta'olo aytadi:

وَإِذَا تُتْلَىٰ عَلَيْهِمْ ءَايَاتُنَا بَيِّنَٰتٍ قَالَ ٱلَّذِينَ لَا يَرْجُونَ لِقَآءَنَا ٱئْتِ بِقُرْءَانٍ غَيْرِ هَٰذَآ أَوْ بَدِّلْهُ ۚ قُلْ مَا يَكُونُ لِىٓ أَنْ أُبَدِّلَهُۥ مِن تِلْقَآئِ نَفْسِىٓ ۖ إِنْ أَتَّبِعُ إِلَّا مَا يُوحَىٰٓ إِلَىَّ ۖ إِنِّىٓ أَخَافُ إِنْ عَصَيْتُ رَبِّى عَذَابَ يَوْمٍ عَظِيمٍ

Qachonki, ularga ochiq-oydin oyatlarimiz tilovat qilinganida, Bizga yo'liqishdan umidi yo'qlar: «Bundan boshqa Qur'on keltir yoki uni almashtir», dedilar. Sen: «Men o'zimcha uni almashtira olmayman. Men faqat o'zimga vahiy qilingan narsaga ergashaman, xolos. Albatta, men Robbimga osiylik qilsam, ulug' kunning azobidan qo'rqaman», deb ayt. (Yunus.15)

Masalan, Islomda qonunchilik asosi shariat ahkomlari. Bu hukm hech qachon, hech kim tomonidan o‘zgartirilishi mumkin emas.

Shuningdek, odob-axloq tamoyillari ham hech qachon o‘zgarmaydi. Zino, o'g'irlik, nohaq odam o'ldirish kabi gunohlar qiyomatga qadar jinoyat bo‘lib qoladi.

Ammo, shariatda urf-odat, sabab va illatlar(muayyan asoslar)ga bog‘langan ba'zi ahkomlar urf-odat, sabab va illatlar topilishi yoki yo‘qligiga qarab hukmi o'zgaraveradi.

Masalan, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlarida zakotul-fitr arpa, hurmo kabi ozuqalardan chiqarilar edi. Chunki bu ozuqalar ularning urf odatidagi taomlar.

Ammo boshqa urflarda bu ozuqalar taom o'rnida ishlatilmasligi mumkin. O‘shanda har qanday mintaqaning o'z urf-odatidagi ozuqalardan fitr sadaqasi chiqariladi.

Yana bir misol :

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonida bir kishi xotiniga birdaniga uch taloq qo‘ysa ham bir taloq hukmi joriy qilinib ularni yarashtirib qo‘yilar edi. Umar raziyallohu anhu xalifalik davrlarida odamlar taloqni yengil olib arzimas sabablar bilan uch taloq qilish ko‘payib ketgach, ularga mas'uliyatni his qildirish uchun uch taloq degan kishining xotini uch taloq bo'ladi va uni yarashtirib bo'lmaydi deb qonun chiqardilar. Keyinchalik mazhablar ham shunga amal qilib keldi. So‘ng Ibn Taymiyya rahimahulloh bu hukmni yana Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam zamonlaridagi holatga qaytarish kerakligini ko‘tarib chiqdilar. Chunki Umar raziyallohu anhu aytgan sabab yo’qolgan edi.

Yana bir misol:

Islomda o'g'rining qo'li kesiladi. Lekin Umar raziyallohu anhu xalifalik davrida ocharchilik yillarida o'g'rini qo‘lini kesishni tark qilganlar. Chunki odamlar ochlikdan o'g'irlikka qo'l urgan bo'lishi shubhasi bor edi. Avval ularga farovon hayotni muhayyo qilib, keyin jazo beriladi.

Yana bir misol :

Islomda yangi dinga kirgan yoki dinga qiziqishi bor kishilarni qalbini moil qilish uchun ularga zakot berish joiz. Ammo Umar raziyallohu anhu xalifalik davrlarida, Islomga quvvat kirgach, bu targ'ibotsiz ham Islom davlati haybatidan odamlar dinga kira boshladi. Shunda Umar raziyallohu anhu "Qalblarni moil qilish" yo‘lida zakot berilishini tark qilganlar. Chunki ushbu hukm illatga (muayyan asosga) bog‘langan bo‘lib, o‘sha asos yo‘qolgach hukm ham o'zgaradi.

Aslida, ehtiyojga qarab qonunlar qo‘shilishi, ehtiyoj yo‘qligida ba'zi qonunlarni olib tashlanishi Qur'on nozil bo‘lishida ham rioya qilindi. Qur'onda "Nasx" ya'ni hukmi bekor bo‘lgan ko‘plab oyatlar bor.

Shuningdek ba'zan bir oyat ehtiyojga ko‘ra bir qismi nozil bo'lib, qo‘shimcha ehtiyoj bo‘lsa qolgan qismi nozil bo'lishi ham uchrab turar edi. Bunga bir misol:

Baro raziyallohu anhu aytadilar: Qur'onda :

"لا يستوى القاعدون من المؤمنين والمجاهدون في سبيل الله "

"Mo‘minlardan jangdan qolib o‘tirganlar va Alloh yo‘lida mujohid bo‘lganlari teng bo‘lmas "(Niso.95) oyati nozil bo‘ldi. Shunda ko‘zi ojiz sahobiy Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga ko‘zi ojizligidan shikoyat qildi. (Ya'ni, ular nima qilishi kerak ? Ko‘zi ojiz bo'lib qanday jihod qilsin?!) Shunda oyatning qo‘shimcha qismi nozil bo‘ldi:

"غير أولى الضرر"

"Beshikast (uzrsiz)" bo'lib jangga bormaganlar deb to‘ldirildi. (Buxoriy rivoyati)

Shunga ko‘ra oyatning to‘liq ko‘rinishi quyidagicha :

لَّا يَسْتَوِى ٱلْقَٰعِدُونَ مِنَ ٱلْمُؤْمِنِينَ غَيْرُ أُوْلِى ٱلضَّرَرِ وَٱلْمُجَٰهِدُونَ فِى سَبِيلِ ٱللَّهِ بِأَمْوَٰلِهِمْ وَأَنفُسِهِمْ

Mo'minlardan beshikast bo'la turib o'tirib qolganlari bilan Allohning yo'lida mollari va jonlari ila jihod qiluvchilari barobar bo'lmaslar. (Niso.95)

Allohning kalomi Allohning ilmidan nozil bo‘lgan. Uning ilmi esa azaliydir. Alloh avval bilmay, keyin bilib qoldi deyilmaydi. Lekin ehtiyojga qarab hukm nozil qiladi.

Bu bilan kim xohlasa "ehtiyoj yo‘q " degan da'vo bilan qur'onni istagan yerini olib tashlasin demoqchi emasmiz. Balki, hamma narsani avvaldan bilgan Alloh ta'olo ehtiyojga qarab ahkomlar nozil qilgan ekan, bilimsiz banda ilmi rivojlanishiga ko‘ra ijtihodiy masalalarda shariy asoslarga tayanib yangi qonunlar, qo‘shimchalar qo‘shishi, eski qonunlardagi kamchiliklarni to'ldirishi, ba'zi qismlarini olib tashlashi, albatta to'g'ri bo'ladi. Faqat nimalarni olib tashlash, nimalarni qo‘shish kishidan shar'iy ilm talab qiladi. Bunday vazifani shari'atni chuqur bilgan kishilarga

topshirilishi kerak. Shuning uchun katta mujtahid imomlar siyratida ko‘p fatvolarini o'zgartirishlarini topamiz.

Masalan Imom Shofe'iy rahimahullohning "Eski va yangi" mazhablari bor edi. Yangi mazahblarida eski mazhablaridagi o‘nlab fatvolarini o'zgartirganlar. Bunga ilmiy rivojlanish, ba'zi ahkomlarda odamlarning urf odat, ehtiyojlari o'zgarishi sabab bo‘lgan.

Shuningdek Imom Ahmadni ham bir masalada o‘nlab fatvolari naql qilingan. U kishi ham o‘zlariga yetib kelgan hadislarga ko‘ra fatvolarini o‘zgartirar edilar.

To‘rt mazhab imomlarining hammasidan naql qilingan so‘zda aytishadi :

اذا صح الحديث فهو مذهبي

"Agar hadis sahih bo‘lsa o‘sha mening mazhabimdir"

Ya'ni, sahih hadisni eshitishsa, o‘shanga ko‘ra eski fatvosini o'zgartirib yangi fatvo berar edilar.

Shuning uchun, asoslar va qat'iy hukmlarga tajovuz qilmasdan, ijtihodiy juz'iy qonunlarga ulamolar tarafidan o‘zgartirish kiritish joiz bo'ladi.

127-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi.

Sharh:

Islomiy nizomda oliy majlis a'zolari ulamolar hay'atidan iborat bo‘lishini va ularning faoliyati ovozga qarab emas, balki sho’ro bilan bo‘lishini aytib o‘tdik. Unga ko‘ra, qaysi tarafning dalili shar'iy asoslarga yaqinroq bo'lsa o‘sha tarafning gapi ustun bo'ladi. Ikki tomonda ham qat'iy dalillar bo‘lmaganda shundagina ko'pchilik

taraf "Jamoat" e'tiboridan ustun bo'ladi. Demak, har qanday qonunga o‘zgartirish kiritish ushbu asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi.

(Batafsil ma'lumot uchun 117- modda sharhiga qarang)

Xulosa:

127-modda.

Konstitusiyaga va boshqa har qanday qonunlarga o‘zgartirish kiritish sho’ro majlisi tomonidan shar'iy asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi.

128-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to‘g‘risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o‘tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

Sharh:

Shariatda "Bayonot hojat vaqtidan kechiktirilishi mumkin emas" degan qoida bor. Shunga binoan, agar o‘zgartirish kiritilishi kerak bo‘lgan qonunlar odamlarning ehtiyoji bor masalalar bo'lsa, ularni olti oy yoki bir yil kechiktirish nojoiz. Ularni hojatga qarab imkon qadar tez fursatda odamlarga tatbiq qilish zarur bo'ladi.

Endi oliy majlis o‘zgartirish kiritilishi haqidagi taklifni rad etish masalasiga qaraylik.

Agar o‘zgartirish kiritishni talab qiluvchilar qat'iy shar'iy dalillar keltira olmasalar oliy majlis ularning taklifini rad qiladi. Bunga bir misol :

Shari'atda taloq qilingan ayolni iddasi tugaguncha nafaqa va turar joy bilan ta'minlash erining vazifasi. (Bu hukm taloq surasining 6-7-oyatlarida bayon qilingan)

Bu hukm zohiridan bir taloq yoki uch taloq bo‘lgan har qanday ayollarga umumiydir. Ammo Fotima bintu Qoys raziyallohu anho aytishlaricha, u ayol eridan uch taloq olganlarida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam unga :" **Eringning zimmasida senga nafaqa yo‘q** " degan ekanlar. Bu gap Umar raziyallohu anhuga yetib borganda aytdilar :

ما كنَّا لندَعَ كتابَ ربّنا وسنَّةَ نبيّنا لقولِ امرأةٍ لا ندري أحفِظَت أم نسِيَتْ

"Biz unutgan yoki yodlaganini bilmaydigan bir ayolning gapini deb Robbimizning kitobi va Payg‘ambarimizning sunnatini tark qilmaymiz!" (Muslim rivoyati)

Ushbu qissadan ko‘rinib turganidek, Allohning kitobi va Rasulining sunnatiga binoan amal qilib kelingan qonunlar bir ikki kishining gapini deb o‘zgarib ketavermaydi. O'zgartirish qoniriqarli shar'iy asoslar bilan isbotlanishi shart ekan.

Xulosa :

128-modda.

Konstitutsiya va qonunlarga o‘zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish odamlar ehtiyoji tushishiga qarab shari'y asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Konstitutsiya va boshqa qonunlarga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi takliflar shar'iy asoslar bilan isbotlanmagan taqdirda sho’ro majlisi ulamolari ularni rad etilishga haqlidir.

Xotima :

Allohning madadi bilan konstitutsiyaning 128 moddasiga shariat qonunlari asosida izoh berib chiqdik.

Bu bilan butun ummat uchun lozim dastur taqdim etdik deya olmaymiz, albatta. Lekin har holda umumiy tushunchalar berib o‘tdik.

Maqsadimiz hozirgi zamonda "Minbar Allohniki, taxt podshohniki" kabi botil tushunchalar odamlar zehniga o'rnab qolgan paytda, Islom batamom nizom

ekanini, uning qonunlari faqat masjid, tahorat ahkomlari emas, har qanday siyosiy masalalarga dinda yechim borligini dalillar bilan odamlarga taqdim qilish edi.

Konstitusiyada zikr qilinmagan boshqa Islomiy nizomlarga esa kodekslar sharhida batafsil to‘xtalib o‘tamiz in sha Alloh.

Alloh ta'olo aytadi :

وَلَا يَأْتُونَكَ بِمَثَلٍ إِلَّا جِئْنَاكَ بِالْحَقِّ وَأَحْسَنَ تَفْسِيرًا

Ular senga biror masal keltirsalar, Biz, albatta, senga haqni va go'zal sharhini keltiramiz. (AL-Furqon.33)

Shunga binoan, konstitutsiya va kodekslardagi har qanday qonun, qaror, farmon va farmoyishlarga Islomdan eng go‘zal misolini haq ila keltirib o‘tamiz in sha Alloh.

Ushbu kitobda nima'iki to'g'rilik bo'lsa, Allohdan. Nima'iki xatolik bo‘lsa, muallif nafsi va shaytondan. Alloh va Rasuli undan pokdir !

سبحَانَكَ اللَّهُمَّ وَبِحَمْدِكَ أَشْهَدُ أَنْ لا إِلهَ إِلاَّ انْتَ أَسْتَغْفِرُكَ وَأَتُوبُ إِلَيْكَ.

الله أعلى و أعلم.

(Alloh oliy va o‘zi yaxshi biluvchidir)

(Allohning fazli ila kitob nihoyasiga yetdi)

MUNDARIJA

So‘z boshi..... 2
Muqaddima.....10

BIRINCHI BO‘LIM
Asosiy prinsiplar
I bob
Davlat suvereniteti

1-modda sharhi.....11
2-modda sharhi 13
3-modda sharhi 16
4-modda sharhi 18
5-modda sharhi 21
6-modda sharhi 22

II bob
Xalq hokimiyatchiligi

7-modda sharhi 24
8-modda sharhi 29
9-modda sharhi 29
10-modda shahri 31
11-modda sharhi 33
12-modda sharhi 35
13-modda sharhi 37
14-modda sharhi 41

III bob
Konstitutsiya va qonunning ustunligi

15-modda sharhi 42
16-modda sharhi 45

IV bob. Tashqi siyosat

17-modda sharhi 46

IKKINCHI BO‘LIM
Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.
V bob. Umumiy qoidalar

18-modda sharhi 50
19-modda sharhi 58
20-modda sharhi 60

VI bob
Fuqarolik

21-modda sharhi 61
22-modda sharhi 64
23-modda sharhi 65

VII bob
Shaxsiy huquq va erkinliklar

24-modda sharhi 67
25-modda sharhi 69
26-modda sharhi 71
27-modda sharhi 75
28-modda sharhi 81

29-modda sharhi 82
30-modda sharhi 88
31-modda sharhi 89

VIII bob
Siyosiy huquqlar

32-modda sharhi 93
33-modda sharhi 99
34-modda sharhi 103
35-modda sharhi 107

IX bob
Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

36-modda sharhi 109
37-modda sharhi 112
38-modda sharhi 116
39-modda sharhi 118
40-modda sharhi 120
41-modda sharhi 122
42-modda sharhi 124

X bob
Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

43-modda sharhi 126
44-modda sharhi 127
45-modda sharhi 129
46-modda sharhi 131

XI bob
Fuqarolarning burchlari

47-modda sharhi 136
48-modda sharhi 137
49-modda sharhi 140
50-modda sharhi 143
51-modda sharhi 146
52-modda sharhi 148

UCHUNCHI BO‘LIM
Jamiyat va shaxs
XII bob
Jamiyatning iqtisodiy negizlari

53-modda sharhi 154
54-modda sharhi 161
55-modda sharhi 164

XIII bob
Jamoat birlashmalari

56-modda sharhi.....165
57-modda sharhi.....168
58-modda sharhi.....180
59-modda sharhi.....182
60-modda sharhi.....182
61-modda sharhi.....183
62-modda sharhi.....187

XIV bob
Oila

63-modda sharhi.....187

64-modda sharhi.....191
65-modda sharhi.....197
66-modda sharhi.....199

XV bob
Ommaviy axborot vositalari

67-modda sharhi 202

TO‘RTINCHI BO‘LIM
Ma’muriy hududiy va davlat tuzilishi

XVI bob
O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi

68-modda sharhi 210
69-modda sharhi.....212

XVII bob

Qoraqalpog‘iston Respublikasi.....213
70-modda sharhi 214
71-modda sharhi 215
72-modda sharhi 216
73-modda sharhi 216
74-modda sharhi 217
75-modda sharhi 218

BESHINCHI BO‘LIM
Davlat hokimiyatining tashkil etilishi

XVIII bob
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

76-modda sharhi 219

77-modda sharhi 233
78-modda sharhi 242
79-modda sharhi 254
80-modda sharhi 255
81-modda sharhi 261
82-modda sharhi 267
83-modda sharhi 269
84-modda sharhi 270
85-modda sharhi 277
86-modda sharhi 280
87-modda sharhi 282
88-modda sharhi 283

XIX bob
O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti

89-modda sharhi 286
90-modda sharhi 287
91-modda sharhi 293
92-modda sharhi 295
93-modda sharhi 298
94-modda sharhi 312
95-modda sharhi 313
96-modda sharhi 315
97-modda sharhi 316

XX bob
Vazirlar Mahkamasi

98-modda sharhi 317

XXI bob
Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

99-modda sharhi 329

100-modda sharhi 330
101-modda sharhi 333
102-modda sharhi 335
103-modda sharhi 337
104-modda sharhi 340
105-modda sharhi 341

XXII bob

O‘zbekiston Respublikasining sud hokimyati.....342
106-modda sharhi 344
107-modda sharhi 344
108-modda sharhi 346
109-modda sharhi 347
110-modda sharhi 351
111-modda sharhi 353
112-modda sharhi 354
113-modda sharhi 356
114-modda sharhi 357
115-modda sharhi 357
116-modda sharhi 359

XXIII bob
Saylov tizimi

117-modda sharhi 362

XXIV bob

Prokuratura.....379
118-modda sharhi.....383
119-modda sharhi 383
120-modda sharhi 385
121-modda sharhi 386

XXV bob
Moliya va kredit

122-modda sharhi 388
123-modda sharhi 389
124-modda sharhi 390

XXVI bob
Mudofaa va xavfsizlik

125-modda sharhi 390
126-modda sharhi 394

OLTINCHI BO‘LIM

Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi.....395
127-modda sharhi 399
128-modda sharhi 400
Xotima 401

“Zaytun nashriyoti”da chop etilgan kitoblar









QAYDLAR UCHUN

“Zaytun nashriyoti”